

**Buriyeva Kibrio Ergashevna,
Meyliyeva Mutabar Sayfullayevna,
Mirkosimova Xulkar Mirobidovna,
Ernazarova Munisxon Juraqulovna**

YURIDIK PSIXOLOGIYA

DARSLIK

(60110100 - Pedagogika va psixologiya)

Toshkent
«ZEBO PRINT»
2025

UO‘K 159.9;37.015.3

KBK 88.5;74

Buriyeva K.E., Meyliyeva M.S., Mirkosimova X.M., Ernazarova M.J.. Yuridik psixologiya. Darslik.. – T.: “ZEBO PRINT”, 2025. 238 b.

Ushbu darslik 60110100 - Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, oilaning ijtimoiy tarixiy kelib chiqishi, oilada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar haqida bilishi; oilaning mustahkamligini ta'minlovchi bilim va malakalarga ega bo'lishi; oilaviy hayotni o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslangan tarzda talqin eta olishi; muammoli vaziyalardan psixologik jihatdan oqilona (oila va uning mustahkamligiga ta'sir etmagan holda) chiqa olishi; oilani o'rganuvchi psixologik tashxis metodikalari bilan ishlash va ular yordamida olinadigan natijalami to‘g‘ri talqin eta olishi kerak.

Taqrizchilar:

O.U.Avlayev – *ChDPU, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

R.M.Abdullayeva – *TDPU, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 1-avgustdagi 277-sonli buyrug‘i asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-747-79-1

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur.” , deb ta’kidlab o‘tganlar.

Huquqni himoya qilish qonunchiligi va uni amalda qo‘llash sohaları psixologiyaga oid keng qamrovli tadqiqotlar mavzusi bo‘lib hisoblanadi. Davlat va jamiyatning huquqiy asoslarini mustahkamlash, huquqbuzarlik va jinoyatlarnig oldini olish hamda ularga qarshi kurash samaradirligini oshirishda psixologiya fani, jumladan, huquqiy psixologiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda malakali mutaxassisni tayyorlashning o‘zi muhim jarayon bo‘lishi bilan birga u mazkur jarayonni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan samarali, muvaffaqiyatli tashkil etishda psixologiya fani oldiga muhim vazifalarni qo‘yadi. Shu sababli eng avvalo, zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirilgan jarayonni to‘g‘ri tashkil eta biladigan, uni yuksak maxorat bilan boshqarilishini ta’minlay oladigan malakali kadrlarni tayyorlash ijtimoiy isloxoatlarning samarali kechishi, O‘zbekistonning barcha sohalarida jahonning yetakchi davlatlari bilan tenglasha olishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ilmiy psixologiya mustaqil fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida shakllandi va XX asr davomida rivojlanishning katta yo‘lini bosib o‘tdi. U ilmiy bilimlarning tan olingan sohalaridan biriga aylandi. Zamonaviy o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish murakkab, mas’uliyatli jarayon bo‘lib, fanlar, jumladan, huquqiy sohada ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, komil inson, malakali mutaxassisni tayyorlash borasidagi ijtimoiy ehtiyoj hamda shaxs kamolotida muhim ahamiyat kasb etadigan ustuvor tamoyillarni inobatga olish zarur.

Fanning asosiy maqsadi psixologiya va xuquq o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sohasi haqida asosiy g'oyalarni shakllantirish, xuquqiy psixologiyaning tuzilishi va asosiy mazmunini, uning asosiy tushuncha va usullarini ochib berishdan iborat.

Fanning vazifasi quyidagilardan iborat:

- fanning asosiy tushunchalari bilan tanishtirish;
- kursning konseptual apparatini tahlil qilish;
- psixologik qonuniyatlar va xuquqiy ongni shakllantirish mexanizmlari va uning deformatsiyasini o'rganish;
- xuquqni muhofaza qilish va tuzatish faoliyatining psixologik asoslarini o'rganish;
- tergov harakatlari, sud-psixologik ekspertizasi va jazo muassasalarida jazoni o'tash jarayonida shaxsni o'rganish usullarini tahlil qilish;
- psixologik madaniyatni shakllantirish shartlari va uning kasbiy ahamiyatli shaxsiyat xususiyatlarini rivojlantirishdagi roli haqidagi bilimlar bilan qurollantirish;
- xuquqiy davlat boshqaruvi organlari faoliyat ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy, xuquqiy muhitni tahlil qilish.

1 - MAVZU: YURIDIK PSIXOLOGIYANING UMUMIY VAZIFALARI. XUQUQIY PSIXOLOGIYANING PREDMETI, TUZILISHI VA METODOLOGIYASI.

Reja:

1. Yuridik psixologiyaning predmeti.
2. Yuridik psixologiyaning fan sifatida shakllanishi.
3. Yuridik psixologiyaning tarmoqlari.
4. Yuridik psixologiyaning metodlari.
5. Yuridik psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rnini.

Tayanch tushunchalar:

Psixologiya – ruhiyotni, ruhiy jarayon, holat, xususiyat, faoliyatni o'rganuvchi fan

Yuridik psixologiya – xuquqshunoslik sohasini tadqiq qiluvchi fan

Advokat psixologiyasi – advokatlarning ruhiy jarayonlarini o'rganuvchi soha

Tergovchi psixologiyasi– tergovchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganuvchi soha

Tajovuzkorlik – bu muayyan ob'yektga yoki odamga zarar yetkazishni maqsad qilgan xulqat

Penitensiar psixologiyasi - jinoytchilarni qayta tarbiyalash psixologiyasi

1. Yuridik psixologiyaning predmeti.

Mazkur kursni o'rganish davomida bo'lqusi mutaxassislar yuridik fanning mazmuni, tarkibi bo'yicha tasavvurga ega bo'lishlari, bo'lqusi mutaxassislarni tergov faoliyatining psixologik jihatlari, shaxsni uyushgan jinoyatchilik va jinoiy guruhlarini zamonaviy usullar orqali tahlil qila olish bilimlari bilan qurollantirish ko'zda tutilgan.

Yuridik psixologiya – ilmiy pedagogik fan bo'lib hisoblanib, —inson-huquqi tizimidagi psixologik qonuniyat va

tamoyillarni o'rganishga va bu tizimning samaradorligini oshirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qiladi.

Yuridik psixologiya - sud ishlarini yurgizish jarayonda, shaxsning xulq-atvorini maxsus o'rganishda yuristprudensiya sohasida kerakli va muhim bo'lgan amaliy vazifalarni yechishga yordam beradi.

Yuridik psixologiyaning predmetini inson psixikasi tashkil etadi. Psixika – bu inson ruhiyatining shunday holatiki u tashqi va ichki olamni ongli ravishda aks ettirishimiz va anglashimizni ta'minlaydi. Yuridik psixologiya fanida psixologiya va yuridik bilimlar bir butunlikni tashkil qiladi va ular bir-birlari bilan uzviy bog'liq. Yuridik psixologiya predmeti tarkibiga quyidagi tushunchalar kiradi:

psixologik: yuridik:

- | | |
|--------------|--------------------------------------|
| -jarayon; | -faoliyatga moyilligi; |
| -holat; | -huquqiy moyilligi; |
| -hodisa; | -delikto moyilligi; |
| -faoliyat; | -aqliylikka moyilligi; |
| -shaxs; | -motiv; |
| -qo'llash; | -ayblanish; |
| -xulq-atvor; | - qasddan harakat qilish
kabilar. |

Yuridik psixologiyaning predmeti – yaxlit tarzdagidavlat huquqiy voqeligining psixologiyasi bo'lib, psixologik omillarni huquqiy omillardan yaqqol ajratib bo'lmaydi, faqat doimiy harakatda, rivojlanishda, o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'lgan yuridik psixologiyaning quyi tizimlarini alohida olib qarash mumkin.

Kursning asosiy maqsadi xuquq yo'nalishidagi vazifalarni hal etishda bo'lqusi mutaxassislarni yuridik– psixologik tayyorgarligini yaxshilashdan iborat. Yuridik psixologiya fanini egallash uchun quyidagilarga e'tiborni qaratish muhimdir:

- bo'lqusi xuquqshunos mutaxassislarni professional psixologik bilimlar bilan qurollantirish;
- kasbiy vazifalarni hal etishda olingan nazariy bilimlardan

mohirona foydalanish va ularni hayotga, amaliyotga tadbiq etish;

- xuquq mutaxassisligiga xos zamonaviy kasbiy zarur bo'lgan fazilatlarni har tomonlama shakllantirish;

- xuquq yo'nalishida ta'lim olayotgan bo'lqusi mutaxassislarga kerakli kasbiy qobiliyatlarni har tomonlama rivojlantirish;

- kasbiy sezgirlik, xotira, tafakkur, fuqarolar bilan muloqotda bo'lish va psixologik aloqa o'rnatish mahoratiga ega bo'lishdan iborat.

Fanning asosiy maqsadi jinoyatchilikning oldini olish, uni tugatish, fuqarolarga xuquqiy bilimlar berish asosida fanni rivojlantirish. Agar har bir fuqaro o'z haq - xuquqini bilsa, dunyoqarashi keng bo'lsa, tarbiyalangan bo'lsagina jinoyatchilik kamayadi hamda uning oldi olinadi.

Yuridik psixologiya o'z oldiga bir necha vazifalarni belgilab olgan. Bular quyidagilardir:

- jinoyatchilikning oldini olish;

- jinoyatchilikni batamom tugatish;

- yuridik shaxslar o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirish;

- fuqarolarning xuquqiy bilimdonligini rivojlantirish;

- inson omilini birinchi o'ringa olib chiqish.

Yuqoridagi vazifalar asosida ish olib borilsa respublikamizni rivojlangan davlatlar qatoriga yanada tezroq olib chiqish mumkin.

2. Yuridik psixologiyaning fan sifatida shakllanishi.

Yuridik psixologiyaning muqaddimasi qadimgi dunyoga borib taqaladi. Antik dunyoda ham, o'rta asrlarda ham ayblov jarayonida ayblanuvchining shaxsiy iqrorigi asosiy dalil-isbot bo'lib hisoblanardi. Bu iqrornoma-dalilni qo'lga kiritish uchun istalgan usullar, jumladan, jismoniy va ma'naviy azob qo'llanilardi. Umumlashtirilgan g'ayri tabiiy holatlar, maishiy psixologiya ma'naviy qiynoqning asosi edi.

Asrimizning 30 - yillari psixologiya pedagogikaga bo'sundirilgan bo'lib, bu xol 30 yil davom etdi. Faqat 1969-yillarga

kelib, bu sohaga nisbatan nuqtai nazarlar o'zgardi. Ijtimoiy fanlar - psixologiya va sotsiologiyani rivojlantirish zarurati tug'ildi. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng huquqshunoslik fanini taraqqiy ettirish uchun keng ufqlar ochildi.

—Yuridik psixologiya – huquq doirasidagi munosabatlar odamlarning psixik faoliyatini huquqiy boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Eksperimental psixologiya ta'siri ostida XX asrning boshlarida yuridik psixologiya sohasida ilk laboratoriya tadqiqotlari o'tkazilgan. Bu tadqiqotchilar guvohlarning ko'rsatmalarini va so'roq olib borish asoslarini o'rganishni maqsad qilib qo'ygan edilar. Yuridik psixolog sifatida yozuvchi A.K.Doylning qahramoni Sherlok Xolmsni atash mumkin. Yuridik psixologiya bo'yicha tadqiqot ishlari o'sha vaqtlarda G.Gross, K.Marbe, V.Shtern, K.Yung va boshqa psixologlar tomonidan olib borilgan. Keyinchalik yuridik psixologiyaning o'ziga xos tadqiqot yo'nalishlari vujudga keldi: jinoyatchilar shaxsini tadqiq qilish, guvohlik ko'rsatuvchilar ko'rsatmalarini tekshirish, sud psixologiyasi ekspertizasining nazariy va amaliy tomonlari ishlab chiqilgan. Yuridik psixologiya umumiy psixologiyaning metodlari va o'ziga xos ularning shakllarini qo'llaydi. Hozirgi zamonda uning bir qancha bilimlari mavjuddir: kriminal psixologiya, sud psixologiyasi, jinoytchilarni qayta tarbiyalash psixologiyasi, ya'ni penitensiar psixologiyasi yoki axloq tuzatish mehnat psixologiyasi kabilar.

Davlat va jamiyatning xuquqiy asoslarini mustahkamlash, xuquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish hamda ularga qarshi kurash samaradorligini oshirishda xuquqiy psixologiya muhim kasb etadi. Psixologiya bilimlarini har tomonlama chuqur egallash, ko'nikmalar hosil qilish xuquqshunosning yuksak muomala madaniyatini ta'minlaydi. Psixologik madaniyat xuquqshunoslik faoliyati samarasini oshiribgina qolmay, uning insonparvarlik mohiyatini ham namoyon etadi. Yuridik psixologiya fan sifatida yuz yildan avval tarkib topib rivojlana boshladi. Kriminalistika va kriminologiya bilan boqliq yo'nalishda yuridik psixologiya

nisbatan mukammal taraqqiy etgan bo'lib, bu tezkor-qidiruv va tergov faoliyatida psixologik bilimlarni qo'llash, shuningdek, sodir etilgan jinoyatning determinantini (aniqlovchisi) aniqlash, assotsial xatti-harakatlarning oldini olishda psixologiya metodlarini qo'llash bilan boqliqdir. Ilm-fan, turmushning barcha sohalarida xuquqiy masalalarni hal qilishda yuridik psixologiya fanini rivojlantirish muhimdir. Kishilar bilan ishlay olish xuquqshunos ishining asosini tashkil qiladi. Bu bir qator o'zaro boqliq omillarni: kishilarning fe'l-atvorini o'rganish, baholash, ular bilan psixologik aloqa o'rnatish va bu aloqani mustahkamlash, ularga ta'sir o'tkazish, tarbiyalash kabilarni qamrab oladi. Xuquqshunosning psixologik madaniyati xuquq – tartibot idoralari barcha xodimlaridan psixologik bilimlar majmuini, shuningdek, ko'nikma va uslublarni egallashni talab etadi, bu yuksak muomala madaniyatini shakllantiradi. Psixologiyani puxta egallagan tergovchi suhbatdoshining qiyofasi, oddiy kishi nazariga tushmaydigan, ikir-chikirdek tuyulgan odatlari, so'zlash ohangi, o'zini tutishi kabilarga qarab ichki dunyosiga, ma'naviyatiga baho bera oladi va suhbatni shunday tashkil qiladiki, natijada o'zaro ishonch, psixologik muloqot o'rnatishga muvaffaq bo'ladi. Bu psixologik bilimlar xuquqshunoslik faoliyati samaradorligini oshishiga olib keladi. Nazariyotchi va amaliyotchi olim A.F. Koni yuridik psixologiyani rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shdi. U guvohlar va jabrlanuvchilarning psixologiyasini, ko'rsatmalarini o'rganishga juda katta e'tibor berdi. SHuningdek, sudya kursisini egallash uchun tazyiq, iltimos, tevaragidagilarning ijtimoiy fikr niqobidagi ijtimoiy hissiyotlarning ta'siriga tura oladigan irodaga ega bo'lish zarurligini e'tirof etdi. O'tgan asrning 69-yillariga kelib, bu sohaga nisbatan nuqtai-nazarlar o'zgardi. YUrtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng yuridik psixologiya fanini taraqqiy ettirish uchun keng ufqlar ochildi. Bu fan o'z taraqqiyotining shartli ravishda yangi bosqichiga ko'tarildi.

3. Yuridik psixologiyaning tarmoqlari.

Yuridik psixologiya psixologiyaning faoliyat mezonini bo'yicha ajratilgan sohalaridan biridir. Bu fan xorijda juda keng rivojlangan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng bizning mamlakatimizda ham psixologiyaga, jumladan, yuridik psixologiyaga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Yuridik psixologiya asosan oliy o'quv yurtlarida, xuquqshunoslik bo'limlari talabalari uchun o'tiladi. Bu fanning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- sud ishi psixologiyasi.
- kriminal psixologiya.
- jinoyatchilar psixologiyasi.
- tergovchi psixologiyasi.
- Sudya psixologiyasi.
- advokat psixologiyasi.
- Sud – psixologik ekspertiza.

Bu tarkibiy qismlar bir-biri bilan uzviy boqliq xolda rivojlanadi. Ularning asosiy ob'ekti – bu shaxs va uning xatti-harakatlari.

Sud ishi psixologiyasi sud jarayoniga boqliq bo'lgan xolatlarni o'rganib, jinoyatchilikni xolisona baholashga harakat qiladi. Sudyalar jinoyatchi bilan tanishib, tergovdagi xolatni tahlil qiladi. Hozirgi kunda sudlarning vakolati doirasi kengaydi. Sudya hech qachon uning qo'lida inson taqdiri turganini esidan chiqarmasligi, ayblanuvchi shaxsini hurmat qilishi, ishga xolisona yondoshishi kerak. Kriminal psixologiyaning predmeti jinoyatchilikni fosh qilish, uning oldini olish (profilaktika) dan iborat. Jinoyatchilar psixologiyasi esa jinoyatchilarning psixologik xususiyatlarini, xarakteri, temperamenti, emotsiyalarini, jinoyatchi xatti-harakatining motivlarini o'rganadi. Tergovchi, sudya, advokatlar psixologiyasi ham ularning ruhiy xolatlarini, ruhiy jarayonlari, xususiyatlarini o'rganadi. Ularda muomala madaniyatini shakllanishini tadqiq qiladi. Sud - psixologik ekspertizada esa jinoyatchilikka xolisona yondoshish maqsadida jinoyatishi bilan tanishib, gumondor, jabrlanuvchilar bilan psixologik testlar asosida

individual suhbat olib boriladi. Ya'ni jinoyat motivlari aniqlanadi. Sud- psixologik ekspertizani mutaxassis - psixologlar olib boradilar.

4. Yuridik psixologiyaning metodlari

Tadqiqotdan ko'zlangan maqsadlar bo'yicha yuridik psixologiyaning metodlari uch guruhga bo'linadi:

1. Ilmiy- tadqiqot metodlari. Bu metodlar yordamida xuquq normalari bilan tartibga solinadigan insoniy munosabatlarning psixologik qonuniyatlari tadqiq etiladi, jinoyatning oldini olish va unga qarshi kurash bilan shuqullanayotgan xodimlarga ilmiy asoslangan tavsiyalar tayyorlab beriladi.

2. Shaxsga psixologik ta'sir o'tkazish metodi. Bu usul jinoyatchilikka qarshi kurashayotgan mansabdor shaxslar tomonidan qo'llanilib, jinoyatlarni ochish, ularning motivlarini aniqlash maqsadlarini ko'zlaydi.

3. Sud-psixologik ekspertizasi metodlari. Ular tergov yoki sud organlari qarori bo'yicha ekspert-psixolog tomonidan imkoni boricha to'la-to'kis va ob'ektiv tadqiqot o'tkazib, gumondor yoki sudlanuvchining xatti-harakatlari uchun javob bera oladigan darajadagi psixik xolatini aniqlash maqsadini ko'zlaydi.

4. Kuzatish metodi. Uning afzalligi shundaki, tadqiqot jarayonida inson faoliyatining odatdagi oqimiga ta'sir ko'rsatilmaydi. Bu metod asosida xolis natijalarga erishish uchun bir qator shartlarga amal qilish talab etiladi. Jumladan, kuzatish dasturini tayyorlash, tadqiqot natijalarini to'qri qayd etish kabilar.

Bundan tashqari anketa, individual suhbat, tajriba metodlaridan ham foydalanish mumkin.

5. Yuridik psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni

Yuridik psixologiya fanlar tizimida juda katta o'rin tutadi. Falsafa barcha ijtimoiy fanlar, shu jumladan, yuridik psixologiyaning metodologik asosi bo'lib hisoblanadi. Unga tayanib qator muhim muammolarni, psixikaning tabiatini, psixika darajalari hamda

inson va shaxs kontseptsiyasi masalalarini to'laqonli yoritish mumkin. Yuridik psixologiya birinchi navbatda psixologiya va xuquqshunoslikning mushtarakligida rivojlanib boradi. Ular esa o'z navbatida shaxs hamda jamiyatning namoyondasi bo'lgan inson bilan chambarchas boqliqdir. Shaxs psixologiyasi fani ham yuridik psixologiya bilan boqliq. Chunki shaxs muammosi yuridik psixologiya barcha muammolarining o'zagi bo'lib hisoblanadi. «Inson-xuquq» tenglamasida ijtimoiy munosabatlarga kirishgan insonning xuquqiy ongli shaxs sifatidagi insoniy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Muayyan jamiyatda yashayotgan inson psixologiyasi jamiyat qonunlari bilan tartibga solinib, ijtimoiy faoliyatini belgilab beradi.

Rossiyada jinoyatchilikda jinoyatchining psixologiyasiga e'tibor berish kerakligi to'g'risida I.T.Posashkov (1652-1726) faol fikr yuritadi. Uning nuqtai nazari bo'yicha jinoyatchilarning boshqa odamlarga nisbatan salbiy ta'sirini yo'qotish maqsadida ularning xulq-atvorini tavsiflash kerak bo'ladi. V.N.Tatishev (1686-1750 fikriga ko'ra, —qonunlarni yoshlikdan bilish lozim, ularni bilmaslik buzilishga olib keladi, degan nazariya ilgari suriladi. Knyaz A.F.Sherbatovning fikriga ko'ra, qonun chiqarishda xalqning psixologiyasi, insonlarning yuragini bilish lozimdir (1733-1790). U birinchilardan bo'lib, jinoyatchini muddatidan avval chiqarib yuborish masalasini ko'targan. 19-asrda I.Gofbauerning —Sud hayotida psixologiyani qo'llash va I.Fridfixning —Sud psixologiyasiga oid muntazam qo'llanma deb nomlangan ilmiy izlanishlarida psixologik nuqtai nazaridan shaxs, uni ayblash tushunchasi, sud jarayoni, psixologiyasi kabi savollar keng yoritib berilgan.

Yuridik psixologiya 20-asrdagi rivojlanishiga A.F.Koni katta hissa qo'shdi. Uning asarlarida sud faoliyatining psixologiyasi, guvohlar va jabrlanuvchilar psixologiyasi va ko'rsatmalariga kata urg'u berilgan. A.S.Tagerning —Sud psixologiyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shganligi uning bir necha ilmiy-tadqiqot ishlarda ishtirok etganligidan dalolat beradi.

U —guvohlar turli psixologik holat va hodisalarning ta'siri ostida o'z ko'rsatmalarini bayon qilishlari mumkin,- degan fikrni ilgari suradi (ko'rish, eshitish, eslab qolish, gapirib berishning individual xususiyatlari turli vaqtlarda turlicha bo'lishi mumkin.)

Yuridik psixologiyani ahamiyati juda katta. Chunki yuristga jinoyatchilikni oldini olishda, uni fosh etishda yuridik bilim zarur. Agar gumondorni, aybdorni, fuqarolarni psixologik xususiyatlarini mutaxassis yaxshi o'rgansa unda jinoyatlarni fosh etish, voqeaga to'g'ri baho berish shakllanadi. Bo'lajak yuristlarda muomala madaniyatini shakllantirish, mantiqiy fikrlashni, to'g'ri tahlil va sintez qila olishni o'rgatish inson omilini birinchi o'ringa chiqishiga katta yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Yuridik psixologiya nimani o'rganadi?
2. Yuridik psixologiyani maqsad va vazifalari nimadan iborat?
3. Yuridik psixologiya qaysi fanlar bilan uzviy bo'liq?
4. Yuridik psixologiya nima uchun o'rganiladi?
5. Yuridik psixologiya tarixiy shakllanishi haqida nimalar bilasiz?
6. Xuquqshunoslik faoliyatining ijtimoiy psixologik tavsifnomasi qanday tuzilishga ega?
7. Hozirgi zamon yuridik psixologiya fanining imkoniyatlari haqida nimalarni bilasiz?
8. Yuridik psixologiya rivojlanish tarixida qanday muammolar bo'lganligini aniqlang.

Test savollari:

1. **Yuridik psixologiya nimani o'rganadi?**
 - A) yurist shaxsning psixologik xususiyatlarini.
 - B) yuridik xizmat xodimlarning mehnat samaradorligi va sifatini oshirishdagi rolini.
 - V) jinoyatni oldini olish va ochishdagi o'rnini.

G) xuquq tizimini amalga oshirish bilan bogliq bo'lgan psixologik masalalarni o'rganadi.

D) barcha javoblar to'g'ri.

2.Yuridik psixologiya qachondan boshlab mustaqil fan sifatida rivojlana boshladi?

A) XVIII asrning 50-yillari.

B) XIX asrning 30-yillari.

V) XIX asrning 30-50 yillari.

G) XIX asr oxiri XXasr boshi

D) XX asr boshlari.

3.Yuridik psixologiyaning asosiy metodlari qaysilar?

A) shaxsga psixologik ta'sir o'tkazish.

B) sud psixologik ekspertizasi

V) ilmiy tekshirish

G) jinoiy ishda psixologik analiz

D) eksperement, kuzatish, suhbat, anketa, test.

4.Yuridik psixologiyaning uslubiy asosini nima tashkil qiladi?

A) psixologik qonuniyatlar

B) psixologik omillar

V) ehtiyojlar

G) shaxs faoliyati

D) hammasi

5.Yuridik faoliyatdagi shaxsning asosiy kamolotlari qanday?

A) jismoniy yetuklik

B) axloqiy barkamollik

V) axloqiy teranlik

G) hammasi uygunlashsa

D) barcha javoblar to'g'ri.

6.Yuridik faoliyatdagi shaxsni kamol toptiruvchi omillar qaysilar?

A) irsiy omillar

B) ijtimoiy muhit

- V) ta'lim-tarbiya
- G) ularni uygunligi
- D)barcha javoblar to'g'ri.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Sud ishi psixologiyasi.
2. Kriminal psixologiya.
3. Jinoyatchilar psixologiyasi.
4. Tergovchi psixologiyasi.
5. Sudya psixologiyasi
6. Advokat psixologiyasi.
7. Sud – psixologik ekspertiza.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев Ю. ва бошқалар. Хуқуқий психология муқаддимаси. Фарғона.1998. Ўқув қўлланма. -130 б. —Ибратл нашр.
2. Norboyev A.N., Usmonova A.A. Yuridik psixologiya. O'quv qo'llanma. T.2006.
3. Саъдуллаев Т.Турсунов Й. Халқаро иқтисодий ҳуқуқ. Т.2020. ТДИУ. -68 б.

2 – MAVZU. YURISTNING KASBIY FAOLIYATIDAGI MULOQOT

Reja:

1. Yuristning kasbiy faoliyatida muloqotning o‘rni.
2. Muomala psixologiyasi. Muomalada o‘zaro bir-birini tushunish
3. Muomala funktsiyalari va ularning mazmuni. Muomala muloqot vositasi ekanligi
4. Nutq rasmiy muomalaning bir turi sifatida. Ishontirish va ta’sir qilish
5. Yuristning kasbiy faoliyatidagi muloqotga qo‘yiladigan talablar.

Tayanch tushunchalar:

Kommunikatsiya - muloqot jarayonida axborot uzatish.

Funksiya – yuristning ish faoliyatidagi vazifalari.

Kriminalistika – jinoyatni ochish jarayonini o‘rgtanuvchi soha.

Adaptatsiya – vaziyatga moslashish.

Akseleratsiya – rivojlanishning tezlashuvi (jinoyatni ochish jarayonida).

Dinamik stereotip – shartli reflekslarning barqarorlashuvi.

Evrika – yangilik yaratish jarayonida hayratlanarli hodisaning yuzaga kelishi.

1. Yuristning kasbiy faoliyatida muloqotning o‘rni.

Muloqot faqat insonlarga xos bo‘lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir - birlariga nimanidir aytish istagi tuqiladi. Muloqot - odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan boqlanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayirboshlashni o‘z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Kishilar munosabatga

kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o‘zaro birgalikdagi harakati - nutq jarayonida faqat so‘zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat.

Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa imo-ishora bilan muloqotda bo‘lamiz. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo‘lamiz. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o‘zaro birgalikda harakat qilish) va pertseptiv (o‘zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi. Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o‘rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir. Har bir kishining o‘z —Menil atrofdagilar bilan bo‘ladigan muloqot jarayonida shakllanadi, shaxsning hayot yo‘llari avval oilada, boqcha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya’ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Bizning yuksak ma’naviy ehtiyojlarimizdan biri - bu muloqotga bo‘lgan ehtiyojdir. Muloqotga bo‘lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. SHuning uchun biz doimo muloqotga bo‘lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo‘lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim xollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz. Biz guruh va jamoaga kirar ekanmiz, doim unda turli rollarni bajarishga to‘qri keladi. Rasmiy guruhda boshliq rolini o‘ynasak, kasalxonada bemor, do‘konda xaridor, oilada rafiq yoki rafika, ota - ona oldida esa farzandlik rolini bajaramiz.

2. Muomala psixologiyasi. Muomalada o‘zaro bir-birini tushunish

Muloqot shaxslararo munosabatlarning shunday ko‘rinishidirki, uning yordamida odamlar bir - birlari bilan o‘zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o‘zaro axborot almashadilar, bir - birlariga ta’sir o‘tkazadilar, bir - birlarini his qiladilar,

bir - birlarini tushunadilar. SHuning uchun muloqot ijtimoiy - psixologik hodisa sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida ishtiroq etib, hamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlarni maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog'liq bo'lib, shaxslararo munosabat, barkamol avlod, komil inson g'oyalarini anglatadi. Muloqot muvaffaqiyatining negizi shaxsning ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, xarakter xislati, individual - tipologik xususiyati, qobiliyati, e'tiqodi kabi insonning fazilatlarini, sifatlarini namoyon bo'lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Muloqot jarayonida muloqotdoshlarning tasavvurlari, qiziqishlari, his - tuyg'ulari, ko'nikmalari, voqelik natijasini oldindan sezish, payqash, ta'sir o'tkazish uslubi tarkib topishi mumkin. Muloqot tashqi ta'sirlar, namunalar asosida o'zini - o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi. Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish uquvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyati ham, boshqa odamlar tomonidan taqlid qilinadi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Odamlar o'rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g'ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish - o'zini - o'zi mukammallashtirish, o'zini - o'zi ruyobga chiqarish, o'zini - o'zi boshqarish, o'zini - o'zi baholash, o'ziga - o'zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosida muhim kamolot bosqichidir. SHuning uchun ichki va tashqi taqlidning tushunish hamda ularni bosqichma - bosqich egallab borish - bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir. Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi - bu o'zini - o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir.

Muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida shaxsning shakllangan sifatlarini, fazilatlarining ahamiyati juda katta. Jumladan, shaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsa (xushmuomalalilik,

kamtarlik, insonparvarlik, to'qri so'zlilik, vijdonlilik kabilar) muloqot jarayoni ham yaxshi o'tadi. CHunki shaxslar bir-birini to'qri tushinishlari uchun, muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ular samimiy bo'lishlari lozim. Samimiylik insonning eng ajoyib fazilatlaridan biri bo'lib, voqea-hodisalarga oqilona munosabatda bo'lish, turli ta'sirlarga berilmaslikdir. Samimiylikning muhim belgisi - bu yuzdagi xushmuomalalik ifodasi va tabassum. Samimiylik bizning kayfiyatimizga ham boqliq, chunki kayfiyatimiz yaxshi bo'lsa, samimiylik kuchayadi. Samimiylik ko'rsatish uchun kishining ko'ngli toza, oqko'ngil bo'lish lozim. Samimiylik fazilati ayniqsa rahbarning xodimlari bilan qiladigan muloqotida muhimdir. Agar rahbar xodimlari bilan samimiy munosabatda bo'lmasa ularning kayfiyati tushib, mehnat unumdorligi pasayishi mumkin. Ayrim rahbarlar qo'l ostidagilar bilan qo'pol, mensimasdan munosabatda bo'lib, buyruq ohangida avtokratik uslubga asoslanib ish ko'radilar. Mashhur Amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi kitobida ko'rsatilishicha, bir rahbar doimo qovoq'ini solib yurgan, kishilar bilan samimiy munosabatda bo'lmagani uchun hamma undan qo'rqib, undan qochib yurar ekan, hatto turmush o'rtoq'i bilan ham mensimasdan muomala qilar ekan. Karnegining ma'ruzasidan so'ng bu rahbar turmush o'rtoq'iga ham, qo'l ostidagi kishilarga ham samimiy jilmayib muomala qilishni boshlaganida hamma uni yaxshi ko'rib obro'si ortib ketibdi, o'zining ham kayfiyati ko'tarilib ketibdi. Muomala sirlaridan yanabiri – bu kishilar bilan munosabatda jilmayishdir. D. Karnegi fikricha, jilmayganda biz bir- birimizga yaxshilik qilish istagida turamiz. Masalan, transport haydovchilari, aholiga xizmat ko'rsatish xodimlari, oshpazlar, sataroshlar, sotuvchilar samimiy bo'lsalar, kamtar, xushmuomala bo'lsalar, — biz sizga xizmat ko'rsatishdan mamnunmiz, degan so'zlarni ishlatsalar, ularning obro'lari ortib, muxlislari ko'payadi, kishilar ularning xizmatlaridan ko'proq foydalanadilar. SHuningdek, yuristlar ham fuqarolarga yaxshi muomalada bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

3. Muomala funktsiyalari va ularning mazmuni. Muomala muloqot vositasi ekanligi

Muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida shaxsning shakllangan sifatleri, fazilatlarining ahamiyati juda katta. Jumladan, shaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsa (xushmuomalalik, kamtarlik, insonparvarlik, to'g'ri so'zlik, vijdonlilik kabilar) muloqot jarayoni yaxshi o'tadi. Chunki shaxslar bir - birini to'g'ri tushunishlari uchun, muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ular samimiy bo'lishlari lozim. Samimiylik insonning eng ajoyib fazilatlaridan biri bo'lib, voqea - hodisalarga oqilona munosabatda bo'lish, turli ta'sirlarga berilmaslikdir. Samimiylikning muhim belgisi - bu yuzdagi xushmuomalalik ifodasi va tabassum. Samimiylik bizning kayfiyatimizga ham bog'liq, chunki kayfiyatimiz yaxshi bo'lsa, samimiylik ko'chayadi. Samimiylik ko'rsatish uchun kishining ko'ngli toza, oq ko'ngil bo'lish lozim. Samimiylik fazilati ayniqsa rahbarning xodimlari bilan qiladigan muloqotida muhimdir. Agar rahbar xodimlari bilan samimiy munosabatda bo'lmasa ularning kayfiyati tushib, mehnat unumdorligi pasayishi mumkin. Ayrim rahbarlar qo'l ostidagilar bilan qo'pol, mensimasdan munosabatda bo'lib, buyruq ohangida avtokratik uslubga asoslanib ish ko'radilar.

Bizga zarur ma'lumotlarni bilib olishning ikkita asosiy yo'l - yo'riqini ko'rsatish mumkin. Birinchisi - sub'ektni yurist uchun qiziqarli bo'lgan faktlarni beixtiyor tilga olishga moyil etish. Ikkinchisi-bizni qiziqtirayotgan shaxsga tegishli axborotni mujassam etgan ixtiyorsiz jismoniy va ekspressiv xatti-harakatlarga mayl uyq'otish. Birinchi usulni shartli ravishda nutqli – reproduktiv deb atash mumkin. Guvoh, jabrlanuvchi va ayblanuvchini xuquqshunosga zarur ma'lumot berishga qo'zqatuvchi bir qator usullar mavjud.

1. Manfaatdor sub'ektning xotirasida muayyan obrazlarni uyq'otuvchi hamda ixtiyorsiz mulohazalarni aytib yuborishga qo'zqatuvchi konkret predmetlarning namoyish qilinishi. Misol uchun fotosurat, fotoapparat, fotoishiga oida qoq'ozlar, bular

suhbatga turtki berishi mumkin.

2. Suhbatda turdosh mavzudan foydalanish. ya'ni birdaniga gangitadigan savollar bermasdan, ikkinchi darajali savollar orqali asosiy savolga o'tish va unga javob olish darkor.

3. Bevosita, to'qridan - to'qri, lekin yetarli darajada motivlashgan savollarni ko'ndalang qo'yish.

4. Muloqot mobaynida bizni qiziqtirayotgan sub'ektda muayyan ruhiy xolatni shakllantirish yo'li bilan uni tegishli suhbatga undash.

5. Bizni qiziqtirayotgan sub'ektning jinoiy xatti-harakatlariga aloqador konkret predmetlarni namoyish etish.

6. Bir zumlik, kutilmagan, psixologik jihatdan ta'sirchan hayotiy xolatlarni yaratish.

7. Odatdagi faoliyatsharoitini yaratish.

4. Nutq rasmiy muomalaning bir turi sifatida. Ishontirish va ta'sir qilish

Jinoyatchilar bilan aloqa o'rnatish uchun avvalo ular bilan muzokaralar olib borish muhimdir. Muzokara olib borish qobiliyati yoki diplomatiya asrlar mobaynida murakkab aqliy faoliyat jarayoni deb hisoblab kelingan. To'qnashuvlarning oldini olish yoki ularga chek qo'yish, murosa yo'llarini qidirish, ikkala tarafni qanoatlantiradigan qarorga kelish muzokara yo'li shartnomalar tuzish ko'nikmasini talab etadi. Tomonlarning biri vujudga kelgan vaziyatni o'zgartirish istagini bildirgan choq'dan boshlab, muzokaralar boshlanadi. Muzokaralar insonlararo muomalaning yuksak vositasi, qadim o'tmishdan beri qo'llanilib kelinayotgan ajoyib ixtirosidir. Har qanday ijod kabi muzokara olib borish-asablarni tarang qiladigan oqir aqliy mehnatdir. Jinoyatchilar bilan muzokara o'tkazishda eng muhimi – muzokarachilarni tanlash va tayyorlashdir. Bu jarayon ko'ngilli istakni, nomzodlarning individual xususiyatlarini, ya'ni tang xolatlarda fikr almasha olish, qo'zqatuvchanlik, aks ta'sirning tezligi, o'zini tuta bilish, hissiy barqarorlik, aql-idrokni, muomalasini, xarakterining ushbu

vazifaga zarur darajada muvofiqligi, insoniy fazilat ustuvorligini taqozo etadi. Muzokarachilar psixologiya va pedagogika sohalarida chuqur bilimga ega bo'lishlari, maxsus tayyorgarlik ko'rgan bo'lishlari kerak. Bu bilimlarni egallashning asosiy metodologik rol o'ynashi bo'lib, bunda jinoyatchilar bilan muzokaralar choqidagi kabi konkret muhit vujudga keltiriladi. O'qib-o'rganish jarayonida psixologik kurash, qonunga xilof xatti-harakatlardan qaytarish maqsadini ko'zlab, jinoyatchilarga ta'sir o'tkazish, qoniqarli bitimga erishish ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Insonning uni o'rab turgan olamga o'zaro ta'siri ob'ektiv munosabatlar tizimida namoyon bo'ladi, ob'ektiv munosabat va aloqalar so'zsiz har qanday real guruhlarda paydo bo'ladi. Guruh a'zolarining bu ob'ektiv o'zaro munosabatlari sub'ektiv shaxslararo munosabatlarda aks etadi. Har qanday ishlab chiqarish odamlarning o'zaro birlashishini talab qiladi. Hech bir kishilik jamiyati agar unda odamlar bilan munosabat o'rnatilmasa, ular bir -birini to'g'ri tushunmasdan to'laqonli birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olmaydi. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarga biror narsani o'rgatish uchun ular bilan munosabatga kirishishi kerak. Muloqot kishilarning hamkorlikdagi faoliyati ehtiyojlari asosida tug'iladigan ular o'rtasidagi aloqa rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot hamkorlikdagi faoliyat qatnashchilari o'rtasida axborot almashinishni o'z ichiga oladi, bu muloqotning kommunikativ tomonida ifodalanadi. Odamlar bir - biri bilan munosabatga kirishishda tildan muomala vositasi sifatida foydalanadilar.

Muloqotning ikkinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning o'zaro ta'siridir. Bunda faqat so'zlar emas, balki harakat va holatlar ham almashinadi. Masalan, sotuvchi bilan xaridor o'rtasida biror so'z aytmasdan muomalaga kirishish mumkin. Muloqotning uchinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning bir - birini idrok qilishidir. Muomalaga kirishuvchilarning bir - birini to'g'ri tushinishi muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, muloqotning shartli uch tomonini ajratish mumkin: kommunikativ (axborot berish), interaktiv (o'zaro ta'sir) va pertseptiv (o'zaro idrok qilish).

Muloqotning bu uch tomonining birligi muomalaga kirishuvchi kishilarning o‘zaro munosabati va hamkorlikdagi faoliyatining tashkil etish usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Muloqotning mazmuni – axborot almashish, o‘qituvchi tomonidan turli kommunikativ vositalar yordamida o‘quvchilar bilan o‘zaro tushunish va o‘zaro munosabatlarni tashkil etishdir. Pedagoglarning tarbiyaviy va didaktik vazifalarni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar jamoasi o‘rtasida munosabatlarni ta‘minlamay turib amalga oshirib bo‘lmaydi. Birgalikdagi faoliyat davomida odamlar turli fikrlar, o‘y-xayollar, his-kechinmalar bilan o‘rtoqlashadilar. Bunda o‘y-fikrlar, his-kechinmalarni axborot sifatida, kommunikatsiyani esa axborot almashinuvi sifatida talqin etish mumkin. Ammo insonlararo kommunikatsiya shunchaki axborot almashinuvidan iborat emas. Chunki muloqot jarayonida axborot nafaqat uzatiladi, balki shakllantiriladi, aniqlashtiriladi, rivojlantiriladi. Demak, inson muloqotini shunchaki axborot almashinuvidan iborat jarayon, deb hisoblash mumkin emas. Muloqot jarayonida axborot bir tomondan ikkinchi tomonga shunchaki harakatlanmaydi, balki faol almashinadi (kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir - biriga axborot yuborayotganda, bir - birining motivlari, maqsadlari, ustanovkalari va boshqalarni tahlil qiladilar). Shuningdek, muloqot jarayonida axborot almasha turib kishilar belgilar tizimi orqali bir – biriga ta‘sir etishi mumkin (insonlararo axborot almashinuvida, albatta, suhbatdosh xulq - atvoriga muayyan ta‘sir o‘tkaziladi). Muloqot jarayonida kommunikator (axborot yuborayotgan kishi) va retsipient (axborot qabul qilayotgan kishi) bir xil kodlashtirish hamda dekodlashtirish tizimiga ega bo‘lishi kerak. Yagona tizimni qabul qilishgina kommunikativ jarayon ishtirokchilariga bir – birini tushunish imkonini beradi. Muloqot jarayonida faqat insonlararo kommunikatsiyaga xos to‘siqlar vujudga kelishi mumkin. To‘siqlar nafaqat belgilar tizimidagi farqlar, balki ijtimoiy – siyosiy, diniy, kasbiy farqlar yoki umuman dunyoqarash, olamni his etishdagi farqlar tufayli vujudga kelishi mumkin.

5. Yuristning kasbiy faoliyatidagi muloqotga qo'yiladigan talablar.

Qoida: «o'zingiz ustingizda ishlang», ya'ni atrofdagilarning muloqotini kuzating, ular qanday muloqotda bo'lmoqdalar, nima uchun ularni boshqalar yaxshi ko'radi, ularga talpinadi, suhbatlashgisi keladi. Muloqotning 1 - bosqichida kelgusi faoliyati uchun rahbar o'zining muloqotini modellashtirishi, ya'ni muloqotga tayyorlanishi zarur. Kommunikativ jihatdan tayyorlanish kerak. Quyidagi savollarga tayyorlanish maqsadga muvofiqdir:

- Suhbatda men oldimga qanday maqsadni qo'yaman?
- Suhbatdoshim men uni uchrashuvga chaqirganimda xayron bo'ldimikin?
- Shu suhbatsiz men vaziyatdan chiqib keta olamanmi?
- Suhbatdoshim bilan muammoni hal qilishga tayyormanmi?
- Qanday muloqot usullarini qo'llashim kerak?
- Qanday savollarni berishim kerak?
- Suhbatdoshim menga qanday savollarni berishi mumkin?
- Agar suhbatdoshim menga ovozini ko'tarsa, gap qaytarsa, qarshilik qilsa, rozi bo'lsa, mening fikrlarimga e'tibor bermasa, ishonmasa, ishonmasligini yashirsa men nima qilaman?

Muloqotning 2 - bosqichida suhbatdosh bilan bevosita yuzma - yuz bo'lish, «emotsional mikroklimat (muhit)»ni his qila olish, operativ (tezda) ravishda suhbatni boshlash. Ba'zida suhbatdoshlar gapni nimadan boshlashni bilmaydilar. Bu holda quyidagi usullarni qo'llash zarur:

- Shunday savol qo'yingki, u munozarali bo'lmasin, qiziqarli, qisqa bo'lsin;
- Fikringizni qisqa, lo'nda ifodalashga harakat qiling;
- Hukmingizni, qaroringizni asoslang;
- Savol berganingizda «qachon?» «nimaga?» «qanday?» kabilarni ishlatsangiz suhbatdoshingiz «ha yoki yo'q» degan javobni bera olmaydi.
- Xodimingizni oxirgi fikrini ham eshitishga harakat qiling, tinglash madaniyatiga rioya qiling.

- Javob berishga shoshmang, qachonki uning savollarini mohiyatini yaxshilab o'ylab keyin javob berishga harakat qiling.

- Xodimni savoliga keskin ravishda javob bermang.

Tergovchilarda quyidagi qobiliyatlar shakllangan bo'lishi uning obro'sini oshirishga yordam beradi:

- Nutq, notiqlik (ritorika) qobiliyati – ovozining chiroyliligi, so'zlarni o'z urnida qo'llash, shevaga yo'l qo'ymaslik, bitta tilda so'zlash.

- Kommunikativ qobiliyat – atrofdagilar bilan tez til topa olishi, aralashib keta olish qobiliyati.

- Didaktik qobiliyatlar – so'zlayotganda diqqatini to'play olish, bir nuqtaga qarata olish, gapni olib qochmaslik, uzoqdan gap boshlamaslik.

- Avtoritar qobiliyatlar - xodimlar bilan muloqotda bo'layotganda o'z obro'sini saqlab tura olish, chegaradan chiqib ketmaslik qobiliyati.

- Xayol qilish qobiliyati (fantastik) – xodimlarini kelajakda qanday qobiliyatga, uquvga, malakaga ega bo'lishlarini muloqot orqali oldindan seza olish qobiliyati.

- Pertseptiv qobiliyatlar – suhbatdoshini tezda, to'liq idrok qila olish qobiliyati, suhbatdoshi kim ekanligini his qila olishi kabilar.

Huquqshunos har bir suhbatdoshni yoshini, tajribasini, malakasini hisobga olgan holda munosabatda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, o'smirlarga alohida, o'spirinlarga alohida, kattalarga alohida, ishchilarga, oliy ma'lumotlilarga alohida muloqotda bo'lish kerak. Rahbarlar har bir suhbatdosh bilan uning individualligini hisobga olgan holda munosabatda bo'lishi lozim. Chunki har bir xodimning o'ziga xos temperamenti (mijozi), xarakteri (tabiati), qobiliyati (iqtidori, layoqati), odatlari bor. Ularni o'zgartirish juda qiyin, shuning uchun rahbarlar xodimlarni doimo kuzatishlari, ularning ruxiy xususiyatlarini o'rganishlari lozim. Shunda ular bilan to'g'ri muloqotda bo'lishlari oson bo'ladi. Rahbar xodimlariga doimo jonkuyar, g'amxo'r, vaqti kelganda

talabchan, to'g'ri munosabatda bo'lishi kerak. Shuningdek, rahbar xodimlarga nisbatan ba'zan xushomad (kompliment) usulini ham qo'llashi zarur. Masalan, «bugun juda boshqachasiz, mana shu kiyimingiz juda yarashibdi, men sizga ishonaman, azizim» kabi «oltin so'zlar» ni ishlatish muloqot muvaffiqiyatini ta'minlaydi, kelishmovchiliklarning oldi olinadi. Xushomadni qayerda, qachon qo'llashni o'ylab olish kerak. Masalan, majlisda xodimni tanqid qilayotganda, ma'suliyatli ishni bajarayotganda xushomad qilib bo'lmaydi.

Nazorat savollari:

1. Muloqot jarayoni kishilar o'rtasida qanday amalga oshiriladi?
2. Psixologik takt qachon bo'lishi kerak?
3. Qanday kishilarni jinoyatchi deb aytiladi?
4. Kimlar jabrlanuvchi deb aytiladi?

Testlar:

1. **Attityudning uch qismi bo'lib, bular....**
 - A) kognitiv, affektiv, refleksiya
 - B) muloqot, , munosabat, kognitiv
 - C) kauzal atributsiya, stereotipizatsiya, refleksiya
 - D) kommunikativ, interaktiv, perseptiv.
2. **Tabiiy eksperiment metodining xususiyati qaysilar?**
 - A) kuzatish va laboratoriya sharoitlarida o'rganish qiyin
 - B) olingan natijalar aniqligi yuqori
 - C) boshqa metodlardan olingan natijalar tekshiriladi
 - D) klassik metod
3. **Muomalaning 3 bosqichi qaysilar?**
 - A) o'z – o'zi bilan, boshqa kishilar va avlodlar o'rtasidagi muloqot
 - B) ixtiyoriy, ixtiyorsiz va irodaviy
 - C) ongli, ongsiz va ong osti
 - D) shartli, shartsiz va instiktiv

4. Muomalada axborot yo‘llayotgan va uni qabul qilib olayotganlar ... deyiladi.

- A) kommunikator va retsiپیent
- B) axborot va respondent
- C) muxbir va o‘quvchi
- D) kommunikator va tinglovchi

5. Muomalaga kirisha olmaslik sabablari...

- A) boshqalarga noto‘g‘ri munosabat, o‘ziga ortiqcha baho berish, o‘ziga past baho berish
- B) ijtimoiy norma buzilsa tanbeh berish
- C) kishi xulq - atvorini maqullamaslik
- D) kishi xulq - atvorini maqullash

6. Konflikt bu

- A) qarama – qarshi yo‘nalgan qarashlar, noxush hissiy kechinmalar bilan bog‘liq guruxlararo va shaxslararo munosabatlar orqali ifodalanadigan to‘qnashuvlaridir
- B) faoliyatga ta’sir etuvchi omillar
- C) hamkorlikda bo‘lgan individ faoliyatining tezligini oshishi natijasida ish sifatini pasayishi
- D) shaxslararo munosabatdagi kelisha olmaslik

7. Hayotning yuksak sohasida jinsiy mayl energiyasi mehnat faoliyatiga, aqliy va ijodiy faoliyatga qaratilishi va sarf etilishiga nima deb aytiladi?

- A) sublimatsiya
- B) refleksiya
- V) personal identivlik
- D) identifikatsiya

8. O‘zgalarga qarab, go‘yoki oynada o‘zini ko‘rganday tasavvur qilish jarayoniga nima deb aytiladi?

- A) refleksiya
- B) personal identivlik
- C) sublimatsiya
- D) attraksiya

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Yuristning kasbiy faoliyatida muloqotning oʻrni.
2. Muomala psixologiyasi.
3. Muomalada oʻzaro bir-birini tushunish.
4. Muomala funktsiyalari va ularning mazmuni.
5. Muomala muloqot vositasi ekanligi.
6. Nutq rasmiy muomalaning bir turi sifatida.
7. Ishontirish va taʼsir qilish.
8. Yuristning kasbiy faoliyatidagi muloqotga qoʻyiladigan talablar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. Oʻquv qoʻllanma.
—Turon-Iqbolnashr. 2006.

3 – MAVZU. XUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATIDA KOGNITIV JARAYONLARNING O‘RNI

Reja:

1. Kognitiv jarayonlarning umumiy tasnifi. Sezgilar va ularning umumiy psixofiziologik qonuniyati, tergov amaliyotida bu bilimlardan foydalanish.

2. Idrok va uning xususiyatlari. Guvohlik ko‘rsatmalarida idrok qonuniyatining vujudga kelishi. Kuzatish va kuzatuvchanlik.

3. Diqqat, uning umumiy xarakteristikasi va asosiy xususiyati. Tergovchi faoliyatida diqqatning mohiyati.

4. Xotira. Xotiraning turlari va tiplari. So‘roq jarayonida xotira qonuniyatining vujudga kelishi va undan foydalanish. Tergov jarayonida esga tushurish, yordam ko‘rsatish usullari. Tasavvur. Tasavvurning qabul qilinishi, xotira va fikrlash bilan bog‘likdigi, ularning tergovchi amaliyotidagi o‘rni.

5. Tafakkur. Fikrlashning mohiyati va turlari. Muammoli holatlarda nostandart masalalarni yechishda topqirlik bilan hal etish natijasi sifatida jinoyatning ochilishi. Tergov harakatida sezgirlik (intuitsiya) ning roli.

Tayanch tushunchalar:

Bilish jarayonlari – idrok, sezgi, xotira, diqqat, tafakkur

Sezgi – odamning tegishli sezgi organlariga moddiy olamdagi narsa va hodisalar ta’sir ko‘rsatgan paytida ulardagi ayrim xossalarning aks ettirilishidan iborat bo‘lgan eng sodda psixik jarayondir.

Idrok – ayni choqda sezgi organlarga ta’sir etib turgan narsa va hodisalarning aks ettirilishidan iborat bo‘lgan psixik jarayondir.

Tafakkur – fakt va hodisalarni mavhumlashtirgan, umumlashtirgan xolda va vositali ravishda aks ettirishdan, ular o‘rtasiga aloqa hamda munosabatlarni aniqlashdan iborat bo‘lgan bilish jarayonidir.

Xotira – o‘tmish tajribalarimizda nimaiki hodisa yuz bergan

bo'lsa, shuni esda olib qolish, esda saqlash va keyinchalik esga tushirish yoki tanishdir.

1. Kognitiv jarayonlarning umumiy tasnifi. Sezgilar va ularning umumiy psixofiziologik qonuniyati, tergov amaliyotida bu bilimlardan foydalanish.

Bilish jarayonlari va professional faoliyat, bilimdonlik shaxs umumiy madaniyatining shunday yo'nalishiki, unga faqat kasbiga taalluqli bo'lgan bilimlardan tashqari, shu bilimlarning hosil bo'lish yo'llari va malakalarning takomillashuvini ta'minlovchi psixologik jarayonlar va holatlarni bilishni ham taqozo etadi. Talabalarga bilish jarayonlari: sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol, diqqat, nutq to'g'risida **nazariy bilimlar** berish, idrok qilish jarayonlariga xos qonuniyatlarni, diqqatni jalb etishning universal qoidalarini o'zlashtirish hamda xotira qonunlariga tayanib xotirani rivojlantirish yo'llari bo'yicha **amaliy ko'nikmalarni** shakllantirish.

Odamning tashqi olam xossa va xususiyatlarini ongida aks ettirishi uning iqtidori o'sishi va professional malakalari rivojlanganligiga bog'liq tarzda kechadi. Shuning uchun ongning muhim aks ettirish shakllari bo'lmish bilish jarayonlari – **idrok, sezgi, xotira, diqqat, tafakkur, iro**daning inson hayoti va professional o'sishidagi roliga to'xtalib o'tamiz.

Bilish jarayonlari – bu shunday psixik jarayonlarki, ular shaxsga o'zini o'rab turgan atrof-muhitning ma'lum va muhim xususiyatlarini anglashga, tushunishga va ular ustida o'ziga zarur xulosalar chiqarib, o'z xulq-atvorini rejalashtirishga imkon beradi.

Psixologiya sohasida eksperimental ishlarning muvaffiqiyatli amalga oshirilishi aslida inson psixikasi kompyuterdan ko'ra murakkabligi va odam anglagan ma'lumotlaridan ko'proq narsalarni idrok qilib, qabul qilishini isbotladi. Ongdagi ma'lumotlarning aslida miyamizdagilardan kamligining asosiy sababi – odam har qanday ma'lumotni **saralab, tanlab qabul qiladi**, o'zi uchun — ahamiyatsiz deb baholagan narsaga diqqat ham qilmaydi, eslab qolmaydi ham.

Bilish jarayonlari va ularning qisqacha tasnifi. Insonning sezgisi, idroki, xotirasi, tasavvuri, tafakkuri, nutqi, xayoli va irodasi **psixik jarayonlar** deb ataladi.

Sezgi – odamning tegishli sezgi organlariga moddiy olamdagi narsa va hodisalar ta'sir ko'rsatgan paytida ulardagi ayrim xossalarning aks ettirilishidan iborat bo'lgan eng sodda **psixik jarayon**dir. Yoki sezgi-atrofimizdagi narsa va hodisalarning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi natijasida ularning ayrim belgi va xususiyatlarini miyamizda aks ettirilishidir. Sezgi idrok bilan chambarchas bog'liq. Sezgi axborotlarni qabul qilib, tanlab, to'plab, har bir sekundda axborotlar oqimini qabul qilib va qayta ishlab miyaga yetkazib beradi

Psixologiyada mazkur sezgilarning sub'yektiv ravishda paydo bo'lishi yetarli darajada chuqur o'rganilmagan, shu bois ular noma'lum hislar doirasiga kiritilgan. Ular to'g'risidagi bilimlar bilan tanishish, o'zgarishlarni tekshirish kasalliklarning ichki manzarasini ifodalashda muhim o'rin tutadi. Ichki a'zolarining xastaligida vujudga keluvchi mazkur xolatlar ichki kasalliklarni tashxis qilishda alohida ahamiyat kasb etishi to'rgan gap (A.R.Luriya tadqiqotlaridan). K.M.Bikov, V.N.Chernigovskiylar tomonidan interotseptiv sezgilarning fiziologik mexanizmlari interotsepsiya bilan birgalikda atroflicha o'rganilgan. Bularning barchasi shartli reflektor faoliyati mexanizmlaridan kelib chiqqan holda sharhlab berilgan.

Idrok – ayni choqda sezgi organlarga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning aks ettirilishidan iborat bo'lgan **psixik jarayon**dir. Ya'ni idrok sezgi a'zolarimizga ta'sir etayotgan narsa va hodisalarni yaxlit holicha aks ettirishdir. Sezgiga nisbatan idrok murakkab jarayon. (Chunki uning tarkibiga bir necha sezgi qatnashadi. Mabodo harakatdagi jism uni qurshab to'rgan harakatsiz boshqa jismlarga taqqoslangan holda idrok qilinsa, bunday toifadagi harakat **nisbatan idrok qilish** deb ataladi.

Fazoni idrok qilish — voqelikdagi narsa va hodisalarning fazoda egallagan o'rnini, shaklini, miqdorini va

bir-biriga nisbatan munosabatlarini bilish jarayonining shaklidir. Voqelikni idrok qilish orqali inson borliq to'g'risida, uning xususiyatlari, hajmi, masofasi (ich tomoni, chuqurligi) yuzasidan muayyan ma'lumotlar, xossalar, axborotlar to'plash, ularni farqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Idrokning muhim tomoni — bu uning xususiyatlarining turli jabhalar, vaziyatlar, sharoitlarda namoyon bo'lishidir. Idrokning muhim xususiyati bu faol ravishda, bevosita aks ettirish imkoniyatining mavjudligidir. Odatda, insonning idrok qilish faoliyati uning o'zlashtirgan bilimlari, to'plagan tajribalari, shuningdek, murakkab analitik-sintetik harakatlar tizimi zahirida yuzaga keladi. Bu holat idrok qilinishi zarur bo'lgan o'quv fani mohiyatiga bog'liq ilmiy faraz yaratish, uni amalga oshirish borasida qaror qabul qilish, yaqqol voqelik bilan tasavvur qilinayotganning o'zaro mosligini aniqlash singari bosqichma - bosqich, o'zaro bir-birini taqozo etuvchi tarkibiy qismlardir.

Xayol – biz ilgari idrok qilmagan predmet va hodisalarni yaratishdan iborat bo'lgan psixik jarayondir. **Iroda** – kishining o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun ichki va tashqi to'siqlarni harakat yordamida yengish vaqtida vujudga keladigan psixik jarayondir. **Tasavvur** – biz ilgari idrok qilgan narsa va hodisalar obrazini ayni choqda fikran qayta tiklashimizdir. **Tafakkur** – fakt va hodisalarni mavhumlashtirgan, umumlashtirgan xolda va vositali ravishda aks ettirishdan, ular o'rtasiga aloqa hamda munosabatlarni aniqlashdan iborat bo'lgan bilish jarayonidir. **Xotira** – o'tmish tajribalarimizda nimaiki hodisa yuz bergan bo'lsa, shuni esda olib qolish, esda saqlash va keyinchalik esga tushirish yoki tanishdir. **Diqqat** – ongning biron-bir predmet, hodisa yoki faoliyatga qaratilishi hamda to'planishidir. Diqqat psixik faoliyatnin yo'naltirilishi va shaxs uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan ob'ekt ustida to'planishdan iborat bilish jarayonidir. Diqqat sezgi jarayonida, idrok qilishda, xotira, xayol va tafakkur jarayonlarida ham ishtirok etadi. **Nutq** – kishilarning til vositasida o'zaro munosabatda bo'lish jarayonidir. Nutq shartli reflekslar

paydo bo'lishining umumiy qonunlari asosida o'sadi.

2. Idrok va uning xususiyatlari. Guvohlik ko'rsatmalarida idrok qonuniyatining vujudga kelishi. Kuzatish va kuzatuvchanlik.

Umuman, psixologlarning fikricha, inson nimaniki idrok qilsa, uni figura va fonda idrok qiladi. Figura – shunday narsaki, uni aniq anglash, ajratish, ko'rish, eshitish va tuyish mumkin. Fon esa aksincha, noaniqroq, umumiyroq narsa bo'lib, aniq ob'yektni ajratishga yordam beradi. Ya'ni idrokning asosida narsa va hodisaning yaxlitlashgan obrazi yotadiki, bu obraz boshqalaridan farq qiladi. Idrok yuqorida ta'kidlaganimizdek, soat tovushiga o'xshash, o'ziga nisbatan soddaroq bo'lgan sezgi jarayonlaridan tashkil topadi. Lekin olimlar idrokni sezgilarning oddiygina, mexanik tarzdagi birlashuvi, degan fikrga mutloq qarshilar. Chunki idrok – ongli, maqsadga qaratilgan murakkab jarayon bo'lib, unda shaxsning u yoki bu ob'yektga shaxsiy munosabati va idrokdagi faolligi asosiy rol o'ynaydi. Masalan, buni isboti uchun ko'pincha **Rubin figurasi** tavsiya etiladi. Unda ikkita qora profil oq fonda berilgan. Bir qarashda ayrimlar bu rasmlarga qarab, —**Bu – vaza** deb atasa, boshqalar uni bir-biriga qarab turgan **ikki kishi yuzining yon tomondan ko'rinishi**, deb ta'riflashi mumkin. Shunisi xarakterliki, birinchi marta shu rasmni ko'rgan odam uni yaxlit idrok qilib, nima ekanligini **tushunishga** harakat qiladi. Shunday qilib, **idrok – bu bilishimizning shunday shakliki, u borliqdagi ko'plab, xilma-xil predmet va hodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo'lgan ob'yektni xossa va xususiyatlari bilan yaxlit tarzda aks etishimizni ta'minlaydi.**

Figura va fonning ilgarigi harakatga bog'liqligi qonuni. Bu qonunning ma'nosi: odam ilgarigi tajribasida bo'lgan, bevosita to'qnash kelgan, tanish narsalarini idrok qilishga moyil bo'ladi. Agar biror predmetni u ilgari figura sifatida idrok qilgan bo'lsa, demak, keyingi safar ham uni aynan figuraday idrok qiladi, agar fon bo'lgan bo'lsa, tabiiy, fonday qabul qiladi. **Idrokning konstantligi**

qonuni. Bu qonun ma'lum ma'noda oldingisiga bog'liq. Ya'ni bunda ham ilgari tajriba katta rol o'ynaydi. Ma'nosi: odam o'ziga tanish bo'lgan narsalarni o'sha xossa va xususiyatlar bilan o'zgarishsiz idrok qilishga moyildir. Idrokimizning konstantligi, ya'ni ilgari tajriba asosida narsalarning xossa va xususiyatlarini o'zgartirmay, turg'un xolda yaxlit tarzda idrok qilish xususiyati bizga tashqi muhitda to'g'ri moslashuvimiz, narsalar dunyosida adashmasligimizni ta'minlaydi. Konstantlik – —constantall so'zidan olingan bo'lib, o'zgarmas, doimiy degan ma'noni bildiradi. **Kutishlar va taxminlarning idrokka ta'siri.** Ko'pincha bizning idrokimiz ayni paytda biz nimalarni kutayotganimizga bog'liq bo'lib qoladi. Biz o'zimiz kutgandan ham ko'p paytlarda o'zimiz ko'rgimiz kelgan narsalarni ko'ramiz, eshitgimiz kelgan narsani eshitamiz. Masalan, sonlar qatorida paydo bo'lgan «**B**» harfi uzoqdan albatta **13** soniday idrok qilinadi, yoki aksincha harflar orasidagi **13** «**B**» ga juda o'xshaydi. Aynan shunday hodisalar ba'zan idrokda xatoliklarning kelib chiqishiga olib keladi. Amerikalik olim J. Begbi, stereoskop orqali amerikalik va meksikalik bolalarga shakli unchalik aniq bo'lmagan slaydlarni birin-ketin ko'rsatgan. **Amerikalik** bolalar ularni **beysbol o'yini, oq sochli qiz** ifodalangan desalar, **meksikalik** bolalar ularni **buqalar jangi, qora sochli qiz**, deb ta'riflaganlar. Ko'pchilik bolalar esa ko'rsatilgan ikkita rasmdan faqat bittasini ko'rganini e'tirof etganlar. **O'zgarmas ma'lumotning idrok qilinmasligi qonuni.** Bu qonunning mohiyati shundaki, muntazam ta'sir etuvchi ma'lumot ongda uzoq ushlab turilmaydi. Masalan, o'tirganingizda soatning tikkilashini eshitganmisiz? Ha, tovush eshitiladi, lekin ma'lum vaqt o'tgandan so'ng go'yoki u yo'q bo'lib qolganday – eshitilmaydi. **Anglanganlik qonuni.** Idrok qilayotgan shaxs uchun figuraning anglanganligi, uning zarurati va ma'nosi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Agar biz kuzatayotgan predmet, eshitayotgan nutq yoki his qilayotgan narsamiz ma'nosiz, tushunarsiz, noaniq bo'lsa, biz juda tez charchaymiz va toliqamiz. **Taxminlarni tekshirish jarayonida idrok qilish.** Biz idrok jarayonida ilgari tajribaga

tayanganimiz bilan ko‘pincha adashamiz, ba‘zan esa o‘zimiz uchun yangiliklar ochib, tajribani yanada boyitamiz. Ilgarigi tajriba va kelajakni bashorat qilish insonga xos xususiyat bo‘lib, bizning sezgi organlarimiz orqali keladigan ma‘lumotlarning ko‘lami va imkoniyatlarini yanada oshiradi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, **idrok – tashki muhit to‘g‘risidagi taxminlarimizni isbot qilishga qaratilgan faol jarayondir. Idrok qilish va diqqat.** Idrokning aniqligi va samaradorligiga bevosita aloqador bo‘lgan psixik jarayonlardan biri – diqqatdir. Shuning uchun ham uyqusirab o‘tirib ma‘ruza tinglagan talabaning o‘sha ma‘ruza matnini idrok qilishi qay darajada bo‘lishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Shuning uchun ham biz diqqatimizni kerakli ob‘yektda ushlash uchun, yuqorida misolda talabaning ma‘ruzani to‘la idrok qilishi uchun konspekt qilish kerakligi tavsiya etiladi. Chunki shu paytda ongimiz eshitayotgan so‘zlarning mazmuniga qaratilgan bo‘ladi.

3. Diqqat, uning umumiy xarakteristikasi va asosiy xususiyati.

Tergovchi faoliyatida diqqatning mohiyati.

Diqqat – shunday psixik jarayonki, uning yordamida ongimiz o‘zimiz uchun ahamiyatli bo‘lgan narsalar, hodisalar, predmetlar mohiyatiga qaratiladi. Ya‘ni, diqqat – ongning yo‘nalganligini tushuntiruvchi psixik jarayondir. Diqqatning asosan ikki xil turi farqlanadi: **ixtiyoriy** va **beixtiyor** diqqat. Agar **ixtiyoriy** diqqat shaxs ongining bevosita o‘zi uchun ahamiyatli ob‘yektlarga ataylab jalb etishi bo‘lsa, (masalan, ma‘ruzani to‘la tushunish uchun talabaning urinishlari) **beixtiyor** diqqat narsa va hodisalarning mazmun va mohiyati, jozibasiga bog‘liq tarzda ongimizning ma‘lum narsalarga yo‘nalganligidir. Diqqat qaratilgandagina ta‘sir etayotgan narsa va hodisalarni ravshan idrok etamiz. Diqqat sezish jarayonida, idrok qilishda, xotira, xayol, va tafakkur jarayonlarida ham ishtirok etadi. Diqqat barcha aks ettirish jarayonlarimizning doimiy yo‘ldoshidir. Lekin diqqatning o‘zi hech narsani aks ettirmaydi.

Diqqat deb ongni bir nuqtaga to‘plab, muayyan bir obyektga

faol qaratilishga aytiladi (P.I.Ivanov). P.I.Ivanovning fikricha, biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zimiz qilgan ishimiz, o'y va fikrlarimiz diqqatning obyekti bo'la oladi. N .F.Dobrinin, N.V.Kuzmina, I.V.Straxov, M.V.Gamezo, F.N.Gonobolin va boshqalarning nuqtayi nazaricha, diqqatning vujudga kelishida ongning bir nuqtaga to'planishi ong doirasining torayishini bildiradi, go'yoki ong doirasi birmuncha tig'izlanadi. Bunday torayish va tig'izlanish natijasida ong doirasi yanada yorqinlashadi. Ongning eng toraygan, tig'izlangan yorqin nuqtasi diqqatning markazi (fokusi) deb nomlanadi.

4. Xotira. Xotiraning turlari va tiplari. So'roq jarayonida xotira qonuniyatining vujudga kelishi va undan foydalanish. Tergov jarayonida esga tushurish, yordam ko'rsatish usullari. Tasavvur. Tasavvurning qabulqilinishi, xotira va fikrlash bilan bog'likdigi, ularning tergovchi amaliyotidagi o'rni.

Xotira va shaxs tajribasining boyligi. Xotira – bu tajribamizga aloqador har qanday ma'lumotni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bilan bog'liq murakkab jarayondir. Xotira har qanday tajribamizga aloqador ma'lumotlarning ongimizdagi aksidir. Inson xotirasining yaxshi bo'lishi, ya'ni his-kechinmalarimiz, ko'rgan-kechirganlarimizning mazmuni to'laroq miyamizda saqlanishi quyidagi omillarga bog'liq: 1) esda saqlab qolish bilan bog'liq harakatlarning yakunlanganlik darajasiga; 2) shaxsning o'zi shug'ullanayotgan ishga nechog'lik qiziqish bildirayotganligi va shu ishga moyilligiga; 3) shaxsning bevosita faoliyat mazmuni va ahamiyatiga munosabatining qandayligiga; 4) shaxsning ayni paytdagi kayfiyatiga; 5) irodaviy kuchi va intilishlariga.**Xotiraning samaradorligi** eslab qolishning ko'lami va tezligi, esda saqlashning davomiyligi, esga tushirishning aniqligi bilan bog'lanadi. Demak, odamlar ham aynan shu sifatlarga ko'ra ham farqlanadilar:

1) materialni tezda eslab qoladiganlar;

2) materialni uzoq vaqt esda saqlaydiganlar;

3) istagan paytda osonlik bilan esga tushiradiganlar. Masalan, ayrim odamlar ko'rgan narsalarini juda yaxshi eslab qoladi, demak, ularning xotirasi **ko'rgazmali-obrazli** bo'lib, ko'zi bilan ko'rmaguncha, narsaning mohiyatini tushunmaydi ham. Boshqalar esa o'zicha fikrlab, nomini aytib, mavhum tarzda tasavvur qilmaguncha, eslab qolishi qiyin bo'ladi. Bundaylar **so'z-mantiqiy** xotira tipi vakillaridir. Yana bir tipli odamlar bevosita his qilgan, —yuragidan o'tkazgan, unda biror yorqin emotsional obraz qoldirilgan narsalarni yaxshi eslab qoladilar, bu — **emotsional** xotiradir. Lekin yana bir xotira egalari borki, ularni **fenomenal** xotira sohiblari deb atashadi. Ma'lumotni xotiradan chaqirib olish omillariga quyidagilar kiradi: **Ma'mulotning anglanganligi.** Biz o'zimiz to'la anglagan, tushungan narsalarni osonroq esga tushiramiz. Masalan, alfavitni juda oson esga tushiramiz, yoki 1, 2, 3, 4 va hakoza tartibli sonlarni bir ko'rgandan so'ng u milliongacha bo'lsa ham esga tushirishimiz sirayam qiyin emas. Lekin shu sonlardan bor yo'g'i 7-8 tasini teskari yoki aralash tartibda yozilgan bo'lsa, ularni esga tushirish ancha mushkul bo'ladi. **Kutilmagan ma'lumot.** Kutilmaganda paydo bo'lgan yangi va yaxshi ma'lumot ham yaxshi esga tushadi. Masalan, sonlar qatorida berilgan bitta harf, yoki aksincha, harflar orasidagi bitta son, uzun jumlar orasida paydo bo'lgan qisqa jumla esga tezroq va aniqroq tushadi. **Ma'lumotning mazmun yoki shakl jihatdan bir-biriga yaqinligi.** Masalan, agar ko'plab bir-biriga bog'liq bo'lmagan so'zlar orasida —erkak va —ayol so'zlari paydo bo'lgan bo'lsa, bittasining esga tushirilishi ikkinchisining ham esda tiklanishiga sabab bo'ladi. **Esda saqlash vaqti bilan esga tushirish vaqti o'rtasidagi farq.** Odamda berilgan ma'lumotni idrok qilish va shu orqali esda saqlash vaqti qanchalik ko'p bo'lsa, esga tushirish ham osonroq bo'ladi. Shuning uchun ham uzoq muddatli xotirada saqlanadigan ma'lumot uzoq vaqt mobaynida, ko'pincha bir necha marta qaytarib beriladi, qisqa muddatlida esa bir marta, qisqa fursatda beriladi va shu narsa esga tushirish kerak bo'lganda, tiklanmaydi. Shaxsning

o‘zi o‘ylab topib, o‘zi bevosita bajargan ishlari juda oson esga tushadi. Bu hodisa psixologiyada **generatsiya** samarasi deb ataladi. Shu o‘rinda xotiraning sakkiz qonunini eslab qo‘yishni maqsadga muvofiq sanaladi.

Kishi uchun yaqqol hayajonli reaksiya vujudga keltiruvchi narsalarongda chuqur iz qoldirib, puxta va uzoq yodda saqlanadi. Samarali xotira kishining iroda sifatlariga ham bog‘liqdir. Samarali xotira kishining umumiy madaniyatiga, uning aqliy saviyasiga, bilimiga, uquviga, fikrlash qobiliyatiga, ko‘nikma va odatlariga ham bog‘liqdir.

5. Anglanganlik qonuni. Qiziqish qonuni. Ilgarigi bilimlar qonuni. Eslab qolishga tayyorlik qonuni. Assotsiatsiyalar qonuni. Birin-ketinlik qonuni. Kuchli taassurotlar qonuni. Tormozlanish qonuni.

Mantiqiylik yoki anganganlik nuqtai nazaridan xotirada ma’lumotlarni saqlashga qaratilgan uslub va vositalar majmui psixologiyada **mnemonika** yoki **mnemotexnika** deb yuritiladi. Psixologiyada mnemotexnik usullarning **eng keng** tarqalgani – bu **tayanch so‘zlarni ajratish** vositasida eslab qolishdir. **Ikkinchi** – qadimgi rimlik voizlar hech qachon o‘z nutqlarida qog‘ozdan – yozuvdan foydalanmaganlar. Bunday mnemotexnik usulni amerikaliklar **loci metodi** deb atashadi. Uchinchi keng tarqalgan **usul** – bu eslab qolinishi kerak bo‘lgan narsalarni ma’no jihatdan guruhlarga bo‘lib turib eslab qolish.

6. Tafakkur. Fikrlashning mohiyati va turlari. Muammoli holatlarda nostandart masalalarni yechishda topqirlik bilan hal etish natijasi sifatida jinoyatning ochilishi. Tergov harakatida sezgirlik (intuitsiya) ning roli.

Zamonaviy psixologiyada tafakkurning 3 turi farqlanadi:

- 1) tashqi harakat tafakkuri;
- 2) ichki obrazli tafakkur;
- 3) mavhum tafakkur.

Tashqi (predmetli) tafakkur kishining amaliy hayotida namoyon bo'ladi. U rivojlanishning barcha bosqichlarida yo'ldosh bo'ladi, kishio;`z faoliyati ob`ektlarini, xulq-atvorini analiz va sintez qilish, o'sib ulg'ayib boradi. Suhbatdoshga murojaat, taqlid qilish, hatti-harakatlarini ko'rsatish yoki ular haqida gapirish hamma vaqt ko'rgazmali garakat tafakkuri bilan bog'liq. Buturning rivojlanishi amaliyotchi yuristning harakat yoki operatorlik faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Ko'rgazmali obrazli tafakkur kishi ilgari idrok etgan ko'rgazmali obrazlar orqali fikllash jarayonidan iborat. Misol uchun, tergov harakatlari o'tkazish chog'ida shahardagi mo'ljalga yetib borish yo'nalishni tashqi obrazlar yordamida tasavvur etadi. Obrazli tafakkur jinoyat ishi bo'yicha gumonlanayotgan shaxslarning bundan keyingi xulq-atvorlarini chamalashga yordam beradi, analitik hujjatlarni, sharhlarni, ilmiy ma'ruzalarni tayyorlashni yengillashtiradi. Rivojlangan obrazli tafakkur amaliyotchi xuquqshunosning kommunikativ, boshqaruv va bilish faoliyatidagi masalalarni hal etishga ko'maklashadi.

Mavhum tafakkur fikriy operatsiyalarni bajarish uchun abstrakt tushunchalar, nazariy bilimlar qo'llanilishi zarur bo'lgan faoliyat sohalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday tafakkur asosan mantiqiy mulohazalar asosida bajariladi. Bu tafakkur huquqshunosga ijtimoiy fanlarning murakkab kategoriyalarini tushunish hamda muomalada ularni qo'llay bilishga yordam beradi.

Masalalarni hal etish jarayonining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda **intuitsiya (tasodifiy bilish)** ishtirok etadi. Intuitsiyani odatda idrokning maxsus metodi sifatida talqin qiladilar, bunda izlanayotgan xulosa tayyoricha mavjudday tuyuladi. Intuitsiya yordamida inson haqiqatni mantiqiy tanlash va isbotlashlarni qo'llamasdan, bevosita taxmin qilish orqali anglab oladi. Intuitiv qarorlar qabul qilishning samaradorligi ko'pgina omillarga bog'liq. Bu o'rinda sudya yoki tergovchining tajribasi, bilimlari, qobiliyati, ko'nikmalari juda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ularning psixologik holatlari katta rol o'ynaydi.

Birdamlik, ko‘tarinki kayfiyat holati intuitiv qarorlarning hosil bo‘lishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, aksincha, hadiksirash, tushkun kayfiya, ishonchsizlik intuitsiyani xom xayol darajasiga tushirib qo‘yadi. Intuitsiya ayni chog‘da insonning individual-psixologik xususiyatlariga ham bog‘liqdir: ayrim kishilar ko‘p xollarda dalillar mantiqi asosida ish ko‘rishga moyil bo‘lsalar, boshqa kishilar intuitsiyaga asoslanib, ishga kirishadilar. Biroq hamma xolda ham tajriba poydevor bo‘lib qolaveradi.

Nazorat savolari

1. Kognitiv jarayonlari deganda psixologiyada aynan nimalar nazarda tutiladi?
2. Kognitiv jarayonlari va ularning umumiy xususiyatlari nima bilan izohlanadi?
3. Sezgi qanday turlarga bo‘linadi? Iroda, tafakkur, nutqchi?
4. Rubin figurasi haqida nimalarni bilasiz?
5. Idrok qilish jarayonlariga xos qanday qonuniyatlar klassifikatsiyasi mavjud?
6. Qaysi psixik jarayon idrokning aniqligi va samaradorligini ta’minlaydi?
7. Diqqatni jalb etishning qanday universal qoidalari (qonunlari)ni bilasiz?
8. Eslab qolish xususiyatiga ko‘ra xotiraning qanday turlari bor va ularni qisqacha izohlab bering?
9. Xotiraning sakkiz qonuni qanday tasniflangan?
10. O‘zlashtirilish lozim bo‘lgan ma’lumotning xotirada saqlanish bosqichlari qanday mezonlarga asoslanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев Ю. ва бошқалар. Хукукий психология муқаддимаси. Фарғона.1998. Ўқув қўлланма. -130 б. —Ибратл нашр.
2. Чутбоев М.Р. ва бошқалар. Бола савдоси жинояти билан боғлиқ муаммоларни бартараф этиш масалалари

юзасидан методик тавсиялар. Т. —Юрист-медия маркази, 2019.-60 б.

Testlar:

1. Yuridik shaxs kasbiy faoliyatining umumiy ijtimoiy-psixologik tavsifnomasi.

A) xuquqni muhofaza qilishga doir faoliyatining ijtimoiy-psixologik tavsifnomasi

B) prokurorning kasbiy faoliyati

V) sudning kasbiy faoliyati

G) tergovchining kasbiy faoliyati

D) jinoyatchi faoliyati.

2. Yuridik shaxs psixologiyasi qanday xususiyatlar?

A) kasbiy ahamiyati kasb etadigan xususiyatlar

B) konvensidlilik

V) rivojlangan xuquqiy ongi

G) axloqiy meyori

D) hammasi

3. Intuitsiya nima?

A) tasodifiy bilish

B) tanib olish

V) taxmin qilish

G) ko‘rib olish

D) barcha javoblar to‘g‘ri

4. Tafakkurning nechta turi bor?

A) 3 ta B) 4 ta V) 5 ta G) 6 ta D) 7 ta

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Kognitiv jarayonlarning umumiy tasnifi.

2. Sezgilar va ularning umumiy psixofiziologik qonuniyati, tergov amaliyotida bu bilimlardan foydalanish.

3. Idrok va uning xususiyatlari.

4. Guvohlik ko‘rsatmalarida idrok qonuniyatining vujudga kelishi.

5. Kuzatish va kuzatuvchanlik.
6. Diqqat, uning umumiy xarakteristikasi va asosiy xususiyati.
7. Tergovchi faoliyatida diqqatning mohiyati.
8. Xotiraning turlari va tiplari.
9. So‘roq jarayonida xotira qonuniyatining vujudga kelishi va undan foydalanish.
10. Tergov jarayonida esga tushurish, yordam ko‘rsatish usullari.
11. Tasavvurning qabul qilinishi, xotira va fikrlash bilan bog‘likdigi, ularning tergovchi amaliyotidagi o‘rni.
12. Fikrlashning mohiyati va turlari.
13. Muammoli holatlarda nostandart masalalarni yechishda topqirlik bilan hal etish natijasi sifatida jinoyatning ochilishi.
14. Tergov harakatida sezgirlik (intuitsiya) ning roli.

4– MAVZU . EMOTSIYA VA IRODAVIY JARAYONLAR

Reja:

1. Hissiyot tushunchasi va turlari. Hissiyot faoliyatni boshqaruvchi jarayon sifatida.
2. Affekt holatida jinoyat sodir etishning psixologik tavsifi. Sog'lom, nopatologik va chegaralangan hissiy holat (frustatsiya, agressivlik, depressiya, shok, bezovtalik, fobiya va boshqalar).
3. Iroda jarayonlari va xolatlari. Iroda tushunchasi, iroda harakati, ularning tuzilishi.
4. Munozarali (nizoli) holatlarda foliyatni irodaviy boshqarish.

Tayanch tushunchalar:

Ehtiros - muayyan faoliyat turiga kuchli intilish bilan bog'liq davomli va barqaror emotsional holat

Affekt - (lotincha affektus-ruhiy hayajon) kuchli, jo'shqin va nisbatan qisqa muddatli emotsional kechinmalar tariqasida ro'y beradigan psixologik holat

Stress – qisqa va uzoq davom etadigan kuchli ruhiy hayajonlanish holati

Hissiyot (emotsiya – lotincha hayajonlanish, qo'zg'alish demakdir) kishining real borliqqa nisbatan shaxsiy munosabatiga oid kechinma

1. Hissiyot tushunchasi va turlari. Hissiyot faoliyatni boshqaruvchi jarayon sifatida.

Xuquqshunoslik faoliyati xodimlari o'z faoliyatlarida ko'pincha asabiy taranglik holatlarini boshdan kechiradilar. Shuning uchun bu soha xodimlari o'zlarini jismoniy va ruhiy jihatdan asrashi, qobiliyatlarini yo'qotmaslik uchun har qanday sharoitda his-tuyg'ularini jilovlashi, boshqara bilishi zarur.

Hissiyot (emotsiya – lotincha hayajonlanish, qo'zg'alish demakdir) kishining real borliqqa nisbatan shaxsiy munosabatiga oid kechinmalaridir. Hissiyot tushunchasi boshdan kechirilayotgan

his-tuyg'ularning aniq, nisbatan oddiy shaklini anglatadi va faoliyatni boshqarishda yetakchi jarayon sifatida namoyon bo'lishi mumkin. His-tuyg'ular ijobiy va salbiy ma'no-mazmunga ega bo'ladi. Ijobiy his-tuyg'ular qoniqish, quvonch, hayrat, shodlik, g'ururlanish, o'ziga ishonch, yoqtirish, nazokat, muhabbat, minnatdorlik, xotirjamlik, yengil tortish va hokazolarni bildiradi. Salbiy his-tuyg'ular sirasiga g'am-qayg'u, qoniqmaslik, zerikish, g'am-g'ussa, nochorlik, xafalik, xavfsirash, qo'rquv, daxshatga tushish, afsus, qayg'urish, hafsalaning pir bo'lishi, g'azab, nafrat, rashk, shubha, uyat va hokazolar kiradi.

Ijobiy his-tuyg'ular asab tizimiga o'z navbatida ijobiy ta'sir ko'rsatib, organizmning sog'lomlashuviga sabab bo'lsa, salbiy his-tuyg'ular esa uning yomonlashuviga, xastalanishiga olib keladi. Kishi hayotida his-tuyg'ularning kayfiyat, ehtiros va affekt singari ko'rinishlari mavjud.

Kayfiyat – eng muhim ahamiyatga ega emotsional holatlardan bo'lib, kechinmalarning ma'lum vaqt mobaynida davomiyligi va ixtiyorsizligini belgilaydi. Xuquqshunos kayfiyatini boshqara olishi, zarurat tug'ilganda esa ta'sir o'tkazilayotgan, muloqotda bo'linayotgan ob'yekt (kishi)da muayyan kayfiyatni uyg'ota bilishi lozim. Kayfiyat tug'diruvchi sabab va shart-sharoitlar to'rt guruhga bo'linadi: Organizmdagi jarayonlar (bemorlik, charchoq kayfiyatni tushiradi, aksincha tansihatlik, to'laqonli uyqu kayfiyatni yaxshilaydi).

Tashqi muhit (ifloslik, shovqin-suron, dimiqqan havo, asabni buzadigan tovushlar, xonaning yoqimsiz bo'yog'i kayfiyatga yomon ta'sir qiladi. Ozodalik, sokinlik, toza havo, yoqimli musiqa, xonaning yorqin bo'yoqlari kayfiyatni ko'taradi). Kishilar o'rtasidagi munosabatlar (atrofdagi kishilarning xushmuomalaligi, ishonchi va odobi, qo'llab-quvvatlashi insonni tetiklashtiradi va hayotga muhabbatni oshiradi, qo'pollik, befarqlik, ishonchsizlik, beodoblik esa kishi kayfiyatini buzadi).

Fikrlash jarayoni (obrazli tasavvurlarda aks etgan ijobiy his-tuyg'ular ko'tarinki kayfiyatni belgilaydi, salbiy his-tuyg'ular

uyg‘otuvchi obrazlar, tasavvurlar kayfiyatga salbiy ta’sir qiladi).

Ehtiros muayyan faoliyat turiga kuchli intilish bilan bog‘liq davomli va barqaror emotsional holatdir. Faoliyat esa ijobiy yoki salbiy mazmun kasb etishi mumkin.

Xuquqshunos faoliyatida estetik his-tuyg‘ular katta ahamiyat kasb etadi. Ular muomalada yanada yaqqol namoyon bo‘lib, suhbatdoshining estetik kechinmalarini his etgan va ularga lozim darajada munosabat bildira olgan kishi odatda, obro‘-e’tibor va hurmatga sazovor bo‘ladi.

Vaziyatning ta’siroti odam organizmida kuchli hayajonlanish holatini vujudga keltirishi va bu xuquqshunos ishchanligini oshirishi yoki bemorlik holatiga tushirib qo‘yishi mumkin. Ko‘pincha kuchli hayajonlanish oqibatida kishining kasallikka duchor bo‘lib qolishi ehtimoli bo‘ladi. Hissiyotlarni jilovlay oladigan xuquqshunos xavf-xatar bosqichini yengib o‘tib, stress omillari bilan faol kurasha oladi va o‘zini qo‘lga ola biladi. Hissiyotga beriluvchi xuquqshunosda xavf-xatar hissi qo‘rquvga aylanadi va oxir-oqibatda kishini vahimaga, xolsizlikka duchor qiladi. Kishilarning stress holatlariga bardoshliligi ikki yo‘l bilan, ya’ni hissiyotlarini jilovlashni mashq qilish va o‘qib-o‘rganish bilan ta’minlanishi mumkin. Umuman olganda, har qanday noqulay vaziyat, noxush holatning o‘tkinchiligini doimo hisobga olish insonning qiyinchiliklar oldida dovdiramassligi, xotirjamligini saqlashi, kayfiyatining ko‘tarinki bo‘lishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida ish unumdorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, jamoa va oilada sog‘lom psixologik muhitning barqaror bo‘lishini ta’minlaydi.

Inson his-tuyg‘ularini tarbiyalash faqat faoliyat orqaligina amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun maxsus ishlab chiqilgan trening – «his-tuyg‘ular gimnastikasi»dan foydalaniladi. Shuningdek, autotrening mashqlari ham qo‘llanilib, muayyan samaralarga erishishi mumkin. Bu mashqning asosiy quroli – o‘ziga aytilgan so‘z bo‘lib, kishi o‘zini o‘zi ishontrish orqali katta natijalarga erishishi tajribalarda isbotlangan.

Muntazam va sabot bilan o‘tkazilgan mashg‘ulotlar orqali

asablarni bo'shashtirib olsa bo'ladi. Autotrening ko'nikmalarini hosil qilgan yurist turli vaziyatlarda o'z istagiga ko'ra nafas olishini sekinlashtirishi, yurak urishini bir maromga solishi, qon tomirlarini kengaytirishi yoki toraytirishi, jiddiy vaziyat, holatlarda sovuqqonligicha qolishi mumkin. Amaliyotchi yurist autogen mashg'ulotlar yordamida orttirgan ko'nikmalari tufayli o'z kuchiga ishonchi mustahkamlanadi, bu esa uning irodaviy barqarorligini ta'minlaydi hamda doimiy o'zgarib turuvchi shart-sharoitlarga darhol moslashish imkonini beradi.

Emotsional jarayonlar, holatlar yoki tor ma'noda emotsiyalar hissiy kechinmalarning o'ziga xos xususiyat shakllaridan biridir. Emotsiya – shaxsning vokelikka o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalardir.

2. Affekt holatida jinoyat sodir etishning psixologik tavsifi.

Sog'lom, nopatologik va chegaralangan hissiy holat (frustatsiya, agressivlik, depressiya, shok, bezovtalik, fobiya va boshqalar).

Xuquqshunos har qanday ehtirolarga, shart-sharoitlarga bog'liq ravishda kayfiyatni moslashtirishi va affekt darajasiga tushmaslikka harakat qilishi lozim.

Affekt – turli tashqi yoki ichki ta'sirlar asosida tez paydo bo'lib, qisqa muddatli, aksariyat xollarda portlash tarzida bo'ladigan, kuchli ifodalanadigan hissiy holat (qo'rqinch, dahshat, g'azab). Affekt kayfiya va ehtirosdan farqli ravishda, insonning kuchli, shiddat bilan kechadigan va nisbatan qisqa muddatda o'tib ketadigan hissiy holati. Affekt inson jismining keskin ifodali harakatlari va baland ovozda so'zlash natijasida namoyon bo'ladi. Tashqi ifoda shakllari ichki affekt singari ko'p jihatdan insonning shaxsiy xususiyatlari, jumladan, uning irodasi, tarbiyasi, oliy asab tizimining tipologik xususiyatlariga bog'liq. Affektning yo'qligi ma'lum darajada insonning hayotga moslashganligidan dalolat beradi. Affektning mavjudligi esa aksincha. Affektni to'xtatish

uchun kuchli iroda kerak bo'ladi.

K.Turg'unovning lug'ida aytilishicha, affekt tez va kuchli paydo bo'lib, shiddat bilan o'tadigan qisqa muddatli emotsional holatdir. Affektlar ko'pincha to'satdan paydo bo'ladi va ba'zan bir necha daqiqa davom etadi. Affekt holatida kishini ongini tasavvur qilish, fikr qilish qobiliyati torayadi, susayib qoladi. Affekt vaqtida odamning harakatlari kutilmagan tarzda portlash singari birdaniga boshlanib ketadi. Ba'zan affektlar tormozlanish holati tarzida namoyon bo'ladi va bunday holatda organizm bo'shashib, harakatsiz bo'lib va shalvirab qoladi. Bunday holat odam ko'nincha qo'rqqanda, to'satdan quvonganda o'zini yo'qotib qo'yish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Affekt holatini boshlanishida shaxs insoniy qadriyatlarning barchasidan uzoqlashib, o'z hissiyotining oqibati to'g'risida ham o'ylamaydi, hatto tana o'zgarishlari, ifodali harakatlar bilinmay qoladi. Kuchli zo'riqish oqibatida mayda kuchsiz harakatlar barham topadi.

3. Iroda jarayonlari va xolatlari. Iroda tushunchasi, iroda harakati, ularning tuzilishi.

Iroda-insonning fikrlash jarayoni asosida qaror qabul qilish va qabul qilingan qarorga muvofiq o'z fikrlari va harakatlarini boshqarish qobiliyati.

Qaror qabul qilishning faol jarayoni sifatida iroda atrofdagi ogohlantirishlarga passiv, noaniq javob bilan taqqoslanadi.

Iroda-bu shaxsning o'z xatti-harakati va faoliyatini ongli ravishda va maqsadli ravishda tartibga solish va nazorat qilish qobiliyati, bu maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklar va to'siqlarni yengish uchun aqliy va jismoniy imkoniyatlarni safarbar qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Ixtiyoriy harakatlar oddiy va murakkab bo'linadi. Oddiylarga odam ikkilanmasdan mo'ljallangan maqsadga boradigan joylar kiradi. Murakkab harakatda, bu harakatni murakkablashtiradigan juda murakkab jarayon turtki va harakatning o'zi o'rtasida birlashadi.

Murakkab ixtiyoriy harakatda olimlar to'rt bosqichni ajratib ko'rsatishadi:

- motivatsiyaning paydo bo'lishi va maqsadni dastlabki belgilash.

- motivlarning muhokamasi va kurashi.

- qarorlar qabul qilish.

- yechimning bajarilishi.

Ixtiyoriy harakat oqimining o'ziga xos xususiyati shundaki, uni amalga oshirish shakli har qanday bosqichdagi ixtiyoriy harakatlardir. Ixtiyoriy harakatning bajarilishi neyro-ruhiy stress hissi bilan bog'liq.

Iroda» tushunchasi psixiatriya, psixologiya, fiziologiya va falsafada keng qo'llaniladi. Adabiyotlarda iroda o'zining oldiga qo'ygan maqsadga erishish vositasi deb qaraladi. Borliqni aks ettirish, faoliyatni muayyan yo'nalishda tashkil qilish, muammolar yechimini egallash yuzasidan ma'lum bir qarorga kelish, uni amalga oshirish jarayonida qiyinchiliklarni yengish harakatlar yordami bilan ro'yobga chiqadi. Aynan shu harakatlar irodani aks ettiradi.

Iroda odamning o'z xatti-harakatini ongli suratda tartibga solishdir, bu esa ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda uchragan to'siqni bartaraf qilishda ifodalanadi. Odamning o'z faoliyatini va xatti-harakatini tartibga solish, umuman, shunda ifodalanadiki, u lozim bo'lib qolgan holda harakat va amalni ishga solishi, bu harakat va amalni kuchaytirishi yoki susaytirishi, tezashtirishi yoki sekinlashtirishi, vaqtincha to'xtatishi, keyin yana davom ettirishi, maqsadga erishilgandan so'ng esa butunlay to'xtatishi mumkin. Xatti-harakatlarni tartibga solish va to'siqlarga qarshi kurashish protsessida yuz beradigan har qanday o'zgarish kishida irodaviy zo'r berish hissinin tug'diradi.

Odam irodasi butun ong bilan bog'langandir, shuning uchun ham irodaviy nazorat bo'lmagan biror-bir ongli harakatini uchratish qiyin. Lekin bu nazorat har xil tipdagi ish-harakatlarda bir xilda ifodalanavermaydi. Bir xil ish-harakatlarda, ayniqsa ular qiyin va yangi ish- harakatlar bo'lsa, bu nazorat ravshan namoyon bo'ladi

(ayni shunday ish-harakatlar asli irodaga taalluqli bo'ladi);

ikkinchi bir xil, o'rganib qolingani ish-harakatlarda, ayrim operatsiyalarning avtomatlashganligi sababli, nazorat kuchsiz bo'ladi;

uchinchi bir xil, affekt harakatlarda nazorat uzilgan yoki butunlay buzilgan bo'ladi. Irodaviy ish-harakatlar har xil bo'lishi: ijtimoiy va shaxsiy, kollektiv va individual mehnat, o'qish va o'yinlarga oid ish-harakatlar bo'lishi mumkin.

Iroda tushunchasi falsafada tug'ilgan, bu yerda iroda ongning o'z taqdirini o'zi belgilash qobiliyati, shu jumladan, axloqiy va o'ziga xos sabablarni keltirib chiqarish qobiliyati sifatida belgilanadi. Psixologiya va nevrologiyaga o'tib, irodaning ta'rifi axloqiy jihatni yo'qotdi va faqat aqliy funktsiya sifatida talqin etila boshlandi. Irodani yuqori aqliy funktsiyalarga an'anaviy ravishda bog'lash, uni hayvon emas, balki insonning mulki sifatida taqdim etish haqida gapiradi, garchi ba'zi hayvonlarni o'rganish bu tushunchani shubha ostiga qo'yadi.

Ba'zi psixologlar iroda tushunchasini aqliy funktsiya sifatida insonning maqsadga erishishga intilish qobiliyati bilan aralashtiradilar, natijada quyidagi ta'riflarni topish mumkin: "Iroda — bu maqsadga erishishda qiyinchiliklarni yengib o'tishni ta'minlaydigan o'z faoliyati va xulq-atvori sub'ekti tomonidan ongli ravishda tartibga solish."

Odam tevarak — atrofdagi narsalarni o'zgartirib o'ziga moslashtirar ekan, yangilik yaratadi, ijod qiladi, shu yangilikni tevarak-atrofdagi voqelikka qo'shadi, voqelikni o'zgartiradi va to'ldiradi. Umuman olganda, odam har doim harakat qilmasdan tura olmaydi. Ana shu jihatdan olganda odamning barcha harakatlarini ikki turkumga bo'lish mumkin. Ulardan birinchisi ixtiyorsiz harakatlar bo'lsa, ikkinchisi ixtiyoriy harakatlardir. Odamning ixtiyorsiz harakatlari qat'iy bir maqsadsiz, ko'pincha impul'siv tarzda, ya'ni reflektor tarzda yuzaga keladi. Ixtiyorsiz harakatlar har qanday sharoitda yuz berishi mumkin. Ixtiyorsiz harakatlar ba'zan, odamning aqliy faoliyatlari bilan ham bog'liq bo'ladi. Chunonchi,

ixtiyorsiz idrok, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyorsiz esda olib qolish, ixtiyorsiz esga tushirish holatlari ham bo‘ladi. Bunday xollarda odamning ixtiyorsiz harakatlari idrok qilinayotgan narsaning boshqa narsalardan keskin farq qilishi yoki odamning qiziqishlari, ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Ixtiyoriy harakatlar iroda bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlardir. Ixtiyoriy harakatlar oldindan belgilangan maqsad asosida to‘la ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlardir. Lekin ixtiyoriy harakat deganda, faqat jismoniy harakatlar emas, balki, aqliy harakatlar ham tushuniladi. Shunday qilib, iroda tushunchasiga nisbatan adabiyotlarda turlicha ta’riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiy darsligida iroda – bu kishining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishida qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o‘z- o‘zini boshqarishi demakdir, deb ta’riflanadi.

Q.Turg‘unov muallifligidagi lug‘atda ta’riflanishicha, iroda – shaxsning ongli harakatlarida, o‘z-o‘zini bilishida ifodalanadigan, ayniqsa maqsadga erishish yo‘lida uchraydigan jismoniy va ruhiy qiyinchiliklarni yengib chiqishda namoyon bo‘ladigan ixtiyoriy faolligidir. M.Vohidov fikricha, iroda deganda biz oldindan belgilagan, qat’iy bir maqsad asosida amalga oshiriladigan va ayrim qiyinchiliklarni, to‘siqlarni yengish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlarni tushunamiz. Professor E.G‘oziyevning —Umumiy psixologiya darsligida iroda-bu tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishni talab qiladigan qiliqlarni va harakatlarni inson tomonidan ongli bosh qarilishidir, deb keltiriladi. Umuman olganda iroda shaxs faolligining ko‘rinishi hisoblanadi.

Irodaviy ya’ni ixtiyoriy harakatlarning nerv – fiziologik asosida bosh miya katta yarim sharlari po‘stlog‘ining shartli reflekslar hosil qilishdan iborat bo‘lgan murakkab faoliyati yotadi. Irodaviy harakatlar har doim to‘la ongli harakatlar bo‘lgani uchun bosh miya po‘stlog‘ida yuzaga keladigan optimal qo‘zg‘alish manbalari bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Bu haqda akademik I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: —Mening tasavvurimcha, ong ayni shu

chog‘da xuddi shu sharoitning o‘zida ma’lum darajada optimal (har xolda o‘rtacha bo‘lsa kerak) qo‘zg‘alishga ega bo‘lgan bosh miya katta yarim sharlarining ayrim joylaridagi nerv faoliyatidan iborat. Bundan tashqari irodaviy harakatlar ongli harakatlar sifatida ikkinchi signallar tizimining faoliyati bilan bog‘liqdir. Ma’lumki, odam ayrim nojo‘ya harakatlardan o‘zini so‘zlari orqali (ya’ni o‘ziga-o‘zi pand - nasihatlar qilish yoki tarbiya berish orqali) ushlab qoladi. Shuning uchun irodaviy, ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda ikkinchi signallar tizimining roli juda kattadir. Ana shu sababdan bo‘lsa kerak, akademik I.P.Pavlov ikkinchi signallar tizimiga baho berib, bu signallar tizimi insonlar xulq-atvori va ixtiyoriy harakatlarining yuksak boshqaruvchisidir, – degan edi. Shuni ham aytish kerakki, iroda ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslangan xolda ishlaydi. Agar ikkinchi signallar tizimi o‘z faoliyatida birinchi signallar tizimiga asoslanmasa, odamning aks ettirish jarayoni ma’lum bir tizimli, ma’noli bo‘lmaydi. Ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslanishi bilan birga uning faoliyatini boshqarib, nazorat qilib turadi. Demak, irodaviy, ixtiyoriy harakatlarda ikkinchi signallar tizimi bilan birga birinchi signallar tizimi ham ishtirok etadi. Irodaviy ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda nerv tizimining umumiy normal holati ham juda katta ahamiyatga egadir. Masalan, uzoq davom etadigan qattiq kasallikdan so‘ng nerv tizimi nihoyatda madorsizlanib, odamning irodasi bo‘shashib ketadi. Odam biror ishdan qattiq charchagan paytda ham nerv tizimi zaiflashib, irodasi bo‘shashib ketadi. Ana shuning uchun irodaning mustahkamligini ta’minlash maqsadida odam vaqti – vaqti bilan dam olib turishi kerak. Ixtiyoriy harakatning dastlabki boshlang‘ich nuqtasi harakat maqsadining vujudga kelishi va shu maqsadning o‘rtaga qo‘yilishidir va uning tuzilishini quyidagicha izohlash mumkin. Maqsad - kishining shu paytda ma’qul yoki zarur deb topgan ish harakatini tasavvur etish demakdir. Masalan, inson pedagogika universitetiga kirib o‘qishni zarur deb topdi yoki viloyatga ish bilan borib kelish zarurligini tushundi, deylik. Bularning hammasida kishining maqsadi o‘z-

o'zidan zohir bo'layotganga o'xshaydi, ba'zan esa bu maqsad bir qadar fikr yuritish natijasida yuzaga keladi. Ehtiyoj ko'ngildan kechib, mudom kuchaygan shu ehtiyojni qondirishga intilish maqsadi ham anglanila boshlaydi. Bunday anglanilgan ehtiyojlar tilak-havaslar deb ataladi. Harakat motivlari va motivlar kurashi. Kishi biron maqsadni, ayniqsa, shu maqsadga yetish uchun biron yo'l va usulni tanlar ekan, nega boshqa maqsadni emas, xuddi shu maqsadni tanlashi kerak, bu maqsadga nima uchun boshqa yo'llar bilan emas, balki mana shu yo'llar bilan hal etishi kerak degan savolni ko'ngildan o'tkazadi. Maqsadni va unga yetish yo'lini tanlash jarayonida unga ma'qul yoki noma'qulligi nuqtai nazaridan baho beriladi. Maqsadni va unga yetishish yo'llarining ma'qulligi yoki noma'qulligini belgilab beradigan hamma narsa ish-harakat motivlari deb ataladi. Kishi nega boshqa bir maqsadni emas, balki xuddi shu vositalar bilan ish ko'rishni, yoki ish ko'rmoqchi bo'layotganining sababi nima degan savolga javob motiv mazmunini tashkil etadi. *Qarorga kelish.* Maqsadga yetishish yo'llarini va vositalarini tanlash jarayonida rejalashtirish, motivlar kurashi bilan bog'langan bo'lib, qarorga kelish bilan tugaydi. Qarorga kelish-muayyan bir maqsadni va shu maqsadga erishish yo'lida harakat usullaridan birini tanlab olish demakdir. Motivlar kurashida buning ma'nosi shuki, motivlardan biri hal qiluvchi rol o'ynagan bo'ladi. Masalan, kechqurun qayoqqa borish kerak – teatr gami yoki o'rtog'ining yonigami-degan motivlar kurashi natijasida kishi bormoqchi bo'lgan joyi haqida qarorga keladi. *Qarorni ijro etish.* Qaror unga muvofiq keladigan choralar ko'rish va harakat qilish uchun qabul qilinadi. Qarordan harakatga o'tishni ijro qilish (yoki bajarish) deyiladi. Irodaviy jarayonda eng muhim narsa-qabul qilingan qarorni ijro etishdir. Irodaviy harakatlar ikki xil bo'ladi: jismoniy va aqliy harakatlar. Jismoniy harakatlarga har xil mehnat operatsiyalari, o'yin, sport mashg'ulotlari va boshqalar kiradi. Aqliy harakatlarga esa masala yechish, yozma ishlar, dars tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va shu kabilar kiradi. Ko'p vaqt takrorlanib, o'zlashib ketgan ko'nikma va odat bo'lib ketgan

harakatlar ham murakkab irodaviy harakatlardandir. *Irodaviy zo'r berish*. Qabul qilingan qaror to'g'ridan-to'g'ri, avtomatik ravishda amalga oshirilavermaydi. Qabul qilingan qarorni amalga oshirish uchun ongli ravishda irodaviy zo'r berish ham kerak. Irodaviy zo'r berish ongning avvalo nerv-muskul apparatining zo'riqishida ifodalanadi va organizmning tashqi ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Irodaviy zo'r berishning ana shu ifodali tomoni odamning iroda holatini tasvirlovchi badiiy asarlarda gavdalanitirilganini ko'p uchratish mumkin.

4. Tergov va sud jarayonlarida hissiy boshqarish va uni hisobga olish. Iroda jarayonlari va holatlari. Iroda tushunchasi, iroda harakati ularning tuzilishi.

Kishining irodaviy sifatlari ya'ni iroda kuchi, mustaqilligi jihatidan ayrim xollarda turlicha namoyon bo'ladi. Har bir kishida irodaning ayrim sifatlari umr bo'yi mustahkamlanib, shu odamning xususiy sifatlari (ya'ni doimiy xislatlari) bo'lib qolishi mumkin. Shaxsning bu o'ziga xos xususiyatlari xarakter xislatlari deb ataladi. Har bir kishidagi biron bir irodaviy sifatlarning har qanday namoyon bo'lishi shu kishi xarakterining xislati bo'lavermaydi. Ayrim xollarda hatto tasodifiy ravishda kishi kuchli iroda ko'rsatishi mumkin, ayrim xollarda mazkur kishining irodasi, umuman kuchli iroda kuchi shu kishi xarakterining xislati ekanligidan dalolat beravermaydi. Bu kishining irodasi kuchli deb aytish uchun uning iroda kuchini bir marta emas, bir necha marotaba namoyon qilganini bilmoq kerak. Kishining xarakterini ta'riflaganimizda falon kishi dadillik qildi, rost gapirdi demasdan, balki bu odam dadil, rostgo'y, to'g'riso'z deb ataymiz. Buning ma'nosi shuki dadillik va rostgo'ylik, to'g'riso'zlik shu odamning xususiyatlaridir, xarakter xislatlaridir, tegishli sharoitda bu kishi dadillik, rostgo'ylik, to'g'riso'zlik xislatlariga ega ekanligini namoyon qildi, deb aytamiz. Kishi xarakterini, xislatlarini bilib olgach, uning biron ish-harakatda qanday yo'l tutishini ancha aniq bilib olamiz, oldindan aytib bera olamiz. Iroda kuchi irodaning

muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi irodaviy jarayonning hamma bosqichlarida ko‘rinadi. Iroda kuchi avvalo ehtiyojlarni his qilishda va intilishda ko‘rinadi, biz kuchli hamda kuchsiz intilishlarni, kuchli hamda kuchsiz hoxishlarni farq qilamiz. Jasorat shunday qarorki, u go‘yo ish-harakatga aylanadi. Bu ish-harakat esa kuchli zo‘r berishni talab qiladi. Xarakter xislati bo‘lgan dadillikda odamning qanchalik puxta o‘ylab ish ko‘rishiga qarab, bu dadillik maxsus tusga kiradi. Jasurlik kishining omonligi va hayoti uchun havfli bo‘lgan to‘sqinliklarni bartaraf qilishda ko‘rinadigan iroda kuchidir. Masalan, parashyutchi har gal o‘zini samolyotdan tashlaganda jasurlik qiladi. Jasurlik o‘zini tuta bilishga chambarchas bog‘liq. Jasurlik bor joyda o‘zini tuta bilishlik mavjud. Kishi o‘zini tuta bilsa jasurlik qila oladi. Biron maqsadga yetishish yo‘lida muttasil jasurlik ko‘rsatish, dovyuraklik jasorat deyiladi. Sabot-matonat xarakterning eng qimmatli xislatidir. Bu xislat kishining maqsadga yetish yo‘lida qanday qiyinchilik va to‘sqinliklar bo‘lishidan qat‘iy nazar shu maqsadga erishishda o‘z ifodasini topadi. Xarakter xislati bo‘lgan sabot-matonat ba‘zi kishilar faoliyatining hamma sohalarida namoyon bo‘ladi, boshqa kishilarda esa bu xislat ularning manfaatlari bilan bog‘langan, va ayrim faoliyat sohalarida ko‘rinadi. Tashabbuskor kishi shaxsiy hayotida ham, ijtimoiy faoliyatida ham vaziyat va turmush talablarini hisobga ola biladi, shu bilan bir vaqtda vazifalarni ilgari suradi, qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun yo‘l va vositalari tanlaydi va bu vazifalarni hal etishda faol ishtirok etadi. Mustaqillik qilinilmagan va qilinilgan ish-harakatlar uchun javobgarlik sezishda ko‘rinadi. Javobgarlikni sezish ayni harakatlarning to‘g‘riligiga, maqsadga muvofiq ekanligiga va zarurligiga ishonch hosil qilish demakdir. Irodaning axloqiyligi hayot va faoliyatda iroda kuchi, uning mustaqilligiga ijobiy yoki salbiy baho berganda qanday to‘sqinlik va qiyinchiliklar bartaraf qilinganligini nazarda tutish bilangina cheklanib qolmay, asosan kishining axloqiy qiyofasi irodaviy harakatlarda qanchalik ifodalanishi, biron odamning irodasi naqadar axloqiy ekanligi ham nazarda tutiladi.

5. Munozarali (nizoli) holatlarda faoliyatni irodaviy boshqarish.

Huquq - tartibot idoralari xodimlari yoki sudyaning xulq-atvori o'z moxiyatiga ko'ra tasodifiy yoki palapartish emas, balki ongli, maqsadga yo'naltirilgan bo'lib hisoblanadi. Bunday xulq-atvor irodali xulq-atvor deb ataladi hamda yuridik mehnat sohibidan muayyan irodaga xos xislatlarni talab etadi. Qat'iyat, tashabbuskorlik, matonat, chidamlilik, bardoshlilik, o'zini tuta bilish, jasorat iroda fazilatlaridir. Aksincha, qat'iyatsizlik, chidamsizlik, beqarorlik, betoqatlik, dangasalik, qo'rqqoqlik kabi salbiy xislatlar irodani bo'shashtiradim kishini irodasiz qilib qo'yadi. Bunday kishilar eng oddiy ishni ham oxiriga yetkaza olmaydilar. Demak, yuristlarda iroda kuchli shakllangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tergov jarayonida yurist, ayniqsa tergovchi juda og'ir-bosiqlik bilan ish turishi lozim. Yuridik faoliyat xodimlari o'z ishlarida ko'pincha asabiy taranglashish holatlarini boshdan kechiradilar. Shuning uchun yurist o'zini asrash, ishchanlik qobiliyatini yo'qotmaslik uchun har qanday sharoitda his-tug'ularini jilovlashi, boshqara bilishi zarur.

Nazorat savollari:

1. Emotsiya haqida tushuncha bering
2. Tergov amaliyotida emotsiyalarining ta'siri qanday bo'ladi?
3. Affekt holatida jinoyat sodir etishning psixologik tavsifini ayting.
4. Sog'lom, nopatologik va chegaralangan hissiy holat deganda nimani tushunasiz?
5. Tergov va sud jarayonlarida hissiy boshqarish va uni qanday hisobga olinadi?
6. Iroda jarayonlari va holatlarini izohlang.
7. Iroda tushunchasi, iroda harakati ularning tuzilishini ta'riflang.
8. Munozarali (nizoli) holatlarda faoliyatni qanday irodaviy boshqariladi?
9. Jinoyatni tergov qilish jarayonida iroda holati qanday

boshqariladi?

Testlar:

1. Yuridik faoliyatdagi shaxs qanday strukturaga ega?

- A) ehtiyoj
- B) motiv
- C) qiziqish
- D) hammasi ishtirok etadi

2. Yuridik faoliyatdagi shaxs uz kasbiy faoliyatida qanday psixik jarayonlar qonuniyatlarini hisobga olishi kerak?

- A) diqqat-e'tibor
- B) xavotirlanish
- C) tafakkur qilish
- D) idrok etish, sezish, hamma psixik jarayonlar

3. His-tuyg'ular, sezgilar, psixik holatlarni psixologik-xuquqiy baholash?

- A) ob'yektiv olamni aks ettirish
- B) psixik keskinlik holatlari
- C) bezovtalik
- D) frustratsiya, barcha holatlarda ham baholanadi

4. Yuksak hislarni sanab uting.

- A) nafosat
- B) axloqiy
- C) aqliy
- D) hammasi

5. Emotsiyaning ifodalanishi qaysi xollarda ifodalanadi?

- A) emotsional
- B) kayfiyat
- C) stress
- D) hammasida ham

6. Emotsiyaning qanday ko'rinishlari bor?

- A) statik
- B) dinamik
- V) xaotik
- D) hammasi uyg'unlashsa

7. Fizologik affektning informativ belgilari qaysilar?

- A) qisqa vaqt oralig'ida katta kuch bilan sodir bo'ladi.
- B) normal doirada o'rganiladigan
- C) neyrodinamik jarayon D) hammasi

8. Affekt holatining yuzaga kelish sabablari qanday?

- A) ikki xil sabab
- B) inson hayotiga xavf tug'diruvchi biologik instinkt va ehtiyojga bog'liq
- C) inson shaxsiga qattiq shikast yetkazuvchi insonning o'zini o'zi baholashga ta'sir ko'rsatuvchi omillar
- D) hammasi.

9. Affekt qanday xususiyatga ega?

- A) affekt bir zumda paydo bo'lish xususiyati bilan tavsiflanadi
- B) qo'zg'atuvchilar affektli munosabatni yuzaga keltiradi
- C) affektli portlash bilan yakunlanadi
- D) Hammasi.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

- 1. Hissiyot tushunchasi va turlari.
- 2. Hissiyot faoliyatni boshqaruvchi jarayon sifatida.
- 3. Affekt holatida jinoyat sodir etishning psixologik tavsifi.
- 4. Sog'lom, nopatologik va chegaralangan hissiy holat (frustatsiya, agressivlik, depressiya, shok, bezovtalik, fobiya va boshqalar).
- 5. Iroda jarayonlari va xolatlari.
- 6. Iroda tushunchasi, iroda harakati, ularning tuzilishi.
- 7. Munozarali (nizoli) holatlarda foliyatni irodaviy boshqarish.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1. Maxsudova M.A. Yuridik psixologiya. Ma'ruzalar matni. N.2007.- 62 b.
- 2. Norboyev A.N., Usmonova A.A. Yuridik psixologiya. O'quv qo'llanma. T.2006.

5 – MAVZU. JINOYATCHI SHAXSINI PSIXOLOGIK TAHLIL QILISH

Reja:

1. Jinoyatchi shaxsning individual - psixologik xususiyatlari
2. Jinoiy xatti-harakatlarning ijtimoiy-psixologik sabablari
3. Jinoyatchi shaxsini asosiy kriminal, tipologik tiplarining tavsifi.
4. Uyushgan jinoyatchilik va jinoiy guruhlar psixologiyasi

Tayanch tushunchalar:

Jinoiy psixologiya - (lot. Crimeisis - jinoyatchi) - xuquqbuzarliklarning psixologik mexanizmlari va jinoyatchilar psixologiyasini, jinoiy guruhlarining shakllanishi, tuzilishi, faoliyati va parchalanishi muammolarini o'rganadigan xuquqiy psixologiya sohasi

Jinoyat psixologiyasi - bu jinoyatchi shaxsining psixologik xususiyatlarini, ikkala jinoiy xatti-harakatning motivatsiyasini va jinoiy xatti-harakatlarning ayrim turlarini (*zo'ravonlik jinoyati, yollanma jinoyatlar, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi*), shuningdek, psixologiyani o'rganadigan xuquqiy psixologiya bo'limi

Huquqiy psixologiya - bu psixologiyaning psixik asoslari amaliy navlarini va psixikaga ta'sirini o'rganadigan bo'limi.

Sud psixologiyasi - bu jinoyatning ruhiy sabablarini aniqlash uchun jazolashga loyiq bo'lgan shaxs va jinoyatchining ruhiy hayoti va umuman hayotini - umuman olganda ham, muayyan holatda ham o'rganadigan amaliy psixologiya sohasi **Jinoyatchi** - jinoiy ishni sodir etgan va sud ishlarini olib borish davomida ayibdor deb topilgan shaxs

Integratsion munosabatlar- jinoiy guruh a'zolari o'rtasidagi rolly vazifalarga suyanilish (bu degani, jinoiy faoliyatning xarakteriga ko'ra rollar, majburiyatlar jinoiy guruh a'zolari o'rtasida taqsimlanadi).

Ijtimoiy – demografik belgilar - jins, yosh, ma'lumot, siyosiy ehtiyoj, ijtimoiy mavqe, mutaxassislik, qanday rolga mansublik kabilar bilan ta'riflanishi

Ijtimoiy –psixologik belgilar - guruh bo'yicha shaxsning aql - idroki, irodasi, ma'naviy fazilatlarini, xarakteriga xos xususiyatlarini baholanishi

Psixo - fiziologik belgilar (jismoniy)- guruhga temperament (shaxsning kuch - g'ayrati, asab faoliyatining harakatchanligi va mutanosibligi, patologik qusurlar xususida ma'lumotlar kiritilishi

Yurisprudensiyada shaxs – bu aqliy qobiliyatli inson, ongli ravishda yechimlarni qabul qiladigan va o'z qilmishlari uchun javob bera oladigan yuridik munosabatlar sub'yekti.

1. Jinoyatchi shaxsning individual psixologik xususiyatlari.

Jinoyatni shaxsning ijtimoiy muxit bilan munosabatlaridagi normadan chetga chikish tarzida kurib chiqish mumkin. Ba'zi xollarda katta olomon ichidagi shaxslarning nomurosa vaziyat dam «zaharlanish» va guruh - guruhlarga bo'linib bezorilik hamda ommaviy tartibsizliklarga kushilishi sodir bo'lib turadi. Har qanday jinoiy kilmish jinoyatchining psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ushbu psixologik xususiyatlarni yuzaga kelgiruvchi sharoitlarni o'rganish jinoiy- jarayon qonunchiligining zimmasiga yuklatiladi. Jinoyatchi - jinoiy ishii sodir etgai va sud ishlarini olib borish davomida ayibdor deb topilgan shaxsdir. Jinoyatchi shaxs to'g'risida so'z yuritilganda uning psixologik aspektlariga e'tibor berish lozim. Bu aspektlar nimalardan iborat? Shaxsni o'rganish davomida uning atrofu muxit bilan bog'liq, bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sharoitlar muhim ahamiyatga ega. Bu sharoitlar jinoiy ishni sodir etishda katta rol o'ynaydi va uning moxiyatini oydinlashtirishda qo'l keladi. Ijtimoiy sharoitlar jinoiy qilmishda o'z aksini topadi va shaxsning xatti-harakatlari orqali namoyon bo'ladi. Bu sharoitlar uzoq muddat davomida qatamlashib shaxsning o'zida muxrlanib qoladi va keyinchalik nafaqat alohida jinoiy hodisalar, balki xuquqbuzarliklarga olib

keladi. Jinoyatchi shaxs oddiy insondan qaysi tomonlari bilan farq qiladi va qanday xususiyatlarga ega? Ularni psixologik va ijtimoiy taqqoslash davomida quyidagi natijalar namoyon bo'ladi:

- jinoyatchining yuqori darajada notinchligi va o'z o'ziga ishonmasligi, tez, tajovuzkor, jamiyatning qadriyatlaridan uzoq;

- axloqiy va yuridik normallariga oid talablarni yaxshi o'zlashtirmaga, kichik guruhlardan uzoqlashgan (oila, ishchi jamoa va boshqalar);

- kichik guruhlariga ijtimoiy foydasi tegmasligi kabi belgilari mavjud.

Bunday tavsifnomalar shaxslar tomonidan bosqinchilik, o'g'rilik, odam o'ldirish, tajovus ko'rsatish, badaniga shikast yetkazish kabi jinoiy qilmishlarni keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi jamiyatga qarshi bo'lgan qarashlar va yo'nalishlar jinoyatchini boshqa odamlardan ajratib turadi va jinoiy qilmishining sabablarini belgilab beradi.

Bunday qarash va yo'nalishlar o'z individual-shaxsiy shakllarga ega va biologik tomonidan isbotlangan bo'lib hayot sharoiti va tarbiyaning ta'siri ostida o'z ma'no - mazmunini to'ldirib turadi. Odam jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi, u jinoyatchi bo'lib shakllanadi. Noqulay sharoitlar ta'siri ostida uning shaxsi asta - sekinlik bilan o'z ifodasini topadi. Lekin bu sharoitlar jinoiy qilmishni keltirib chiqarmaydi, lekin shaxsning ichki dunyosi va psixologiyasini vujudga keltiradi. Inson o'z psixologik tabiatiga tegishli bo'lgan hayotiy sharoitlarni tanlaydi va qabul qiladi. Jinoyatchining individual - tipologik tomonlarini o'rganishda uning 3 ta ko'rinishi namoyon bo'lishi mumkin:

1. Umumiyligi.
2. Alohidaligi.
3. Betakrorligi.

Bu ko'rinishlar jinoyatchini 3 ta guruhga bo'ladi:

- umumiy turdagi jinoyatchi.
- aniq turdagi jinoyatchi.
- aniq darajadagi jinoyatchi.

Ijtimoiy nuqtai nazar bo'yicha jinoyatchi shaxs 2-yo'nalish orqali o'rganiladi:

- ijtimoiy-tipologik.
- ijtimoiy-rolli.

Birinchi holatda, shaxsning ijtimoiy mavqei (ya'ni, ijtimoiy normalarni qabul qilishi va ijro etishi), ikkinchi holatda shaxsning faolligi (ya'ni, qonuniy normalarni buzganligi va buning natijasida yuridik nizolarni kelib chiqish sabablari) o'rganiladi.

Kriminal psixologiyaning asosiy masalalaridan biri - shaxsning ichki moyilliklarini aniqlab chiqish va ular orqali – uning motivatsion doirasini muhit bilan boglanganligi va o'zaro harakatda bo'lganligi ostida kriminogen vaziyatni vujudga kelganligini o'rganishdir. Har bir xatti-harakatlarimizni amalga oshirishda ob'yektiv (tashqi vaziyat) va sub'yektiv (shaxsiy qarashlar) sabablar aloqador bo'ladi. Faoliyatning alohida turi, jumladan, jinoiy faoliyat ko'p jihatdan jinoyatchining psixologik o'ziga xosligi bilan izohlanadi. Kriminolog tadqiqotda shaxsning ijtimoiy muhit bilan bog'liq, bo'lgan xulq - atvorini o'rganish muhim, chunki jinoiy xulq -atvor muhitdan ajratgan xolda emas, aynan shaxs va muhitning bir -biriga o'zaro ta'siri oqibatida tug'iladi. Ijtimoiy muhitning jinoiy xulq - atvori ta'siri juda ham murakkabdir. Jinoyatchilikning ijtimoiy determinatsiyasi mexanizmi shaxsni o'rganishga ikki xil: ijtimoiy -tipologik va ijtimoiy rol yondashuvi taqozo etadi. Ijtimoiy - psixologik yondashishda shaxsning ijtimoiy nuqtai nazari, shunga muvofiq ijtimoiy normalari, ularni idrok etish va ijro etishi tahlil qilinadi. Ikkinchi holatda shaxs ijtimoiy munosabatlarining faol arbobi, sub'yekti sifatida ko'rib chiqiladi. Yetishmovchilik jinoiy faoliyat o'sishiga shart - sharoit yaratadi. Talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblikdan turli - tuman «ishbilarmonlar» foydalanadi, qonunga xilof operatsiyalar orqali o'z to'lov qobiliyatini oshirib boradi. Ehtiyojlarni qondirishdagi yetishmovchilik firibgarlik, poraxo'rlik, korrupsiya, narkobiznesning kengayishiga yo'l ochib beradi. Zo'ravon jinoyatchining shaxsi, ijtimoiylashish darajasining pastligi bilan ajralib turadi, bu esa tarbiyaning asosiy

doiralari: oila, maktab, ishlab chiqarish va boshqa jamoalardagi nuqsonlar in'ikosidir. Bu shaxs xulq - atvoridagi motivlashuv jarayoni xudbinlik, atrofidagi kishilarning bir qismi bilan doimiy murosasizlik, o'z xatti - harakatlarini oqlash kabilar bilan farqlanadi. Bunday xollarda alkogol ko'pincha jinoiy ko'rsatmani faollashtiruvchi turtki rolini o'ynaydi. Jinoyatchi shaxsning ijtimoiy muhit bilan munosabatlaridagi normadan chetga chiqish tarzida ko'rib chiqish mumkin. Ba'zi xollarda katta olomon ichidagi shaxslarning nomurosa vaziyatda «zaharlanish» va guruh - guruhlariga bo'linib bezorilik hamda ommaviy tartibsizliklarga qo'shilishi sodir bo'lib turadi. Bunday guruhlariga aksariyat xollarda psixikasi noraso, ijtimoiy ongi past, umumiy madaniyati oqsagan, tez ta'sirlanadigan, olomondagi shaxslar bilan kirishuvchanlikka moyil shaxslar qo'shib qoladi. Bitta odamning bezori xulqi boshqa shaxslarda ehtirolarning alanga olishi va yomon tahlil uchun uchqun vazifasini o'taydi. Qotillikka qo'l urgan shaxslarning psixologiyasi aksariyat xollarda uning boshqa shaxsga tobeligidan dalolat beradi. Qotillar umuman olganda hayotga emin - erkin, o'zgalarning yordamisiz moslasha olmaydigan, bu qiyin muammo qarshisida ojiz qoladigan odamlar toifasiga mansubdir. Jinoyat fakti ko'p xollarda qotillarning qurbonlari bilan til topisha olmaganini bilan izohlanadi, murosa ularning xulq - atvoriga yot narsadir.

Qotillik uchun jazoga mahkum qilingan shaxslarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularning yarmidan ortig'i o'smirlik chog'idanoq spirtli ichimliklarni iste'mol qila boshlagan. Alkogol qotillikka moyillikni kuchaytirgan. Shaxsning psixik muvozanatini izdan chiqargani shubhasiz. Qotillikkacha, tajovuzkor xatti - harakatlari asosan do'q - po'pisalar, kaltaklash, xaqoratlash va mushtlashishlar tarzida namoyon bo'lib, shaxsga va jamoat tartibiga qarshi qaratilgandir. Tarbiya sharoitlarining tahlili qotillik uchun jazoga mahkum qilingan shaxslarning aksariyati nomaqbul sharoitlarda tarbiyalanganini ko'rsatadi. Bolalikdan yetim qolib yoki otasiz, onasiz oilalarda o'sib ulg'ayganlarda jinoyatga moyillik kuchli bo'ladi. Oilada ota yoki onaning bo'lmasligi, ulardan birining

sudlangani, ayniqsa onaning sudlangani kriminogen omilni kuchaytirishi aniqlandi.

Bolalikdagi tajovuzkor xulq-atvorning o'smirlik va yoshlik chog'larida huquqduzarlik va jinoiy xulq -atvorga aylanib borishi kuzatiladi. O'rganilayotgan mahkumlarning uchdan bir qismi birinchi marta 16-17 yoshligida jinoiy javobgarlikka hukm qilingani ham shundan dalolat beradi. Bu shaxslar ishyoqmas, mehnat intizomini qayta - qayta buzishar, ichkilikbozlik qilishar, doimo janjal (konflikt) keltirib chiqarishadi. Qariyb har ikkisidan birida aqli norasolik (anomaliya) ko'zga tashlanib, bu xatti - harakatlari uchun javob bera olmasligini istisno qilmasdi: surunkali ichkilikbozlik, psixopatiya (jazavaga tushish) bosh miyasining organik kasallanishi, shizofreniya kabilar shu jumladandir.

Texnikaning misli ko'rilmagan taraqqiyoti va turmushning ko'pchilik sohalariga qudratli energiya manbalari kirib kelishi natijasida ehtiyotsizlik oqibatida jinoyatlar sodir etilishining ijtimoiy xavfilik darajasi kuchaydi. Ehtiyotsizlik xatti - harakat bilan sub'yektning ichki dunyosi va u yunaltirilgan qadriyatlar tizimlararo psixologik mezanizmni aniqlash eng muhim vazifalardan bo'lib qoldi.

Tergovchi va sud tomonidan ayblanuvchi shaxsining psixoloik xususiyatlarini to'laqonli va chuqur o'rganish bir qator dolzarb masalalarni hal etishga ko'maklashadi:

- sodir etilgan jinoyatni to'g'ri klassifikatsiyalash;
- tergov harakatlari muvaffaqiyatni ta'minlaydigan taktik usullarni to'g'ri tanlash;
- xuquqbuzar shaxsiga ratsionallashuvi darajasi nuqtai nazaridan tarbiyaviy ta'sir o'tkazish birinchi so'rovdan boshlanishi, hamda tergovchi va sudyaning ushbu shaxs o'ziga xos xususiyatlarini, o'sib - ulg'ayish dinamikasini chuqur bilishlari;

Agar tergovchi ayblanuvchining psixologik xususiyatlarini o'rgana olgan bo'lsa, jinoyat sabablari va shart -sharoitlarini aniqlashga doir to'laqonli va chuqur ma'no kasb etadi.

Jinoyatchi shaxsi tushunchasi. Huquqni himoya qiluvchi

organlar sohasida inson faoliyatini tadqiq etish uchun psixologik bilimlarning o'zni juda katta. Insonni, uning shaxsini, asosiy psixologik holatlarni, jarayonlarni, (ehtijoj, motiv, maqsad, temperament, ustanovka, ijtimoiy yo'nalishi va shaxsining tavsifini) chuqur o'rganish yuridik faoliyatda muhimdir. Jinoyatchi shaxsini o'rganish uchun avvalo jinoyatchilik bilan kurashish zarur. Psixologiya shaxs immunitet mexanizmini kriminal vaziyatlarda o'rganadi va jinoyatchilikning oldini olishni asosiy maqsad qilib qo'yadi.

Kriminal psixologiya faqat zo'ravonlik asosidagi jinoyatlarnigina emas, balki jinoiy guruhlar tuzilishini psixologik xususiyatlarini ham o'rganadi. Juda ko'pgina jinoyatlar qonunni buzishdan kelib chiqadi. Kriminologiya, sotsiologiya va psixologiya uchun insonni ko'proq dinamik, genetik tomondan o'rganish yaxshi natija beradi. Qonun buzilishi sabablarini o'rganishda ko'proq bizni faqatgina jinoyatchining xatti-harakatlari emas, balki ayrim voqealar qiziqtiradi. Shaxs shakllanishi jarayonini kriminalologiya va qonunni qiziqitirmaydi, chunki buni pedagogika, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar o'rganadi.

Shaxs jinoyat sodir etayotganda uning ichki psixofiziologik holatlari muhim rol o'ynaydi. Unda ichki va tashqi tormozlanish mavjud. Jinoyat sodir etilayotganda bizdagi emotsiyalar qo'zg'alish holatiga keladi. YA'ni butun his-tuyg'ularimiz ongsizlik holatiga o'tib ketadi. Jinoyatning kelib chiqishida bir necha sabablar, motivlar paydo bo'ladi. Inson qanchalik tarbiyalangan bo'lsa emotsiyalarini boshqara oladi. Lekin ayrim hollarda chegaradan chiqib ketish, ya'ni ongsizlik holatiga o'tib ketish paytlari ham bo'ladi. Xalqimizda «jahl kelsa aql qochadi», deb bekorga aytilmagan. Jahl kelganda fikr torayadi, miyada jamiyat qonun-qoidalariga to'g'ri kelmaydigan tasavvur va tushunchalar paydo bo'ladi.

Jamiyat qonun - qoidalariga to'g'ri kelmaydigan tasavvurlar va tushunchalar kishining asab tizimiga, temperamentiga, xarakteriga kuchli ta'sir qiladi. Shaxsning ijtimoiy va biologik

xususiyatlari haqidagi umumiy ma'lumotlar muhim masalalarni, ya'ni jinoyatchilikni ochishga yordam bermaydi. Buning uchun kishining imkoniyatlari, ehtiyojlari, bilish jarayonlari, tarbiyalanganlik darajasi, jinoyatni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarini ham hisobga olish zarur. Demak, jinoyatchilik o'z-o'zidan kelib chiqmaydi. Biologik va sotsial imkoniyatlarni shaxs shakllanishiga qanchalik bog'liqligini hisobga olish muhim.

F. G. Uglov tadqiqotlarining ko'rsatishicha, 1500 nafar taraqqaqiyotdan orqada qolgan bolalarning 2 foizi narkotik iste'mol qilmaydigan onalardan, 9 foizi alkohol iste'mol qiluvchi onalardan, 74 foizini narkotik moddalarni ko'p iste'mol qiluvchi onalardan tug'ilganligi aniqlangan. Jinoyatchilik irsiyat orqali o'tmaydi. Bola onasining qornidan jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi. Jinoyatchilik atrofdagi muhit, munosabatlar (ota - ona, tengdoshlar, kattalar bilan bo'ladigan) ta'lim - tarbiya ta'siridan kelib chiqishi mumkin. Uning paydo bo'lishiga qiziqish, ehtiyoj, irodaning pastligi ham sabab bo'ladi.

Kriminal psixologiyada jinoyatchi shaxsini o'rganish dasturi ayniqsa katta ahamiyatga ega. Unda quyidagi belgilarni ko'rsatib o'tish kerak. Ijtimoiy - demografik. Bu guruh jins, yosh, ma'lumot, siyosiy ehtiyoj, ijtimoiy mavqe, mutaxassislik, qanday rolga mansublik kabilar bilan ta'riflanadi. Ijtimoiy - psixologik. Bu guruh bo'yicha shaxsning aql - idroki, irodasi, ma'naviy fazilatlar, xarakteriga xos xususiyatlari va hokozolar baholanadi. Psixofiziologik (jismoniy. Bu guruhga temperament (shaxsning kuch - g'ayrati asab faoliyatining harakatchanligi va mutanosibligi, shuningdek, patologik qusurlar xususida ma'lumotlar) kiritiladi. Ayblanuvchi shaxsining psixologik o'rganilishi uning ichki dunyosi, ehtiyojlari, xatti-harakatiga turtki beruvchi mayllari, hissiy irodaviy xususiyatlari, qobiliyatlar, intellektual faoliyatning xususiy o'ziga xosliklari (fikrlash, idrok, xotira, boshqa bilish jarayonlarini tadqiq etishdan iboratdir.

Ayblanuvchi psixologik xususiyatlarining o'rganilishi jinoyatni tergov qilishning ajralmas tarkibiy qismi bo'lmog'i

darkor, hamda har bir alohida holatda bu ma'lumotlarning tadrijiy jinoyat ishining kategoriyasi va mohiyatiga, ayblanuvchi shaxsining xususiyatlariga bog'liq ravishda konkretlashtirilishi lozim.

2. Jinoiy xatti-harakatlarning ijtimoiy-psixologik sabablari

Moddiy qadriyatlarga bo'lgan ehtiyoj va ularni qoniqtirish uchun kerakli bo'lgan imkoniyatlar o'rtasidagi uzilishlar ko'pgina jinoiy qilmishlarni keltirib chiqaradi. Masalan, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tumanlarda maishiy xizmatlarning aholiga yetishmasligi ko'proq nizolarga olib keladi (Alimov SB., Antonov-Romanovskaya G. 3. 2002). Tajovuz ko'rsatuvchi shaxsning ijtimoiylashgan darajasi pasd (oila, maktab, kollej va ishchi jamoalarda ko'plab muammolar vujudga keladi), motivatsion doirasi egotsentrik holatda bo'lgani sababli o'zini o'zi qoqlash belgilari bilan ajralib turadi (alkogolizm va kashandalik jinoiy qilmishlarini faollashtiradi), ijtimoiy muhit bilan bog'liq bo'lgan o'zaro xatti-harakat buziladi (bezorilik, ommaviy tartib buzishlar), psixikaning mustahkam emasligi, yuridik ongning pastligi, umumiy madaniyatining bo'shligi, tez ta'sirchan bo'lish kabi ko'rinishlar namoyon bo'ladi. Bezorilik harakatlari boshqalar uchun namuna sifatida bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Qotillik sodir qilgan shaxslar psixologiyasiga nazar tashlaganimizda ularning biri-biriga bo'lgan muhtojligini ko'rishimiz mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, jinoyatchi shaxs o'z o'ljasi qattiq bog'lanib qoladiki, u bilan aloqani buzish uning uchun katta zarba olish bilan tengdir. Ko'pincha biri-biriga bo'lgan muxtojlik ehtiyoji uchinchi odam orqali amalga oshirilishi mumkin. Jinoiy ishga qo'l urish qanday psixologik xollarda namoyon bo'ladi? Qotillikni sodir etgan 500 ta jinoyatchi shaxslarni o'rganib chiqilganda shunday holat aniqlandiki, ularning yarmi yoshlik damlaridanoq alkogol ichimligi va giyohvand moddalarni istemol qilganlar. Bu holatlar ularda qo'rqitish, urishish, xaqoratlash kabi tajovus harakatlarda namoyon bo'lgan. Bu jinoyatchi shaxslarning aksariyati erkaklar bo'lsa, ularning o'ljalari ko'pincha (yarmidan

ko'pi) ayollarni tashkil qilgan, uchdan bir qismida ular (qotil va jabirlanuvchi) notanish bo'lgan yoki jinoiy qilmishni sodir bo'lishidan oldin tanish bo'lganlar. 30% xolatlarda ular qarindosh bo'lganlar (bundan 86% ular er-xotin), qolgan 21,4% da bir birlari bilan tanish bo'lganlar. Aksariyat xollarda jinoiy qilmishni odamlar 20-30 yoshlarida sodir etar ekanlar. Ularning xatti-harakatlarida yaxshilik tuyg'usi yaqqol ko'riib turiladi. Hozirgi paytda bolalarning yoshlik davrlarida tajovuzkorlik harakatlari, o'spirinlik davrlarida noqonuniy xulqni ko'rishimiz mumkin. Yoshlarning uchdan bir qismini o'rganib ko'rilganda shu narsaga amin bo'lindiki, 16-17 yoshdagilar birinchi marta jinoiy jazoga tortilganlar. Jinoiy jazoga tortilganlarning 500 tadan 380 tasi sud-psixiatrik ekspertizasidan o'tishlari kerak bo'lgan. Ekspertizadan o'tgan har ikkinchi shaxsda har xil anomal holatlar namoyon bo'lgan (surunkali alkogolizm, giyoxvandlik, psixopatiya, bosh miyaning kasallanishi, shizofreniya va x.k.)

Qonunbuzarlik sabablari va ularning tavsifi. Qonunbuzarlik sotsial muhit ta'siridan kelib chiqadi. O'smirlarda bu hol ko'p kuzatiladi, chunki ular balog'at yoshiga o'tayotgan chog'larida fiziologik va psixologik o'zgarishlarni boshlaridan kechiradilar. O'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni hali to'la shakllanmagan bo'ladi. Bundan tashqari kattalarda ham qonunbuzarlik holatlari, xatti-harakatlari ham kuzatiladi. Masalan, algokol ichimliklarini ko'p iste'mol qiladigan, oilaviy sharoiti og'ir bo'lgan kishilarda, affekt (kuchli ruhiy qo'zg'alish, shuuriy holat holatida qonunbuzarlik jinoiy xatti-harakatlarga sababchi bo'lishi mumkin. Bunday holatlarni aniqlashda tergovchi juda kuchli asoslangan dalillarga tayanishi lozim.

Hozirgi paytda texnikannng rivojlanishi bilan birgalikda extiyotsizlik natijasida sodir etilgan jinoyatlarning soni ortib bormoqda. Bu yerda jinoyatlarning mexanizmi va shaxsning individual xususiyatlari va ehtiyotsiz harakatlarning bog'liqlik tomonlarini ko'rishimiz mumkin. Intizomsizlik, beg'amlik, yuzaki fikr yuritish, palapartishlik va h.k.lar yuzasida bunday ishlar sodir

qilinadi. Jinoyatchi shaxslarni o'rganish davomida tergovchi va sud xodimlari quyidagi dolzarb vazifalarga etibor qaratishlari lozim:

1. Jinoiy qilmishni to'g'ri tavsif qilish;
2. Tergov harakatlarining samaradorligini oshirish uchun kerakli bo'lgan taktik yo'llarni tanlash;
3. Tergovchi va sud xodimlari tomonidan ayblanuvchining individual xususiyatlariga tayangan xolda birinchi so'roq qilish paytlaridayok shaxsga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish;
4. Ayblanuvchi shaxsning psixologik xususiyatlarini chuqur va har tomonlama o'rgangan xolda, jinoyatning sababi va sharoitlarini namoyon qilishga bo'lgan ishlarni olib borish kabilar.

Jinoyatchi shaxsni o'rganish davomida birinchi o'rinda uning ichki dunyosi, ehtiyojlari, moyilliklari, emotsional-irodaviy doirasi, qobiliyatilari, intellektual faoliyatining individual xususiyatlari (tafakkur, qabul qilish, xotira va boshqa o'rganish jarayonlari)ga e'tibor berish lozim. Masalan, sudlanuvchi shaxsning psixologik xususiyatlarini o'rganish tergov ishlarining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi va bu yerda ma'lumotlar doirasi aniq darajada bo'lishi lozim (qaysi jinoiy ishlar toifasiga taalluqli, aybdor shaxsning qaysi xususiyatlari inobatga olinadi va h-k.). Nima uchun kishi jinoyatga qo'l uradi? Jinoyat sodir etayotganda nimaga o'zini to'xtatib qololmaydi?

Shaxs jinoyat sodir etayotganda uning ichki psixofiziologik holatlari muhim rol o'ynaydi. Unda ichki va tashqi tormozlanish mavjud. Jinoyat sodir etilayotganda bizdagi emotsiyalar qo'zg'alish holatiga keladi. YA'ni butun his- tuyg'ularimiz ongsizlik holatiga o'tib ketadi. Jinoyatning kelib chiqishida bir necha sabablar, motivlar paydo bo'ladi. Inson qanchalik tarbiyalangan bo'lsa emotsiyalarini boshqara oladi. Lekin ayrim xollarda chegaradan chiqib ketish, ya'ni ongsizlik holatiga o'tib ketish paytlari ham bo'ladi. Xalqimizda «jahl kelsa aql qochadi», deb bekorga aytilmagan. Jahl kelganla fikr torayadi, miyada jamiyat qonun-qoidalariga to'g'ri kelmaydigan tasavvur va tushunchalar paydo bo'ladi. Jamiyat qonun - qoidalariga to'g'ri kelmaydigan tasavvurlar va tushunchalar

kishining asab tizimiga, temperamentiga, xarakteriga kuchli ta'sir qiladi. Shaxsning ijtimoiy va biologik xususiyatlari haqidagi umumiy ma'lumotlar muhim masalalarni, ya'ni jinoyatchilikni ochishga yordam bermaydi. Buning uchun kishining imkoniyatlari, ehtiyojlari, bilish jarayonlari, tarbiyalanganlik darajasi, jinoyatni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarini ham hisobga olish zarur. Demak, jinoyatchilik o'z-o'zidan kelib chiqmaydi. Biologik va sotsial imkoniyatlarni shaxs shakllanishiga qanchalik bog'liqligini hisobga olish muhimdir.

Qonunbuzarlik sotsial muhit ta'siridan kelib chiqadi. O'smirlarda bu xol ko'p kuzatiladi, chunki ular balog'at yoshiga o'tayotgan chog'larida fiziologik va psixologik o'zgarishlarni boshlaridan kechiradilar. O'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni hali to'la shakllanmagan bo'ladi. Bundan tashqari kattalarda ham qonunbuzarlik holatlari, xatti-harakatlari ham kuzatiladi. Masalan, algokol ichimliklarini ko'p iste'mol qiladigan, oilaviy sharoiti og'ir bo'lgan kishilarda, affekt (kuchli ruhiy qo'zg'alish, shuuriy holat) holatida qonunbuzarlik jinoiy xatti-harakatlarga sababchi bo'lishi mumkin. Bunday holatlarni aniqlashda tergovchi juda kuchli asoslangan dalillarga tayanishi lozim.

Bizni qonunbuzarlikning sabablari qiziqtirar ekan, qonun bilan ta'qiqlangan jinoiy xatti-harakatni vujudga keltiruvchi faoliyatnigina emas, balki uning muqaddimasidagi ayrim faoliyatlarni ham e'tiborga olish lozim. Kishi xulq - atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi sabablarga quyidagilar ham kiradi:

3. Jinoyatchi shaxsini asosiy kriminal, tipologik tiplarining tavsifi.

Jinoyatchilikning ijtimoiy determinatsiyasi mexanizmi shaxsiy o'rganishga ikki xil: ijtimoiy-tipologik va ijtimoiy rol yondoshuvi taqozo etadi. Ijtimoiy- psixologik yondoshishda shaxsning ijtimoiy nuqtai nazari, shunga muvofiq ijtimoiy normalari, ularni idrok etish va ijro etishni tahlil qilinadi. Ikkinchi holatda shaxs ijtimoiy munosabatlarining faol arbobi, sub'yekti

sifatida ko‘rib chiqiladi. Jinoyatchi shaxsini kriminal psixologiya o‘rganadi. Bu fanning asosiy masalalaridan biri – shaxsning ichki, ruhiy sabablarini ajratib ko‘rsatishdan iborat. Chunki avvalo shaxsning motivlashadigan ichki sabablari tashqi muhitning ayrim omillari bilan o‘zaro qo‘shilib, shaxs uchun kriminal vaziyatni yaratishi mumkin. Jinoyatlarning har xil turlari (qasddan, zo‘ravonlik bilan, ehtiyotsizlik oqibatida) uchun xuquqduzardagi turlicha soxta motivlari xarakterli bo‘lib hisoblanadi. Moddiy – tovar qadriyatlari va xizmatlarga ehtiyojlar bilan ularni ro‘yobga chiqarish o‘rtasidagi uzilish ijtimoiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Jinoiy xulq-atvorning ikki shakli mavjud: moddiy va maishiy, madaniy xizmat ehtiyojlari. Yetishmovchilik jinoiy faoliyat o‘rishiga shart-sharoit yaratadi. Talab va taklif o‘rtasidagi nomutanosiblikdan turli-tuman —ishbilarmonlar¹ foydalanadi, qonunga xilof operatsiyalar orqali o‘z to‘lov qobiliyatini oshirib boradi. Ehtiyojlarni qondirishdagi yetishmovchilik firibgarlik, poraxo‘rlilik, korrupsiya, narkobiznesning tegirmoniga suv quyadi. Tergovchi va sud tomonidan ayblanuvchi shaxsining psixologik xususiyatlarini to‘laqonli va chuqur o‘rganish bir qator dolzarb masalalarni hal etishga ko‘maklashadi: jumladan, sodir etilgan jinoyatni to‘g‘ri klassifikatsiyalash, taktik usullarni to‘g‘ri tanlash, xuquqduzarga nisbatan tarbiyaviy ta‘sir o‘tkazishni birinchi so‘roqdan boshlash, ayblanuvchining psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish kabilar. Kriminal psixologiyada jinoyatchi shaxsini o‘rganish dasturi katta ahamiyatga ega. Unda quyidagi belgilarni ko‘rsatib o‘tish kerak:

1. Ijtimoiy – demografik - bu guruh jins, yosh, ma’lumot, siyosiy e’tiqod, ijtimoiy mavqe, mutaxassislik, qanday rolga mansublik kabilar.

2. Ijtimoiy – psixologik - bu guruh bo‘yicha shaxsning aql - idroki, irodasi, ma’naviy fazilatlar, xarakteriga xos xususiyatlar bilan baholanadi.

3. Psixofiziologik – bu guruhga temperament tiplari kiritiladi.

Jinoiy guruhning bulimlarini quyidagi shaklda ko‘rishimiz mumkin: butun guruhni, yoki uning aloxida ishtirokchilarini boshqaruvchi shaxs, mas’uliyatli joydagi ijrochi; ikkinchi darajali ijrochi; oppozitsiya, guruhning "bo‘sh xalqasi"; irodali oppozitsiya, guruhga qarshi harakat yurutishi mumkin, Jinoiy guruhning "yuragi urib turishi uchun" doimo faoliyat doirasini zamon va imkon tomonidan kengaytirib turish lozim. Bunday harakatlar bo‘lmasa jinoiy faoliyatiga nuqta qo‘yiladi. Jinoiy guruhning ichki psixologik va funksional tizimi qanchalik mustahkam rivojlangan bo‘lsa shunchalik uning faoliyati maqsadga yo‘nalgan bo‘ladi va a‘zolari o‘rtasidagi rollar va vazifalar aniq, belgilangan bo‘ladi.

Jinoiy jamoalarning uyushganligi ma’lum bir xudud, davlatlarda kriminologen sharoitlarni yaratadi. Ushbu jinoiy olamga ko‘pgina yosh yigitlar jalb qilinadi. Ularga katta-katta moddiy rag‘batlantirish va‘dalarni berish orqali—tuzoqqa ilintirish va o‘z jinoiy g‘oyalarni amalga oshirish jamoalarning kengayishi va yanada chuqurlashishiga olib keladi.

4. Uyushgan jinoyatchilik va jinoiy guruhlar psixologiyasi

Uyushgan jinoyatchilikning ko‘zga ko‘rinadigan xususiyati asosiy jinoiy guruhni tuzishdan iborat bo‘lib, bu guruh, o‘z darajadagi tartib va intizomga solish va iyerarxi (har kim o‘z joyini o‘zi bilishi, boshqa narsalarga aralashmasligi) tizimini tuzishdan iborat.

Bu ixtiyoriy tizim 3 ta bo‘limdan tashkil topgan:

- boshqarish;
- bo‘ysunish;
- jinoyatlar orasida funksiyalar (vazifalar) ni taqsimlash kabilardir.

Uyushgan jinoyatchilikning tizimi.(kuchsiz bog‘inda barmen, shnetsar, foxishabos shaxslar o‘z faoliyatini yuritadilar). Kriminal psixologiya fanining maxsus bo‘limida uyushgan jinoyatchilikniig tashkil topishi, u yerda rollariing taqsimlanishi va uning psixologik mexanizmini o‘rganishga batafsil, to‘xtalib

o'tiladi. O'z vaqtida ochilmagan va jazoga tortilmagan; jinoyatchi shaxs juda xavfli bo'lib, u boshqalarga ta'sir ko'rsata oladi va shu tufayli jinoiy yo'l orqali boshqa o'ziga mustahkam bo'lmagan odamlarni shakllantirishga harakat qiladi va uyushgan jinoyatchilikni tuzishga bel bog'laydi. Ayrim xollarda jinoyatchi shaxs yakka o'zi harakatlar qilishda qurbi yetmaydi. Buni uchun unga uyushgailik darajasi kerak bo'ladi. Jinoiy guruhning bo'limlarini quyidagi shaklda ko'rishimiz mumkin: butun guruhni, yoki uning alohida ishtirokchilarini boshqaruvchi shaxs; mas'uliyatli joydagi ijrochi; ikkinchi darajali ijrochi;

oppozitsiya, guruhning "bo'sh xalqasi"; irodali oppozitsiya, guruhga qarshi harakat yuritishi mumkin,

Jamiyatda boshliq (yetakchi) mavqeini o'rnatish juda ham muhim va murakkab. Chunki uni (yetakchi) hamma tan olishi va unga bo'ysunishlari lozim.

Jinoiy guruhni shakllanishida quyidagi omillar rol o'ynaydi:

- a) jinoyatni bir o'zi sodir qila olmasligi;
- b) jinoiy ishlarga yo'naltirilgan qiziqishlarning birligi;
- v) o'zaro xayrixohlik, samimiyligi;
- g) xulqi, ishonchi, yuridik ongining o'xshashliklari (kamchiliklari).

Jinoiy guruhlar quyidagi belgilarga ega:

1. Uyushganligi (qat'iy iyerarxiya, tartib-qoida, pastki bo'g'in yuqori bo'g'inga bo'ysunishini inobatga olish);

2. Mustahkamligi (guruhning barbod bo'lishidan so'ng qayta tiklanishi);

- guruh, sardorlarining qilmishlari bo'yicha ma'suliyatdan qutulish uchun kerakli bo'lgan boshqaruv tizimini tuzish (ya'ni, ayrim a'zolari jinoiy jazoga tortilganda ham jamoa saqlanib qoladi);

- o'zlaridan ko'ra niyatlarini amalga oshirish va xududda hukmdorlik o'rnatish uchun turli jinoyatlarni sodir etish.

Jinoiy guruhning "yuragi urib turishi uchun" doimo faoliyat doirasini zamon va imkon tomonidan kengaytirib turish lozim. Bunday harakatlar bo'lmasa jinoiy faoliyatiga nuqta qo'yiladi.

Jinoiy guruhning ichki psixologik va funksional tizimi qanchalik mustahkam rivojlangan bo'lsa shunchalik uning faoliyati maqsadga yo'nalgan bo'ladi va a'zolari o'rtasidagi rollar va vazifalar aniq belgilangan bo'ladi.

Jinoiy guruh ishtirokchilari orasida faqat ishchi munosabatlar hukm suradi, shaxsiy munosabatlarga o'rin bulmaydi.

Jinoiy guruhda doimo 2-ta qarama-qarshi kuchlar/to'qnashadilar: birinchi kuch guruhning ahil bo'lishiga o'z hissasini qo'shsa, ikkinchisi uning suyilib ketishiga harakat qiladi. Omadi chopgan paytida guruh yana bir tan bir jon bo'ladi, lekin omadni qo'ldan boy bergan xolarda uning tarqalishi to'rgan gap.

Jinoiy guruh orasida ma'lumot tarqatishning o'zga xos usullari majjud.

To'lik tizim orqali (har bir a'zo bir birlari bilan aloqa o'rnatadilar va ma'lumot beradilar);

doira shaklidagi tizim yordamida (ma'lumotning yo'nalishi chapdan unga, yoki o'ngdan chapga) "zanjir - doiraning bo'linishi" shakli orqali (birinchi shaxs ikkinchi shaxsga ma'lumot beradi, uchinchi shaxs ma'lumotni kim tarqatganligini bo'lmaydi - ya'ni birinchi shaxs kimligini bilmaydi, shu bois ikkinchi shaxs to'rtinchi odam to'g'risida ham hech narsa bilmaydi - ya'ni uchinchi shaxsdan keyin kimga ma'lumot berishi no'malum, "doira - o'zagi bilan" shakli yordamida - boshliq guruhning bitta a'zosi bilan bog'liq, demak, u a'zo hamma bilan bog'liq; kombinatsiya tizimi - boshliq guruh a'zolariga ma'lumot yetkazish uchun ikkita yoki uchta shaxslar bilan bog'lanadi;

murakkab tizim - boshliq ikkita yoki uchta kichik guruhlar bilan bog'lanadi, ular o'z navbatida boshqa kichik, katta guruhlar bilan bog'langan bo'ladi;

Ko'p tarmoqdi tizim orqali - yetakchi bir mecha boshqa shaxslar orqali jinoiy guruhlar bilan bog'lanadi va ular o'zining himoyasini ta'minlaydi. Ulardan olingan ma'lumotlar mahsulotni jo'natish, transport, buxgalteriya masalalariga oid bo'lishi mumkin.

Uyushgan jinoyatchilik tizimida yuqori darajada turadigan

sardorlar ikkita qismga bo'linadi:

1. Katta talon-taroj ishlarni bajaruvchi ish bilarmonlar;
2. Jinoyatchilar.

Jinoiy guruhlarini tashkil qiluvchilari shaxslar quyidagi hukmdorlik vakolatiga ega:

- taqdirlanish hukmi (ya'ni, qo'yiladigan shartlar bevosita bajarib kelingan bo'lishi lozim);

- Bo'ysundirish, jazo hukmi (jazo olish, undan xalos bo'lishi); etalon hukmi (guruh a'zosi yetakchiga o'xshash uchun intilishi);

- normativ hukmi (tartib-qoida, urf-odatlarga bo'ysunish);

- ishbilarmonlik hukmi (yetakchining obro'- e'tibori, uning bilimi, malakasining ahamiyatliligi);

- ma'lumot hukmi (yetakchi shaxsan o'zi ma'lumot olishga qodir). Hozirgi zamon sharoitida pastda jonlashgan guruh a'zolari o'zlarining boshliqdari (yetakchilari)ni bilmasliklari mumkin: (konspiratsiya tufayli).

Uyushgan jinoiy guruh (jamoal)larning shakllanishiga sobiq spotchilar uyushmasi manba bo'lib hisoblanishlari mumkin (ayniqsa reket jarayonida). Bunga ijtimoiy-psixologik asoslar sabab bo'lishi mumkin: "katta spotrni" tashlab ketgan spotchilar kelgusida o'zining ichki zahiralarni yo'qotgan, ma'lum bir kasbda bilim va malakalarini qo'llay olmasliklari, moddiy ta'minoti yo'qligi jinoiy guruhlariga a'zo bo'lib qolishlariga imkon yaratadi. Jinoiy jamoalarning uyushganligi ma'lum bir xudud, davlatlarda kriminogen sharoitlarni yaratadi. Ushbu jinoiy olamga ko'pgina yosh yigitlar jalb qilinadi. Jinoiy jamoa ularga katta-katta moddiy ragbatlantirish va'dalarini beradi, "tuzoqqa ilintirish" texnikasidan foydalangan xolda o'z jinoiy g'oyalarni amalga oshiradi, jamoaning kengayishi va yanada chuqur bo'lishiga imkoniyat yaratadi.

Uyushgan jinoyatchilik ijtimoiy o'ta xavfli bo'lib, jinoyatchilikning «cho'qqisi»ni anglatadi. U odatdagi «jinoiy sheriklar»dan farqli o'laroq jinoiy hamjamiyat tarzidagi faoliyatni bildiradi. Uyushgan jinoyatchilik - barqaror hodisa bo'lib, odatdagi jinoyatning oldini olish - profilaktika tadbirlariga bo'ysunavermaydi,

chunki jinoiy jamoa ishtirokchilarining kriminogen bog‘liqligi doimiy o‘zaro ta’sir bilan kuchaytirib turiladi, guruh a’zolaridan birining jinoiy muhitdan chetga chiqishiga o‘rinishi esa shafkatsizlik bilan o‘ch olinishiga sabab bo‘ladi. Uyushgan jinoyatchilik keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Ko‘pincha butun boshli xududlarni, xalq xo‘jaligi tarmoqlarini o‘z turi bilan qamrab olib, jinoyatchshilarning yuridik - tartibot idoralaridagi ayrim korrupsiyaga moyil xodimlari, poraxo‘r, mansabini suiste‘mol qilish, katta miqdorda davlat va jamoa mulkini o‘zlashtirish, qonunga xilof kontrabanda - valyuta oneratsiyalari yordamida jamiyat taraqqiyotiga g‘ov bo‘ladi. Jinoiy hamjamiyat a’zosi bo‘lib qolgach, ko‘pchilik jamoachilar faollashib ketadi, chunki ularning faoliyati guruh «obro‘ - e’tibori» bilan quvvatlanib turiladi. Uyushgan jinoyatchilikni faqat ungagina xos bo‘lgan uchta belgilar bilan xarakterlab beriladi. Birinchisi shundan iboratki, barqaror tashkiliy tizim uzoq muddat mobaynida, muntazam jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishni ko‘zda tutib, tashkil qilinadi, jinoiy hamjamiyat a’zolari o‘rtasida mavqe zinapoyalariga amal qiladi, unga ko‘ra «quyi» mavqedagi shaxs yuqoriroq mavqeni egallaganga so‘zsiz bo‘ysunadi, rollar va faoliyat chegaralari qat’iy taqsimlab qo‘yiladi, o‘ziga xos «mehnat taqsimoti» «ixtisoslashuv» hukm suradi, «shtat ro‘yxatiga» monand tarzda «amallar» belgilab qo‘yiladi – qo‘rboshi (ba’zan bir necha guruhlarining qo‘rboshlari) - jinoiy «kassa» xazinachisi, aloqachilar, kora ishni bajaradigan jangarilar, «rahbar»ga – qo‘rboshiga so‘zsiz itoat etadilar. Ayrim jinoiy to‘dalar o‘z razvedkalari va kontrazvedkalarini, ba’zan esa xatto o‘z sudlarini tuzadilar. Jinoiy guruh a’zolari bir - biriga ipsiz bog‘langan, ba’zan «qondosh», shu jumladan, qurbonlarning to‘kilgan qoni evaziga «qondosh» bo‘lib qoladilar. Ko‘pchilik jinoiy guruh, a’zolari «qasam» ichadilar, har qanday sharoitda ham «sheriklari» va sodir etgan jinoyatlarini sir saqlashga so‘z beradilar. Bu ularning «axloq kodeksidir». Ikkinchidan, jinoiy guruh garchi surbetligi murakkab tayyorlanganligiga ko‘ra pishik - iuxta faqat bitta jinoyatni (masalan bankni o‘marish) sodir etish uchungina

emas, balki uzoq vaqt ba'zan yillar mobaynida jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish maqsadida tarkib topadi. Uyushgan jinoyatchilikning uchinchi belgisi - korrupsiyadir, boshqacha qilib aytganda, jinoiy elementlarning davlat apparati hamda yuridik -tartibot idoralari bilan chatishib ketishlaridan iboratdir.

Jinoiy hamjamiyatni tahlil qilganda quyidag'i omillarga e'tibor berish kerak:

1. Ushbu guruhga uyushish sabablari:

a) «birlashmasdan» jinoyat sodir etishning imkoniyati yo'qligi;

b) jinoiy maqsadlarning uyg'unligi;

v) shaxsiy bir - birini yoqtirish;

g) xulq - atvorning, e'tiqodlarning monandligi, yuridik ongdagi umumiy norasolik va hokazo.

2. Jinoiy guruhda rollarning taqsimlanishi:

a) iroda sifatleri;

b) tashkilotchilarning qobiliyatlari;

v) yetakchilarning obro'si va tashabbusi;

g) ikkinchi darajali a'zolarining irodasizligi, moslashuvchanligi ichkilikka ruju qo'yish.

3. Guruh ichidagi to'qnashuvlar va ziddiyatlar. (13.33) Uyushgan jinoiy tizimlar zulukdek jamiyat qonini so'radi. Yashirin iqtisod ularning moliyaviy asosidir. Jinoyatchilikning tub o'zagi g'arazdan iborat motivdir (kontrabanda, soxta pul yasash, valyuta operatsiyalari qonunlarining buzilishi kabi) davlat va xizmat sirlarini sotish, qotillik va qiynash, qurol va o'q - dori bilan qonunga xilof operatsiyalar kabi jinoyatlar va o'q -dori bilan qonunga xilof operatsiyalar kabi jinoyatlar uchun g'arazli motivlashuv xarakterlidir. Shantaj qilib to'lov undirish maqs'adini ko'zlagan jinoyatchilikning yana bir turi «kidnapping» (odamlarni, ko'pchilik xollarda bolalarni o'g'irlash ham tomir otdi. Uyushgan jinoiy guruhlarining manbalaridan biri (ayniqsa reket jinoyatida) sportchilar bo'lib qolyapti. Zo'rovonligining intensivligi jihatidan reket uyushgan jinoyatchilikning eng tajovuzkor turlaridan biri

bo‘lib hisoblanadi. Ko‘p xollarda u jismoniy zo‘rlik ishlatish, azoblash, qiynash, kimnidir garovga olish, mol-mulkni yo‘q qilib tashlash, bosqinchilik ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. «Omadi chopgan» jinoiy hamjamiyat a‘zolarida jazoning muqarrar emasligi, korporativ birdamlik, himoyalanganlik tuyg‘ularini shakllantiradi. Biroq jinoiy guruhlardan birini fosh etishga oid muvaffaqiyatli o‘tkazilgan tergov boshqa guruhlardagi jinoyatchiliklarda ham fosh etilishdan qo‘rquvni uyg‘otadi, o‘zini asrash hissini qo‘zgatadi. Tergov muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun jinoiy hamjamiyatning psixologik analizini, uning tuzilishini, barcha a‘zolarini, «lavozim zinapoyasidagi» mavqesini, har birinining shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish va aniqlashdan boshlamoq zarur. Jinoiy guruhning psixologik strukturasi shundan iboratki, ularda integratsion munosabatlar o‘rnatilgan. Bu munosabatlar muhit bilan bog‘liq bo‘lib, ular: shaxslararo, gorizontal, vertikal holatlarda bo‘lishi mumkin. Vertikal holatdagi integratsion munosabatlar - yuridikni muhofaza qilish organlari va davlat organlari bilan aloqada bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va boshqa sharoitlar korrupsiya, soyaviy iqtisodiyotni keltirib chiqaradi va keyinchalik rivojlantiradi. Integratsion munosabatlar- jinoiy guruh a‘zolari o‘rtasidagi rolliy vazifalarga suyanadi (bu degani, jinoiy faoliyatning xarakteriga ko‘ra rollar, majburiyatlar inoiy guruh a‘zolari o‘rtasida taqsimlanadi).

Jinoiy guruh o‘zining harakatlarini quyidagi tarzda amalga oshiradi:

- turli yo‘llar bilan jinoyatni sodir etish uchun kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni yig‘ish;

- huquqni muhofaza qilish va boshqa organlarni doimo korrupsiyalashtirish (korrupsiyalashgan mansabdor shaxslar guruhini kerakli bo‘lgan ma’lumotlar bilan ta’minlaydilar kadrlarga tegishli savollarni hal etishga yordam beradilar va guruhning muhofazasini tashkillashtiradilar);

- o‘zlarining xatti-harakatlariga tashqi qonuniylik berish maqsadida asosiy ijtimoiy-iqtisodiy institutlardan mohirona

foydalanish;

- o‘zlarining kuchliligi to‘g‘risida mish-mishlar va qo‘rquv tarqatish;

- guruh sardorlarining qilmishlari bo‘yicha ma’suliyatdan qutulish uchun kerakli bo‘lgan boshqaruv tizimini tuzish (ya’ni, ayrim a‘zolari jinoiy jazoga tortilganda ham, jamoa saqlanib qoladi);

- o‘zlarining qora niyatlarini amalga oshirish va hududda hukumdorlik o‘rnatish uchun turli jinoyatlarni sodir etish.

Jinoiy guruhning yashab turishi uchun doimo faoliyat doirasini zamon va imkon tomonidan kengaytirib turish lozim. Bunday harakatlar bo‘lmasa jinoiy faoliyatiga nuqta qo‘yiladi. Jinoiy guruhning ichki psixologik va funksional tizimi qanchalik mustahkam rivojlangan bo‘lsa, shunchalik uning faoliyati maqsadga yo‘nalgan bo‘ladi va a‘zolari o‘rtasidagi rollar va vazifalar aniq belgilangan bo‘ladi. Jinoiy guruh ishtirokchilari orasida faqat ishchi munosabatlar hukm suradi, shaxsiy munosabatlarga o‘rin bo‘lmaydi.

Jinoiy guruhda doimo 2 ta qarama-qarshi kuchlar to‘qnashadilar: Birinchi kuch guruhning ahil bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shsa, ikkinchisi uning yoyilib ketishiga harakat qiladi. Omadi chopgan paytida guruh yanada bir tan bir jon bo‘ladi, lekin omadni qo‘ldan boy bergan xolarda uning tarqalishi turgan gap. Jinoiy guruh orasida ma’lumot tarqatishning o‘ziga xos usullari mavjud:

1. To‘liq tizim orqali (har bir a‘zo bir birlari bilan aloqa o‘rnatadilar va ma’lumot beradilar);

2. Doira shaklidagi tizim (ma’lumotning yo‘nalishi chapdan o‘nga, yoki o‘ngdan chapga) yordamida;

3. Zanjir-doiraning bo‘linishi (birinchi shaxs ikkinchi shaxsga ma’lumot beradi, uchinchi shaxs ma’lumotni kim tarqatganligini bilmaydi – ya’ni birinchi shaxs kimligini bilmaydi, shu bois ikkinchi shaxs to‘rtinchi odam to‘g‘risida ham hech narsa bilmaydi-ya’ni uchinchi shaxsdan keyin kimga ma’lumot tushishi nomalum) orqali;

4. Doira - o'zagi bilan – boshliq guruhning bitta a'zosi bilan bog'liq, demak u a'zo gamma bilan bog'liq;

5. Kombinatsiya tizimi – boshliq guruh a'zolariga ma'lumot yetkazish uchun ikkita yoki uchta shaxslar bilan bog'lanadi;

6. Murakkab tizim – boshliq ikkita yoki uchta kichik guruhlar bilan bog'lanadi, ular o'z navbatida boshqa kichik, katta guruhlar bilan bog'langan baladi;

7. Ko'p tarmoqli tizim orqali- yetakchi bir necha boshqa shaxslardan jinoiy guruhlar bilan bog'lanadi va ular o'zining himoyasini ta'minlaydi. Ulardan olingan ma'lumotlar mahsulotni jo'natish, transport, buxgalteriya masalalariga oid bo'lishi mumkin.

Uyushgan jinoyatchilik tizimida yuqori darajada turadigan sardorlar ikkita qismga bo'linadi:

1. Katta talon-taroj qiluvchi ish bilarmonlar;

2. Jinoyatchilar

Jinoiy guruhlarini tashkil qiluvchilari quyidagi hukmdorlik asoslariga ega:

1. Taqdirlanish hukmi: qo'yiladigan shartlar bevosita bajarib kelingan taqdirda;

2. Bo'ysundirish, jazo hukmi: jazo olinishi mumkin, undan xalos bo'lishi mumkin;

3. Etalon hukmi: guruh a'zosi yetakchiga o'xshashligi;

4. Normativ hukmi: tartib-qoida, urf-odatlariga bo'ysunish;

5. Bilarmonlik hukmi: yetakchining obro' etibori, uning bilimi, malakasi;

6. Ma'lumot hukmi: yetakchi o'zi ma'lumot olishga qodir.

Hozirgi zamon sharoitida pastgi bo'g'inda joylashgan guruh a'zolari o'zlarining boshliqlari (yetakchilari)ni liderlarini bilmasligi mumkin (konspiratsiya tufayli). Uyushgan jinoiy guruh (jamoat) larning shakllanishiga sobiq spotchilar manba bo'lib hisoblanishlari mumkin, (ayniqsa reket jarayonida). Bunga ijtimoiy- psixologik asoslar sabab bo'lishi mumkin: —katta spottrni tashlab ketgan spotchilar kelgusida o'zining ichki zahiralari yo'qotgan, ma'lum bir kasbda bilim va malakalarini qo'llay olmasliklari, moddiy

taminoti yoʻqligi jinoiy guruhlariga aʼzo boʻlib qolishlariga imkon yaratadi.

Jinoiy jamoalarning uyushganligi maʼlum bir xudud, davlatlarda kriminologen sharoitlarni yaratadi. Ushbu jinoiy olamga koʻpgina yosh yigitlar jalb qilinadi. Ularga katta-katta moddiy ragʻbatlantirish vaʼdalarni berish orqali—tuzoqqa ilintirish va oʻz jinoiy gʻoyalarini amalga oshirish jamoalarning kengayishi va yanada chuqurlashishiga olib keladi.

Nazorat savollari :

1. Uyushgan jinoyatchilik motivlari haqida ayting?
2. Jinoiy guruhlarining psixologik tavsifi haqida ayting?
3. Jinoiy guruhlar harakatlarining psixologiyasini tushuntiring?
4. Shaxs va guruhning kriminal yoʻnalishining ijtimoiy-psixologik tavsifini keltiring?

Testlar:

1. **Ommaviy jinoyat psixologiyasi qaysilar?**
 - A) jinoyat sodir etganlar
 - B) jinoiy guruh psixologiyasi
 - C) bir necha shaxs tomonidan jinoyat sodir qilganlar
 - D) ekstremist, retsidivist, terrorist.
2. **Jinoyatga psixologik analiz qachon berildi?**
 - A) jinoiy harakatlarning namoyon qilinishi
 - B) nooʻrin xatti-harakatlar
 - C) xuquqbuzarlik, extiyotsizlik tufayli sodir qilingan jinoyatlar
 - D) hammasida ham analiz qilinadi
3. **Jinoiy ishni sodir etgan va sud ishlarini olib borish davomida aybdor deb topilgan shaxs- bu...**
 - A) jinoyatchi
 - B) jabrlanuvchi
 - V) tuhmat qiluvchi

G) g'iybatchi

4. Jinoyatchi shaxs oddiy insondan qaysi tomonlari bilan farq qiladi va qanday xususiyatlarga ega?

A) notinch, o'ziga ishonmaslik, tajavuzkor, jamiyat qadriyatlaridan uzoq, ahloqiy

B) yuridik normalarini yaxshi o'zlashtirmagan, kichik guruhlardan uzoqlashgan va ijtimoiy foydasi tegmasligi

V) notinch, serzarda, axloqsiz, muloqotga kirishaolmaslik, xuquqiy savodsiz, xatti- harakatlari noo'rin.

G) jamiyat qadriyatlaridan uzoq, idrok etish darajasi past shakllangan

5. Jinoyatchining individual – tipologik tomonlarini o'rganishda namoyon bo'ladigan ko'rinishlari-bu

A) umumiyligi, alohidaligi, betakrorligi.

B) jinoyatga layoqatliligi, umumiyligi.

Jinoiy jamoalarning uyushganligi ma‘lum bir xudud, davlatlarda kriminogen sharoitlarni yaratadi. Ushbu jinoiy olamga ko‘pgina yosh yigitlar jalb qilinadi. Jinoiy jamoa ularga katta-katta moddiy rag‘batlantirish va‘dalarini beradi, "tuzoqqa ilintirish" texnikasidan foydalangan xolda o‘z jinoiy g‘oyalarini amalga oshiradi, jamoaning kengayishi va yanada chuqur bo‘lishiga imkoniyat yaratadi.

Uyushgan jinoyatchilik ijtimoiy o‘ta xavfli bo‘lib, jinoyatchilikning «cho‘qqisi»ni anglatadi. U odatdagi «jinoiy

sheriklar»dan farqli o'laroq jinoiy hamjamiyat tarzidagi faoliyatni bildiradi.

Uyushgan jinoyatchilik - barqaror hodisa bo'lib, odatdagi jinoyatning oldini olish - profilaktika tadbirlariga bo'ysunavermaydi, chunki jinoiy jamoa ishtirokchilarining kriminogen bog'liqligi doimiy o'zaro ta'sir bilan kuchaytirib turiladi, guruh a'zolaridan birining jinoiy muhitdan chetga chiqishiga urinishi esa shafkatsizlik bilan uch olinishiga sabab bo'ladi. Uyushgan jinoyatchilik keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Ko'pincha butun boshli xududlarni, halq xujaligi tarmoqlarini o'z turi bilan qamrab olib, jinoyatchilarning huquq - tartibot idoralaridagi ayrim korrupsiyaga moyil xodimlari, poraxo'r, mansabini suiste'mol qilish, katta miqdorda davlat va jamoa mulkini o'zlashtirish, qonunga xilof kontrabanda - valyuta oneratsiyalari yordamida jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'ladi.

Jinoiy hamjamiyat a'zosi bo'lib qolgach, ko'pchilik jamoachilar faollashib ketadi, chunki ularning faoliyati guruh «obro' - e'tibori» bilan quvvatlanib turiladi. Uyushgan jinoyatchilikni faqat ungagina xos bo'lgan uchta bell'ilar bilan xarakterlab beriladi.

Birinchisi shundan iboratki, barqaror tashkiliy tizim uzoq muddat mobaynida, muntazam jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishni ko'zda tutib, tashkil qilinadi, jinoiy hamjamiyat a'zolari o'rtasida mavqe zinapoyalariga amal qiladi, unga ko'ra «quyi» mavqedagi shaxs yuqoriroq mavqeni egallaganga so'zsiz bo'ysunadi, rollar va faoliyat chegaralari qat'iy taqsimlab qo'yiladi, o'ziga xos «mehnat taqsimoti» «ixtisoslashuv» hukm suradi, «shtat ro'yxatiga» monand tarzda «amallar» belgilab qo'yiladi – qo'rboshi (ba'zan bir necha guruhlarining qo'rboshlari) - jinoiy «kassa» xazinachisi, aloqachilar, ko'ra ishni bajaradigan jangarilar, «rahbar»ga – qo'rboshiga so'zsiz itoat etadilar. Ayrim jinoiy to'dalar o'z razvedkalari va kontrazvedkalarini, ba'zan esa xatto o'z sudlarini tuzatadilar. Jinoiy guruh a'zolari bir - biriga ipsiz bog'langan, ba'zan «qondosh», shu jumladan, qurbonlarning to'kilgan qoni evaziga «qondosh» bo'lib qoladilar. Ko'pchilik jinoiy guruh a'zolari «qasam» ichadilar, har qanday sharoitda ham «sheriklari» va sodir etgan jinoyatlarini sir

saqlashga soʻz beradilar. Bu ularning «axloq kodeksidir».

Ikkinchidan, jinoiy guruh garchi surbetligiga murakkab tayyorlanganligiga koʻra pishiq - iuxta faqat bitta jinoyatni (masalan bankni oʻmarish) sodir etish uchungina emas, balki uzoq, baʼzan yillar mobaynida jinoiy faoliyat bilan shugʻullanish maqsadida tarkib topadi.

Uyushgan jinoyatchilikning uchinchi belgisi - korrupsiyadir, boshqacha qilib aytganda, jinoiy elementlarning davlat apparati hamda huquq - tartibot idoralari bilan chatishib ketishlaridan iboratdir.

Uyushgan jinoiy tizimlar zulukdek jamiyat qonini soʻradi. Yashirin iqtisod ularning moliyaviy asosidir. «Omadi chopgan» jinoiy hamjamiyat aʼzolarida jazoning muqarrar emasligi, korporativ birdamlik himoyalanganlik tuygʻularini shakllantiradi. Biroq jinoiy guruhlardan birini fosh etishga oid muvaffaqiyatli oʻtkazilgan tergov boshqa guruhlardagi jinoyatchiliklarda ham fosh etilishdan qoʻrquvni uygʻotadi, oʻzini asrash hissini qoʻzgʻatadi. Tergov muvaffaqiyatli oʻtkazilishi uchun jinoiy hamjamiyatning psixologik analizini, uning tuzilishini, barcha aʼzolarini, «lavozim zinapoyasidagi» mavqesini, har birinining shaxsiy xususiyatlarini oʻrganish va aniqlashdan boshlamoq zarur.

Jinoiy guruhning psixologik strukturasi shundan iboratki, ularda integratsion munosabatlar oʻrnatilgan. Bu munosabatlarning muhit bilan bogʻliq boʻlib, ular: shaxslararo, gorizontal, vertikal holatlarda boʻlishi mumkin. Vertikal holatdagi integratsion bu munosabatlar-huquqni muhofaza qilish organlari va davlat organlari bilan aloqada boʻlishi mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va boshqa sharoitlar korrupsiya, soyaviy iqtisodiyotni keltirib chiqaradi va keyinchalik rivojlantiradi. Integratsion munosabatlar- jinoiy guruh aʼzolari oʻrtasidagi rolli vazifalarga suyanadi (bu degani, jinoiy faoliyatning xarakteriga koʻra rollar, majburiyatlar jinoiy guruh aʼzolari oʻrtasida taqsimlanadi).

3. Jinoiy guruhlar harakatlarining psixologiyasi.

Jinoiy guruh o'zining harakatlarini quyidagi tarzda amalga oshiradi:

- turli yo'llar bilan jinoyatni sodir etish uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish;

- huquqni muhofaza qilish va boshqa organlarni doimo korrupsiyalashtirish (korrupsiyalashgan mansabdor shaxslar guruhini kerakli bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlaydilar kadrlarga tegishli savollarni hal etishga yordam beradilar va guruhning muhofazasini tashkillashtiradilar);

- o'zlarining hatti-harakatlariga tashqi qonuniylik berish maqsadida asosiy ijtimoiy-iqtisodiy institutlardan mohirona foydalanish;

- o'zlarining kuchliligi to'g'risida mish-mishlar va qo'rquv tarqatish;

- guruh sardorlarining qilmishlari bo'yicha ma'suliyatdan qutilish uchun kerakli bo'lgan boshqaruv tizimini tuzish (ya'ni, ayrim a'zolari jinoiy jazoga tortilganda ham, jamoa saqlanib qoladi);

- o'zlarining qora niyatlarini amalga oshirish va hududda hukmdorlik o'rnatish uchun turli jinoyatlarni sodir etish.

Jinoiy guruhning yashab turishi uchun doimo faoliyat doirasini zamon va imkon tomonidan kengaytirib turish lozim. Bunday harakatlar bo'lmasa jinoiy faoliyatiga nuqta qo'yiladi.

Jinoiy guruhning ichki psixologik va funksional tizimi qanchalik mustahkam rivojlangan bo'lsa, shunchalik uning faoliyati maqsadga yo'nalgan bo'ladi va a'zolari o'rtasidagi rollar va vazifalar aniq belgilangan bo'ladi.

Jinoiy guruh ishtirokchilari orasida faqat ishchi munosabatlar hukm suradi, shaxsiy munosabatlarga o'rin bo'lmaydi.

Jinoiy guruhda doimo 2 ta qarama-qarshi kuchlar to'qnashadilar: Birinchi kuch guruhning ahil bo'lishiga o'z hissasini qo'shsa, ikkinchisi uning yoyilib ketishiga harakat qiladi. Omadi chopgan paytida guruh yanada bir tan bir jon bo'ladi, lekin omadni qo'ldan boy bergan xolarda uning tarqalishi turgan gap.

Jinoiy guruh orasida ma'lumot tarqatishning o'ziga xos usullari mavjud:

1. To'liq tizim orqali (har bir a'zo bir birlari bilan aloqa o'rnatadilar va ma'lumot beradilar);

2. Doira shaklidagi tizim (ma'lumotning yo'nalishi chapdan o'nga, yoki o'ngdan chapga) yordamida;

3. Zanjir-doiraning bo'linishil (birinchi shaxs ikkinchi shaxsga ma'lumot beradi, uchinchi shaxs ma'lumotni kim tarqatganligini bilmaydi – ya'ni birinchi shaxs kimligini bilmaydi, shu bois ikkinchi shaxs to'rtinchi odam to'g'risida ham hech narsa bilmaydi-ya'ni uchinchi shaxsdan keyin kimga ma'lumot tushishi nomalum) orqali;

4. Doira - o'zagi bilan – boshliq guruhning bitta a'zosi bilan bog'liq, demak u a'zo hamma bilan bog'liq;

5. Kombinatsiya tizimi – boshliq guruh a'zolariga ma'lumot yetkazish uchun ikkita yoki uchta shaxslar bilan bog'lanadi;

6. Murakkab tizim – boshliq ikkita yoki uchta kichiq guruhlar bilan bog'lanadi, ular o'z navbatida boshqa kichiq katta guruhlar bilan bog'langan bo'ladi;

7. Ko'p tarmoqli tizim orqali- yetakchi bir necha boshqa shaxslardan jinoiy guruhlar bilan bog'lanadi va ular o'zining himoyasini ta'minlaydi. Ulardan olingan ma'lumotlar mahsulotni jo'natish, transport, buxgalteria masalalariga oid bo'lishi mumkin.

Jinoiy jamoalarning uyushganligi ma'lum bir xudud, davlatlarda kriminologen sharoitlarni yaratadi. Ushbu jinoiy olamga ko'pgina yosh yigitlar jalb qilinadi. Ularga katta-katta moddiy rag'batlantirish va'dalarni berish orqali —tuzoqqa iltirish va o'z jinoiy g'oyalarini amalga oshirish jamoalarning kengayishi va yanada chuqurlashishiga olib keladi.

4. Shaxs va guruhning kriminal yo'nalishining ijtimoiy-psixologik tavsifi.

Jinoyatchilikning tub o'zagi g'arazdan iborat motivdir (kontrabanda, soxta pul yasash, valyuta operatsiyalari, qonunlarning

buzilishi kabi). Davlat va xizmat sirlarini sotish, qotillik va qiynash, qurol va o'q-dori bilan qonunga xilof operatsiyalar kabi jinoyatlar uchun g'arazli motivlashuv xarakterlidir. Shantaj qilib to'lov undirish maqsadini ko'zlagan jinoytchilining yana bir turi —kindpeppinll (odamlarni, bolalarni o'g'irlash) ham tomir otdi.

Uyushgan jinoiy guruhlarining manbalaridan biri (ayniqsa reket jinoyatida) sportchilar bo'lib qolyapti. Zo'ravonlikning intensivligi jihatidan reket uyushgan jinoyatchilikning eng tajovuzkor turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ko'p hollarda u jismoniy zo'rlik ishlatish, azoblash, qiynash, kimnidir garovga olish, mol-mulkini yo'q qilib tashlash, bosqinchilik ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

— Omadi chopganll jinoiy hamjamiyat a'zolarida jazoning muqarrar emasligi, korporativ birdamlik, himoyalanganlik tuyg'ularini shakllantiradi. Biroq jinoiy guruhlardan birini fosh etishga oid muvaffaqiyatli o'tkazilgan tergov boshqa guruhlardagi jinoyatchilklarda fosh etilishdan qo'rquvni uyg'otadi, o'zini asrash hissini uyg'otadi. Tergov muvaffaqiyatli o'tishi uchun jinoiy hamjamiyatning psixologik tahlilini, uning tuzilishini, barcha a'zolarini, —lavozim zinapoyasidagill mavqeini, har birining shaxsy xususiyatlarini o'rganish va aniqlashdan boshlamoq zarur.

5. Guruh jinoiy xulq-atvori.

Jinoyat xatti-harakati insonning xatti-harakati, bu xulq-atvorning umumiy qonunlariga bo'ysunadi. Jinoiy xatti-harakatlarda bir xil jarayonlar va hodisalar butun odamning xatti-harakatlarida yaxshi kuzatilgan. Va shuning uchun jinoiy xulq-atvor sabablari va uning harakatlarining mexanizmi chuqurroq bilish uchun, psixologiya tadqiqotlari individual bo'limlari tomonidan to'plangan bilimlardan foydalanish kerak.

Jinoiy xulq va jinoyatchilik - bir xil tushuncha emas. Jinoyat kodeksining talqiniga binoan jinoyat ijtimoiy xavfli harakat. Jinoiy xulq-atvorning mohiyatini o'rganish ob'ektiv yoki

sub'yektiv sharoitlar to'g'ridan-to'g'ri jinoiy harakatlarga olib kelmaydi. Jinoyat xatti-harakati inson psixikasining ichki yoki tashqi sharoitlarini qayta ishlash natijasida hosil bo'ladi. Shuning uchun, xuddi shu holatlarda, turli psixologik omborga ega odamlar boshqacha harakat qilishadi. Jinoyat huquqi nuqtai nazaridan jinoiy xatti-harakati har doim qonunda belgilangan tartibsiz shakllangan va belgilardan farq qiladi. Agar shunga o'xshash belgilar bo'lsa, xatti-harakatlar jinoyat deb topilsa ham, jinoyat sodir etilgan bo'lsa ham, jinoyat sodir etgan shaxsning foydasiga guvohlik beradi. Jinoyatchik psixologiya nuqtai nazaridan, jinoiy xatti-harakatlarning bajarilishi boshqa mezonlarda farq qiladi. Jinoiy xatti-harakatlar har doim hissiyotlik, ruhiy keskinliklar bilan birga keladi, chunki noxaq tajovuzkorlik bilan bog'liq bo'lgan odam, u qonunni buzganligini biladi va u qattiq jazoga duch kelishi mumkinligini biladi. Shu bilan birga, odam har doim o'ziga xosdir hayotning ahvoli va atrof-muhit bilan yaqindan aloqa qiladi. Natijada jinoiy xulq-atvorning har bir aloqasi shaxsiyat bilan bog'liq: ma'lum bir vaziyatda bir kishi jinoyat sodir etadi (bu shaxsning shaxsiy aloqalari va jinoiy xatti-harakatlarning to'g'ridan-to'g'ri munosabati), keyinchalik fikrlar harakat qila boshlaydi. Jinoyat shaxs uchun allaqachon amal qiladi.

6. Uyushgan jinoyatchilikning ko'zga ko'rinadigan xususiyatlari.

Uyudhgan GURUH — jinoyatda ishtirokchilik shakli, O'zbekiston jinoyat huquqi bo'yicha (O'zbekiston Respublikasi JK, 29 modda), 2 yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishi. Uyushgan guruh birga bajaruvchilik ko'rinishida bo'lishi mumkin. Bunda jinoiy faoliyat bilan birgalikda shug'ullanish uchun uyushgan shaxslarning barchasi oldindan til biriktirib guruhning jinoyatni sodir qilishida bevosita ishtirok etadi. Ayni paytda bunday guruhlar uchun shunday uyushganlik mansubki, unda guruhda qatnashadigan shaxslar muayyan vazifalarga ega, shuningdek, ular o'rtasida martaba, lavozimlar taqsimlanishi amalga oshgan bo'ladi.

Ikkala ko‘rinishda ham pog‘onali tuzilma bo‘lishi va u subordinatsiya hamda muvofiqlashtirishga asoslangan bo‘ysunish kuzatiladi. Biroq, odatda, bunday guruhlarda uyushganlik darajasi, ularning keng tarqalgan bo‘lishiga qaramay, jinoiy uyushma bilan qiyoslaganda uncha yuqori bo‘lmaydi va shu nuqtai nazardan ular uyushgan jinoyatchilikning quyi «pog‘onasi»da turadi. Qurollangan yushgan guruhlar tuzish, unga rahbarlik qilish yoki ishtirok etish alohida baholanadi. Guruhning qurollanganligi mazkur guruh a‘zolarining hech bo‘lmaganda birida qurolning mavjudligi, bu haqda guruhning boshqa a‘zolarining bundan aniq xabardorligida ifodalanadi. Qurollangan uyushgan guruhni tashkil etishning o‘ziyoy jinoiy javobgarlikka loyiq qilmish sanaladi.

Uyushgan jinoyatchilik nima? Uyushgan jinoyatchilik uyushgan jinoyatchilik, bu ma‘lum bir ierarxiya, rol va funktsiyalarga ega bo‘lgan odamlar guruhidan tashkil topgan har qanday tashkilot bo‘lib, ularning asosiy maqsadi jinoyat sodir etish orqali moddiy yoki iqtisodiy foyda olishdir. "Uyushgan" jinoyat haqida gap bor, bu aniq jinoiy harakatlarni kelishilgan va yo‘naltirilgan tarzda amalga oshirish uchun maxsus yaratilgan kompaniya yoki uyushma iqtisodiy, siyosiy yoki ijtimoiy kuchga erishish. Uyushgan jinoyatchilik uning faoliyatidagi tuzilmalar va murakkablik darajalarini kompaniyadagiga o‘xshash tarzda ko‘rsatishi mumkin. Shu tufayli u hukumat nazoratini chetlab o‘tishga va transmilliy uyushgan jinoyatchilik deb nomlanuvchi xalqaro aloqalar bilan mahalliy va global miqyosda samarali jinoiy tarmoqlarni yaratishga qodir.

Uyushgan jinoyatchilik odatda kuch guruhlariga aloqador yoki ularga yaqin bo‘lgan shaxslardan iborat bo‘lib, shuning uchun ularning rahbarlari adolat qo‘liga tushib qolishdan saqlanishadi. Uyushgan jinoyatchilik tomonidan eng ko‘p uchraydigan jinoyatlar orasida odam savdosi, qurol-yarog‘ va giyohvand moddalar savdosi, qalbakilashtirish, pul yuvish, odam o‘g‘irlash, suiqaqd va tovlamachilik va boshqalar bor. O‘zlarining jinoiy ustunligini o‘rnatadigan joylarda ular bozorning xususiyatiga qarab monopol

yoki oligopolistik rejimlarni amalga oshirishga moyildirlar.

Uyushgan jinoyatchilikning Kriminologiya fanida ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilishiga bo'lgan qiziqish asosan o'tgan XX asrning 70-80-yillariga to'g'ri keladi. Chunki aynan shu davrlarda uyushgan jinoyatchilikning alomatlarini jinoyat qonunchiligi nuqtai nazaridan dastlabki ilmiy va huquqiy baholashlar yuzaga kelganini ko'rish mumkin. Uyushgan jinoyatchilikning nafaqat mamlakatimizda, balki jahon miqyosida ijtimoiy-huquqiy, qolaversa, siyosiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilishi va baho berilishi uning turli ijtimoiy-tabiiy fanlarning tadqiqot ob'yektiga kirib borayotganligining o'ziyoq bu muammoning naqadar dolzarbligini ko'rsatadi.

7. Jinoiy guruh klassifikatsiyasi. Jinoiy guruh a'zolarining shaxsiy xususiyatlari.

Jinoiy hamjamiyat a'zosi bo'lib qolgach, ko'pchilik jamoatchilar faollashib ketadi, chunki ularning faoliyati guruh «obro'-e'tibori» bilan quvvatlanib turiladi. Uyushgan jinoyatchilikni faqat ungagina xos uchta belgilar xarakterlab beriladi:

1. Barqaror tashkiliy tizim uzoq muddat davomida muntazam jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishini ko'zda tutib tashkil qilinadi, jinoiy hamjamiyat a'zolari o'rtasida mavqe zinapoyalari amal qiladi, unga ko'ra «quyi» mavqedagi shaxs yuqoriroq mavqeni egallaganga so'zsiz bo'ysunadi, rollar va faoliyat chegaralari qat'iy taqsimlab qo'yiladi, o'ziga xos «mehnat taqsimoti» ixtisoslashuvi hukm suradi, shtat ro'yxatiga monand tarzda «amallar» belgilab qo'yiladi - qo'rboshi (ba'zan bir necha guruhlarining qo'rboshilari) jinoiy «kassa» xazinachisi, aloqachilar, qora ishni bajaradigan jangarilar, «rahbar»ga - qo'rboshiga so'zsiz itoat etadilar.

Jinoiy uyushma - 2 yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun oldindan birlashishi. Jinoiy uyushma guruh a'zolarining miqdori, uyushmaning tuzilishi va boshqa belgilariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Jinoiy uyushma tuzish yoki unga rahbarlik qilish jinoiy tuzilmani shakllantirish

uchun nomzodlarni tanlash, ularni jalb qilish, jinoiy uyushma guruh yoki uning bo'linmalari ishtirokchilari o'rtasida vazifalarni bo'lish, jinoiy faoliyatning umumiy rejasi yoki alohida tajovuzlar rejasini tuzish kabi xatti-harakatlarda ko'rinadi. Jinoiy uyushmaning yashashi va amal qilishiga qaratilgan faoliyatni olib borish, jinoiy uyushma uchun pul mablag'lari, transport vositalari, xonalar ajratish, jinoiy uyushma yoki bo'linmalarining ishlashi uchun shartsharoitlarni yaratish kabilarda namoyon bo'ladi. Har qanday turdagi jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun jinoiy uyushmaga birlashishning o'zi tugal jinoyat hisoblanadi. Jinoiy uyushma yoxud uning bo'linmalarini tuzish yoki unga rahbarlik qilish, shuningdek, ularning mavjud bo'lishi va ishlab turishini ta'minlashga qaratilgan faoliyat uchun O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksining tegishli moddasiga ko'ra jinoiy jazo belgilangan.

Nazorat savollari:

1. Uyushgan jinoyatchilik motivlari haqida ayting?
2. Jinoiy guruhlarining psixologik tavsifi haqida ayting?
3. Jinoiy guruhlar harakatlarining psixologiyasini tushuntiring?
4. Shaxs va guruhning kriminal yo'nalishining ijtimoiy-psixologik tavsifi qanday?

Testlar:

1. Jinoiy guruhlarda qanday tizim mustahkam rivojlangan bo'ladi?

- A) ichki psixologik va funksional tizim
- B) psixologik va fiziologik tizim.
- V) ichki va tashqi psixologik tizim.
- G) funksional tizim.

2. Uyushgan jinoyatchilik tizimida yuqori darajada turadigan sardorlar necha qismga bo'linadi?

- A) 1ta 1) katta talon-taroj ishlarni bajaruvchi ish bilarmonlar
- 2) jinoyatchilar

- B) 2 ta 1) aholi yashashiga zarar yetkazuvchi jinoyatchilar.
- V) 3 ta 1) ishbilarmonlar,
- 2) talon-tarojlikka o'rgatuvchilar,
- 3) qonun doirasiga xilof ish tutuvchilar
- G) 4 ta 1) aldov yo'li bilan ish yurituvchilar, 2) yashirin jinoyatchilar,
- 3) maqsadli jinoyatchilar,
- 4) guruh tuzuvchi jinoyatchilar

3. Jinoiy guruhlarining belgilari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

C) uyushganligi, mustahkamligi, birlikdagi harakati, muhofazalanganligi

D) o'zaro til biriktiruvi, jinoiy ishga moyilligi, xohish-istaklari borligi.

V) o'z fikriga ega emasligi, guruhliy birlashuvi, mustaqil emasligi.

G) o'zaro hamkorligi, faoliyatni anglamasligi, maqsadni aniq qo'ya olmasligi

4. Jinoiy guruhlarining uyushganlik turlari darajasini aniqlang?

A) uyushgan jinoiy guruhlar, jinoiy tashkilotlar, jinoiy jamoalar.

B) muxofazalangan jinoiy guruhlar, maqsadli jinoiy guruhlar.

V) birlashgan jinoiy guruhlar, qo'poruvchi jinoiy guruhlar.

G) mehnat faoliyatiga loqayd jinoiy guruhlar, jinoiy jamoalar

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Uyushgan jinoyatchilik motivlari.
2. Jinoiy guruhlarining psixologik tavsifi.
3. Jinoiy guruhlar harakatlarining psixologiyasi.
4. Shaxs va guruhning kriminal yo'nalishining ijtimoiy-psixologik tavsifi.
5. Guruh jinoiy xulq-atvori.
6. Uyushgan jinoyatchilikning ko'zga ko'rinadigan

xususiyatlari.

7. Jinoiy guruh klassifikatsiyasi.

8. Jinoiy guruh a'zolarining shaxsiy xususiyatlari.

9. Jinoiy guruhlarining uyushganlik turlari

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Norboyev A.N., Usmonova A.A. Yuridik psixologiya. O'quv qo'llanma. T.2006.

9 – MAVZU. JINOYATNI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Moddiy va ma'naviy izlarning jinoyatni ochishdagi informatsion manbalik roli.
2. Tintuv holatida tergovchining kasbiy fazilatlari.
3. Ko'zdan kechirish
4. Tergov intuitsiyasi

Tayanch tushunchalar

Ko'zdan kechirish – alohida tergov harakati bo'lib, jinoyat izlarini boshqa daliliy ashyolarni izlab topish, voqea tafsilotini, hamda ushbu jinoiy ishga aloqador boshqa tafsilotlarni aniqlashga qaratilgan.

Tergov intuitsiyasi – ma'lumotlar qariyb yo'q bo'lgan bir vaziyatda ijodiy vazifani tez, bevosita hal etishga oid tajriba va bilimlardan orttirilgan aql - idrok qobiliyatidir

Jinoyat xarakter chizgilari – ochko'zlik, shafqatsizlik; irodaviy xususiyatlar – jangarilik, qo'rqqoqlik

1. Moddiy va ma'naviy izlarning jinoyatni ochishdagi informatson manbalik roli.

Tintuv paytida ma'lumot olishning asosiy usullaridan biri kuzatish va uning natijalarini darhol tahlil qilish bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa tintuv qilinayotgan shaxs xulq - atvori juda ko'p narsalarni aytib berishi mumkin. Bundan kuzatishdan imkoni boricha to'laroq va haqqoniyroq natijaga erishish uchun bevosita tintuv vaziyatida tintuv qilinayotgan shaxs xulq - atvorining psixologik qonuniyatlaridan har tomonlama boxabar bo'lish zarur. Narsa va ob'yektlarni ko'zdan kechirish bilan birga uy hayvonlari va qushlarga e'tibor berish ham muayyan natija berishi mumkin, ba'zan ularning bezovtalanishi yashiringan odam yoki yashiringan narsalarning joyini ko'rsatib beradi. Uy hayvonlarining ko'pchiligi

murda bilan yonma-yon to'rganlarida qattiq bezovtalanadilar, itlar begona odam bo'lsa, hurkiy boshlaydi va h.k.

Tintuv paytida nishonga oluvchining (supervizor) ishtiroki maqsadga muvofiq bo'ladi, u izquvarning kamchiligini tuzatishi, sezdirmay kimga e'tibor berish zarurligini ko'rsatishi (yashikni surish, eshikchani ochish) mumkin. Tintuv o'tkazayotgan xodimlar jinoyatchilar turli yashirin joylarni hozirlayotganlarida bir qator psixologik omillarni ham e'tiborga olishlarini nazardan soqit qilmasliklari kerak.

Charchoq va avtomatizm tufayli diqqatning susayishini hisobga olish. Shuning e'tiborga olib, qidirilayotgan hujjatni ko'pincha kitob javonining o'rtasidagi kitobning ichiga solib qo'yadilar.

Jirkanishga umid bog'lash (go'ng orasiga yoki xojatxona tagiga ko'mib qo'yadilar).

Tergovchi tomonidan odamgarchilik va boshqa insoniy tuyg'ularning namoyon bo'lishini hisobga olish (daliliy ashyo bo'lishi mumkin bo'lgan narsani og'ir yotgan to'shak ostiga, chaqaloqning karavotiga, yaqin qarindoshlarining qabriga yashirish).

Predmetni ataylab ko'zga tashlanib turadigan joyga tashlab qo'yish.

Ikkita bir xilda yashirin tuynuk yasash, bunda jinoyatchilar bitta bo'sh tuynukni topishganidan keyin shunaqa tuynukni axtarib ko'rmaydilar, deb hisoblaydilar.

Tintuv paytida mojaro qo'zg'ash va mojaro paytida qidirilayotgan narsani yashirishga ulgurishday hiylani ham qo'llash mumkin.

Yuqoridagi shartlarga rioya etgan barcha ma'lumotlarni tahlil qilganda tergovchi tintuv vazifasining birinchi bosqichini to'g'ri hal qiladi.

2. Tintuv holatida tergovchining kasbiy fazilatlari.

1. Tintuv o'tkazish tergovchidan turli-tuman psixologik hislatlar, xususiyatlar, professional bilim, qobiliyat va malakani talab qiladi. Tintuv o'tkazishga tayyorgarlik mobaynida tergovchi quyidagi savollarga javob topishi talab qilinadi:

2. Nimani qidirish kerak, qidirilayotgan predmetlarning shakl-shamoyili qanday?

3. Tintuv qilinajak ob'yektning tuzilishi: maydoni, qanday reja bilan qurilgani, xona, eshik, derazalarning soni, mebellar va ularning joylashishi kabilar.

4. Tintuv paytida gumonlanuvchidan boshqa yana kim bo'lishi mumkin?

5. Tintuv qilinajak ob'yektning tabiiy va sun'iy yoritilishi qanday?

6. Ob'yektda telefon yoki boshqa aloqa vositalari (ratsiya, qo'ng'iroq, selektor) bormi?

7. Qidirilayotgan predmetlar qayerda bo'lishi mumkin?

8. Tintuvni kim o'tkazadi? Ular qanday texnika vositalarini olishlari kerak?

9. Tintuvni qay paytda o'tkazish muhim?

10. Tintuv paytida tintuv bo'linmasi bilan qanday aloqa qilish mumkin?

Tergovchi tintuv vaqtida tashkiliy ishlarni uyushtiradi. Uning muhim vazifasi tintuv jarayonida tintuv o'tkazayotgan shaxs bilan og'zaki muomala (kontakt) o'rnatishdan iborat. Tintuv paytida tintuv qilinayotgan shaxsni imkoni boricha ko'proq suhbatiga tortish, u yoki bu predmetlarning zarurati haqida savollar bilan suhbatga tortish ham muhim ahamiyatga ega. Uning so'zlari ichki holatini, tergovchining ayrim harakatlariga munosabatini sezdirib qo'yadi. So'z ohangi, gapirish uslubi – boshqa taassurotga nisbatan kishining haqiqiy kechinmalari, munosabati to'g'risida ko'proq ma'lumotlarni berishi mumkin.

Tergovchi tintuv mobaynida axloqiy - etik normalar doirasidan chiqmasligi, boshidan oxirigacha xushmuomalalik bilan ish ko'rishi, qo'pollik, xaqorat, qo'rqitish kabilarga yo'l qo'ymasligi

zarur. U uyi tintuv qilinayotgan shaxsga nisbatan nafrat, g‘azab, jirkanish hislarini yashira oshili, o‘zini tuta bilishi, oilaning boshqa a‘zolarining izzat-nafsiga tegmasligi kerak, ya‘ni tergovchi odob doirasida ishlashi lozim.

Tintuv o‘tkazilayotganda ayblanayotgan shaxsning ma‘lumoti, madaniyati, kasbi, bilimlari, aql-idrok qobiliyatlarini e‘tiborga olish muhimdir. Tintuv joyida qat‘iy intizom o‘rnatilishi, asosiy ishdan chalg‘ituvchi ortiqcha gap-so‘zlar, xonama-xona yurishlar taqiqlanishi zarur.

Tintuv va hibsga olishning o‘xshashligi shundaki, har ikkala xolda ham gumonlanuvchining shaxsi o‘rganiladi, sharoit tahlil qilinadi. Shuni unutmaslik kerakki, gumonlanuvchi ijobiy xislatlar bilan ta‘riflangan bo‘lsada, u qarshilik, jumladan, qurolli qarshilik ko‘rsatishi ehtimolini nazardan soqit qilib bo‘lmaydi. Qarshilik ko‘proq hibsga olayotganda uchraydi, ayniqsa retsidivistlarni qo‘lga olishda. Hibsga olishda shoshmaslik kerak, chunki gumonlanuvchi o‘zini tuta olmasligi, affekt holatiga tushib qolishi mumkin. Jinoyatchini taslim bo‘lishga ko‘ndirish psixologik ta‘sirning samarali vositasidir. Bunday paytlarda tergovchida shunday qobiliyat bo‘lishi kerakki, u jinoyatchining psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi, ulardan oqilona foydalana olishi lozim. Muzokarada uning ko‘ngliga yaqin, fikrlari bilan hisoblashadigan kishilarni: uning ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, do‘stlarini taklif qilish maqsadga muvofiqdir.

3. Ko‘zdan kechirish

Ko‘zdan kechirish – alohida tergov harakati bo‘lib, jinoyat izlarini boshqa daliliy ashyolarni izlab topish, voqea tafsilotini, hamda ushbu jinoiy ishga aloqador boshqa tafsilotlarni aniqlashga qaratilgan. Ko‘zdan kechirish boshqa tergov harakatlarining tarkibiy qismidir. Voqea joyini ko‘zdan kechirish tergov harakatlarining eng muhim sharti bo‘lib, ana shu paytda olinadigan ma‘lumotlar, taassurotlarning o‘rnini boshqa tergov harakatlari yordamida to‘ldirib bo‘lmaydi. Masalan, jinoyatchining qo‘l va oyoq izlari, foydalangan qurollari muhim dalil bo‘lib xizmat qiladi. Voqea

joyini ko'zdan kechirish zudlik bilan o'tkazilishi kerak. Chunki izlar, daliliy ashyolar g'oyib bo'lishi, hodisaga guvoh bo'lganlar voqeaning tafsilotini bayon etishda unutib qo'yishlari mumkin.

Ko'zdan kechirish mobaynida, ma'lumotlarning tanqisligi sharoitida qiyin masalalarni fikran hal etishga to'g'ri keladi, tergovchi bunday vaziyatda qo'lga kiritilgan faktlar, ayrim tafsilotlarga tayanadi, o'z bilimlari, professional va hayotiy tajribasidan ko'pincha hissiy (intuitiv) ehtimol va taxminlar darajasida foydalanadi.

4. Tergov intuitsiyasi

Tergov intuitsiyasi – ma'lumotlar qariyb yo'q bo'lgan bir vaziyatda ijodiy vazifani tez, bevosita hal etishga oid tajriba va bilimlardan o'ttirilgan aql - idrok qobiliyatidir. Taxminning tekshirib ko'rilishi jarayonida dastlabki versiya puch bo'lib chiqishi mumkin. Bu psixologik nuqtai nazardan ikki oqibatni keltirib chiqaradi. Avvalo yetishmayotgan ma'lumotlarni qidirishga kirishiladi.

Voqea sodir etilgan joyni ko'zdan kechirish faqat jinoiy tafsilotlar haqida ma'lumotlar olishgina emas, balki jinoyatchi shaxsining xususiyatlarini (jismoniy, biologik, psixologik) bilib olish imkonini beradi. Voqea joyida jinoyatchining yoshi, jinoyatchilarning kasb - kori, professional malakasi, bilim va ko'nikmalari ko'zgudagidek aks etadi. (masalan, montyor signalizatsiyani o'chirib qo'yishga, slesar seyfni buzishga usta)

Voqea joyini ko'zdan kechirish jarayonida o'tkaziladigan psixologik tahlil sodir etilgan jinoyat motivi xususida xulosa chiqarish imkonini tug'diradi. Jinoyat xarakter chizgilari – ochko'zlik, shafqatsizlik; irodaviy xususiyatlar – jangarilik, qo'rqqulik kabilar aks etishi mumkin. Voqea joyidagi tafsilotlar ba'zan sub'yekt tomonidan jinoyat sodir etilayotgan paytdagi uning ayrim psixologik hissiy - emotsional holatini ham aks ettira oladi.

Nazorat savollari:

1. Voqea joyini koʻzdan kechirish qanday ahamiyatga ega?
2. Jinoyatchini taslim boʻlishga qanday koʻndiriladi?
3. Tergovchi voqea joyini koʻzdan kechirishni nimadan boshlashi kerak?
4. Voqea joyini koʻzdan kechirishda kimlar qatnashishi talab etiladi?
5. Intuitsiya qachon paydo boʻladi?

Testlar:

1. Hodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirish kimlar ishtirokida oʻtkaziladi?

- A) tergovchi rahbarligida mutaxassis, ekspert va boshqa ishtirokchilar huzurida oʻtkaziladi
- B) tergovchi va ekspert ishtirokida
- V) sohaga oid ekspertlar ishtirokida
- G) tergovchi

1. Ongli ravishda yashirilgan obyektlarni titib koʻrish, yaqqol koʻzga koʻrinadigan va qidiruv harakatlariga ega boʻlgan jarayon-bu...

- A) tintuv oʻtkazish
 - B) berkitilgan narsani qidirib topish
 - V) gumon qilingan narsani qidirib topishga qaratilgan harakatlar
 - G) muammoni yechimiga harakat qilish ishtirokida
- #### **2. Tergovchi soʻroq jarayonini qanday amalga oshiradi?**
- A) bosqichma-bosqich
 - B) umumiy tartibda
 - V) yashirin tartibda
 - G) maxsus sohaga xos tartibda

3. Tergovchi soʻroq jarayonini amalga oshirishi qanday omillarga bogʻliq?

- A) tashqi va ichki psixologik omillarga

- B) biologik va psixologik omillarga
- V) ijtimoiy omillarga
- G) ijtimoiy-siyosiy omillarga

Mustaqil ishlash ichun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Voqea joyini ko'zdan kechirish.
2. Jinoyatchini taslim bo'lishga ko'ndirish. 3. Tergovchining voqea joyini ko'zdan kechirishi.
4. Voqea joyini ko'zdan kechirish.
5. Intuitsiyaning paydo bo'lishi.
6. So'roq jarayonini tahlil qilish.
7. Tergov intuitsiyasi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'rayev B. Yuridik psixologiya. O'quv qo'llanma. —O'zbekiston nashr. 2022.
2. Maxsudova M.A. Yuridik psixologiya. Ma'ruzalar matni. N.2007.- 62 b.
3. Norboyev A.N., Usmonova A.A. Yuridik psixologiya. O'quv qo'llanma. T.2006.

10 – MAVZU. VOQEA SODIR BO‘LGAN JOYNI TEKSHIRISH VA GUVOHLIK BERISH PSIXOLOGIYASI. TINTUV QILISH PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. Voqea sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish psixologiyasi
2. Tergovchining ko‘zdan kechirish faoliyatidagi fikrlashi va faoliyatining maqsad tomon yo‘naltirilganligi.
3. Tintuv o‘tkazish jarayonining o‘ziga xos psixologik tomonlari.

Tayanch tushunchalar:

Yuzlashtirish - guvohlarni yuzma-yuz holatda so‘roq qilish.

Guvoh – jinoiy xatti-harakatlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan shaxs.

Jabrlanuvchi – jinoyatchilar tomonidan aziyat chekkan, tahqirlangan kishi.

Shubhalanuvchi – gumondor bo‘lib, u tergovchi tomonidan kuzatiladi

Ayblanuvchi – biror bir jinoiy xatti-harakatni amalga oshirgan kishi.

1. Voqea sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish jarayoninig psixologik jihatlari

Jinoyatni tez va har tomonlama to‘liq ochishda voqea sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish tergov harakati uchun juda muhim ahamiyatga ega. Voqea sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish-bu jinoiy ishni ochishda unga aloqador bo‘lgan moddiy ob‘ektlar, ularning belgi va bog‘liqliklari, xususiyatlarini toppish va o‘rganish demakdir.

Voqea sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish jinoiy ish to‘gorisida ma’lumot yig‘ish jarayonini tashkil qiladi. Bu jarayonni ko‘zdan kechirish davomida tergovchi turli xil ma’lumotlarni izlab toppish va qulay yo‘llar yordamida sodir bo‘lgan voqeani xayolan

ko‘z oldiga keltirishga harakat qiladi. Ya‘ni sodir bo‘lgan hodisa borasida versiyalar tuzadi. Jinoiy ish sodir bo‘lgandan so‘ng unga tegishli joyning tashqi ko‘rinishi o‘zgarib qolgan bo‘lishi mumkin. Bu o‘zgarishlarga dahldor bo‘lgan dalillar yig‘iladi va ular batafsil tekshiriladi, o‘rganiladi.

Ko‘zdan kechirishdagi yutuq va kamchiliklar o‘zining ahamiyatiga ko‘ra jinoyatni ochishga taalluqli versiyalarni yuzaga keltiradi. Ammo dastlabki versiyaning namoyon bo‘lishi tergov ishlarini olib borishda salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Voqea sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish davomida jinoiy ishga taalluqli bo‘lgan jinoyatning izlari boshqa buyumlarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Voqea sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish boshqa tergov harakatlarining asosiy qismi bo‘lb hisoblanadi. (masalan, qo‘lga olish, tintuv o‘tkazish, tergov eksperimenti, ko‘rsatmalarni joylarda tekshirish). Bu jarayon jinoyatni ochishda, dalillarni topishda asosiy tergov harakati bo‘lib hisoblanadi, chunki jinoyatga aloqador bo‘lgan ma‘lumotlarni faqat o‘sha joyda olish mumkin. (masalan, qo‘l, oyoq izlarini, buzish qurollarini).

Hodisa joyini ko‘zdan kechirish davomida tergovchi voqeaning ko‘rinishini ko‘z oldiga keltiradi va versiyalar chiqaradi. Bu versiyalar keyingi tergov harakatlarini belgilab berishga yordam beradi. O‘z ko‘zi bilan ko‘rish har qanday bayonnoma, sxema, suratlar, hujjatlarning tahlilidan afzaldir.

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish sudlik bilan amalga oshirilishi lozim, chunki bu ishning kechiktirilishi izlar va dalillarni yo‘qolishiga olib keladi. Shuning uchun tergovchi tezlik bilan maqsadga intilgan holda o‘ diqqatini jamlab harakat qilishi lozim.

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishdan avval tashkiliy masalalarni hal etish lozim. Tezkor guruhni to‘plash, ilmiy-texnikaviy vositalarni tanlash va tekshirib ko‘rish, mutaxassislarni taklif qilish, joyni muhofaza qilish kabilar.

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish tergovchi

rahbarligida mutaxassis, ekspert va boshqa ishtirokchilar huzurida o'tkaziladi. Bu ish murakkab majmuadagi faoliyat bo'lib, uning ishtirokchilari bir necha bo'lishi mumkin. (tergovchila, surishtiruvchi organ xodimlari, mutaxassislar, xolislar) Bu xodimlarning ishtirokini tergovchi puxta ishlab chiqishi va tashkillashtirishi kerak.

2. Tergovchining ko'zdan kechirish faoliyatidagi fikrlashi va faoliyatining maqsad tomon yo'naltirilganligi.

Tergovchining faoliyati quyudagi bir necha operatsiyalardan iborat:

- faoliyat mohiyatini bilishi, vaziyatni qabul qilishi, faktlar, hodisalarni inobatga olishi va ular o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish, taxminlar va versiyalar ishlab chiqishi;

- faoliyatning qidiruv elementlari: o'zgarishlarni ko'ra olishi, izlarni topib, olishi, dalilliy isbotlarni aniqlashi;

- faoliyatining tashkiliy elementlari: muhofazani ta'minlashi, joyni ko'zdan kechirish mobaynidagi qatnashchilar orasida funksiyalarni taqsimlanishini belgilashi;

- faoliyatining tasdiqlash elementlari: mustahkamlash, tasdiqlash, faktlar, daliliy isbotlarni, izlarni belgilashi kabilar. (14.51)

Jinoiy voqealar tashqi dunyoda o'z izlarini qoldiradi. Tergov ishlarining kamchiliklaridan biri aynan shu izlarni ko'ra olmaslikdir. Izlarni paydo bo'lishidagi asosiy qonuniyatlarni ko'ra olgan tergovchi xayolan jinoiy hodisa bo'yicha versiya tuza olishi mumkin (masalan. Odam o'ldirish, o'g'rilik, tajovuz qilish, bosqinchilik qilishga oid izlar) Bu izlarni joylarda ko'ra olish uchun tergovchidan kasbiy va hayotiy tajriba talab qilinadi. Tergovchining kuzatuvchanligi, hodisa sodir bo'lgan joyni rejali va maqsadli ko'zdan kechirish natijasida bu ish muvaffaqiyatki amalga oshiriladi.

Voqea sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish davomida ko'pchilik tergovchilar tekislikni kuzatish bilan chegaralanib

qoladilar. (xonaning poli, yo'lining asfal't bilan qoplanganligi) va ko'pincha shu tekislikning usti va ostida nimalar bo'lishi to'g'risida o'ylab ko'rmaydilar.

3. Tintuv o'tkazish jarayonining o'ziga xos psixologik tomonlari.

Tintuv o'tkazish-ongli ravishda yashirilgan ob'ektlarni titib ko'rish demakdir. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishdan farqli o'laroq bu yerda aniq maqsad borligi yaqqol ko'rinadi.

Berkutilgan narsalarni toppish uchun tergovchi:

1. Berkutilgan narsani qidirib topishga qaratilgan vazifani xayolan hal qiladi;

2. Qidirib topishga qaratilgan harakatlarni qo'llaydi. Tintuv o'tkazish-yaqqol ko'zga ko'rinadigan va qidiruv harakatlariga ega bo'lgan jarayondir. Berkutilib qo'yilgan ob'ektlarni topa olish juda mushkul ish, ayniqsa bu ob'ektlar to'g'risida kam ma'lumotga ega bo'linsa. Buning uchun tergovchi psixologik jihatlari, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalari bilan qurollanishi lozim.

Tintuv o'tkazish uchun kerakli bo'lgan omillarni tergovchi moxirona ishlatishi lozim (tintuvga tayyorgarlik, maqsadga qaratilgan kuzatuv sharoitini tahlil qilish, tintuv qilinayotgan shaxsni kuzatish). Tintuv o'tkazish uchun qilingan chala tayyorgarlik muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin.

Tintuvning muvaffaqiyatli bo'lishida tergovchining tashkilotchilik qobiliyatlari kerak bo'ladi. U o'zi va o'zgalarning harakatlarini aniq belgilab olishi, samarali qadamlarini ishga solishi lozim. Shuning uchun tergovchi tintuv vaqtini belgilashi, tergov harakatini o'tkazuvchi qatnashchilarni tanlashi, texnik vositalarni tayyorlashi, tintuv qilinuvchi shaxsni dastlabiyaxshilab o'rganib chiqishi kerak.

Tintuv davomida ma'lumot olish uchun ishlatiladigan asosiy usullardan biri bu uning natijasini kuzatish va tahlil qilishdir. Tintuv qilinuvchi shaxs xulqini kuzatish davomida kerakli

bo'lgan ma'lumotlarni olish mumkin. Bu yerda eng avvalo tintuv jarayonida nizoli vaziyatning yuzaga kelishi oqibatida uning xulqidagi psixologik qonuniyatlariga e'tibor berishi kerak bo'ladi. Tergovchi va shaxs nizoli vaziyatga tushishi mumkin. Bunday holatda tintuv qilinuvchi shaxs qattiq hayajonli qo'rquvda bo'ladi va berkitilgan narsalarga yaqinlashgan sari u bezovtalanib o'zining xatti-harakatlari bilan aybini oshkor qilib qo'yadi. (qaltiraydi, qizarib yoki oqarib ketadi, terkaydi)

Tintuvni ikki kishi ishtirokida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki bir kishi ko'rmagan narsalarni ikkinchi odam ko'rishi va kamroq xatolarga yo'l qo'yishi e'tibordan xoli emas.

Tintuvga hozirlangan tergovchi jinoyatchining ayyor, moxirligini nazarda tutishi lozim. U bir qator psixologik xarakterga ega omillarni ishlata oladi. Masalan, tuynuklar va saqlash uchun kerakli bo'lgan sirli joylarni qidirib topish vaqtida tergovchi jinoyatchining maqsad va harakatlariga tushunib yetishga intiladi. Shaxsning xonadonini tintuv qilish davomida baqir-chaqir, xaqorat qilishlar kabi nizoli vaziyatlar namoyon bo'ladi. Bu tabiiy hol. Har qanday odamni shaxsan tintuv qilish va qo'lga olish uning huquq va burchlarini poymol qilish, oila a'zolariga shikast yetkazish bilan teng xatti-harakat hisoblanadi. Shuning uchun tergovchi eng avvalo tintuv vaqtida o'zini bosib olishi, og'ir-vazminlik bilan o'ylab ish tutishi va his-tyug'ularga berilib ketmasligi kerak.

Tergovchining nutqi –uning ichki holati va qidirilayotgan ob'ektlarga bo'lgan munosabatlarini ko'rsatib berishi mumkin. Shuning uchun berilayotgan savollar aniq bo'lishi lozim. Ayblanuvchining ishonchini oqlash uchun qilmishining noto'gori va to'goriligiga ishontira olish kerak bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Voqea joyini ko'zdan kechirish qanday ahamiyatga ega?
2. Jinoyatchini taslim bo'lishga qanday ko'ndiriladi?
3. Tergovchi voqea joyini ko'zdan kechirishni nimadan boshlashi kerak?

4. Voqea joyini koʻzdan kechirishda kimlar qatnashishi talab etiladi?

5. Intuitsiya qachon paydo boʻladi?

Testlar:

1. Ongli ravishda yashirilgan obʼyektlarni titib koʻrish, yaqqol koʻzga koʻrinadigan va qidiruv harakatlariga ega boʻlgan jarayon – bu...

A) tintuv oʻtkazish

B) berkitilgan narsani qidirib topish

V) gumon qilingan narsani qidirib topishga qaratilgan harakatlar

G) muammoni yechimiga harakat qilish

2. Yuzlashtirish jarayonining psixologik xususiyatlari toʻgʻri koʻrsatilgan javobni toping?

A) ikki odamning koʻrsatmalaridagi qarama-qarshiliklarni aniqlash uchun tergovchi yuzlashtirish tergov harakatini oʻtkazadi

B) ijtimoiy-psixologik tavsifiga ega boʻlgan qarama qarshiliklarning sabablari aniqlanadi

V) yolgʻon koʻrsatmalarni aniqlash, shaxsning barcha psixologik xususiyatlari aniqlanadi

G) qarama-qarshiliklarning sabablari aniqlanadi.

3. Intuitsiya qachon paydo boʻladi?

A) intuitsiya tugʻma boʻladi

B) intuitsiya tugʻma emas

V) intuitsiya oldindan sezish

G) intuitsiya sezish

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Tintuv oʻtkazishning psixologik xususiyatlari.

2. Tintuv holatida tergovchining kasbiy fazilatlar.

3. Voqea sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirish psixologiyasi

4. Tergovchining koʻzdan kechirish faoliyatidagi fikrlashi va faoliyatining maqsad tomon yoʻnaltirilganligi.

5. Qoldirilgan moddiy izlardan jinoyatchi shaxsining individual xususiyatlarini aniqlash.

6. Qoldirilgan moddiy izlardan jinoyatni sodir etish usuli, maqsadi va motivlarini aniqlash.

7. Jinoyat izlarini yo‘qotish, niqoblashning psixologik asosda amalga oshmasligi.

8. Guvoh tushunchasi.

9. Guvoh turlari.

10. Guvohlik berish psixologiyasi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayev B. Yuridik psixologiya. O‘quv qo‘llanma. —O‘zbekistonli nashr. 2022.

2. Мухаммаджанов О. Мухитдинова Ф. Ўзбекистонда ёшлар ҳуқуқи: қонун ва имтиёзлар. Т.Маънавият. 2019.-39-б.

3. Maxsudova M.A. Yuridik psixologiya. Ma’ruzalar matni. N.2007.- 62 b.

11– MAVZU. XUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATIDA SHAXS PSIXOLOGIYASI. SHAXS IJTIMOIY -MOSLASHUVCHAN DUNYOQARASHI PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. Shaxs va uning psixologik xususiyatlarini tuzilishi
2. Muloqot jarayonida psixologik aloqani oʻrnatish va rivojlantirish asoslari
3. Shaxsni oʻrganish sxemasi
4. Jinoyatchi shaxslar bilan muzokara yuritishning psixologik tomonlari

Tayanch tushunchalar:

Muloqot – bu insonlar oʻrtasida oʻrnatilgan oʻzaro harakat boʻlib, insonlar orasida bir - birlarini oʻrganish, oʻzaro munosabatlar oʻrnatish, kerakli boʻlan xulq-atvorni belgilash.

Psixologik aloqa – muloqotchilarning bir - biriga boʻlgan intilishlarini oʻrnatish, rivojlantirish va qoʻllash.

1. Shaxs va uning psixologik xususiyatlarini tuzilishi

Shaxs va uning psixologik xususiyatlarini tuzilishiga quyidagi tushunchalar kiradi: shaxs tushunchasi, inson individ sifatida shaxs individuallashuvi, shaxs rivojlanishida biologik va ijtimoiy muxitning aloqadorligi muammosi, shaxsning ijtimoiy-moslashgan dunyoqarashi tushunchasi, xuquqiy tartibga solish, xuquq obroʻsi, xuquqiy ong, uni bilish, baholash va tartibga solish funktsiyalari, ommaviy, guruhiy va shaxsiy xuquqiy ong, xuquqga boʻysunishlik dunyoqarashini shakllantirish, xuquqbuzarlikka qarshi kurashning psixologik jihatlarini, shaxs dunyoqarashini tartibga soluvchi omilsifatida sotsial (ijtimoiy) normalar (maromlar) va ijtimoiy nazorat.

Shaxsni oʻrganishda uning psixologik xususiyatlari, psixik jihat va sifatleri, tarbiyasi, faoliyati va yigʻilgan tajribalariga eʼtibor

berish lozim bo‘ladi. Ya’ni:

- biologik nuqtai nazaridan - temperamenti (nerv tizimining jihatlari; faol holatga kelishi-pasayishi, rivojlanishi, doimiyligi) psixik jarayonlari (sezgi, qabul qilishi, tasavvuri va h.k.);

- ijtimoiy nuqtai nazaridan - jamiyatga bo‘lgan munosabati (dunyoqarashi, e’tiqodi, intilishi, muloqoti, qoniqishlari, ijtimoiy rollari va h.k.)

- bilimi, tajribasi - intellektual va psixologik xususiyatlari (aqliy sifatleri, madaniyati, dunyoqarashlarining kengligi; psixik xususiyati; tafakkuri, xotirasining imkoniyatlari va h.k.) kabi masalalar o‘rganiladi.

Shaxsni o‘rganishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- psixologik testlar;

- 10 ta so‘z o‘rganish va 10 ta so‘zni takrorlash qay darajada ekanligini aniqlash (A.R.Luriya bo‘yicha);

- tushunchalarni taqqoslash (1 juft so‘zlarning o‘xshashligi va farqini aniqlash);

- voqealarning ketma-ketligini aniqlash (kartochkalarni to‘g‘ri tahlal voqeani ketma-ketligini yoritib berish);

- bilvosita eslab qolish (kartochkalar orqali so‘z yordamida kerakli kartochkani topish).

Nazariy bilish usullari.

Yuqorida ta’kidlangandek nazariy bilish usullari bu:

- dialektik;

- umumiy-ilmiy;

- xususiy-ilmiy usullardir.

Shaxsga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik usullar quyidagilardan iborat:

- ma’lumot berish (og‘zaki, yozma ravishda, sxema va grafiklar orqali);

- qopqon o‘yinlari orqali;

- ta’sir o‘tkazish;

- ishontirish;

- refleksiyanı yuzaga keltirish (shaxsiy analiz qilish, shaxsiy xulq va ruhiy holati ustidan fikr yuritishi, hayolan o‘zini o‘zganing o‘rniga qo‘yib ko‘rishi kabi ma‘lumotlarni olish);

- fikr yuritish vazifalarni qo‘llash (yolg‘on ko‘rsatmalar berilayotgan paytda kerakli bo‘lgan vazifalarni o‘z vaqtida qo‘yilishi va yechimini topilishi.)

Yuridik psixologiyada sud psixologik ekspertiza usullari yordamida ko‘plab kerakli ma‘lumotlarni yig‘ish mumkin bo‘ladi.

Sud-psixologik ekspertizasi turlariga quyidagi usullar kiradi:

- jinoiy ishga taalluqli bo‘lgan ma‘lumotlarni psixologik talqin qilish;

- anamnez (biografik) usuli;

- kuzatish va tabiiy eksperiment;

- shaxsni individual - psixologik xususiyatlarini o‘rganish;

- psixoanaliz;

- anketalardan foydalanish;

- suhbat;

- kompyuter diagnostika usuli (test orqali psixogramma tuzish).

Xulosa qilib aytganda, turli psixologik va yurisprudensiyaga oid usullar tizimli yondoshish orqali faoliyat jarayonining asosiy psixologik qonuniyatlari, o‘zaro hamkorlikni chuqur talqin qilish, shaxs strukturasi va yuridik normalarning tizimini o‘rganish va ularga aniq tavsif berishga yordam beradi.

2. Muloqot jarayonida psixologik aloqani o‘rnatish va rivojlantirish asoslari

Muloqot – bu insonlar o‘rtasida o‘rnatilgan o‘zaro harakat bo‘lib hisoblanib insonlar orasida bir - birlarini o‘rganish, o‘zaro munosabatlar o‘rnatish, kerakli bo‘lgan xulq-atvorni belgilashga qaratilgan. Muloqot jarayoni «inson-inson» tizimida bo‘lib o‘tadi va bu tizim ijtimoiy sharoitlarda o‘z aksini topadi.

Muloqot jarayonida psixologik aloqa o‘rnatiladi.

Psixologik aloqa – muloqotchilarning bir - biriga bo‘lgan

intilishlarini o'rnatish, rivojlantirish va qo'llash demakdir.

Ushbu aloqa 3 ta bosqichda rivojlanishi mumkin:

- 1) o'zaro baholash;
- 2) o'zaro qiziqish;
- 3) «ikkilik», «uchliklar»ga bo'linish.

Ushbu bosqichlar dam olish paytlari, ekskursiya, sayohatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Psixologik aloqani o'rnatish va rivojlantirish davomida odamlar psixologik to'siqlar (bar'yer) ga duch keladilar. Bu psixologik to'siqlar befarqlik, ishonmaslik, nafrat, bir - biriga to'g'ri kelmasliklardan kelib chiqadi. Demak, psixologik to'siqlarni bor yoki yo'qligi odamlarning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq.

O'zga inson bilan ilk bor tanishida qo'llaniladigan kerakli so'zlarni tanlab olish katta ahamiyatga ega. Yuridik faoliyatda shaxslarni to'g'ridan to'g'ri muloqotga chaqirish psixologik noqulaylik holatini keltirib chiqaradi va birinchi ta'surot effektini susaytirishga va salbiy bo'lishga olib keladi. Demak, tanishish uchun ishlatiladigan birinchi so'zlar qanchalik tabiiy va tushunarli bo'lsa, shunchalik muloqot tez o'rnatiladi va oson rivojlanadi. Buning uchun yurist sof, betakror, sezgir bo'lishi lozim. Qiziqtirayotgan shaxs bilan psixologik aloqani o'rnatishda birinchi navbatda yurist o'zi to'g'risida ijobiy ta'surot qoldirishi lozim. Bunda:

- 1) uning tashqi qiyofasi;
- 2) ekspressiv reaksiya (mimika, harakatlar, yurish-turish va h.k.)lari;
- 3) ovoz-ohangi, nutqi yuqori darajada bo'lishi lozim.

Yurist – amaliyotchi muloqot davomida qiziqtirayotgan shaxsning nafaqat tashqi qiyofasi, balki uning sub'yektiv dunyosi, rejalari, qilmishlarini tushunishga harakat qilishi lozim. Shu bois, birinchi ta'surotlarning yuzaga kelishida 3 ta bosqich ish olib borish kera bo'ladi, ya'ni:

- 1) jismoniy individning tashqi xususiyatlari (jinsi, bo'yi, mimikasi, kiyimi, yurish-turishi, rolliy jihatlar va h.k.)ni aniqlash;
- 2) hamkorning emotsional va xulqiy ko'rinishlari va umumiy

psixik holatlarini belgilash;

3) maqsadga muvofiq fikr yuritish va emotsional ta'surotlar ostida hamkor obrazini tuzish (ijtimoiy-rolliy va individual-shaxsiy tomonlarini nazarda tutgan xolda) va h.k.

Muloqot davomida shaxslar bir biriga bo'lgan tasavvurida yoqishi va yoqmaslik ma'nolarini bildirib qo'yishlari mumkin. O'zaro bir-biriga yoqish jihatlari ijobiy munosabatlar orqali vujudga keladi. Shuning uchun, yurist psixologik aloqani o'rnatish va rivojlantirish paytida ob'yekt tomonidan o'ziga tegishli yoqish hissiyotini uyg'otishi lozim. Bu yerda yurist va uni qiziqtiruvchi shaxs o'rtasida samimiylik, shaxsiy qadriyatlarning birligi, (ya'ni «yaxshi» va «yomon» tushunchalarning uyg'unligi), umuminsoniy axloqiy normalarga rioya qilish kabi xislatlar namoyon bo'lishi lozim. Ya'ni, yurist va uni qiziqtiruvchi shaxs (ob'yekt) bir xil fikr yuritishlari, o'zlarining ichki dunyolarini birlashtirishi va tushinishlari kerak bo'ladi. Muloqot jarayonida yurist o'zining eruditsiyasi, intellektual jihatlari, sotsial – psixologik tomonlari bilan ajralib turishi, o'zgalarni diqqat bilan eshitishi, ularning ko'zlariga qarab kerakli imo-ishoralar qila olish mahoratiga ega bo'lishi kerak. Deyl Karnegi o'zining «Do'stlarni qanday ortirish mumkin va shaxslarga qanday ta'sir o'tkazish kerak?» kitobida o'zgalarga yoqish uchun 6 –ta usulni qo'llash kerakligi haqida gapirib o'tadi:

1. Suhbat davomida muloqatchi bilan samimiy munosabatda bo'lish;

2. Ko'proq jilmayish;

3. Suhbat davomida suhbatdoshning ismini ko'proq tilga olish;

4. Suhbatdoshni qiziqtiruvchi mavzular to'g'risida gap yuritish;

5. Suhbatdoshning nodir va betakrorligini o'ziga anglatish;

6. Suhbatdoshni diqqat bilan eshitish va o'zi to'g'risida so'z yuritishga undash.

O'zgani eshitish – bu san'at demakdir. Ushbu san'atga ega

bo'lish uchun yurist o'z ustida yillar davomida ishlash lozim.

1. Guvoh, jabrlanuvchi, ayblanuvchi va gumon kilinuvchi shaxslardan kerakli bo'lgan ma'lumotni olishning psixologik xususiyatlari.

Suhbatdosh bilan psixologik aloqa o'rnatish va uning ongi, ong ostidagi psixik doiralariga ta'sir ko'rsatish muloqotning amalga oshirilishidagi yutug'larga olib keladi.

Amaliyotda insonlarning psixik faoliyatlaridagi qonuniyatlarga asoslangan xolda ulardan kerakli bo'lgan ma'lumotlarni olish turli xil usullar orqali amalga oshiriladi (ongga ta'sir o'tkazish va ong ostidagi doiraga ta'sir o'tkazishning maxsus usullari orqali). Ong ostidagi doira – ong ostidagi nazariyaning mazmunini tashkil qiladi va inson organizmining normal hayotiy faoliyatini belgilaydi. Ong ostidagi nazariyaning vazifasi shundan iboratki, u ongimizning «muhofaza qiluvchi mexanizmi»ni tashkil qiladi va uni, ya'ni ongni, ikkinchi va uchinchi darajaga ega bo'lgan ma'lumotlardan xolis etadi (bo'shatadi), insonning ish faoliyatida xulqiga halaqit beruvchi qarama-qarshi ma'lumotlarni chiqarib tashlaydi. Yurist faoliyatida kerakli bo'lgan ma'lumotlarni o'rganish davomida ko'proq ong ostida namoyon bo'luvchi psixik jihatlariga ta'sir o'tkaziladi. Chunki ayblanuvchi (guvoh, jabrlanuvchi, gumonlanuvchi) shaxs ongli ravishda ma'lumot berishdan bosh tortsa, uni ong ostidagi doirasida yig'ilgan ma'lumotlarni berishga undash mumkin bo'ladi. Buni 2 ta asosiy yo'llar bilan amalga oshirish mumkin:

- 1) nutq orqali kerakli faktlar to'g'risida ma'lumot berish;
- 2) jismoniy va ekspressiv harakatlar orqali ma'lumot berish harakatlari.

Ushbu ikki yo'lni ishga solish uchun qo'yidagi usullardan foydalanish lozim:

1) aniq predmetlarni ko'rsatish orqali sub'yektning xotirasida kerakli bo'lgan obrazlarni jonlantirish va bevosita gapirtirish (plakatlar, e'lonlar, muzey eksponatlari orqali;

2) suhbat davomida aralash mavzularni qo'llash (to'g'ridan-

to'g'ri savollar emas, balki —chetdagi savollar bilan mavzuni yoritish);

3) aniq savollarni o'rta qo'yish (bu savollar mavzuga tegishli bo'lib sub'yektga yaxshi tanish bo'lishi va ular psixologik jihatdan tasdiqlangan va ishonarli darajada bo'lishi lozim.);

4) suhbatga «tortish» paytida sub'yektning aniq psixologik holatini shakllantirish lozim (emotsional o'zgarishlar: qizarib ketish, ko'z yoshlari muloqotning davomiyligiga halaqit berishi mumkin). Berilayotgan savollar, xatti- harakatlarning normal psixik holatiga ta'sir kursatadi;

5) jinoiy faoliyatga ta'luqli bo'lgan predmetlarni ko'rsatish (bu jarayonda sub'yektning psixik holatiga nazar tashlash lozim);

6) favqulotdagi, qisqa muddatli, o'ta psixologik vaziyatlarni yuzaga keltirish (bu vaziyatlarga sub'yektning munosabatini aniqlab olish) lozim;

7) suhbatga tabiiy hayotiy holatini yaratish va sub'yektni bu holatga ko'nikishini ta'minlash (sharoit qanchalik oddiy bo'lsa sub'yekt sharoitga tez ko'nikadi va suhbat o'z samarasini beradi).

Qiziqtirayotgan shaxsga baho berishda formal va noformal usullardan foydalanish mumkin. Formal usullarga – maqsadga yo'naltirilgan kuzatuv va suhbat, xujjatlarni tahlil qilish, tarjimai xolni o'rganish, turli anketa ma'lumotlarni qo'llash kabi usullar kiradi (ong darajasida) Noformal usullarni – turli intuitiv imkoniyatlar yordamida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar tashkil qiladi (ong osti darajasida).

Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Komil insonning muhim sifatlaridan biri muloqot madaniyatidir. Yetarlicha shakllanmagan muloqot madaniyatisiz sog'lora ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish mushkul. Muloqot bilan bog'liq muammolar psixologiya fanida chuqur o'rganilgan. Unga tayanib insonning ruhiy taraqqiyotini, uning atrofdagilar bilan bo'ladigan aloqasini, individning shaxs bo'lib shakllanishini muloqotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, degan xulosaga kelish

mumkin. Chunki muloqot ham insonning o'ziga xos ehtiyojlaridan biri. Insonning go'daklik va o'smirlik davrlarida muloqot yetakchi, ya'ni yangi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat sifatida gavdalanadi. Biz bo'lajak mutaxassislarda quyidagi muomala xususiyatlarini shakllantirishimiz zarur:

- muomala madaniyatining nazariy asoslari;
- shaxslararo munosabatlar qonuniyatlari;
- pedagogik muloqotning qonuniyatlari;
- oilada, guruh va jamoalarda muloqotga qo'yiladigan

asosiy talablar haqida tasvurga ega bo'lish;

- shaxsda muloqot shakllanishini o'rganish;
- muomala madaniyatini barcha guruh va jamoalarda shakllantirish;
- shaxslararo munosabatlarda muloqotning ahamiyatini kuzatish;
- muloqot xossalari bilish va qo'llay olish;
- guruhlarda muloqotni shakllantirish metodikalarini o'tkazish;
- oilada muloqot madaniyati, muloqot xossalari bilan boxabar bo'lish;
- muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida psixologik maslahatlar tashkil etish yuzasidan ko'nikmalar hosil qilish.

Kattalar muloqotida ko'pincha muloqot madaniyati amalga oshiriladi, ya'ni bir-birlarini hurmat qilish, ishonish, anglash kabilar. Ammo ba'zi paytlarda muloqot buzilishi ham mumkin. Chunki ular ham ayrim paytlarda bir-birlarini tushunmasdan xafa qilib qo'yishlari, ko'ngilga og'ir botadigan gaplar aytib yuborishlari, natijada nizolarni keltirib chiqarishlari mumkin. Agar muloqot madaniyati kishilarda yaxshi shakllangan bo'lsa, ular bir-birlarini tushunishlari oson kechadi. Muloqot madaniyati yoshlikdan oilada, ijtimoiy muhit ta'sirida, o'z- o'zini anglash, tarbiyalash jarayonida shakllanishi mumkin. Biz kattalar yoshlarga namuna, ibrat bo'lishimiz bir-birimizga bo'lgan muloqotimizdan

kelib chiqadi. «**Oltin so‘zlar**» (azizim, aylanay, o‘rgilay, juda ham ajoyibsiz, bugun boshqachasiz, ochilib ketibsiz, kiyimingiz juda yarashibdi kabi) dan kundalik hayotimizda ko‘proq, ammo o‘mi kelganda foydalanishimiz zarur. Kattalar muloqotiga yoshlarning taqlid qilishlari orqali ularda muomala san‘ati, madaniyati shakllanib boradi. Ayniqsa, oilada biz bu holatlarga e‘tibor berishimiz kerak. Chunki «qush uyasida ko‘rganini qiladi», degan naql bejiz emas.

3. Shaxsni o‘rganish sxemasi

Qiziqtirayotgan shaxsni o‘rganish davomida qo‘yidagi maxsus sxemadan foydalaniladi.

1) Umumiy ma’lumotlar: tug‘ilgan vaqti va joyi, millati, ma’lumoti, mutaxassisligi, ish joyi, mansabi, oilaviy sharoiti, turar joyi, siyosiy partiyalarga aloqadorligi va h.k.

2) Tashqi belgilari:

- yuzi (qisqacha og‘zaki portreti, yuz tuzilishi);
- bo‘yi (pasd, o‘rta, baland, bo‘yidagi kamchiliklar);
- og‘irligi va badanining tuzilishi (oriq, oriqroq, to‘la, o‘ta to‘la va h.k.);
- tashqi qiyofasi, kiyinishi (toza yoki tozza emasligi, modaga rioya qilgan yoki qilmaganligi va h.k.);

- xatti-harakatlari (yaxshi, yomon ta’surot qoldiradi);

- ovozi (yoqimli, yoqimsiz, kuchli, dumog‘li va h.k.);

3) Hayotiy yo‘li:

- ota-onasi (tug‘ilgan joyi va vaqti, millati, turar joyi va h.q.);
- yoshlik damlari (oiladagi hayoti, oiladan tashqari, nechanchi farzand, aka- singillari, ularning munosabatlari, hayotidagi voqealarning ta’siri va h.k.);

- maktab (maktabning yo‘nalishi, qaysi maktabni tugatgan, yaxshi ko‘rgan fanlari, tengqurlari bilan munosabatlari, maktab intizomini buzganligi yoki buzmagani, yutug‘lari, o‘qish faoliyatidagi baholari va h.k.);

- o‘quv yurtlar (kirishning sababi, yutug‘lari, olgan bilim,

qo'nikma, malakalari, 16-19 yoshdagi ko'zga ko'ringan voqealari);

- mehnat faoliyati va harbiy xizmati (mehnat va harbiy xizmatning xarakteri, ularga munosabati, mehnat faoliyatining shaxsga bo'lgan ta'siri);

- oilaviy hayoti (bolalari, kim bilan turmushda).

4) Hayotiy tarmoqlari:

- oilasi (eri, xotini, ota-ona va bolalariga munosabati);
- kasbi va mutaxassisligi;
- siyosiy va jamiyatdagi faoligi;
- bo'sh vaqtini o'tkazishi;
- sog'ligi;

5) Xulqi:

- doimiy kayfiyati (meyorida, baland, yomon, qiyinchiliklarga bo'lgan munosabati, o'zini yo'qatib qo'yishi yoki yo'qotib qo'ymasligi, befarq bo'lishi);

- hissiyotlarining ko'rinishlari (tez, o'rta, oson jahli chiqishi, arziyas narsalarga kayfiyatining buzulishi);

- irodasining ko'rinishi (mustaqil, mustaqil emas, intizomli, qat'iy, qo'rqmas va h.k.);

- murakkab vaziyatlardagi xulqi (tinchlikni saqlaydi, o'zini yo'qotib qo'yishi, nutqi va harakatlarining mantiqiyliigi yoki bunday emasligi);

- ichib olgan holatidagi xulqi (tinch, agressiv, nazoratni yo'qotishi, o'z-o'zi bilan bo'lishi, sergap, xoli qolishi va h.k.);

- axloqiy xulqi (axloq normalariga rioya qilishi, ayollar bilan munosabati, rostgo'yliigi, murakkab munosabatlarda jasurlik ko'rsatishi va h.k.).

6. Temperament va xarakteri:

a) Temperamenti:

- muomala qila olishi (suhbatdosh, suhbatdosh emas, kam gap, uyatchan, qa'tiy, qat'iysiz, sardor bo'lishga moyil va h.k.);

- emotsional (bosiq, qiziqqon, vazmin, xafador, o'zini tuta oladi – tuta olmaydi, pessimist-optimist);

b) Xarakteri:

- xarakterining jihatlar: odamlar bilan munosabatda bo'lganda xushmuomalali, talabchan, sinchkov, vijdonli, o'zi va o'zgalarga bo'lgan munosabati va h.k;

- xarakteridagi kamtarlik jihatining ustunliklari (birinchi, ikkinchi, keskin ko'rinishlari);

7. Xulqning motivatsiyasi:

- ehtiyojlarining ustuvorligi (fiziologik o'zini-o'zi saqlab qolish, ijtimoiy guruhda munosib bo'lishi, o'zining shaxsiga hurmatda bo'lishi va o'zini-o'zi ko'rsata olishi).

- qadriyatlar;

a) shaxsiy qadriyatlar (yuksalish, o'zgalarga yordam berish, aniq faoliyat va ehtiyojlarini qondirish yo'nalishlari);

b) ijtimoiy qadriyatlar (jamiyat qabul qilgan norma, an'analarga bo'lgan yo'nalishlari, yuridik tartibni hurmat qilishi);

v) moddiy qadriyatlar (pul, buyum, mulk kabi tushunchalarga munosabati);

g) siyosiy qadriyatlar (demokratiyaga, siyosiy partiyalar, davlatning siyosiy hayotiga bo'lgan munosabatlari, shaxsiy ilmiy qarashlari);

d) g'oyaviy qadriyatlar (dunyoqarashi, diniy qarashlari);

- qiziqishlari;

- ideallari.

8. Ijtimoiy moslashuvi:

- ijtimoiy atrof-muhitga munosabati (tanish bo'lgan odamlar va do'stlari bilan munosabatlari, o'zgalar tomonidan uni tan olishi, qarindosh–urug'lari bilan aloqalari);

- ijtimoiy vaziyatni qabul qilishi (aniq sharoitdan kelib chiqishi, mantiqli yoki mantiqsiz harakatlari, vaziyatlarga tez moslashuvi);

- o'zini-o'zi baholashi.

9. Qobiliyatlari:

- umumiy qobiliyatlari (nutq tezligi - sekinligi, tez eslab qolishi, tasavvur qilish boyligi, xulosalarining kengligi);

- maxsus qobiliyatlar (tashkilotchilik, pedagogik qobiliyatlari,

tanishish, yaqinlashish, odamlarga ta'sir o'tkazish qobiliyatlari, odamlarni tushunish qobiliyati);

Ushbu «sxema» orqali muloqot jarayonida qiziqtirayotgan shaxs to'g'risida ma'lumot yig'iladi va unga baho berish amalga oshiriladi. Muloqot jarayonida turli usullardan foydalanish mumkin (m-n: tarjimai xol usuli, test sinovlari, yozuv xatlarni analiz qilish va h.k.).

4. Jinoyatchi shaxslar bilan muzokara yuritishning psixologik tomonlari

Jinoyatchi shaxslar bilan muzokara yuritish, ya'ni ular bilan diplomatik munosabatda bo'lish qadim zamonlardan boshlab intellektual faoliyatning murakkab turi bo'lib hisoblanadi. Bu jarayonda yuzaga keluvchi xavf-xatar va nizoli vaziyatlarni bartaraf qilishda o'zaro kelishuv holatini o'rnatish, bir to'htamga kelish harakatlarini qo'llash lozim bo'ladi. Bu kelishuvni qo'lga kiritishda tomonlardan irodaviy kuch talab qilinadi va uning asosida kerakli bo'lgan taklif, talab, shart va tilaklar qabul qilinadi. Muzokara bu, insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonining universal vositasi hisoblanib u orqali tomonlarning qiziqish va fikrlariga xalaqit beruvchi holatlar bartaraf qilinadi va o'zaro kelishuv bitimi yuzaga keladi. Muzokara yuritish – katta san'atdir, bu yerda odamlarning his to'yg'ulari, umidlari aks ettiriladi. Muzokarachilarning xohish, qobiliyatlari, individual xususiyatlarini inobatga olinishi muzokara natijasiga ijobiy ta'sir yuritiladi. Muzokarani tashkil qilishda tashkilotchilar psixologik va pedagogik bilimlar bilan qurollanishlari, intellektual, kommunikativ qobiliyatlari ega bo'lishlari lozim.

Nazorat savollari

1. Shaxs va uning psixologik xususiyatlarini tushuntiring.
2. Nazariy bilish usullari haqida tushuncha bering.
3. Shaxsga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik usullarga qaysilar kiradi?

4. Muloqot jarayonida psixologik aloqani o'rnatish va rivojlantirish asoslariga nimalar kiradi?

5. Psixologik aloqa nima?

6. Guvoh, jabrlanuvchi, ayblanuvchi va gumon qilinuvchi shaxslardan kerakli bo'lgan ma'lumotni olishning psixologik xususiyatlariga nimalar kiradi?

7. Shaxsni o'rganish sxemasini tushuntiring.

8. Jinoyatchi shaxslar bilan muzokara yuritishning psixologik tomonlariga nimalar kiradi?

Testlar:

1. Jinoyatchi shaxsi psixologiyasi qanday aniqlanadi?

A) xuquqbuzar shaxs maxsus ob'yekt sifatida

B) jinoyatchi shaxsining xususiyatlari

V) jinoyatni analiz qilishda

G) jinoyatni tekshirishda

D) shaxsining xususiyatlari

2. Shaxsning ehtiyojlarini qondirish jarayonida imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olmasligiga qanday psixologik holat deb ataladi?

A) frustratsiya B) affekt

V) tushkunlik G) qo'rquv

3. Shaxsning muammolari, qiyinchiliklarga nisbatan o'zida kuch topa olishi va chidamlilikni shakllantirilganligiga nima deyiladi?

A) tolerantlik V) relaksatsiya

B) katarsis G) refleksiya

4. Shaxslarning o'zaro munosabatlaridagi ma'lum darajada bir birlarini tushunishlari va ijobiy emotsional munosabatlari nima deb ataladi?

A) rapport V) simpatiya

B) empatiya G) intensiya

5. Sotsiometrik metodida nima o'rganiladi?

A) emotsional munosabatlar shaxsning diqqati, mimikasi,

xulq-atvori hayot faoliyati

B) o‘zaro ta’sir

V) raxbar va xodim o‘rtasidagi munosabatlar

G) nizoli vaziyatlar

6. Shaxsning diqqati nerv sistemasining tashqi ifodalari, mimikasi, xulq- atvori qaysi metod turida o‘rganiladi?

A) anketa B) kuzatish

V) test G) suhbat

7. Shaxsning ehtiyojlarini qondirish jarayonida imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olmasligiga qanday psixologik holat deb ataladi?

A) frustratsiya

V) affekt

B) tushkunlik

G) qo‘rquv

8. Shaxsning muammolari, qiyinchiliklarga nisbatan o‘zida kuch topa olishi va chidamlilikni shakllantirilganligiga nima deyiladi?

A) tolerantlik

V) relaksatsiya

B) katarsis

G) refleksiya

9. Shaxsning boshqalar kechinmasini o‘zida kechira olishi va hamdardlikka qobiliyati nima deb ataladi?.

A) empatiya

V) simpatiya

B) rapport

G) intsenziya

10. Shaxsing kuchli, shiddatli emotsiyasi tufayli o‘zini ongli boshqa olmaslik holatini toping.

A) affekt

V) stress

B) deprivatsiya

G) attraksiya

11. Shaxslarni bir biriga o‘zaro yaqinlashtiruvchi, boshqalar uchun jozibador bo‘lish, do‘stlik, yoqtirish tuyg‘ularini shakllantiruvchi jarayonga deyiladi

A) attraksiya

V) affiliatsiya

B) assotsiatsiya

G) antitsipatsiy

12. Shaxsning atrof-olamga befarq bo'lib qolishi yoki eksremal shart- sharoitlarda vujudga keladigan befarqligiga nima deyiladi?

- A) apatiya V) agressiya
B) altruizm G) affekt

13. Shaxslar o'rtasida sub'yektiv kechadigan aloqalarga nima deyiladi?

- A) shaxslararo munosabat
B) shaxslarning o'zaro tushunishi
V) shaxslar o'rtasidagi kechinmalar
G) shaxslarning o'zaro ta'sirlashuvi

14. Shaxsni faollikka, biror narsani aniq tanlashga, qaror qabul qilishga va harakat qilishga undovchi ichki kuchi nima deb ataladi?

- A) motiv B) ehtiyoj V) intilish G) tirishqoqlik

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Shaxs va uning psixologik xususiyatlarini tuzilishi
2. Muloqot jarayonida psixologik aloqani o'rnatish va rivojlantirish asoslari
3. Shaxsni o'rganish sxemasi
4. Jinoyatchi shaxslar bilan muzokara yuritishning psixologik tomonlari
5. Shaxslararo munosabatlar
6. Shaxslarning o'zaro tushunishi
7. Shaxslar o'rtasidagi kechinmalar
8. Shaxslarning o'zaro ta'sirlashuvi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma.
—Turon-Iqbol nashr. 2006.

12 – MAVZU. SO‘ROQ PSIXOLOGIYASI. TANIB OLISH UCHUN KO‘RSATMA BERISH PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. Yuzlashtirish psixologiyasi.
2. Guvoh va jabrlanuvchilarni so‘roq qilish psixologiyasi.
3. Shubhalanuvchi va ayblanuvchilarni so‘roq qilish psixologiyasi.

Tayanch tushunchalar

Yuzlashtirish – muqaddam alohida - alohida so‘roq qilingan shaxslarni ularning ko‘rgazmalaridagi ziddiyatlar, noaniqliklarni bartaraf etish maqsadida birgalikda so‘roq qilishdan iborat tergov harakati

Xronometraj usuli - guvohlar va jabrlanuvchilar uchun xotirasidan o‘chmaydigan birorta sana, voqeani eslatish, keyin tergovchi o‘sha kuni uning yana nimalar bilan shuq‘ullangani, faoliyatining maromi, muddatlari bilan qiziqib, shu orqali o‘sha kunni tergovni qiziqtirayotgan daqiqalargacha vaqt jadvaliga solish.

Xulq - avtor dalillari - chalqituvchi sahnalar tayyorlash, yolqon tasdiq (alibi) yaratish, kutilmagan javoblar

1. Yuzlashtirish psixologiyasi

Tergov harakatlarini shakllantirish jarayonida ko‘rsatmalarning to‘laligiga va to‘g‘riligiga tasir etuvchi omillar, so‘roq qilinayotgan shaxslarning individual - psixologik xususiyatlarini va umumiy psixologik qonuniyatlari mexanizmlarini hisobga olish kerak. So‘roq qilinayotgan shaxslar bilan «psixologik aloqa» o‘rnatish maqsadga muvofiq. Gumonlanuvchi va ayblanuvchini, jabrlanuvchini, jumladan, voyaga yetmagan jabrlanuvchini, guvohlarni so‘roq qilish psixologiyasi orqali aniqlanadi. Yuzlashtirish psixologiyasi jinoyatni ochishda kata yordam beradi. Bundan tashqari quyidagi holatlar ham muhim rol o‘ynaydi: tanib olish uchun ko‘rsatish psixologiyasi, tanib olish

uchun ko'rsatish psixologiyasi protsessual qonun doirasida amalga oshiriladigan tergov harakati, tanib olish psixologiyasi va ularning turlari, predmetlarni va ularning tasvirini tanib olish, insonni va uning fotosuratini tanib olish uchun ko'rsatishning ahamiyati, tanib olishda yolg'on ko'rsatma va yanglishish holatlari va uni fosh etish, ko'rsatma berish va uni fosh etish usullari. Ushbu tushunchalarni o'rganib, tahlil qilish mavzuni yoritishda katta ahamiyatga ega.

Yuzlashtirish – muqaddam alohida - alohida so'roq qilingan shaxslarni ularning ko'rgazmalaridagi ziddiyatlar, noaniqliklarni bartaraf etish maqsadida birgalikda so'roq qilishdan iborat tergov harakatidir. Yolg'on ko'rgazma berayotgan shaxsni fosh etish uchun muayyan tarzda ta'sir ko'rsatish zaruriyati tuqiladi, yuzlashtirishning maqsadi ham shunda, haqiqatni isbotlashdir. Yuzlashtirishda tergovchining roli juda murakkab va muhim ahamiyatga ega. U yuzlashtirishni o'tkazishga shunday tayyorgarlik ko'rishi kerakki, haqiqat yolg'on ustidan tantana qilsin. Yuzlashtirish natijasida ikki guruh omillar ta'sirini o'tkazadi. Birinchisiga, yuzlashtirilayotgan kishilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan xolda, ko'rgazmalaridagi ziddiyatlarning sababini aniqlab beruvchi omillar kiradi. Ikkinchidan, bunday ziddiyatlarga yuzlashtirishga kelganlardan birining yoki ikkalasining ko'rgazmalari avval-boshdanoq uydirmaligi sabab bo'lishi mumkin. Bunday xollarda tergovchi uydirma ko'rgazmalarning motivini bilmoqi zarur, ular esa xilma-xil bo'lishi mumkin: jinoiy javobgarlikdan qutulib qolish yoki yengilroq jazo olishga intilish, sheriklarni aytib qo'yishni istamaslik, qarindoshlikhislari, o'ch olishlaridan qo'rqish, pulga sotilish, uyat, soxta sadoqat– tuyqusi kabilar shu jumladandir.

Yuzlashtirishni o'tkazadigan vaqtni tanlashning ahamiyati katta. Uni o'tkazishda shoshqaloqlik qilmaslik, kechikmaslik muhimdir. Yuzlashtirishni o'tkazishga tayyorgarlik saviyasi alohida ahamiyatga ega. Tayyorgarlikni tergovchining tashkiliy-texnikaviy, hamda barcha qatnashchilarning psixologik hozirligi, deb tushunmoq lozim. Tergovchi yuzlashtirishda vijdon amri bilan

qatnashayotgan shaxsning ko'nglini xotirjam qilishi, jinoyatchi tomonidan xavf- xatar, xatti-harakatlarning sodir etilmasligiga kafolat berishi kerak. Yuzlashtirish qatnashchilarini shartli ravishda vijdonan hamda vijdotsizlarcha (yolqon) ko'rgazma beruvchi, deb olinadi.

Tergov amaliyotining tahlili shundan dalolat beradiki, yuzlashtirish yolqon ko'rgazma berayotgan kimsa uchun kutilmaganda, to'satdan o'tkazilishi eng yuqori samara beradi. Yuzlashtirishni o'tkazishdan avval tergovchibarcha materiallarni (hisob-kitob hujjatlari, suratlar, bayonnomalardan ko'chirmalar, daliliy ashyolar) taxt qilib qo'yishi kerak. Yuzlashtirishdan avval tergovchining fikrlari tiniq, kayfiyati soz, tergov harakatining ijobiy natijasiga ishonchi komil bo'lishi lozim. Har ikkalasi ham baravariga yolqon ko'rgazma berayotgan ikki jinoyatchi o'rtasida yuzlashtirishni o'tkazish tergovchi uchun murakkab bo'lib, katta mas'uliyatni talab qiladi.

Yuzlashtirish haqiqatni ataylab, qasddan buzib ko'rsatishga uringan, ko'rgazmalari uydirmadan iborat shaxslarga katta ta'sir kuchiga ega. Yuzlashtirish ko'pincha ularning tergovdagi xulq-atvorini keskin o'zgartirib yuboradigan hal qiluvchi bosqich rolini o'taydi. Yuzlashtirish odatda tergovchining xizmat xonasida o'tkaziladi. So'roq qilinayotganlarni doimo tergovchi ko'z o'ngida bo'ladigan tarzda o'tkazilishi darkor. Yuzlashtirishning ta'sir kuchi yana shundaki, unda «ko'zning ko'zga tushish samarasi» yashiringan. Yuzlashtirish choqida faqat tergovchi qarshisida emas, so'roq qilinayotgan taniydigan yana bir kishi qarshisida ko'rgazma beriladi.

2. Guvoh va jabrlanuvchilarni so'roq qilish psixologiyasi.

Jinoyatni ochishda guvoh va jabrlanuvchilarni so'roq qilish muhim ahamiyatga ega. Ularni so'roq qilishga tayyorgarlikning psixologik jihatlari quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

- ish materiallari va aniqlik kiritilishi lozim bo'lgan masalalar tahlili;

- so‘roq qilinadigan shaxsni chuqur, har tomonlama o‘rganish; so‘roqni mavaffaqiyatini ta‘minlaydigan zarur sharoitlarni yaratish;

- tergovchining xulq-atvori, o‘zini psixologik jihatdan tayyorlashi.

- so‘roq qilish uchun avvaldan puxta reja tuzib olinadi, jumladan, beriladigan savollarning tushunarli bo‘lishi, aniqligi, mazmunligi, tartibi belgilab olinadi.

So‘roqdan avval ish materiallarini chuqur o‘rganish, ashyoviy dalillarni tahlil qilish zarur. So‘roqqa kirishishdan avval guvohlar va jabrlanuvchilar shaxsiyatini o‘rganish talab etiladi. Rasmiy so‘roq oldidan tergovchi kuzatish orqali guvoh yoki jabrlanuvchining tashqi qiyofasi, madaniyati nutqining alomatlari, yuz ifodasi, hayronlik, loqaydlik, hayajon, qo‘rquv, xotirjamlik kabilarni aniqlasa bu ishga ijobiy ta‘sir etadi. Guvohlar va jabrlanuvchilarni chaqirtirish vaqti va usuli, tergov harakati o‘tkazilayotgan sharoitva joy alohida psixologik ahamiyatga ega.

Bezorilik, bosqinchilik, qiz iffatiga tegish kabi jinoiy ishlarning tergovida zudlik bilan so‘roq qilish bilan birga jinoyatchini qidirib topish va hibsga olish uchun zarur ma‘lumotlar jamlanganidan keyin guvohlar va jabrlanuvchilarni qaytadan batafsil so‘roq qilish maqsadga muvofiqdir. Psixologik nuqtai nazardan guvoh yoki jabrlanuvchini so‘roqqa chaqirish vaqtini belgilayotib, ish manfaatlari bilan chaqirilayotganlarning imkoniyatlari va manfaatlarini uyq’unlashtirishga intilish lozim. So‘roq joyini tanlayotgan paytda axloqiy-etikaga oid mulohazalarni ham e‘tibordan soqitqilmaslik kerak. Yoshi o‘tib qolgan yoki bemor kishilarni tergovchi huzuriga chaqirtirish tavsiya etilmaydi. Tergovchining o‘zi ularni oldiga borishi va o‘sha joyning o‘zida so‘roq qilish kerak.

Tergovchining tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori, sarishtaligi, kirishimliligi, odamgarchiligidan dalolat berib, ust-boshi, e‘tiborliligi, xushmuomalaligi bilan hamohang ravishda so‘roq qilinayotganda ishonch, muomalaga hozirlik kayfiyatini uyq’otadi. So‘roqning dastlabki kirish qismida tergovchi so‘roq

qilinayotgandan asosan tarjimai xoli, yashash va ishlash joyi kabi ma'lumotlarni oladi. (anketa) So'roqning ikkinchi bosqichi psixologik muomala o'rnatishni taqozo etadi, bunda so'roq qilnayotganning hozirjavoblighi, rostmana ko'rgazma berishga shaylangani tushuniladi. Tergovchi guvohlar va jabrlanuvchilarning ko'rgazmalariga ishonch bilan munosabatda bo'lishi kerak. U tomonidan qo'pollik, istehzo, nazar-pisand qilmaslik, ishonchsizlik, shoshqaloqlik, e'tiborsizlik kabi muomala ko'rinishlariga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Jinoiy ishlar tergov qilnayotganda ko'pincha guvohlar va jabrlanuvchilarni tergov qilayotib, ular aytib berayotgan voqea sodir bo'lgan aniq vaqtini tasdiqlab olish zaruriyati tuqiladi. Ana shu maqsadda xronometraj usuli ham qo'llaniladi. Guvohlar va jabrlanuvchilar uchun xotirasidan o'chmaydigan birorta sana, voqea eslatiladi, keyin tergovchi o'sha kuni uning yana nimalar bilan shuquullangani, faoliyatining maromi, muddatlari bilan qiziqib, shu orqali o'sha kunni tergovni qiziqtirayotgan daqiqalargacha vaqt jadvaliga soladi. So'roq mobaynida so'roq qilnayotgan kishining kechinmalarini aniqlab olish maqsadida uni diqqat bilan kuzatishi lozim, negaki uning ichki kechinmalari tashqi qiyofasida, xulq-atvorida eshitgan ma'lumotlarni qanday qabul qilishda, nutqning xususiyatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, joni xalqumiga kelishi, nutq tezligi va maromining o'zgarishi, to'xtamay gapirishi, ovozini balandlatishi, chala - chulpa so'zlashi kabilar qattiq hayajonlanayotganligidan dalolat beradi. Bunday psixologik kechinmalarni qayd etish so'roq berayotgan kishi qay paytda rost, qay paytda yolqon aralashtirib yoki bo'rttirib gapirayotganini aniqlab olishga ko'maklashadi. (13.50)

3. Shubhalanuvchi va ayblanuvchilarni so'roq qilish psixologiyasi.

Sud hukmi bilan aybi tasdiqlangunicha qadar gumondor (shubhalanuvchi) va ayblanuvchi jinoyatchi bo'lib hisoblanmaydi. Biror bir jinoyatda ayblanayotgan yoki gumonlanayotgan kimsa

jinoyatchi bo'lmashligi mumkin. Gumondorga nisbatan ayblanuvchi odatda, jinoiy ish xolati, tergovga bo'lgan dalil isbotlar mazmunidan ko'proq ogoh bo'ladi. Biroq dastlabki tergovda gumondorda ham, ayblanuvchida ham o'xshash psixologik xolatlar, motivlar, hayajon, buning oqibatida o'ziga xos xulq - atvor kuzatiladi.

Ayblanuvchi xulq - atvorini ozodlikdan mahrum bo'lish, odatiy turmush tarzidan ayrilib qolishi, jinoyatchi mahkumlar orasiga tushib qolishdan qo'rquv hissi tuq'diradigan kuchli psixologik tushkunlik natijasida shakllanadigan motiv ham idora qilishi mumkin. Bunday hissiyotlar birinchi marta jinoyat sodir etgan kishilarga xosdir, ular jinoiy javobgarlik mazmunidan bexabar bo'lganliklari bois o'ta tushkun kayfiyat girdobida qoladilar. SHuning uchun bunday shaxslarga tergovchi haqiqatni aytsa jinoyatiga jazo berish engillashi mumkinligiga ishonirishi zarur.

Uyushgan jinoiy guruh tarkibida sodir etilgan jinoyatda ayblanayotgan shaxs sheriklariga har xil munosabatda bo'ladi. O'ziga homiylik qilib, qo'llab - quvvatlab turgan shaxsni yana yordam berishidan umidvor bo'lib, jinoyatga taalluqligini yashirishga urinadi.

Shaxsning xulq - atvori ko'p jihatdan unga dominanta – ushbu daqiqada bosh miyaning katta yarim sharlari qobiqidagi har qanday ta'sirotda o'ta qo'zqaluvchan bo'lgan hamda boshqa asab markazlari faoliyatiga tormozlantiruvchi ta'sir ko'rsata oladigan hukmron qo'zqalish o'choqining ta'siriga boqliq bo'ladi. Odamda dominanta hayotining muayyan darajadagi jiddiy pallasida yuz bergan voqea uchun qayqurishi, qattiq hayajonlanishi, qo'rquv, umidsizlik hislariga berilishi tufayli tuqiladi. Dominanta ta'siri ostida jinoyatchi go'yo uning xavfsizligini ta'minlaydigan, fosh etilishidan saqlaydigan hamda keyingi jazodan asrab qoladigan xatti-sharakatlarni sodir etishga kirishadi. Uning faoliyati o'ziga xos himoyalaniş tusini oladi. Biroq uning aynan shunday harakatlari tergovchining e'tiborini tortadi, uni sodir etilgan jinoyatga aloqador, deb taxmin qilishga asos bo'ladi. Bunday xatti-harakatlar «xulq - atvor dalili» deb nomlanadi.

Xulq - avtor dalillari turli xil ko‘rinishda bo‘ladi. Ular orasida eng ko‘p uchraydiganlari: chalq‘ituvchi sahnalar tayyorlash, yolqon tasdiq (alibi) yaratish va kutilmagan javoblar kabilardir. Amaliyotda ko‘pincha ayblanuvchi o‘ziga bo‘xton qilgan xolatlarda soxta murosali vaziyatlar tuqiladi. Agar ayblanuvchi haddan tashqari ta’sirlanuvchan, tashqi ta’sirotlarga beriluvchan, o‘z nuqtai nazarini himoya qilishdan ojiz, irodasiz, ruhiy hayajonlanishga bardoshsizligi bilan ajralib tursa, o‘ziga tuxmat qilish ehtimoli ortadi. Buning eng tarqalgan motivi haqiqiy aybdorni ko‘rgazma berishdan xalos qilishga urinishdir. (yaqin qarindoshlikta’sirida) YUridik psixologiyaning fan sifatidagi vazifasi tergovchilarning ijodiy izlanishlari samaralarini nazariy asoslab berishdan iboratdir.

Nazorat savollari:

1. Guvohlarni yuzlashtirish qachon amalga oshiriladi?
2. Shubhalanuvchi deb kimlarni aytiladi?
3. Jabrlanuvchi tergov xodimlari tomonidan qanday himoyalaniadi?
4. Kimlar guvoh bo‘la oladi?
5. So‘roq qilish qachon samarali bo‘ladi?

Testlar:

1. Voqea sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish psixologiyasi-

- A) jinoyatchi shaxsning psixologiyasi
 - B) jinoyatga taalluqli ob`yektlar
 - C) jinoiy faoliyat izlari
 - D) jinoyatchi shaxsning psixologik uziga xos xususiyatlari
- to‘g‘risidagi manbai

2. Tintuv psixologiyasi -

- A) tintuv qilinayotgan ob`yekt
- B) tintuv paytda tergovchining qidiruvga doir faoliyatining psixologik o‘ziga xos xususiyatlari

- C) qidiruv qilinayotgan shaxsning xususiyatlari
- D) hammasi

3. Tanib olish uchun taqdim etish psixologiyasi

- A) odam idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari va uni o'xshatishning psixologik xususiyatlari
- B) odamning psixologik holati
- C) odamning individual xususiyatlari
- D) odamning xarakteri

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Yuzlashtirish psixologiyasi.
2. Guvoh va jabrlanuvchilarni so'roq qilish psixologiyasi.
3. Shubhalanuvchi va ayblanuvchilarni so'roq qilish psixologiyasi
4. Tanib olish uchun taqdim etish psixologiyasi.
5. Tintuv psixologiyasi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'rayev B. Yuridik psixologiya. O'quv qo'llanma. —O'zbekiston nashr. 2022.
2. Maxsudova M.A. Yuridik psixologiya. Ma'ruzalar matni. N.2007.- 62 b.
3. Norboyev A.N., Usmonova A.A. Yuridik psixologiya. O'quv qo'llanma. T.2006.

13 – MAVZU. VOQEA JOYIDA TERGOV EKSPERIMENTINING VA KO‘RSATMALARNI TEKSHIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Eksperiment qatnashchilarining psixologik xususiyatlarini aniqlash.
2. Tergov eksperimenti va sud - psixologik ekspertizani tayinlash zarurati
3. Eksperiment usuli bilan dalillarni tekshirishda ayblanuvchining bilim, malaka va ko‘nikma qobiliyatini aniqlash.

Tayanch tushunchalar

Tergov eksperimenti - alohida protsessual harakat bo‘lib, mavjud faktlarni tekshirish va yangi dalillar olish degan ma‘noni bildiradi

Sud - meditsina ekspertizasi – tibbiyot sohasidagi mutaxassislarni jalb qilish orqali tergov ishini aniqlashtirish

Sud – psixiatrik ekspertizasi – psixiatr mutaxassislarni jalb qilish orqali tergov ishini aniqlashtirish

Sud - psixologik ekspertizasi – psixologiya sohasidagi mutaxassislarni jalb qilish orqali tergov ishini aniqlashtirish

1. Eksperiment qatnashchilarining psixologik xususiyatlarini aniqlash.

Eksperiment qatnashchilarining psixologik xususiyatlarini aniqlashda quyidagi tushunchalar katta rol o‘ynaydi: voqea joyida tergov eksperimenti o‘tkazish talab va qoidalari, eksperiment qatnashchilarining psixologik xususiyatlarini aniqlash, yuz berishi mumkin bo‘lgan psixologik ehtimollik holatlarini hisobga olish (*adaptatsion, stenik, astenik, sensibilizatsion hissiyotlar*) Eksperiment usuli bilan dalillarni tekshirishda ayblanuvchining bilim, malaka, ko‘nikma va qobiliyatini aniqlash, ko‘rsatmalarni voqea joyida tekshirish psixologiyasi, ko‘rsatmalarni voqea joyida

tekshirishning psixologik taktikasi, ko'rsatmasi tekshirilayotgan shaxsning kenglikka nisbatan o'lchamlarini, statistik va dinamik ko'z chamalashlarini va joylarini topografik tasavvur etishlarini aniqlash, mnemik faoliyatni aktivlashtirish, voqealar tartibini tiklash, voqea sodir bo'lgan joydan tayanch nuqtasi sifatida foydalanish.

Tergov eksperimenti alohida protsessual harakat bo'lib, mavjud faktlarni tekshirish va yangi dalillar olish maqsadida o'tkaziladi. Uning mazmuni muayyan sharoitda va ma'lum vaziyatlarda biron-bir voqea - hodisaning tafsilotlarini aniqlash maqsadida turli tajribalar o'tkazishdan iboratdir. Tergov eksperimenti uning qatnashchilariga psixologik ta'sir o'tkazishning kuchli vositasi bo'lib hisoblanadi. Uning natijalari muayyan hodisaning yuz berishi mumkinligi yoki mumkin emasligidan dalolat beradi. Eksperiment qatnashchilari, ya'ni uni o'tkazuvchilarni to'g'ri tanlash alohida ahamiyatga egadir. Ularni o'tkazishda odatda keng doiradagi shaxslar jalb etiladi. Eksperimentda tergovchi va xolislardan tashqari ayblanuvchi, jabrlanuvchi, turli sohalar bo'yicha ilm-fan mutaxassislari, shuningdek, u yoki bu tajribani o'tkazishni ta'minlaydigan texnik xodimlar ishtirok etishlari mumkin. Eksperiment jarayonida jinoyat ko'rinishi, sahnasining aynan qaytarilishi tayyorgarlik va o'tkazish paytida qatnashchilardan birontasining insoniylik sha'niga, g'ururiga ta'sir etuvchi va poymol etuvchi, shuningdek, hayotlari va sog'liklariga xavf soluvchi xatti-harakatlarga olib kelmasligi zarur. Masalan, nomusga tegishga oid jinoiy ish bo'yicha jabrlanuvchi ishtirokidagi tergov eksperimenti o'tkazilmaydi.

Tergov eksperimentini o'tkazish uchun bir qator shart-sharoitlarni hisobga olish va ularni yaratish talab etiladi. Xususan tekshirib ko'rilayotgan xatti-harakatlar yoki voqea - hodisalarga imkoni boricha o'xshash moddiy shart-sharoitning mavjud bo'lishi, sub'yektiv psixofiziologik omillar takrorlanishi, modellastirilgan tajriba holatlarining qaytarilishi maqsadga muvofiqdir. Ayrim xollarda ayblanuvchi, ba'zan esa jabrlanuvchi ham muayyan

tomondan manfaatdor bo'lganliklari uchun tergov eksperimentida qatnashishga rozilik bildiradilar-u, voqea-hodisa to'g'risida noto'g'ri ko'rsatma berishga yoki chalg'itishga harakat qiladilar. Bunday paytlarda tergov eksperimenti natijalari o'ta hushyorlik bilan baholanishi lozim.

Ekperiment paytida qatnashchilar murakkab psixologik holatda bo'ladilar, bu ularning xatti-harakatlari, nutqlari, o'zlarini tutishlariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Eksperiment jarayonining shart-sharoitlari, vaziyat, atrofda yig'ilganlar ta'siri natijasida ba'zan eksperiment ishtirokchilari voqea sodir bo'lgan paytdagi hissiyotlarni boshdan kechirishadi yoki aksincha talmovsirab, dovdirab qolishadi. Tergov eksperimentining bosh maqsadi - tajriba o'tkazish va olingan natijalarni haqqoniy baholashdan iborat. Eksperiment jarayonida tergovchining zimmasiga tajriba o'tkazishni uyushtirish, nazorat qilib turish, uning qanday o'tayotganini qayd etib borish, olinadigan natijalarni baholash yuklatiladi. Tergovchi tajribalarning sonini, takroriyiligini belgilaydi. Tajribalarning ko'p marotabaligi tergov eksperimentining asosiy talablaridandir. Ikkinchi talab - tajriba shaklining yangilanishi, ya'ni takrorlanayotgan keyingi har bir tajriba birinchisidan birmuncha o'zgartirilgan sharoitlarda o'tkazilishi. O'zgartirilgan tarzda tajribalar o'rganilayotgan ob'yekt yoki sub'yekt haqida to'laroq ma'lumot berib boradi.

Qonunga ko'ra quyidagi holatlarda sud ekspertizalari tayinlanadi:

- o'limning sabablari va tan jarohatlarining xarakterini aniqlash uchun;

- gumondor yoki ayblanuvchilarning jinoyat sodir etilgan paytda o'z xatti- harakatlari uchun javob bera olish-olmasligi yoki idora qila olish-olmasligiga, aniqrog'i ruhiy sog'lomligiga shubha tug'ilgan kezlarda ularning psixik holatlarini aniqlash uchun;

- guvoh yoki jabrlanuvchining ishg'a aloqador shart-sharoitlarni adekvat idrok qilish hamda to'g'ri ko'rgazma berish qobiliyatlariga shubha tug'ilgan paytlarda, ularning psixik va

jismoniy sog'lomligini aniqlash uchun;

- ish uchun ahamiyatli bo'lgan, lekin tegishli hujjatlar bo'lmagan xollarda ayblanuvchi, gumondor va jabrlanuvchining necha yoshga kirganini aniqlash uchun.

Qonunda sud-medsina, sud-psixiatrik, sud-psixologik yoki kompleks turdagi ekspertizalarni tegishli mutaxassislar- vrach, psixolog, psixiatriklar taklif qilinib, ular ishtirokida o'tkazilishi belgilab qo'yilgan. Ko'pchilik xollarda ekspertiza o'tkazish zaruriyatitergovchiningixtiyori bilan haletiladi. Bungasabab mazkur masalani hal qilish uning vakolatiga kirishidir. Sud ekspertizalarini tayinlash va uni o'tkazish chog'ida tergovchi va ekspert o'rtasidagi sub'yektiv, psixologik munosabat ekspertiza natijasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ularning munosabatlari o'zaro hurmat, hamkorlik va ishonch asosida qurilmog'i lozim. Agar davlat ekspertiza muassasasi hududida zarur bo'lgan ekspertizani o'tkazish imkoni bo'lmasa, bunday paytda tergovchining o'zi ana shunday muassasa va ekspertni tanlashda uning saviyasi, xolisligi, ish natijasidan manfaatdor emasligi holatlarini hisobga olishi lozim. Sud ekspertizalari amaliyotining ko'rsatishicha, ekspertiza natijasiga quyidagi holatlar ta'sir o'tkazishi mumkin:

- ekspertga chetdan kimdir nuqtai nazarini o'tkazishi;
- xizmat lavozimidan foydalanib, psixologik tazyiq o'tkazish;
- ekspertga moddiy manfaatdorlikni taklif etish orqali ta'sir o'tkazish;

- ekspertiza tadqiqotlari muddatini qisqartirishni, tadqiqotning soddaroq metod va turini qo'llashni talab qilish va hokazo.

Tergov amaliyotining ko'rsatishicha, asosan shaxsning hayoti, erki, sha'niga nisbatan, mulkka, jamoat tartibiga, jamoat xavfsizligiga, aholi sog'lig'iga qarshi, shuningdek, voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlar bo'yicha sud-ekspertizalari o'tkazish zarurati tug'iladi. Diagnostikaga oid eksperimentlarni psixolog ishtiroki va uning maslahatlari yordamida o'tkazgan ma'qul, u tajribalarning natijasiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi

xilma-xil psixik holatlarni hisobga olishda tergovchiga katta yordam beradi.

2. Tergov eksperimenti va sud - psixologik ekspertizani tayinlash zarurati

Sud-psixologik ekspertizasi O'zbekiston JPKning tegishli 171-moddasiga binoan tergovchi tomonidan chiqarilgan qarorga ko'ra tayinlanadi. Sudda esa ko'rilayotgan ishda psixologik mazmundagi vaziyatlarning mavjudligi haqida va ularning tergov jarayonida o'z yechimini topmaganligiga shubha tug'ilgan holatlarda sudya tomonidan chiqarilgan qarorga binoan sud-psixologik ekspertizasi tayinlanadi. Bu xildagi protsessual hujjatlarda ekspertizadan o'tkazilishi lozim bo'lgan shaxs, uning sodir etgan jinoiy xatti-harakati haqidagi qisqacha bayonnoma hamda ushbu sodir etilgan jinoiy xatti-harakatda psixologik mazmundagi holatlarning mavjudligiga asoslanib, sud-psixologik ekspertizasini tayinlash zarurligi to'g'risidagi fikr aks etgan bo'lishi lozim. Shuningdek, ushbu hujjatda ekspert aniqlanib, uning oldiga hal qilinishi lozim bo'lgan savollar qo'yilishi kerak. Jinoyat protsessual qonun talablariga ko'ra tergovchi tayinlangan barcha ekspertizalarda, jumladan, sud-psixologik ekspertizasi o'tkazish jarayonida ham qatnashish xuquqiga ega. Biroq qonunni inkor qilmagan xolda, bizning nazarimizda, tergovchining sud-psixologik ekspertizasida qatnashishini har doim ham maqsadga muvofiq deb bo'lmaydi. Chunki, ayrim xollarda psixologik eksperiment o'tkazish jarayonida tergovchining qatnashishi sinaluvchi uchun teskari ta'sir qilishi, ya'ni uning ko'nglidagi fikr-mulohazalarini ochiq-oydin ayta olmasligiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ayblanuvchi o'z jinoyatini tergov jarayonida tan olmagan bo'lsa, psixologik ekspertiza jarayonida jinoyatni sodir etganligini bo'yniga olishi mumkin. Bunday vaziyatda ekspert ayblanuvchining jinoyatni sodir etganligini tan olganligini ta'kidlab, jinoyatning sodir etilish holatlarini ekspertiza xulosasida ko'rsatishi maqsadga muvofiq. Bizning nazarimizda, psixologik

ekspertizaning bunday vaziyatlarni yoritib berishi ko‘rilayotgan ishning muvaffaqiyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Biroq, unutmazlik kerakki, psixologik ekspert ushbu xulosalarni faqat o‘rganilayotgan ayblanuvchiga nisbatangina berishi zarur. Agarda ekspertiza uchun qo‘shimcha ma‘lumotlar olinishi lozim bo‘lsa, ekspert-psixolog boshqa mutaxassislarni ham ekspertizaga taklif qilish xuquqiga egadir.

Sud faoliyatida sud-psixologik ekspertizasini tayinlash va uni o‘tkazish dastlabki tergov jarayoniga nisbatan bir muncha farqli xususiyatlarga egadir. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, jinoyat protsessual kodeksida ekspertlarni sudga chaqirish tartibi bo‘yicha muayyan aniq ko‘rsatmalar mavjud emas. Ayrim sudyalari ekspertlar ishlayotgan tashkilot yoki muassasa rahbariga chaqiruv qog‘ozini jo‘natish bilan cheklanadilar. Bizning nazarimizda, ekspertlarni sud ishiga jalb qilish bo‘yicha yuridik ko‘rsatmalar ishlab chiqilishi va ekspertlarning xizmat haqi sifatidagi moddiy manfaatdorligi belgilanishi har tomonlama maqsadga muvofiqdir. Kuzatuvlarimizga qaraganda, ekspertlarning xizmat haqi belgilanmaganligi, moddiy manfaatdorligi ko‘rsatilmaganligi uchun ularni ekspertiza o‘tkazishga jalb qilish ko‘pincha biroz qiyinchilik bilan amalga oshirilmoqda. Yuqorida ta‘kidlanganidek, sudda sud-psixologik ekspertizasini o‘tkazish dastlabki tergov jarayonida o‘tkaziladigan psixologik ekspertizaga qaraganda bir qator o‘ziga xosliklarga egadir. Xususan sudda ekspert-psixolog jinoyat ishiga taalluqli bo‘lgan holatlar bo‘yicha, ayblanuvchining jinoyatni sodir etganligini isbotlash jarayonida, uni so‘roq qilishda va hokozalarda bevosita ishtirokchi sifatida qatnashadi. U psixologik tadqiqot jarayoniga zarur boshqa kishilarni taklif etishi va ish yuzasidan yangi daliliy ko‘rsatmalarni talab qilishi ham mumkin.

Sud jarayonidagi psixologik ekspertizaning o‘ziga xos qiyinchilik tug‘diradigan tomonlaridan biri sudda vaqtning chegaralanganligidir. Psixologik ekspertiza o‘tkazish, ma‘lumki, metodika tanlash, uni o‘tkazish, qayta ishlash va xulosalar qilishdek bir qator jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bu esa o‘z navbatida ma‘lum

vaqtni talab qiladi. Shuning uchun ekspert-psixolog suddan biroz tanaffus (bir necha soat) so'rashi mumkin. Sud-psixologik ekspertizasini tayinlashdagi muhim jihatlardan biri ekspert tanlashdir. Shuning uchun biz quyida psixolog ekspertlar tanlash masalasi bo'yicha batafsil fikr yuritib o'tmoqchimiz. Ekspert komissiyasi tarkibi kamida uchta mutaxassisdan iborat bo'lishi lozim. Chunki, mutaxassislar hamkor va hamfikir bo'lib birgalikda ishlashadi, buning natijasida ekspertizadagi xatoliklarning oldi olinadi. Psixologik ekspertiza o'tkazishga 5 yildan kam bo'lmagan mehnat stajiga ega bo'lgan psixologlar, shuningdek, oliy o'quv yurtlarining Psixologiya kafedrasida ishlayotgan xodimlar yoki ilmiy tadqiqot institutlarining psixolog ilmiy xodimlari jalb qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Ekspert komissiyasi tarkibida xuquqshunoslik psixologiyasi bo'yicha mutaxassis xodim hamda xuquqshunos bo'lishi shart. Chunki, oliy o'quv yurtlari Psixologiya fakultetlarini tugatgan psixologlar ko'pincha ekspertizaning xuquqiy asoslariga, protsessual moxiyatiga taalluqli bo'lgan yuridik tushunchalarni yetarlicha bilmasliklari mumkin. Katta yoshdagi shaxsni sud-psixologik ekspertizasidan o'tkazishga umumiy va xuquqshunoslik psixologiyasi mutaxassislari jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Voyaga yetmagan yoshlarni sud-psixolog mutaxassisi bilan birgalikda bolalar psixologiyasi mutaxassisi, keksa yoshdagi kishilarni esa gerontopsixologiya yo'nalishidagi mutaxassislar ishtirokida sud-psixologiya ekspertizasidan o'tkazish lozim.

Psixologik-psixiatrik kompleks ekspertizasini o'tkazishda komissiya tarkibiga umumiy psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, sud patopsixologiyasi mutaxassislari va 1-2 ta psixiatr kirgani ma'qul. Tibbiy-psixologik ekspertiza komissiyasi tarkibiga esa yuqoridagi mutaxassislardan tashqari sinaluvchining kasalligi bo'yicha (agar u mavjud bo'lsa) nevropatolog, logoped, seksopatolog, okulist va boshqa mutaxassislarning qatnashishi ayni muddaodir. Psixologik-texnik ekspertizalar injenerlik, mehnat psixologiyasi mutaxassislari va albatta texnik mutaxassis ishtirokida o'tkazilishi shart.

Sud-psixologik ekspertizasi bir qator bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. Ekspertlarning jinoyatni isbotlash maqsadida o'tkazilgan jarayonidagi ishtiroki;
2. Tadqiqotni o'tkazish;
3. Xulosa uchun ahamiyatli bo'lgan vaziyatlarni oydinlashtirish;
4. Tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish va xulosani bayon etish;
5. Ekspertlarni so'roq qilish.

Yuridik psixologiyada sud psixologik ekspertiza usullari yordamida ko'plab kerakli ma'lumotlarni yig'ish mumkin bo'ladi. Sud - psixologik ekspertizasi turlariga quyidagi usullar kiradi:

- jinoiy ishga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarni psixologik talqin qilish;

- anamnez (biografik) usuli;
- kuzatish va tabiiy eksperiment;
- shaxsni individual – psixologik xususiyatlarini o'rganish;
- psixoanaliz;
- anketalardan foydalanish;
- suhbat;
- komp'yuter diagnostika usuli (test orqali psixogramma tuzish).

Ekspert psixolog vazifasi nuqtai nazaridan ekspertizani ishga doir materialni o'rganishdan boshlanadi. Shuningdek, taqdim qilingan ish bo'yicha maxsus adabiyotlar bilan tanishish va metodika tanlash jarayoni ham amalga oshiriladi. So'ngra dastlabki asosiy eksperiment o'tkaziladi. Eksperiment natijalarini qayta ishlash va uni asoslash, xulosa qilish hamda uni sud yoki tergovga taqdim qilish ham psixolog-ekspertning vazifasiga kiradi. Psixologik ekspertiza xulosasining asosiligi, uni tashkil etish, o'tkazish, to'g'ri metodika tanlash mutaxassislarning malakasiga, nazariy va amaliy bilimiga bog'liqdir. Kuzatishlarimizga qaraganda, kompleks ekspertiza o'tkazishda psixolog mutaxassis ikkinchi darajali

ekspertga aylanib qoladi. Buning sababi, birinchidan, psixiatri vrachlarning psixolog vazifasiga ham bilib-bilmay aralashuvi bo'lsa, ikkinchidan, ekspertizaning sud-psixiatriya bo'limlarida o'tkazilishi tabiiy ravishda psixolog ishtiroki samarasining tushishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan ta'kidlash lozimki, ekspertiza tayinlanayotganda psixologning vazifasi va uning oldiga qo'yilayotgan savol alohida ko'rsatilishi lozim. Shuningdek, yuqoridagi holatning kelib chiqmasligi uchun kompleks ekspertiza komissiyasi tarkibiga sud-psixiatriya bo'limi xodimlarini emas, balki, muayyan shifoxonalarning psixiatriklarini taklif qilib ekspertizani o'tkazish ham maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday ekspertiza komissiyasida ekspertiza rahbari bo'lmaydi, natijada barcha a'zolar teng xuquqlilik asosida faoliyat yuritadilar. Bu esa ekspertiza yuzasidan odilona, ilmiy asosli xulosa qilinishiga olib keladi.

Ekspertiza xulosasida psixolog-ekspert oldiga qo'yilgan savollar ko'rsatilib, ularga aniq javoblar berilishi kerak. Shuningdek, xulosada qanday metodikalar qo'llanilganini, u kim tomonidan ishlab chiqilganligini hamda olingan natijalar qanday xulosa qilinganligi haqidagi fikr ochiq-oydin bayon etilishi lozim. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, jinoiy javobgarlik ishlarida sud-psixologik ekspertizasini qo'llash bugungi kunning talabi bo'lib, u faqat ko'rilyotgan ishning odilona baholanishiga, fuqarolar haq-xuquqlarining himoyalinishiga olib keladi.

3. Eksperiment usuli bilan dalillarni tekshirishda ayblanuvchining bilim, malaka va ko'nikma qobiliyatini aniqlash

Xuquqshunoslik amaliyotining ko'rsatishicha, jinoiy xatti-harakatni qonuniy jihatdan asoslash, ayblov e'lon qilish qo'shimcha ma'lumotlar olishni talab qilib, ko'plab ilm-fan sohalarining hamkorlikda faoliyat yuritishini taqozo etadi. Surishtiruv, tergov va sudlov jarayonlarida turli xil mutaxassislarning ishtirok etishi ko'rilyotgan ishning o'z vaqtida yakunlanishiga, uning

ob'yektiv va qonuniy tarzda baholanishiga imkoniyat yaratadi. Xuquqshunoslik amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadigan ana shu shunday ilm sohalaridan biri psixologik ekspertizadir. Psixologik ekspertiza jinoyatni sodir etilish paytida ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchilarning psixologik holati, shaxs xususiyatlari, xulqidagi o'zgarishlar, aqliy rivojlanish darajasi, psixik rivojlanishning yoshiga nisbatan mos yoki adekvat emasligini, g'ayriqonuniy xatti-harakatlar oqibatlarini anglay olish layoqatini, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining izdan chiqish va uning sabablarini aniqlash maqsadida hamda shu kabi bir qator holatlarda tayinlanadi va kerakli ma'lumotlar olinadi.

Sud-psixologik ekspertizaning predmeti ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvohlar va jabrlanuvchilarning ko'rgazmalari haqqoniyligini tasdiqlash emas, balki so'roq qilinayotgan shaxsning isbotlanishi zarur faktlarni idrok qilish, xotirasida saqlash hamda bayon etish qobiliyati boshdan kechirayotgan psixologik jarayonlarga aynan muvofiqligini aniqlashdan iboratdir.

Sud-psixologik ekspertizasini tayinlashga taalluqli bo'lgan holatlarni yanada yaqqolroq bayon etadigan bo'lsak, ayblanuvchilarga nisbatan quyidagi holatlarda psixologik ekspertiza tavsifi etilishi nazarda tutiladi:

- shaxsning yosh davriga ko'ra psixik rivojlanishdan ortda qolishini, ya'ni psixik va aqliy rivojlanish darajasi yoshiga nisbatan mos yoki mos emasligini aniqlash zaruriyati tug'ilgan xollarda;

- kasallikni boshdan kechirgan yoki ayni paytda ruhiy xastalikka chalingan holatlarida;

- boshidan kechirgan yoki ayni chog'da somatik kasalliklarga, ayniqsa, infeksiya, surunkali va davolash qiyin bo'lgan kasalliklarga duchor bo'lgan holatlarida;

- jinoyatning sodir etilishiga sabab bo'luvchi, jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq me'yorlariga zid xulq namoyon bo'lgan yoki kuchli ruhiy hayajonlanish holatining yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi ayrim omillar ko'zga tashlanish holatlarida;

- o'z xatti-harakatining ahamiyati va axloqiy mohiyatini

tushunib yetmaslik holatining mavjudligi haqida shubha paydo bo'lgan paytda;

-ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchining berayotgan ko'rsatmasi uning xarakter xususiyatiga to'g'ri kelmayotganligiga shubha paydo bo'lgan holatlarda;

-yozilgan matn muallifini aniqlash zaruriyati tug'ilgan paytda;

-ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohning shaxs va individual-psixologik, yosh va aqliy rivojlanish darajasiga ko'ra sodir etilgan jinoiy harakatning mohiyatini, oqibatini tushunish va aniq baholay olish hamda to'g'ri ko'rsatma bera olish layoqatiga ega ekanligini oydinlashtirishda;

-jabrlanuvchining jinsiy munosabatlarga bog'liq jinoyat mazmun va mohiyatini to'g'ri idrok qila olish qobiliyatini aniqlashda;

-voyaga yetmagan yoshdagi ayblanuvchining ruhiy xastalikka bog'liq bo'lmagan xoldagi aqliy qoloqlik (psixik rivojlanishdan ortda qolish) xususiyatiga ko'ra o'z xatti-harakatlariga javob bera olish qobiliyatini aniqlash zaruriyatida;

-kasbiy faoliyatni bajarishga to'sqinlik qiluvchi turli xil psixik hodisalarning yuzaga kelish ehtimolini aniqlashda (masalan, aviatsiya, avtomatika va temir yo'l transportida, avtomatik boshqaruvni ishlab chiqarish operatori faoliyatida ishning meyoriy davom etishiga to'sqinlik qiluvchi psixik holatlar yoki hodisalarni o'rganishda);

-jinoyat sodir etilish paytida ayblanuvchi ongiga ta'sir etuvchi fiziologik affekt yoki boshqa hissiy holatlarning mavjudligini aniqlash maqsadida;

-kishining o'z joniga qasd qilish (suitsid) paytidagi psixik holatini tadqiq etish maqsadida.

Shuningdek, sud-psixologik ekspertiza jinoyatning sodir etilish vaqtida shaxsning psixologik xususiyatlarini, jinoiy xatti-harakatning psixologik mazmunini, sodir etilgan jinoiy harakatga nisbatan ayblanuvchi yoki jabrlanuvchining xatti-harakat, maqsad va motivini aniqlashda ham qo'llanilishi mumkin. Biroq, sud-

psixologik ekspertizasi jinoyatning yoki mazkur harakatning yuridik, tibbiy, pedagogik, falsafiy, estetik tomonlarini yoritish va baholash vakolatiga ega emasdir. Quyida sud-psixologik ekspertizasi asosiy yo‘nalishlaridan ayrimlarini tahlil qilishga harakat qilamiz:

Sodir etilgan jinoiy xatti-harakat mohiyatini to‘g‘ri baholay olish va ushbu jinoyat yuzasidan to‘g‘ri ko‘rsatma bera olish layoqatini aniqlash. Ekspertiza jarayonida ushbu holatlarni aniqlash uchun ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchining jinoyatga daxldor bo‘lgan ma‘lumotlar, voqea-hodisalarni esda olib qolish, esga tushirish hamda voqeani to‘g‘ri idrok etishning sub‘yektiv jihatlarini tadqiq etish ishlari amalga oshiriladi. Ko‘pchilik xollarda sud yoki tergov jarayonida ayblanuvchi, jabrlanuvchi yoki guvohning bu xususiyatlarini aniqlash va oydinlashtirish zaruriyati kelib chiqmasligi mumkin. Ammo aksincha bo‘lgan paytlarda jinoiy ish jarayoniga psixolog mutaxassisning ishtiroki zarur bo‘lib qoladi. Tergovchi yoki sudyaning jinoiy xatti-harakat haqidagi qarashlari ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarning jinoiy harakat yuzasidan bergan ko‘rsatmalariga asoslanadi. Ba‘zan shunday holatlar bo‘ladiki, jinoiy harakatning to‘laqonli baholanishi uchun mavjud dalillar yetarli bo‘lmaydi. Sud-psixologik ekspertiza jinoiy harakatga dahldor bo‘lgan voqea-hodisalarni ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlar qanday bayon etayapti, voqealar ularning xotirasida saqlanib qolgan bo‘lsa, qanday eslayapti yoki eslay olmayapti kabi psixik holatlar yuzasidan kelib chiqadigan savollarga psixologik usullar orqali javob topadi. Sud-psixologik ekspertizasi ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlar tomonidan berilayotgan ko‘rsatmalar shakllanishi har bir bosqichining mohiyatini, uning yakuniy natijaga qay darajada ta’sir etishini aniqlashi mumkin. Alohida xollarda ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohning u yoki bu xollarni to‘g‘ri idrok qilishi ko‘rsatma bera olishi yoki bera olmasligi layoqatini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Misol tariqasida talaba M.ning ishi bo‘yicha o‘tkazilgan psixologik ekspertiza mazmuni bilan tanishib chiqamiz. Talabalar yotoqxonasi koridorida A. va M. o‘rtasida janjal kelib chiqadi.

Janjal va mushtlashishni birinchi bo‘lib A. boshlaydi. O‘sha yerda hozir bo‘lganlar ularni ajratadilar. Shu orada M. xonasiga kirib, oshxona pichog‘ini olib chiqadi va o‘sha joyda A. tanasining yuqori qismiga besh marotaba pichoq uradi. Keyinchalik ayblanuvchi tergovchiga bir marta pichoq o‘rganidan keyin hech narsani eslay olmasligini aytadi. Biroq, jinoyat sodir etilgan paytda voqea joyiga yetib kelgan militsiya inspektoriga voqeani boshdan - oxirigacha aniq va mantiqan asosli xolda bayon etib beradi. Ekspert komissiyasi nizoli vaziyatning kelib chiqish sabab, motivlari hamda ayblanuvchining shaxs xususiyatlarini o‘rganish natijasida uning xotirasida voqea haqidagi taassurotlar sodda bog‘lanishlar asosida saqlanib qolganligini va M. esga tushirishning sust tempi asosida voqea-hodisalarni eslay olishi haqidagi xulosaga keladi. Ekspert komissiyasi yetkazilgan tan jarohati tufayli travmatik amneziya (xotira kasalligining o‘ziga xos ko‘rinishi)ning yuzaga kelganligini inkor qiladi. Ya’ni ayblanuvchi xotirasida hech qanday o‘zgarish sezilmaydi va u bo‘lib o‘tgan voqea- hodisalarni to‘laligicha eslash, esga tushirish qobiliyatiga egadir, degan xulosa berildi. Odatda eslab qolinayotgan axborotning to‘liqligi, voqelikni tushunish, voqeaning sodir etilgan vaqtini, joyini idrok qilish hissiy reaksiya va shaxsning sog‘lig‘iga ham bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, shaxsning madaniyati, dunyoqarashi, ijtimoiy ahvoli, rivojlanganlik darajasini esda olib qolishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Voyaga yetmaganlar va kichik yoshdagi guvohlar va jabrlanuvchilarning ish yuzasidan beradigan ko‘rsatmalari alohida ahamiyatga egadir. Ular xayolot, fantaziyaga moyilliklari, bo‘rttirish, ko‘rganlarini so‘z orqali to‘g‘ri va aniq ifodalay olmasliklari tufayli ko‘rsatma berishda ko‘pincha real voqealikdan yiroqlashadilar. Aynan shu holatda ularning berayotgan ko‘rsatmalari qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini, haqiqatga yaqinligini aniqlash uchun psixolog mutaxassisning xulosasi zarurdir.

Nazorat savollari:

- 1 Eksperiment qatnashchilarining psixologik xususiyatlari

qanday aniqlanadi?

2 Tergov eksperimenti va sud - psixologik ekspertizani tayinlash zarurati nimada?

3 Eksperiment usuli bilan dalillarni tekshirishda ayblanuvchining bilim, malaka va ko'nikma qobiliyati qanday aniqlanadi?

4 Ko'rsatmalarni voqea joyida tekshirish psixologiyasi deganda nimani tushunasiz?

Testlar:

1. Sud-psixologik ekspertizaning tayinlash sabablari qachon aniqlanadi?

- A) jinoyat aniqlanganda
- B) fuqarolik ishlarida
- C) jinoyatni ochishda
- D) jinoyat sodir bo'lganda

2. Sud-psixologik ekspertizasi kimlar tomonidan o'tkaziladi?

- A) prokuror B) sud
- C) tergovchi D) ekspert psixolog

3. Sud-psixologik ekspertizalarini o'tkazish tartibi O'z JPKning qaysi modda asosida ta'minlanadi?

- A) O'z JPKning 171 moddasiga asosan
- B) O'z JPKning 172 moddasiga asosan
- C) O'z JPKning 173 moddasiga asosan
- D) O'z JPKning 169 moddasiga asosan

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Eksperiment qatnashchilarining psixologik xususiyatlarini aniqlash.

2. Tergov eksperimenti va sud - psixologik ekspertizani tayinlash zarurati

3. Eksperiment usuli bilan dalillarni tekshirishda ayblanuvchining bilim, malaka va ko'nikma qobiliyatini aniqlash.

4. Ko'rsatmalarni voqea joyida tekshirish psixologiyasi.
5. Sud-psixologik ekspertizalarini o'tkazish tartibi
6. Sud-psixologik ekspertizasini tayinlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Чутбоев М.Р. ва бошқалар. Бола савдоси жинояти билан боғлиқ муаммоларни бартараф этиш масалалари юзасидан методик тавсиялар. Т. —Юрист-медия маркази, 2019.-60 б.

2. Umarov B., Xolnazarova M. X. Yuridik psixologiya. Darslik. Guliston. GulDU.2022. -229 b.

14– MAVZU. TERGOV EKSPERIMENTI VA UNI O‘TKAZISH PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. Ekspertiza predmeti, vakolati va ekspertiza oldiga qo‘yiladigan masalalar
2. Ekspertiza o‘tkazishning zaruriyligi va ekspertizani belgilash tartibi. Ekspertiza savollarini tuzishga qo‘yiladigan talablar
3. Affekt holatining sud psixologik ekspertizasi
4. Tergov eksperimenti va sud - psixologik ekspertizani tayinlash zarurati
5. Eksperiment usuli bilan dalillarni tekshirishda ayblanuvchining bilim, malaka va ko‘nikma qobiliyatini aniqlash.

Tayanch tushunchalar:

Sud - tibbiy ekspertiza – baxtsiz hodisalar, ehtiyotsizlik oqibatidan kelib chiqadigan jinoyatlar, tasodifiy yoki qasddan amalga oshiriladigan jinoyatlar kelib chiqqanda o‘tkaziladigan jarayon.

Sud – psixologik ekspertizasining predmeti - ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvohlar va jabrlanuvchilarning ko‘rgazmalari xaqqoniyligini tasdiqlash emas, balki so‘roq qilinayotgan shaxsning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra isbotlanishi zarur faktlarni idrok qilish, xotirasida saqlash hamda bayon eta olish qobiliyatini boshidan kechirayotgan ruhiy jarayonlarga aynan muvofiqligini aniqlash.

Bir sohali ekspertiza - bilimning bir tarmog‘i doirasida tekshirishning olib borilishi.

1. Ekspertiza predmeti, vakolati va ekspertiza oldiga qo‘yiladigan masalalar

Jinoyatni ochishda sud ekspertizalarining ahamiyati katta. Jumladan, sud - psixologik ekspertizasi ham jinoyatlarni ochishga,

jinoyatchining ruhiyotini aniqlashga, adolatli jazo tayinlashda katta yordam beradi. Sud-psixologik ekspertizasi quyidagi holatlarda o'tkaziladi:

- O'limning sabablari va tan jarohatlarining xarakterini aniqlash maqsadida;

- Gumondor yoki ayblanuvchilarning jinoiy ish qo'zqatilgan paytda o'z xatti - harakatlari uchun javob bera olish - olmasligi yoki idora qila olish - olmasligiga, shuningdek, eng asosiysi ruhiy soqlomligiga shubha tuq'ilganida, ularning psixik holatlarini aniqlash maqsadida;

- Guvoh yoki jabrlanuvchining ishga aloqador shart - sharoitlarini to'qri idrok qilish hamda ko'rgazma berish qobiliyatlariga shubha tuqilgan kezlarda ularning ruhiy va jismoniy soq'lomligini aniqlash uchun;

- Ish uchun ahamiyatli bo'lgan, lekin tegishli hujjatlar bo'lmagan hollarda ayblanuvchi, gumondor va jabrlanuvchining necha yoshga kirganini aniqlash uchun ekspertiza o'tkazilishi shart bo'lib hisoblanadi.

Qonunda ekspertizalarni tegishli mutaxassislar – shifokor, psixolog, psixiatrlarni taklif qilib o'tkazish belgilab qo'yilgan.

Ko'pchilik hollarda ekspertiza o'tkazish zarurati tergovchining ixtiyori bilan hal etiladi, bu masalani hal qilish uning vakolatiga kiradi.

2. Ekspertiza o'tkazishning zaruriyligi va ekspertizani belgilash tartibi. Ekspertiza savollarini tuzishga qo'yiladigan talablar

Ekspertizaning quyidagi turlari farqlanadi:

- Sud - tibbiy ekspertizasi.
- Sud - psixiatriya ekspertizasi.
- Sud - psixologiya ekspertizasi.
- Kompleks ekspertizalar.

Sud - tibbiy ekspertizasi jinoyatning barcha turlarida o'tkaziladi. Jumladan, baxtsiz hodisalar, ehtiyotsizlik oqibatidan

kelib chiqadigan jinoyatlar, tasodifiy yoki qasddan amalga oshiriladigan jinoyatlar kelib chiqqada sud - tibbiy ekspertizasi o'tkaziladi. Sud - tibbiy ekspertizasi orqali jabrlanuvchining olgan tan jarohatlari, ularning darajasi, kelib chiqadigan oqibatlari aniqlanadi.

Sud - psixiatriya ekspertizasi ham barcha turdagi jinoyatlar kelib chiqqanda o'tkaziladi. Bunday ekspertiza orqali jinoyatchi, jabrlanuvchilarning jismoniy soqlomligi, aqliy jihatdan aqli rasoligi, ko'rgazma berish uchun o'z xatti - harakatlarini idora qila olish-qilmasligi, sud zalida o'zini to'qri tuta olishi, savollarga to'qri, adolatli javob bera olishi yoki olmasligi aniqlanadi. Odatda sud - psixiatriya ekspertizasi sud - psixologik ekspertizasini o'tkazishdan avval olib boriladi va gumondor, jinoyatchi shaxsiga hatti - harakatlariga javob bera olishi yoki olmasligi to'qrisida xulosa beriladi.

Sud - psixologik ekspertizasi tergov jarayonida jinoyatchining jinoiy hatti - harakatlari aniq bo'lmagan hollarda, shuningdek, baloqat yoshidagi o'smirlar jinoyatga qo'l urgan paytlarida, kattalarning baloqatga yetmagan bolalarga nisbatan majburlash, nomusiga tegish, o'z joniga qasd qilish hollarida o'tkaziladi. Sud - psixologik ekspertizasini o'tkazishdan asosiy maqsad jinoyatchining psixologik xususiyatlarini, jinoiy hatti - harakatlar qilayotgan paytidagi uning ruhiy holatlari, jumladan, affekt (kuchli qo'zqalish, shuuriy holati), stress holati (kuchli hayajonlanish), suitsid (o'z joniga qasd qilish) holatlarini aniqlash va jinoyatchiga to'qri psixologik tashxis qo'yish, ya'ni uning jinoiy xatti - harakatlar qilayotgan vaqtida ongsizlik holatida bo'lgan yoki bo'lmaganligini aniqlashdir.

Kompleks ekspertizalarning mazmuni shundan iboratki, bunday ekspertizalarni o'tkazishda turli mutaxassislar jalb qilinadi. Jumladan, psixolog, shifokor, psixiatr, texnolog, pedagog kabilarning fikrlari jamlanadi. Kompleks ekspertizalar muammolar juda murakkab bo'lganda o'tkaziladi.

Sud - psixologik ekspertizasini o'tkazish zarurati avvalo

tergovchining ixtiyori bilan hal etiladi, ya'ni bu masalani hal qilish uning vakolatiga kiradi. Sud – psixologik ekspertizasini tayinlash, uni o'tkazish paytida tergovchi va ekspert o'rtasidagi psixologik munosabatlar sezilarli rol o'ynaydi. Ularning munosabatlari o'zaro hurmat, hamkorlik va ishonch asosiga qurilmoqi lozim. Agar davlat ekspertisasi muassasasi hududida ekspertiza o'tkazishning imkoni bo'lmasa, tergovchining o'zi ana shunday muassasa va ekspertni (mutaxassisni) qidirib topadi. Bunday muassasa va ekspertni tanlashda ularning saviyasi, xolisligi, ish natijasidan manfaatdor emasligi hal qiluvchi shartlar bo'lib hisoblanadi.

Ekspertga biror bir tarzda psixologik tazyiq o'tkazilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Tergov amaliyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, ekspertgatergovchi o'znuqtainazarinio'tkazish, xizmatlavozimidan foydalanib, psixologik tazyiq o'tkazish, ekspertiza tadqiqotlari muddatini qisqartirishni ko'zlab, soddaroq metodlar turini qo'llashni talab qilish ekspertizaga tergovchi tazyiqining yo'llari bo'lishi mumkin. SHuning uchun psixolog - ekspert yoki mutaxassis - psixolog o'z tajribasidan kelib chiqqan holda qonun asosida ish ko'rishi maqsadga muvofiqdir. Sud – psixologik ekspertizasini tayinlanishi, uning natijalari ayblanuvchiga kuchli psixologik ta'sir ko'rsatadi. Natijada u aksar hollarda rostmana ko'rgazma bera boshlaydi. Tergov amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxsning hayoti, soqligi, erki, sha'niga nisbatan mulkka, jamoat tartibiga, xavfsizligiga, aholi soqligiga qarshi, voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlar bo'yicha sud – psixologik ekspertizasini tayinlash zaruriyati ko'proq tuqiladi. SHuningdek, tergovchida guvoh, jabrlanuvchi yoki ayblanuvchi muayyan sharoitlarni to'qri idrok qila olishi va ko'rgazma bera olishiga shubha tuqilgan kezlarda ham sud – psixologik ekspertizasini tayinlanadi.

Sud–psixologik ekspertizasini o'tkazishda psixolog quyidagi bosqichlarda ish olib boradi:

- jinoiy ishni ochish uchun to'plangan barcha ish hujjatlari bilan batafsil tanishib chiqadi;
- jinoyatchi, gumonlanuvchi, jabrlanuvchilar bilan

individual suhbatlar olib boradi;

- ular ustida psixologik test o'tkazadi;
- test natijalari va suhbat, kuzatish uslublari orqali jinoiy hatti-harakatlarni psixologik jihatdan tahlil qiladi;
- ekspertiza natijalariga asoslangan holda psixologik ekspertiza xulosasini tayyorlaydi va tergovchiga taqdim etadi;
- tayyorlagan xulosasi asosida agar sud jarayonida guvohlik berilishi talab qilinsa sudda qatnashadi.

Sud – psixologik ekspertizasining predmeti ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvohlar va jabrlanuvchilarning ko'rgazmalari haqqoniyligini tasdiqlash emas, balki so'roq qilinayotgan shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra isbotlanishi zarur faktlarni idrok qilish, xotirasida saqlash hamda bayon eta olish qobiliyati boshidan kechirayotgan ruhiy jarayonlarga aynan muvofiqligini aniqlashdan iboratdir.

Ko'pincha voyaga yetmagan shaxs psixologik ekspertiza ob'ektiga aylanadi. Psixologiyaning yordamisiz tergovchi yoki sud voyaga yetmagan shaxs yoki o'smirning jinoiy-huquqiy ahamiyat kasb etuvchi faoliyatiga yoshiga xos alomatlarining nechoqlik ta'sir ko'rsatganini aniqlab ololmaydilar. Affektiv holat jabrlanuvchining noqonuniy xatti-sharakatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, jinoyatning ayrim tuzilishlarini kvalifikatsiyalashda aybni yengillashtiruvchi holatlar ekanligini aniqlash ekspert-psixolog vakolatiga kiradi. Bunday hollarda psixolog-ekspert o'z kasbining mohir ustasi, tajribali bo'lishi talab qilinadi.

Sud – psixologik ekspertizasini tajribali, kuchli mutaxassis-psixologlar olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday ekspertiza orqasida shaxsning taqdiri turadi. Affektiv holatning davomiyligi, intensivligi va mexanizminisud- psixologik ekspertiza metodlari bilan tadqiq etish, dastlabki tergov xulosalarining ilmiy asoslangani va dalillanishini ta'minlashda psixolog-ekspertning mahorati, kasb fazilatlariga katta rol o'ynaydi. Jinoyat sodir etilgan paytda shaxs xulq - atvorining alohida xususiyat kasb etishiga sabab bo'lgan boshqa holatlarni tadqiq qilish ham sud-psixologik

ekspertizani vakolatiga kiradi. Affektdan tashqari ularning qatoriga charchoq, qattiq qoʻrquv, oqʻir musibat, (depressiya) tushkunlik kabilarni qoʻshish mumkin. Tergov va sud amaliyotida tuqʻiladigan psixologik masalalarni hal qilish ekspert - psixologga bir qator qoʻshimcha talablarni qoʻyadi. Jumladan, psixolog - ekspert protsessual Qonunning ekspert tadqiqotlariga oid qismini, dastlabki tergov va sud - surishtiruvning maxsus shartlarini bilishi lozim. Demak, psixolog - ekspertda quyidagi kasbiy fazilatlar shakllangan boʻlishi jinoyatni ochishda adolatlilik tamoyiliga amal qilishga olib keladi:

- psixolog - ekspert adolatli, vijdonli boʻlishi;
- psixolog tergovchiga va ayblanuvchiga nisbatan xushmuomala, madaniyatli boʻlishi;
- psixolog tajribali mutaxassis sifatida kuchli irodali, sabr - toqatli, mulohaza bilan ish yuritishi;
- psixolog - ekspert xulosani oʻz vaqtida topshirishi, yaʼni tartibli, masʼuliyatli boʻlishi maqsadga muvofiqdir.
- Psixolog- ekspert ayblanuvchi bilan shaxs sifatida munosabatda boʻlishi kerak.

Yuqoridagi insoniy fazilatlar psixolog - ekspertda shakllangan boʻlsa jinoyatchiga nisbatan adolatli ish koʻrish amalga oshiriladi va haqiqat tezroq yuzaga chiqib, qaror topadi.

Psixolog - ekspert mutaxassis sifatida ayblanuvchi bilan ish olib borishda qu yidagicha tartibda ekspertiza oʻtkazadi:

- ayblanuvchi, jabrlanuvchilar bilan individual suhbat oʻtkazadi;
- ularning psixologik xususiyatlarini (idroki, diqqati, hissiyoti, temperamenti, xarakteri, irodasi kabilarni) aniqlaydi;
- kuzatish, suhbat, psixologik test kabi metodikalarni oʻtkazadi;
- ayblanuvchiga ochilgan jinoyat ishi bilan batafsil tanishib chiqadi;
- oʻtkazilgan tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda ekspertiza xulosasi tayyorlaydi.

Sud - psixologik ekspertiza natijalarini tahlil qilishda ayblanuvchining jinoyatni nechanchi marta sodir etganligiga e'tiborini qaratadi. Shuningdek, uning oilaviy psixologik muhitini aniqlashga harakat qiladi. Bundan tashqari, ekspertizaga oid adabiyotlar bilan tanishadi. Demak, sudga oid psixologik ekspertizaning jinoiy xatti - harakatlarni aniqlashdagi ahamiyati juda katta ekan. Shuning uchun mutaxassis-psixologlar ayblanuvchining psixologik xususiyatlarini, uning jinoiy xatti - harakatlarni sodir etayotgan vaqtdagi ruhiy holatlarini aniqlashda juda katta mas'uliyat bilan ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir.

Tergov eksperimenti alohida protsessual harakat bo'lib, mavjud faktlarni tekshirish va yangi dalillar olish maqsadida o'tkaziladi. Uning mazmuni muayyan sharoitda va ma'lum vaziyatlarda biron-bir voqea-hodisaning tafsilotlarini aniqlash maqsadida turli tajribalar o'tkazishdan iboratdir. Tergov eksperimenti uning qatnashchilariga psixologik ta'sir o'tkazishning kuchli vositasi bo'lib hisoblanadi. Uning natijalari muayyan hodisaning yuz berishi mumkinligi yoki mumkin emasligidan dalolat beradi.

Eksperiment qatnashchilari, ya'ni uni o'tkazuvchilarni to'g'ri tanlash alohida ahamiyatga egadir. Ularni o'tkazishda odatda keng doiradagi shaxslar jalb etiladi. Eksperimentda tergovchi va xolislardan tashqari ayblanuvchi, jabrlanuvchi, turli sohalar bo'yicha ilm-fan mutaxassislari, shuningdek, u yoki bu tajribani o'tkazishni ta'minlaydigan texnik xodimlar ishtirok etishlari mumkin.

Eksperiment jarayonida jinoyat ko'rinishi, sahnasining aynan qaytarilishi tayyorgarlik va o'tkazish paytida qatnashchilardan biron-tasining insoniylik sha'niga, g'ururiga ta'sir etuvchi va poymol etuvchi, shuningdek hayotlari va sog'liklariga xavf soluvchi xatti-harakatlarga olib kelmasligi zarur. Masalan, nomusga tegishga oid jinoiy ish bo'yicha jabrlanuvchi ishtirokidagi tergov eksperimenti o'tkazilmaydi.

Tergov eksperimentini o'tkazish uchun bir qator shart-sharoitlarni hisobga olish va ularni yaratish talab etiladi. Xususan

tekshirib ko'rilayotgan xatti- harakatlar yoki voqea-hodisalarga imkon boricha o'xshash moddiy shart- sharoitning mavjud bo'lishi, sub'yektiv psixofiziologik omillar takrorlanishi, modellashtirilgan tajriba holatlarining qaytarilishi maqsadga muvofiqdir.

Ayrim xollarda ayblanuvchi, ba'zan esa jabrlanuvchi ham muayyan tomondan manfaatdor bo'lganliklari uchun tergov eksperimentida qatnashishga rozilik bildiradilar-u, voqea-hodisa to'g'risida noto'g'ri ko'rsatma berishga yoki chalg'itishga harakat qiladilar. Bunday paytlarda tergov eksperimenti natijalari o'ta hushyorlik bilan baholanishi lozim.

Ekperiment paytida qatnashchilar murakkab psixologik holatda bo'ladilar, bu ularning xatti-harakatlari, nutqlari, o'zlarini tutishlariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Eksperiment jarayonining shart-sharoitlari, vaziyat, atrofda yig'ilganlar ta'siri natijasida ba'zan eksperiment ishtirokchilari voqea sodir bo'lgan paytdagi hissiyotlarni boshdan kechirishadi yoki aksincha talmovsirab, dovdirab qolishadi.

Tergov eksperimentining bosh maqsadi - tajriba o'tkazish va olingan natijalarni haqqoniy baholashdan iborat. Eksperiment jarayonida tergovchining zimmasiga tajriba o'tkazishni uyushtirish, nazorat qilib turish, uning qanday o'tayotganini qayd etib borish, olinadigan natijalarni baholash yuklatiladi. Tergovchi tajribalarning sonini, takroriyiligini belgilaydi. Tajribalarning ko'p marotabaligi tergov eksperimentining asosiy talablaridandir. Ikkinchi talab - tajriba shaklining yangilanishi, ya'ni takrorlanayotgan keyingi har bir tajriba birinchisidan birmuncha o'zgartirilgan sharoitlarda o'tkazilishi. O'zgartirilgan tarzda tajribalar o'rganilayotgan ob'yekt yoki sub'yekt haqida to'laroq ma'lumot berib boradi.

Qonunga ko'ra quyidagi holatlarda sud ekspertizalari tayinlanadi:

- o'limning sabablari va tan jarohatlarining xarakterini aniqlash uchun;

- gumondor yoki ayblanuvchilarning jinoyat sodir etilgan paytda o'z xatti-harakatlari uchun javob bera olish-olmasligi yoki

idora qila olish- olmasligiga, aniqrog'i ruhiy sog'lomligiga shubha tug'ilgan kezlarda ularning psixik holatlarini aniqlash uchun;

- guvoh yoki jabrlanuvchining ishga aloqador shart-sharoitlarni adekvat idrok qilish hamda to'g'ri ko'rgazma berish qobiliyatlariga shubha tug'ilgan paytlarda, ularning psixik va jismoniy sog'lomligini aniqlash uchun;

- ish uchun ahamiyatli bo'lgan, lekin tegishli hujjatlar bo'lmagan xollarda ayblanuvchi, gumondor va jabrlanuvchining necha yoshga kirganini aniqlash uchun.

Qonunda sud-medsina, sud-psixiatrik, sud-psixologik yoki kompleks turdagi ekspertizalarni tegishli mutaxassislar - shifokor, psixolog, psixiatrlar taklif qilinib, ular ishtirokida o'tkazilishi belgilab qo'yilgan.

Ko'pchilik xollarda ekspertiza o'tkazish zaruriyati tergovchining ixtiyori bilan hal etiladi. Bunga sabab mazkur masalani hal qilish uning vakolatiga kirishidir.

Sud ekspertizalarini tayinlash va uni o'tkazish chog'ida tergovchi va ekspert o'rtasidagi sub'yektiv, psixologik munosabat ekspertiza natijasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ularning munosabatlari o'zaro hurmat, hamkorlik va ishonch asosida qurilmog'i lozim. Agar davlat ekspertiza muassasasi hududida zarur bo'lgan ekspertizani o'tkazish imkoni bo'lmasa, bunday paytda tergovchining o'zi ana shunday muassasa va ekspertni tanlashda uning saviyasi, xolisligi, ish natijasidan manfaatdor emasligi holatlarini hisobga olishi lozim.

Sud ekspertizalari amaliyotining ko'rsatishicha, ekspertiza natijasiga quyidagi holatlar ta'sir o'tkazishi mumkin:

- ekspertga chetdan kimdir nuqtai nazarini o'tkazishi;
- xizmat lavozimidan foydalanib, psixologik tazyiq o'tkazish;
- ekspertga moddiy manfaatdorlikni taklif etish orqali ta'sir o'tkazish;

- ekspertiza tadqiqotlari muddatini qisqartirishni, tadqiqotning soddaroq metod va turini qo'llashni talab qilish va hokazo.

Tergov amaliyotining ko'rsatishicha, asosan shaxsning

hayoti, erki, sha'niga nisbatan, mulkka, jamoat tartibiga, jamoat xavfsizligiga, aholi sog'lig'iga qarshi, shuningdek, voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlar bo'yicha sud-ekspertizalari o'tkazish zarurati tug'iladi.

Diagnostikaga oid eksperimentlarni psixolog ishtiroki va uning maslahatlari yordamida o'tkazgan ma'qul, u tajribalarning natijasiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi xilma-xil psixik holatlarni hisobga olishda tergovchiga katta yordam beradi.

3. Affekt holatining sud psixologik ekspertizasi Affekt holatida jinoyat sodir etishning psixologik tavsifi.

Affekt (lot. affectus — ruhiy hayajon, ehtiros) — turli tashqi yoki ichki ta'sirlar asosida tez paydo bo'lib, qisqa muddatli, aksariyat hollarda „portlash— tarzida bo'ladigan kuchli ifodalanadigan hissiy holat (qo'rqinch, dahshat, g'azab va boshqalar). A. tushkunlik, tang vaziyatlarda yuzaga keladi. A. holatida ichki organlar faoliyati o'zgaradi, keskin ifodali holatlar paydo bo'ladi, kishining ong doirasi torayadi, xulqni nazorat qilish qobiliyati yo'qoladi. A. fiziologik ham, patologik ham bo'lishi mumkin.

Fiziologik A.da kishi o'z xatti-harakatini idora eta olishi, keyinchalik barcha voqealarni xotirasida saqlab qolishi mumkin. Patologik A. ko'proq ruhiy kasalliklarda kuzatiladi. Ba'zan ruhiy sog'lom odamlarda ham kuzatilishi mumkin. Patologik A.da barcha xatti-harakatlar kishi xotirasida saqlanmaydi, shaxsning xatti-harakatlari ong tomonidan nazorat qilinmaydi. Odamda A. fakat uning jismoniy holati, biologik ehtiyojlari va instinktlari kabilarga bog'liq omillar tufayli emas, balki uning ijtimoiy munosabatlarining buzilishi tufayli ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, adolatsizlik, bevafoqlik, haqorat sh.k. holatlarda.

Ba'zan A. biror salbiy holatni yuzaga keltiruvchi vaziyatlarning takrorlanaverishi natijasida ham sodir bo'ladi. Bundam vaziyatlarda A. akkumulyatsiyasi holati ro'y beradi, uning natijasida A. kuchli, boshqarib bo'lmaydigan xulq darajasiga ko'garilishi mumkin (affektiv portlash). A. ni o'rganish sudpsixiatrik hamda

sudpsixologik ekspertiza amaliyotida jinoiy xatti- harakatlarning asl sababini aniqlashda zaruriy shartlardan biri bo'lib, adolatli hukm chiqarishda katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, agressiya ulkan tortishish kuchi va yuqumlilik xususiyatiga ega – ko'pchilik o'zining agressiv ekanini inkor etadi, ammo o'zining kundalik hayotida esa, uni keng namoyish qiladi. Aynan agressiv xulq-atvor shaxslararo nizolarning vujudga kelishiga va ularni hal etishning asossiz yo'llari paydo bo'lishiga olib keladi.

Shaxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda shaxslararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xususiyatlaridan biri agressivlikdir. Agressiya – bu odamlar, odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui hisoblanadi. Bugun insoniyat tarixi ishonchli tarzda shuni isbotlamoqdaki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Frustratsiya (lot. frustratio — aldanish, rejalarning barbod bo'lishi) — muammoni hal qilish yoki maqsadga erishish yo'lidagi faoliyatni izdan chiqaruvchi ruhiy holat. U kishining maqsadga erishishi yo'lida uchraydigan, ob'yektiv ravishda yengib bo'lmaydigan yoki sub'yektiv ravishda shunday tuyuladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo'ladi. Frustratsiyani keltirib chiqaruvchi sabablar frustrator deyiladi. Frustratsiya asosan, salbiy hissiyotlar uyg'otadi. Frustratsiyaning turlari: tajovuzkor holat, apatiya, depressiv holat, g'amginlik tuyg'usi, o'ziga ishonmaslik, kuchsizlik, ma'yuslik va boshqa. Frustratsiyaning tajovuzkor holati ko'pincha o'zini tuta olmaydigan, qo'pol odamga xos bo'lsa, depressiya holati o'ziga ishonmaydigan shaxsga taalluqlidir. Ba'zan og'ir tabiatli kishilarda ham shu xildagi holatni vujudga keltirish mumkin, lekin bu vaziyat uzoqqa cho'zilmaydi.

Depressiya ruhiy kasallik bo'lib, u odamda hayotga bo'lgan umidsizlik, odamlarga bo'lgan ishonchsizlik, tushkunlik, yolg'izlik, stress, to'xtovsiz xavotirlanish va shu kabi yomon [negative] hissiyotlarni uyg'otishi mumkin. O'ta jiddiy holatlarda, ba'zilar

sigaret chekish, spirtli ichimliklar ichish, me'yoridan ortiqcha uxlash kabi yomon illatlar bilan o'zlarini chalg'itishga urinishadi. O'spirin yoshidagi bolalarning juda ko'p musiqa tinglashi depressiyadan qiynalishlariga sabab bo'lishi mumkin. Depressiya vaqtida inson ortiqcha miqdorda taom iste'mol qilishi ham mumkin.

Shok (frans. sos — zarba) — odam hayotiga xavf tug'diruvchi holat, haddan tashqari kuchli ta'sirotlar natijasida nerv, endokrin, qon aylanishi, nafas sistemalari faoliyatining hamda moddalar almashinuvining buzilishi bilan ifodalanadi. Ko'pincha shikastlanish, kuyish, operatsiya oqibatida, qon quyilganda, miokard infarktida, yurak faoliyati buzilganda va boshqalar tufayli ro'y beradi. Shok boshlanishida bemor bezovtalanadi, rangi oqaradi, qarashlari bejo, fikrlari chalkash, ba'zan o'zining og'ir ahvolini his etmaydi, gohida bezovtalanish kuchayib, o'rnidan sapchib turib ketadi (uni tutib qolish qiyin bo'ladi).

Fobiyalar — bemor miyasiga o'rnashib qolgan qo'rquv, vahima, kishi ruhiyatining buzilish holati. Ko'pchilik ruhiy kasalliklar (masalan, shizofreniya) da boshlang'ich belgi, nevrozlar hamda psixastenianmmt asosiy belgisi hisoblanadi. Qo'rquv va vahima hissi bemor sezgi hamda xatti-harakatlarida ko'rinadi. Fobiyalar mazmuni jihatidan turlicha bo'ladi. **Agarofobiya**da kishi yakka o'zi ko'cha va maydonlarni kesib o'tishdan cho'chiydi. **Ayxmofobiya** — pichoq, qaychi, to'g'nog'ich va boshqa o'tkir asboblardan (xuddi tanasiga qadaladiganidek) qo'rqish.

4. Tergov eksperimenti va sud - psixologik ekspertizani tayinlash zarurati

Sud-psixologik ekspertizasi O'zbekiston JPKning tegishli 171-moddasiga binoan tergovchi tomonidan chiqarilgan qarorga ko'ra tayinlanadi. Sudda esa ko'rilayotgan ishda psixologik mazmundagi vaziyatlarning mavjudligi haqida va ularning tergov jarayonida o'z yechimini topmaganligiga shubha tug'ilgan holatlarda sudya tomonidan chiqarilgan qarorga binoan sud-psixologik ekspertizasi tayinlanadi. Bu xildagi protsessual

hujjatlarda ekspertizadan o'tkazilishi lozim bo'lgan shaxs, uning sodir etgan jinoiy xatti-harakati haqidagi qisqacha bayonnoma hamda ushbu sodir etilgan jinoiy xatti-harakatda psixologik mazmundagi holatlarning mavjudligiga asoslanib, sud-psixologik ekspertizasini tayinlash zarurligi to'g'risidagi fikr aks etgan bo'lishi lozim. Shuningdek, ushbu hujjatda ekspert aniqlanib, uning oldiga hal qilinishi lozim bo'lgan savollar qo'yilishi kerak.

Jinoyat protsessual qonun talablariga ko'ra tergovchi tayinlangan barcha ekspertizalarda, jumladan, sud-psixologik ekspertizasi o'tkazish jarayonida ham qatnashish xuquqiga ega. Biroq qonunni inkor qilmagan xolda, bizning nazarimizda, tergovchining sud-psixologik ekspertizasida qatnashishini har doim ham maqsadga muvofiq deb bo'lmaydi. Chunki, ayrim xollarda psixologik eksperiment o'tkazish jarayonida tergovchining qatnashishi sinaluvchi uchun teskari ta'sir qilishi, ya'ni uning ko'nglidagi fikr-mulohazalarini ochiq-oydin ayta olmasligiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ayblanuvchi o'z jinoyatini tergov jarayonida tan olmagan bo'lsa, psixologik ekspertiza jarayonida jinoyatni sodir etganligini bo'yniga olishi mumkin. Bunday vaziyatda ekspert ayblanuvchining jinoyatni sodir etganligini tan olganligini ta'kidlab, jinoyatning sodir etilish holatlarini ekspertiza xulosasida ko'rsatishi maqsadga muvofiq. Bizning nazarimizda, psixologik ekspertizaning bunday vaziyatlarni yoritib berishi ko'rilayotgan ishning muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, unutmazlik kerakki, psixolog ekspert ushbu xulosalarni faqat o'rganilayotgan ayblanuvchiga nisbatangina berishi zarur. Agarda ekspertiza uchun qo'shimcha ma'lumotlar olinishi lozim bo'lsa, ekspert-psixolog boshqa mutaxassislarni ham ekspertizaga taklif qilish xuquqiga egadir.

Sud faoliyatida sud-psixologik ekspertizasini tayinlash va uni o'tkazish dastlabki tergov jarayoniga nisbatan bir muncha farqli xususiyatlarga egadir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, jinoyat protsessual kodeksida ekspertlarni sudga chaqirish tartibi bo'yicha muayyan aniq

ko'rsatmalar mavjud emas. Ayrim sudyalar ekspertlar ishlayotgan tashkilot yoki muassasa rahbariga chaqiruv qog'ozini jo'natish bilan cheklanadilar. Bizning nazarimizda, ekspertlarni sud ishiga jalb qilish bo'yicha xuquqiy ko'rsatmalar ishlab chiqilishi va ekspertlarning xizmat haqi sifatidagi moddiy manfaatdorligi belgilanishi har tomonlama maqsadga muvofiqdir.

Kuzatuvlarimizga qaraganda, ekspertlarning xizmat haqi belgilanmaganligi, moddiy manfaatdorligi ko'rsatilmaganligi uchun ularni ekspertiza o'tkazishga jalb qilish ko'pincha biroz qiyinchilik bilan amalga oshirilmoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, sudda sud-psixologik ekspertizasini o'tkazish dastlabki tergov jarayonida o'tkaziladigan psixologik ekspertizaga qaraganda bir qator o'ziga xosliklarga egadir. Xususan sudda ekspert-psixolog jinoyat ishiga taalluqli bo'lgan holatlar bo'yicha, ayblanuvchining jinoyatni sodir etganligini isbotlash jarayonida, uni so'roq qilishda va hokazolarda bevosita ishtirokchi sifatida qatnashadi.

U psixologik tadqiqot jarayoniga zarur boshqa kishilarni taklif etishi va ish yuzasidan yangi daliliy ko'rsatmalarni talab qilishi ham mumkin.

Sud jarayonidagi psixologik ekspertizaning o'ziga xos qiyinchilik tug'diradigan tomonlaridan biri sudda vaqtning chegaralanganligidir. Psixologik ekspertiza o'tkazish, ma'lumki, metodika tanlash, uni o'tkazish, qayta ishlash va xulosalar qilishdek bir qator jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu esa o'z navbatida ma'lum vaqtni talab qiladi. Shuning uchun ekspert-psixolog suddan biroz tanaffus (bir necha soat) so'rashi mumkin. Sud-psixologik ekspertizasini tayinlashdagi muhim jihatlardan biri ekspert tanlashdir. Shuning uchun biz quyida psixolog ekspertlar tanlash masalasi bo'yicha batafsil fikr yuritib o'tmoqchimiz.

Ekspert komissiyasi tarkibi kamida uchta mutaxassisdan iborat bo'lishi lozim. Chunki, mutaxassislar hamkor va hamfikir bo'lib birgalikda ishlashadi, buning natijasida ekspertizadagi xatoliklarning oldi olinadi.

Psixologik ekspertiza o'tkazishga 5 yildan kam bo'lmagan mehnat stajiga ega bo'lgan psixologlar, shuningdek, oliy o'quv yurtlarining Psixologiya kafedrasida ishlayotgan xodimlar yoki ilmiy tadqiqot institutlarining psixolog ilmiy xodimlari jalb qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Ekspert komissiyasi tarkibida yuridik psixologiya bo'yicha mutaxassis xodim hamda xuquqshunos bo'lishi shart. Chunki, oliy o'quv yurtlari Psixologiya fakultetlarini tugatgan psixologlar ko'pincha ekspertizaning xuquqiy asoslariga, protsessual mohiyatiga taalluqli bo'lgan xuquqiy tushunchalarni yetarlicha bilmasliklari mumkin.

Katta yoshdagi shaxsni sud-psixologik ekspertizasidan o'tkazishga umumiy va yuridik psixologiya mutaxassislarini jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Voyaga yetmagan yoshlarni sud-psixolog mutaxassisi bilan birgalikda bolalar psixologiyasi mutaxassisi, keksa yoshdagi kishilarni esa gerontopsixologiya yo'nalishidagi mutaxassislar ishtirokida sud-psixologiya ekspertizasidan o'tkazish lozim.

Psixologik-psixiatrik kompleks ekspertizasini o'tkazishda komissiya tarkibiga umumiy psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, sud patopsixologiyasi mutaxassislari va 1-2 ta psixiatr kirgani ma'qul.

Tibbiy-psixologik ekspertiza komissiyasi tarkibiga esa yuqoridagi mutaxassislardan tashqari sinaluvchining kasalligi bo'yicha (agar u mavjud bo'lsa) nevropatolog, logoped, seksopatolog, okulist va boshqa mutaxassislarning qatnashishi ayni muddaodir.

Psixologik-texnik ekspertizalar injenerlik, mehnat psixologiyasi mutaxassislari va albatta texnik mutaxassis ishtirokida o'tkazilishi shart.

Sud-psixologik ekspertizasi bir qator bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. Ekspertlarning jinoyatni isbotlash maqsadida o'tkazilgan jarayonidagi ishtiroki;

2. Tadqiqotni o'tkazish;
3. Xulosa uchun ahamiyatli bo'lgan vaziyatlarni oydinlashtirish;
4. Tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish va xulosani bayon etish;
5. Ekspertlarni so'roq qilish.

Ekspert psixolog vazifasi nuqtai nazaridan ekspertizani ishga doir materialni o'rganishdan boshlanadi. Shuningdek, taqdim qilingan ish bo'yicha maxsus adabiyotlar bilan tanishish va metodika tanlash jarayoni ham amalga oshiriladi. So'ngra dastlabki asosiy eksperiment o'tkaziladi. Eksperiment natijalarini qayta ishlash va uni asoslash, xulosa qilish hamda uni sud yoki tergovga taqdim qilish ham psixolog-ekspertning vazifasiga kiradi.

Psixologik ekspertiza xulosasining asosiligi, uni tashkil etish, o'tkazish, to'g'ri metodika tanlash mutaxassislarning malakasiga, nazariy va amaliy bilimiga bog'liqdir.

Kuzatishlarimizga qaraganda, kompleks ekspertiza o'tkazishda psixolog mutaxassis ikkinchi darajali ekspertga aylanib qoladi. Buning sababi, birinchidan, psixiatr shifokorlarning psixolog vazifasiga ham bilib-bilmay aralashuvi bo'lsa, ikkinchidan, ekspertizaning sud-psixiatriya bo'limlarida o'tkazilishi tabiiy ravishda psixolog ishtiroki samarasining tushishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan ta'kidlash lozimki, ekspertiza tayinlanayotganda psixologning vazifasi va uning oldiga qo'yilayotgan savol alohida ko'rsatilishi lozim. Shuningdek, yuqoridagi holatning kelib chiqmasligi uchun kompleks ekspertiza komissiyasi tarkibiga sud- psixiatriya bo'limi xodimlarini emas, balki, muayyan shifoxonalarning psixiatrlarini taklif qilib ekspertizani o'tkazish ham maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday ekspertiza komissiyasida ekspertiza rahbari bo'lmaydi, natijada barcha a'zolar teng xuquqiylik asosida faoliyat yuritadilar. Bu esa ekspertiza yuzasidan odilona, ilmiy asosli xulosa qilinishiga olib keladi.

Ekspertiza xulosasida psixolog-ekspert oldiga qo'yilgan

savollar ko'rsatilib, ularga aniq javoblar berilishi kerak. Shuningdek, xulosada qanday metodikalar qo'llanilganini, u kim tomonidan ishlab chiqilganligini hamda olingan natijalar qanday xulosa qilinganligi haqidagi fikr ochiq-oydin bayon etilishi lozim.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, jinoiy javobgarlik ishlarida sud-psixologik ekspertizasini qo'llash bugungi kunning talabi bo'lib, u faqat ko'rilyotgan ishning odilona baholanishiga, fuqarolar haq-xuquqlarining himoyalanihiga olib keladi.

5. Eksperiment usuli bilan dalillarni tekshirishda ayblanuvchining bilim, malaka va ko'nikma qobiliyatini aniqlash

Xuquqshunoslik amaliyotining ko'rsatishicha, jinoiy xatti-harakatni qonuniy jihatdan asoslash, ayblov e'lon qilish qo'shimcha ma'lumotlar olishni talab qilib, ko'plab ilm-fan sohalarining hamkorlikda faoliyat yuritishini taqozo etadi. Surishtiruv, tergov va sudlov jarayonlarida turli xil mutaxassislarning ishtirok etishi ko'rilyotgan ishning o'z vaqtida yakunlanishiga, uning ob'yektiv va qonuniy tarzda baholanishiga imkoniyat yaratadi. Xuquqshunoslik amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadigan ana shu shunday ilm sohalaridan biri psixologik ekspertizadir.

Psixologik ekspertiza jinoyatning sodir etilish paytida ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchilarning psixologik holati, shaxs xususiyatlari, xulqidagi o'zgarishlar, aqliy rivojlanish darajasi, psixik rivojlanishning yoshiga nisbatan mos yoki adekvat emasligini, g'ayriqonuniy xatti-harakatlar oqibatlarini anglay olish layoqatini, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining izdan chiqish va uning sabablarini aniqlash maqsadida hamda shu kabi bir qator holatlarda tayinlanadi va kerakli ma'lumotlar olinadi.

Sud-psixologik ekspertizaning predmeti ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvohlar va jabrlanuvchilarning ko'rgazmalari haqqoniyligini tasdiqlash emas, balki so'roq qilinayotgan shaxsning isbotlanishi zarur faktlarni idrok qilish, xotirasida saqlash

hamda bayon etish qobiliyati boshdan kechirayotgan psixologik jarayonlarga aynan muvofiqligini aniqlashdan iboratdir.

Sud-psixologik ekspertizasini tayinlashga taalluqli bo'lgan holatlarni yanada yaqqolroq bayon etadigan bo'lsak, ayblanuvchilarga nisbatan quyidagi holatlarda psixologik ekspertiza tavsiya etilishi nazarda tutiladi:

- shaxsning yosh davriga ko'ra psixik rivojlanishdan ortda qolishini, ya'ni psixik va aqliy rivojlanish darajasi yoshiga nisbatan mos yoki mos emasligini aniqlash zaruriyati tug'ilgan xollarda;

- kasallikni boshdan kechirgan yoki ayni paytda ruhiy xastalikka chalingan holatlarida;

- boshidan kechirgan yoki ayni chog'da somatik kasalliklarga, ayniqsa, infeksiya, surunkali va davolash qiyin bo'lgan kasalliklarga duchor bo'lgan holatlarida;

- jinoyatning sodir etilishiga sabab bo'luvchi, jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq meyorlariga zid xulq namoyon bo'lgan yoki kuchli ruhiy hayajonlanish holatining yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi ayrim omillar ko'zga tashlanish holatlarida;

- o'z xatti-harakatining ahamiyati va axloqiy mohiyatini tushunib yetmaslik holatining mavjudligi haqida shubha paydo bo'lgan paytda;

- ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchining berayotgan ko'rsatmasi uning xarakter xususiyatiga to'g'ri kelmayotganligiga shubha paydo bo'lgan holatlarda;

- yozilgan matn muallifini aniqlash zaruriyati tug'ilgan paytda;

- ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohning shaxs va individual-psixologik, yosh va aqliy rivojlanish darajasiga ko'ra sodir etilgan jinoiy harakatning mohiyatini, oqibatini tushunish va aniq baholay olish hamda to'g'ri ko'rsatma bera olish layoqatiga ega ekanligini oydinlashtirishda;

- jabrlanuvchining jinsiy munosabatlarga bog'liq jinoyat mazmun va mohiyatini to'g'ri idrok qila olish qobiliyatini aniqlashda;

· voyaga yetmagan yoshdagi ayblanuvchining ruhiy xastalikka bogʻliq boʻlmagan xoldagi aqliy qoloqlik (psixik rivojlanishdan ortda qolish) xususiyatiga koʻra oʻz xatti-harakatlariga javob bera olish qobiliyatini aniqlash zaruriyatida;

· kasbiy faoliyatni bajarishga toʻsqinlik qiluvchi turli xil psixik hodisalarning yuzaga kelish ehtimolini aniqlashda (masalan, aviatsiya, avtomatika va temir yoʻl transportida, avtomatik boshqaruvni ishlab chiqarish operatori faoliyatida ishning meyoriy davom etishiga toʻsqinlik qiluvchi psixik holatlar yoki hodisalarni oʻrganishda);

· jinoyat sodir etilish paytida ayblanuvchi ongiga taʼsir etuvchi fiziologik affekt yoki boshqa hissiy holatlarning mavjudligini aniqlash maqsadida;

· kishining oʻz joniga qasd qilish (suitsid) paytidagi psixik holatini tadqiq etish maqsadida.

Shuningdek, sud-psixologik ekspertiza jinoyatning sodir etilish vaqtida shaxsning psixologik xususiyatlarini, jinoiy xatti-harakatning psixologik mazmunini, sodir etilgan jinoiy harakatga nisbatan ayblanuvchi yoki jabrlanuvchining xatti-harakat, maqsad va motivini aniqlashda ham qoʻllanilishi mumkin.

Biroq, sud-psixologik ekspertizasi jinoyatning yoki mazkur harakatning yuridik, tibbiy, pedagogik, falsafiy, estetik tomonlarini yoritish va baholash vakolatiga ega emasdir.

Quyida sud-psixologik ekspertizasi asosiy yoʻnalishlaridan ayrimlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Sodir etilgan jinoiy xatti-harakat mohiyatini toʻgʻri baholay olish va ushbu jinoyat yuzasidan toʻgʻri koʻrsatma bera olish layoqatini aniqlash.

Ekspertiza jarayonida ushbu holatlarni aniqlash uchun ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchining jinoyatga daxldor boʻlgan maʼlumotlar, voqea-hodisalarni esda olib qolish, esga tushirish hamda voqeani toʻgʻri idrok etishning subʼyektiv jihatlarini tadqiq etish ishlari amalga oshiriladi. Koʻpchilik xollarda sud yoki tergov jarayonida ayblanuvchi, jabrlanuvchi yoki

guvohning bu xususiyatlarini aniqlash va oydinlashtirish zaruriyati kelib chiqmasligi mumkin. Ammo aksincha bo'lgan paytlarda jinoiy ish jarayoniga psixolog mutaxassisning ishtiroki zarur bo'lib qoladi.

Tergovchi yoki sudyaning jinoiy xatti-harakat haqidagi qarashlari ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarning jinoiy harakat yuzasidan bergan ko'rsatmalariga asoslanadi. Ba'zan shunday holatlar bo'ladiki, jinoiy harakatning to'laqonli baholanishi uchun mavjud dalillar yetarli bo'lmaydi. Sud-psixologik ekspertiza jinoiy harakatga daxldor bo'lgan voqea-hodisalarni ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlar qanday bayon etayapti, voqealar ularning xotirasida saqlanib qolgan bo'lsa, qanday eslayapti yoki eslay olmayapti kabi psixik holatlar yuzasidan kelib chiqadigan savollarga psixologik usullar orqali javob topadi.

Sud-psixologik ekspertizasi ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlar tomonidan berilayotgan ko'rsatmalar shakllanishi har bir bosqichining mohiyatini, uning yakuniy natijaga qay darajada ta'sir etishini aniqlashi mumkin. Alohida xollarda ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohning u yoki bu xollarni to'g'ri idrok qilishi ko'rsatma bera olishi yoki bera olmasligi layoqatini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Misol tariqasida talaba M.ning ishi bo'yicha o'tkazilgan psixologik ekspertiza mazmuni bilan tanishib chiqamiz. Talabalar yotoqxonasi koridorida A. va M. o'rtasida janjal kelib chiqadi. Janjal va mushtlashishni birinchi bo'lib A. boshlaydi. O'sha yerda hozir bo'lganlar ularni ajratadilar. Shu orada M. xonasiga kirib, oshxona pichog'ini olib chiqadi va o'sha joyda A. tanasining yuqori qismiga besh marotaba pichoq uradi. Keyinchalik ayblanuvchi tergovchiga bir marta pichoq o'rganidan keyin hech narsani eslay olmasligini aytadi. Biroq, jinoyat sodir etilgan paytda voqea joyiga yetib kelgan militsiya inspektoriga voqeani boshdan - oxirigacha aniq va mantiqan asosli xolda bayon etib beradi.

Ekspert komissiyasi nizoli vaziyatning kelib chiqish sabab, motivlari hamda ayblanuvchining shaxs xususiyatlarini o'rganish

natijasida uning xotirasida voqea haqidagi taassurotlar sodda bog‘lanishlar asosida saqlanib qolganligini va M. esga tushirishning sust tempi asosida voqea-hodisalarni eslay olishi haqidagi xulosaga keladi.

Ekspert komissiyasi yetkazilgan tan jarohati tufayli travmatik amneziya (xotira kasalligining o‘ziga xos ko‘rinishi)ning yuzaga kelganligini inkor qiladi. Ya’ni ayblanuvchi xotirasida hech qanday o‘zgarish sezilmaydi va u bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalarni to‘laligicha eslash, esga tushirish qobiliyatiga egadir, degan xulosa berildi.

Odatda eslab qolinayotgan axborotning to‘liqligi, voqelikni tushunish, voqeaning sodir etilgan vaqtini, joyini idrok qilish hissiy reaksiya va shaxsning sog‘lig‘iga ham bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, shaxsning madaniyati, dunyoqarashi, ijtimoiy ahvoli, rivojlanganlik darajasini esda olib qolishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar va kichik yoshdagi guvohlar va jabrlanuvchilarning ish yuzasidan beradigan ko‘rsatmalari alohida ahamiyatga egadir. Ular xayolot, fantaziyaga moyilliklari, bo‘rttirish, ko‘rganlarini so‘z orqali to‘g‘ri va aniq ifodalay olmasliklari tufayli ko‘rsatma berishda ko‘pincha real voqelikdan yiroqlashadilar. Aynan shu holatda ularning berayotgan ko‘rsatmalari qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini, haqiqatga yaqinligini aniqlash uchun psixolog mutaxassisning xulosasi zarurdir.

Nazorat savollari:

1. Sud - tibbiy ekspertizasi qanday o‘tkaziladi?
2. Sud - psixiatriya ekspertizasi qanday o‘tkaziladi?
3. Sud - psixologiya ekspertizasi qanday o‘tkaziladi?
4. Kompleks ekspertizalar qanday o‘tkaziladi?

Testlar:

1. **Sud-psixologik ekspertizasi nimani o‘rganadi?**
A) shaxsning psixologik xususiyatlarini.
B) jinoyatni oldini olish va ochishni.

C) xuquq tizimini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan psixologik masalalarni o'rganadi.

D) sud-psixologik ekspertizasi maxsus psixologik tadqiqotlar yo'li bilan respondentlarning barcha psixologik xususiyatlarini aniqlash jarayonini o'rganadi.

2. Sud-psixologik ekspertiza qachondan boshlab fan sifatida rivojlana boshladi?

A) XIX asrning 30 yillari.

B) XIX asrning 50 yillari.

C) XIX asrning 30-50 yillari.

D) XIX asrning oxiri, XX asr boshi.

3. Sud-psixologik ekspertizasining asosiy uslublari qaysilar?

A) shaxsga psixologik ta'sir o'tkazish.

B) ilmiy - tekshirish.

C) jinoiy ishga psixologik analiz.

D) diagnostik test, eksperiment, kuzatish, suhbat, anketa.

4. Sud-psixologik ekspertizasining uslubiy asosini nimalar tashkil qiladi?

A) psixologik qonuniyatlar.

B) psixologik omillar.

B) ehtiyojlar, shaxs faoliyati.

D) barchasi.

5. Xuquqni qo'llash faoliyatidagi sub'yektlar shaxsini o'rganishning psixologik uslublari qanday?

A) ilmiy tekshirish uslubi.

B) shaxsga psixologik ta'sir ko'rsatish uslubi.

C) sud-psixologik ekspertiza uslubi.

D) psixoanaliz uslubi.

6. Sud-psixologik ekspertizasi kimlar tomonidan tayinlanadi?

A) yuridik shaxslar.

B) psixologlar.

C) advokatlar.

D) prokuror, sudya, tergovchilar.

7. Sud-psixologik ekspertizasining asosiy vazifasi nima?

A) guvohning o'ziga xos psixik faoliyati bo'yicha psixologik bilimlar asosida dalillarni olish.

B) ayblanuvchining o'ziga xos psixik faoliyati bo'yicha psixologik bilimlar asosida dalillarni olish.

C) jabrlanuvchining o'ziga xos psixik faoliyati bo'yicha psixologik bilimlar asosida dalillarni olish.

D) barcha javoblar to'g'ri.

8. Ekspert psixologik tekshiruvlarning ob'yekti qaysi?

A) shaxs

B) psixologik usullar

C) tekshiriluvchi shaxs

D) hammasi

9. Sud-psixologik ekspertizasida ekspert vakolatiga nimalar kiradi?

A) psixik kasallik bilan bog'liq bo'lmagan shaxs.

B) guvoh va jabrlanuvchining ishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni to'g'ri tahlil qilish.

C) affekt holatining bor yoki yo'qligini aniklash diagnostikasi.

D) sub'yektning xulq-atvoriga katta ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan individual-psixologik xususiyatlar.

10. Sud-psixologik ekspertizani o'tkazish tartibi O'zbekiston jinoyat protsessual Kodeksining qaysi moddasiga binoan belgilanadi?

A) O'zbekiston jinoyat protsessual kodeksining 171-moddasiga binoan.

B) O'zbekiston jinoyat protsessual kodeksining 173-moddasiga binoan.

C) O'zbekiston jinoyat protsessual kodeksining 172-moddasiga asosan.

D) Hammasiga binoan.

11. Sud-psixologik ekspertizasi qaysi moddaga binoan o'tkaziladi?

A) O'zbekiston jinoyat prsessual kodeksining 171 moddasiga binoan.

B) O'zbekiston jinoyat prsessual kodeksining 172 moddasiga binoan.

C) O'zbekiston jinoyat prsessual kodeksining 173-moddasiga binoan.

D) hammasida.

12. Sud-psixologik ekspertizani tayinlashda nimalar e'tiborga olinishi shart?

A) ekspert tomonidan qanday savollarni hal qilish kerakligiga.

B) tekshirish uchun qanday ob'yektlar yuborilganligiga.

V) kimga ekspertiza o'tkazish yuklanganligiga.

G) psixolog-ekspertning xuquqiy asosi va vazifalari tushintirilishi.

D) sud-psixologik ekspertizaning xuquqiy ahamiyatini e'tiborga olishga.

13. Sud-psixologik ekspertizani tayinlash sabablari qanday?

C) jinoyat sodir etilganda

D) fuqorolik ishlarida

E) jinoyatni ochishda

F) O'zgarmas holatlarda jinoyat sodir etilganda.

14. Sud-psixologik ekspertizada jinoyatga psixologik analiz qanday beriladi?

A) jinoiy harakatlarni namoyon qilganda.

B) noo'rin xatti-harakatlarda.

C) xuquq buzarlilikda.

D) qasdan va ehtiyotsizlik tufayli sodir qilingan jinoyatlarda.

Affekt holatida sodir qilingan jinoyatlarda.

14. Ekspertiza nima?

A) tekshirish.

B) analiz qilish.

C) usullarni qo'llash.

D) protsessual harakat bo'lib, qonun bilan cheklanadi.

15. Ekspert-psixolog ekspertiza o'tkazishdan bo'yin tovlasa -

A) javobgarlikka tortiladi.

B) jinoiy javobgarlikka tortiladi.

C) ekspertizadan chetlashtiriladi.

D) O'zbekiston jinoyat prsessual kodeksining 240-moddasiga binoan javobgarlikka tortiladi.

16. Ekspert-psixolog yolg'on xulosa bersa -

A) ekspertizadan chetlashtiriladi.

B) ekspertiza to'xtatilib, boshqa ekspertga yuklatiladi.

C) O'zbekiston jinoyat prsessual kodeksining 273-moddasiga binoan javobgarlikka tortiladi.

D) hammasi.

17. Ekspertizada umumiy ko'rsatmaviy jarayon nimalarga asoslanadi?

A) shaxslararo munosabatga

B) shaxs statusiga.

C) munosabat maromiga

D) xamkorlikka.

19. Sud-psixologik ekspertiza tayinlashning birinchi sharti nimalardan iborat?

A) tibbiy ekspertning xulosasini to'g'ri hal qilish.

B) psixiatr xulosasini to'g'ri hal qilish.

C) psixolog xulosasini to'g'ri hal qilish.

D) hammasi.

20. Sud-psixologik ekspertiza tayinlashning ikkinchi sharti nimalardan iborat?

A) Ekspert psixologning maxsus bilimlarini ekspertizaga shaklan qo'llash zaruriyati.

B) yuridik shaxsning bilimlaridan foydalanish.

C) O'zbekiston jinoyat prsessual kodeksidan foydalanish.

D) hammasi.

21. Ekspert savollarini aniq ifoda etishning umumiy talablari nimadan iborat?

- A) ekspertlanuvchi shaxsning individual-psixologik xususiyatlari aniqlash.
- B) ortiqcha his-hayajonga berilish holatini aniqlash.
- C) psixologik rivojlanishi jihatdan orqada qolish alomatlarini aniqlash.
- D) ayblanuvchi, guvoh jabrlanuvchining qobiliyatini aniqlash.

Mustaqil ishlash ichun tavsiya etilayotgan mavzular

- 1. Ekspertiza predmeti, vakolati va ekspertiza oldiga qo'yiladigan masalalar
- 2. Ekspertiza o'tkazishning zaruriyligi va ekspertizani belgilash tartibi.
- 3. Ekspertiza savollarini tuzishga qo'yiladigan talablar
- 4. Affekt holatining sud psixologik ekspertizasi
- 5. Tergov eksperimenti va sud - psixologik ekspertizani tayinlash zarurati
- 6. Eksperiment usuli bilan dalillarni tekshirishda ayblanuvchining bilim, malaka va ko'nikma qobiliyatini aniqlash

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1. Norboyev A.N., Usmonova A.A. Yuridik psixologiya. O'quv qo'llanma. T.2006.
- 2. Рухиева Х.А., Суд-психологик экспертиза. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2009. 384 бет

15 – MAVZU. MAHKUM PSIXOLOGIYASI VA RESOTSIALLASHTIRISH VAZIFALARI. MAHKUMNI VA JAZONI O‘TAGAN SHAXSLARNI QAYTA TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK VOSITALARI VA SHARTLARI

Reja:

1. Sudlangan mahkum shaxsini o‘rganish.
2. Qayta tarbiyalash va axloq tuzatish faoliyati masalalari.
3. Mahkumni qaytatar biyalash maqsadida uning shaxsiga ta’sir qiladigan psixologik choralar tizimi.
4. Mahkumning shaxsiy yo‘nalishini o‘zgartiruvchi choralar.

Tayanch tushunchalar:

Mahkumni axloqan tuzatish – qonunga itoatkor xulq-atvorni, insonga, jamiyatga, mehnatga, turmush tarzidir qoidalari va an`analariga hurmat munosabatini shakllantirish

JIYEM –jazoni ijro etish muasasalari

1. Sudlangan mahkum shaxsini o‘rganish.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining yangidan qabul qilinishi mahkumlarni axloqan tuzatish borasidagi bir qancha to‘g‘ri yo‘nalishlarni belgilab berdi. Ushbu kodeksning 7 moddasida mahkumlarni axloqan tuzatish va uning asosiy vositalari batafsil ko‘rsatib o‘tilgan. Mahkumni axloqan tuzatish – unda qonunga itoatkor xulq-atvorni, insonga, jamiyatga, mehnatga, turmush tarzidir qoidalari va an`analariga hurmat munosabatini shakllantirishdan iborat. Ta’kidlab o‘tish joizki, JPKning ijobiy tomonlaridan biri kodeksda «axloqan tuzatish» tushunchasiga normativ ta’rif berilibgina qolmay, uni siyosiylikdan xoli qildi va amalga oshirishni yanada oydinlashtirib takomillashtirdi. Yaqin o‘tmishda ozodlikdan mahrum etish joylaridagi tarbiyaviy ishlar mafkuraviy prinsiplar asosida olib borilar edi. Endilikda axloq tuzatish muassasalaridagi tarbiyaviy ishlar va muassasa faoliyatini

mafkuradan, siyosatdan xoli qilishga kirishildi. Hozirgi kunda ozodlikdan mahrum etish muassasalarida shaxslarga, avvalambor, inson, mulk, jamiyat, davlat va qonunlarga hurmat ruhini singdirish birinchi o‘ringa qo‘yilmoqda. Masalan, mehnat tarbiyasi mahkumlarda mehnatga nisbatan vijdonan, ongli munosabatda bo‘lishni, xuquqiy tarbiya esa mahkumlarning qonunlarga ongli ravishda rioya qilishini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ularning tarbiyasida estetik va iqtisodiy tarbiya kabilardan ham foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Odatda, tarbiyaviy ish mahkumlarni axloqan tuzatishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, mahkumlarda qonun talablariga va jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga rioya etishga, shuningdek, bilim va madaniy saviyasini oshirishga intilishni shakllantirishga zamin yaratadi. JIYEMlarda ma‘naviy, xuquqiy, jismoniy va boshqa tarbiyaviyishlarning olib borilishi, mahkumlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni kun tartibida belgilangan vaqtdayakkatartibda, guruh bilan va ommaviy shaklda olib borilishini ta‘minlaydi. Mahkumlarni tarbiyaviy ishlarga oid tadbirlardagi faol ishtiroki JIYEM ma‘muriyati tomonidan rag‘batlantirilib borilishi va ularning axloqan tuzalish darajasini aniqlashda e‘tiborga olinishi shart bo‘lib, xizmat qiladi. Shuningdek, tarbiyaviy ish differentsiatsiya asosida, JIYEM turini, jazo muddatini va saqlash sharoitini, shuningdek, mahkum shaxsining xususiyatlarini hisobga olgan xolda tashkil etiladi. Mahkumlar bilan tarbiyaviy ish olib borishda matbuot, radio, televideniye, kinofilmlardan, kutubxona va boshqa vositalardan keng foydalanish, muhim ahamiyatga ega. Shu bois, mahkumlarning foydali tashabbusini kuchaytirish, ularning mehnati, maishiy hayoti va bo‘sh vaqtini tashkil etish masalalarini hal etishda qatnashish, intizomni va ichki tartibni saqlab turishda JIYEM ma‘muriyatiga ko‘maklashish maqsadida mahkumlarning turli tashkilotlari tuzilishi mumkin. Ushbu tashkilotlar JIYEM ma‘muriyati rahbarligi tasarrufida faoliyat olib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki mahkumlarning bunday tashkilotlarga a‘zo bo‘lishi ularni mehnatga jalb etishdan

ozod etmaydi. Odatda, JIYEMlarda JIYEM boshlig‘ining qarori bilan mahkumlarning jamoa kengashlari tuzilishi mumkin bo‘lib, ushbu kengashlar qoshida huquqbuzarliklar profilaktikasi va ichki tartib, ishlab chiqarish, ommaviy madaniy, umumiy ta‘lim va kasb-hunar ta‘limi, maishiy sanitariya, jismoniy va boshqa tarbiyaviy seksiyalar faoliyat ko‘rsatadi, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar mahkumlarni tarbiya lashda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan xollarda va tartibda ishtirok etadilar.

Shu bois, tarbiyaviy ish differensiatsiya asosida, muassasa turi, jazo muddati, mahkumni saqlash sharoiti va shaxsning xususiyatlarini hisobga olgan xolda metodikalaridan foydalanish tashkil etiladi.

2. Qayta tarbiyalash va axloq tuzatish faoliyati masalalari.

Hozirgi kunda mahkumlarni tarbiyalashda psixologik-pedagogik tarbiya tobora katta ahamiyat kasb etib o‘z aksini namoyon qilmoqda. Demak, axloq tuzatish muassasalarining shtatlariga psixolog lavozimlari kiritilgan bo‘lib, ular mahkumlar shaxsi va guruhini o‘rganishning psixologik metodlarini, shaxslarga yakka tartibda va differensiatsiya asosida ta‘sir qilish, mahkumlarni jamiyatga qaytarish, ozodlikdan mahrum etish joylarida salbiy hodisalarni oldindan ko‘ra bilish va ularning oldini olish choralarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, psixologlar mahkumlarga emotsional zo‘riqish, agressiya, depressiya, frustratsiya va stressli holatlarni yengish, o‘zini o‘zi tarbiyalash, tashkillashtirish nazorat qilish, boshqarish hamda ozodlikdagi hayotga resotsializatsiyalash masalasi (qaytishga tayyorlash) uchun yordam berishda katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, psixologlar JIYEM muassasa xodimlari bilan profilaktik ishlarni ham olib borib ular bilan psixoprofessiogramma ham o‘tkazishadi. Mahkumlarni axloqan tuzatish jarayonining mohiyatini tahlil qilsak, I.Kochetov undagi to‘rtta vazifani ajratib ko‘rsatadi. Bular *tiklovchi*, *kompensatsiyalovchi*, *stimul beruvchi* va *to‘g‘ri yo‘lga*

soluvchi funksiyalardir.

Tarbiyaviy ishlarni o'tkazishda mahkumlarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

Inson dunyoga kelgan dastlabki kundan boshlab atrof muhitta'sirida shakllanib boradi va shu asnoda shaxsiy yo'nalganlik tarkib topadi. Yo'nalganlik shaxsning murakkab xususiyatlaridan biri bo'lib, insonning faolligi va munosabatlarni tanlash tizimini o'z ichiga oladi. Talab va ishonch, xulq va odatlar, maqsad va kelajakdagi rejalar – bularning hammasi shaxs yo'nalishining turli elementlari hisoblanadi. Shaxsning yo'nalganligi hayot va faoliyatning turli xil muhitida yuzaga keladi, shu bois, ma'naviy-siyosiy, kasbiy va maishiy turlarga bo'linadi. Mahkumlar shaxsini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularning yo'nalganligiga g'oyasizlik, siyosatga nisbatan e'tiborsizlik, ma'naviy va ijtimoiy tubanlik xosdir. Maishiy yo'nalganlik esa, yashash davomida moddiy va estetik qarashlar tufayli yuzaga keladi.

Odatda, inson o'z yo'nalishiga ko'ra harakat qilayotganida turli holatlarni boshqaradi. Ayrimlari umumjamiyat ta'siri ostida o'z yo'nalishini belgilab olsalar, boshqalari esa qabih niyat bilan maqsadga erishadilar. Lekin ba'zi holatlarda mahkumlarning qilmishlarini to'g'ri tahlil qilish uchun har birining yo'nalishi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishini talab qiladi. Shu bois, shaxsning yo'nalganligi uning yetukligi, qamrovi, harakatchanligi, turg'unligi, faoliyatining darajasi bo'yicha baholanadi. Ko'pgina mahkumlarning yo'nalganligi jamiyatga qarshi bo'lib, kriminal tavsifga asos bo'ladi.

Odatda, yetuklik darajasi bo'yicha yo'nalish deganda, shaxsning hayotda, jamiyatda tutgan o'rni, g'oyaviylik darajasi hisobga olinadi. Shaxs yo'nalishining keng qamrovliligi uning turli xil intilishlari bilan bog'liq. Masalan, ayrim odamlar turli sohalarida o'zlarini sinab ko'radilar, har xil mehnat faoliyatini yuritib, juda keng qamrovli hayot kechiradilar. Ammo ko'pchilik insonlar faqat bitta kasbiy faoliyat muhiti bilan cheklanib qoladi. Ba'zan, oldingi jinoiy o'tmishidan haqiqatdan voz kechgan mahkum ozodlikka

chiqqandan keyingi hayotida turli xil yo'llarga kirmaslikka ahd qilib, topshirilgan majburiyatlarni sidqidildan bajarib, ishlab chiqarish faoliyatida samarali mehnat qila boshlaydi. Lekin, ikkilangan yoxud o'z yo'lini to'g'ri tanlay olmagan mahkumlar esa befarq bo'lib qoladilar, tarbiyaviy ta'sirlarga qarshilik ko'rsatgan xolda harakat qiladilar. Shu bois, mahkumlar faoliyatidagi motivlar shaxs yo'nalishining muhim tarkibiy qismi hisoblanib unda, motiv – inson ongida aks etgan ehtiyojdir.

Ba'zida motiv sifatida xohish, dunyoqarash, istak, qiziqish hamda ideallar namoyon bo'lishi mumkin. Inson ehtiyojlari qanchalik keng va turli-tuman bo'lsa, motivlari ham shunchalik turg'un, xilma-xil va ko'p qirrali bo'ladi.

Shuningdek, motivlar inson faoliyatini uyg'unlashtirib va yo'naltiribgina qolmay, balki uning sub'yektiv faoliyati va harakatlariga shaxsiy ma'no berib, shu tariqa bir xildagi qilmishlarni sodir etgan mahkumlar qarama-qarshi motivlarga ham ega bo'lishadi. Shunga ko'ra ularni baholash turli har xil amalga oshadi. Mahkumlar shaxsining yo'nalishida qiziqish, dunyoqarash va ideallar o'zini tutish motivlari sifatida asosiy o'rin egallaydi. Mahkumlarning motivlari juda o'zgaruvchan bo'lib, sud, tergov yoxud jazo muddatini o'tash davomida ular o'zgarib boradi. Ularning rivojlanishi bir qator sharoitlar tufayli amalga oshadi. Xususan, siyosiy-tarbiyaviy ishlar, boshqa mahkumlarning malakasi, tarbiyachining ta'siri, shuningdek, mahkumning o'z harakati va qilmishlari ta'sirida yuz beradi. Motivlar dinamikasini tushunish mahkumlar holati va harakatlarini to'g'ri baholash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda, maqsad paydo bo'lishining ichki manbai motivlar hisoblanadi. Maqsadga esa inson o'z harakati tufayligina erishadi. Halollik yo'lini tanlagan mahkumning motiviga javob beruvchi faoliyati uzoq vaqt, oylar, hatto yillar mobaynida davom etishi mumkin. Shu bois, ushbu motivni amalga oshirish uchun esa mahkum jinoiy o'tmishidan voz kechishi va aybini halol mehnati bilan yuvishi zarur bo'ladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bitta motivning o'zi bir necha harakatlarda o'zining maqsadlarini

amalg oshirishi mumkin. Lekin, maqsad va motivlar asosida kelajak rejalari shaxsning yoʻnalishi sifatida shakllanadi. Bunday rejalarga erishish insondan juda katta kuch matonat, energiya talab qilib, mustahkam iroda kerak boʻladi. Insonda bitta emas, balki, bir necha kelajak rejalari boʻlib, ular yagona tizimni tashkil qilib, maqsad sari intiladi.

3. Mahkumni qayta tarbiyalash maqsadida uning shaxsiga taʼsir qiladigan psixologik choralar tizimi.

Jinoiy jazoni ijro etish muassasalarida shaxsning kelgusidagi rejalari muammosi katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mahkumlarni toʻgʻri yoʻlga solish va tarbiyalash jarayoniga toʻsiq boʻluvchi holatlardan biri mahkumlarning oʻz kelajagini tasavvur qila olmasliklaridir. Mahkumlarda oʻz kelajak tizimini qayta qurish va ishlab chiqishda eski va yangi rejalar oʻrtasida kurash yuzaga keladi. Shu bois, bu kurash davomli hamda azobli boʻladi, ammo tarbiyachilar va jamoaning doimiy taʼsiri natijasida ancha yengillashadi. Insonlar bir-birlaridan temperament tipologiyasi bilan ham farq qiladi. Ular oʻz kuchi, tezligi, harakatlarining surʼati va ritmi, yurishturishi, hissiyotlarga tez yoki sekin berilishi, nutq talaffuzi kabilar bilan ajralib turadilar.

I.P.Pavlovning fikriga koʻra, temperament «insonning umumiy tavsifi» hisoblanadi. Psixik faoliyat dinamikasi nafaqat temperamentga, balki odamning psixik holati, motivi, ustanovkalariga ham bogʻliqdir. Chunki temperamentning psixologik tavsifi tashqi koʻrinishlarga ega boʻlib, ularni oʻrganish va aniqlash mumkin.

I.P.Pavlov oliy nerv faoliyatining quyidagi toʻrtta asosiy tipini ajratgan:

- kuchli, biroq muvozanatlashmagan tipida qoʻzgʻalish jarayonlari tormozlanishdan ustun turadi. Bu tip xolerik temperamentiga mos keladi;

- kuchli, muvozanatlashgan tipda nerv jarayonlari juda harakatchan boʻladi. Oliy nerv faoliyatining bu tipi sangvinik

temperamentiga mos keladi;

- kuchli, muvozanatlashgan tipda nerv jarayonlari kam harakatchan («yuvosh», inert) bo‘ladi. Bu flegmatik temperamentiga moskeladi;

- kuchsiz tip, bunda qo‘zg‘alish jarayoni ham, tormozlanish jarayoni ham sust bo‘ladi. Bu tipdagi kishilarda nerv sistemasining tez charchashi, qobiliyatining yo‘qolishi kuzatiladi. Bu melanxolik temperamentiga taalluqli.

Odatda, temperamentni kriminal jihatdan baholab bo‘lmaydi va o‘z-o‘zidan bunday bo‘lishi ham mumkin emas. Chunki, shaxsning jinoiy hatti-harakatidagi temperamenti uning boshqa xususiyatlari bilan birga baholanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda mahkumlar bilan tarbiyaviy jarayonni olib borishda ularning temperament xususiyatlari albatta hisobga olinishi kerak. Melanxolik temperamentli mahkumlardagi o‘ziga ishonchsizlik, shubhalanish, o‘zi bilan o‘ralashib qolish kabi xususiyatlarni jamoatchilik ta’sirida bartaraf etish lozim.

Shuningdek, umumiy va kasbiy ta’lim jarayonida ham temperament xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘quv materialini o‘zlashtirish qobiliyati mahkumlarning o‘quv jarayonida muvaffaqiyatga erishishlariga sabab bo‘ladi. Shu bois, o‘quv jarayonining samaradorligi mahkumlarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish darajasiga ham chambarchas bog‘liq hamda amalga oshadi. Sangviniklar o‘quv materialini tez o‘zlashtiradilar, flegmatiklar yangi materialni o‘zlashtirishga ulgurmaydilar, xoleriklar esa ijobiy vaziyatli darslarda faol bo‘lishadi, melanxoliklar mashg‘ulot sharoitlariga juda ta’sirchan, tarbiyachining dag‘al gapirishi yoki kulgiga olishini salbiy jihatdan qabul qiladilar.

Odatda, mehnat faoliyatida mahkumlarning temperamentidagi xususiyatlarni inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘lib, har qanday faoliyat inson psixikasining dinamikasiga ma’lum bir talablar qo‘yadi. Shuning uchun mahkum uchun ish tanlaganda uning temperamentiga e’tibor berish mahim ahamiyatga ega.

Lekin har doim ham muassasalarda bunga imkon bo'lovermaydi. Shuning uchun mahkumni ish faoliyatiga yo'llashda unga beriladigan topshiriqlarning individualligini, iloji boricha mahkum temperamentiga mos kelishini ta'minlash zarur bo'ladi. Lekin, mahkumlarning yangi sharoitdagi hayotga ruhan tayyorgarligini tashkil etishda ularning temperamentidagi xususiyatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bois, turli temperamentli mahkumlar hukm e'lon qilinganidan keyin turli xil ruhiy holatlarni boshdan kechirib, o'zlarini namoyon etadilar.

Shuning uchun, mahkumlarni jamoaga birlashtirishda ham ularning temperamentini hisobga olinishi shart. Kichik jamoalarda (brigada, zveno, kamerada) turli tipdagi temperamentga ega odamlarni tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ularning bir-biriga mos kelishi uchun sharoit yaratib, kommunikativlikni vujudga keltiradi. Odatda insonning individual psixologik xususiyatlari va xulq-atvori o'ziga xos bo'lib, biri boshqasidan ko'pgina jihatlari bilan farq qiladi. Individual xususiyatlarni biologik (ko'z va soch rangi, qaddi- qomati va bo'yi) va psixologik (mehnatsevarlik, e'tiborlilik, onglilik singari) turlarga bo'lish maqsadga muvofiq. Shu bois, barcha biologik va ko'pgina individual-psixologik xususiyatlar xulq atvor belgilariga taalluqli bo'lmaydi. Masalan, birmuncha past mexanik xotira bunga misol bo'la oladi. Shuning uchun insonning fe'li, xulq-atvorini mukammal o'rganish orqali uning har xil holatlarda o'zini qanday tutishini oldindan bilish mumkin. Bu esa kriminologik ahamiyatga ega bo'lib, masalan, JIYEMdan ozod etilgan mahkumlar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan qilmishlar va xuquqbuzarliklarning profilaktikasi uchun zarur bo'ladi.

Odatda xulq-atvorning fiziologik asoslarini bilish JIYEM xodimlari uchun juda muhim bo'lib, mahkumlarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirishda muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga imkon yaratadi. Insonning xulq-atvori uning odatlariga uzviy bog'liq bo'lib, bu jarayonda odatlar deganda, shakllangan harakatlar tushuniladi. Ular inson xarakterini belgilab, kishining xatti-

harakati va faoliyatida namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatlar majmui hisoblanadi. Odatda, u individuallikning muhim belgilaridan biri bo'lib, kishiga takrorlanmaydigan o'ziga xos xususiyatlar beradi, shaxsning irodasi, emotsional sohasi, temperamenti va intellektual (aql-idrok) xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Shu bois, xarakter belgilari kishining barqaror xususiyatlari hisoblanadi. U sekin-asta o'zgarishi ham mumkin. Xarakter insonlarning ancha barqaror va yaqqol ko'rinadigan belgilaridan bo'lganligi sababli hatti-harakat va qilmishlarda, tabiat, jamiyat, faoliyati hamda o'ziga nisbatan munosabatlarda namoyon bo'ladi. Xarakter ijtimoiy sharoitlar, o'rganish va tarbiyalanishlar asosida asta-sekin shakllanadi. Bunda oila va maktab tarbiyasi, atrofda tilarning xulq-atvori katta ahamiyat kasb etadi. Bolalik va o'smirlilik davrida xarakterni tarbiyalab hamda rivojlantiribgina qolmay, balki uning ijobiy belgilarini mustahkamlashga, salbiylarini esa yo'qotish ga harakat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, insonning xarakteridagi o'ziga xoslik intellektuallik, hissiyot va iroda xususiyatlarini rivojlantiradi. Shu bois, mahkumlar xarakterini baholashda ularni hisobga olish juda muhim hisoblanadi.

Ba'zan, mahkumlar xarakteridagi umumiy (bir-biriga o'xshaydigan) va xususiy (farqlanuvchi) jihatlarni yuzaga chiqarish maqsadga muvofiqdir. Chunki, yakkalikka va egoist (xudbin) likka harakat qilish ularning xarakteridagi umumiy belgilardan bo'lib, faoliyatida namoyon bo'ladi. Odatda, shaxsning jinoyat yo'liga kirib ketishida uning fe'l-atvoridagi xususiyatlari ham muhim o'rin tutadi. Chunki baxillik, ochko'zlik, o'zgalar mulkiga ko'z olaytirish shular jumlasidan bo'lib, mulkiy jinoyatlarni yuzaga keltiradi.

Shu bois mahkumning xulq-atvoridagi irodasizlik, g'inaxonlik va mas'uliyatni his etmaslik kabi hislatlar uning jazoni ijro etish muassasalaridagi jinoiy guruhlariga qo'shib ketishiga sabab bo'ladi. Ba'zida, mahkumlarning xarakterida, yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlardan tashqari, patologik buzilish – psixopatiya holati ham ko'p uchraydi, bunday xarakterli mahkumlar jamiyat

uchun xavfli hisoblanib, ularga nisbatan majburiy davolash choralari ko‘rilishi zarur bo‘ladi. Mahkumlar xarakterini to‘g‘ri yo‘lga solishda ularni o‘rganish va baholash zarur shart hisoblanib, buning uchun tarbiyachi psixologik usullardan foydalanish muhim bo‘lib, kuchli hishayajonni yuzaga keltiradigan vaziyatlarda mahkumlarning o‘zini tutishi va ularning faoliyatini o‘rganish xarakterni baholashda alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

Odatda, tartib-intizomli bo‘lish uchun shaxsda bir necha o‘zaro bog‘liq belgilar – ziyraklik, harakatchanlik, bajaruvchilik, qat‘iyat, faollik, mustaqillik kabilar shakllanishi lozim bo‘lib, ularni mujassamlashtirish orqali xarakterdagi intizomni tarbiyalash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun tarbiyachilardan uzluksiz ravishda ishlarni har tomonlama to‘g‘ri tashkil etish talab etiladi. Mahkumlar orasida olib boriladigan ishlarda har qanday mafkura quyidagi maqsadlarni ko‘zda tutadi:

- muayyan g‘oyaga ishontirish;
- uyushtirish;
- safarbar etish;
- ma‘naviy ruhiy rag‘batlantirish;
- g‘oyaviy tarbiyalash;
- g‘oyaviy immunitetni shakllantirish;
- harakat dasturi bo‘lish.

Odatda, mafkura o‘z oldiga qo‘yilgan shu kabi maqsadlarni bajara olsagina, amaliy samara berishi mumkin. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma‘naviyatini shakllantirish, ma‘naviy- ma‘rifiy ishlarni yuksak darajaga ko‘tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazishga muhim e‘tibor berilmoqda.

Ba‘zan, mahkumlarning xulq-atvori munosabatlar orqali shakllanib boradi, lekin ularni muassasa hayotidagi faol munosabatlarga birdaniga aralashtirish maqsadga muvofiq emas, chunki mahkumning xulqiga jamoada unga nisbatan qilinadigan munosabatlar ham ta‘sir ko‘rsatadi. Qo‘pol yoki yumshoq, quruq yoki hayajonli, ko‘ngilni ezadigan yoki ko‘tarinki ruhda

qilinadigan muomala mahkumlarda salbiy xulqning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ammo, nizoli vaziyatlar mahkumlarning xulqini tarbiyalashda alohida o'rin tutib, uning xarakteridagi kamchiliklarni tez aniqlab olishga imkon beradi. Mahkumlar xulqini tarbiyalashda ularning faoliyatini to'g'ri tashkil etishga alohida e'tibor qaratish lozim chunki, tarbiyachi o'zining xulqi bilan mahkumlarga o'rnak bo'lishi darkor. Lekin ko'pgina mahkumlar jinoyat olamidagi «avtoritet»larga o'xshagisi va ulardan o'rnak olgisi keladi.

Mahkumlarda ijobiy odatlarni shakllantirish va salbiylarini bartaraf qilish uchun ikkita yo'nalish tanlab olingan:

- o'zini tutish uchun qanday harakat qilish kerakligini to'g'ri tushunish;

- o'zini to'g'ri tutishni tashkil etish.

Odatda, mahkumlar xulqiga mehnat faoliyatining ta'siri juda katta bo'lib, ish davomida ularda mehnatsevarlik, tashkilotchilik va irodaviy belgilar

shakllana boradi. O'quv jarayonida ham mahkumlarning xulq-atvori mustahkamlanadi. Qo'yilgan talablarni doimiy ravishda bajarib borish natijasida ularning xulqi ijobiy tomonga o'zgarib boradi. Mahkumlarga psixologik ta'sir ko'rsatishda differensial va yakka tartibdagi yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi, chunki o'zini o'zi tarbiyalash mahkumlar xulq-atvorini qayta tarbiyalashdagi zaruriy shartlardan biri hisoblanadi. Agar mahkum psixika nima ekanligini bilsa va o'zining shaxsiy xarakteri qanday xususiyatlarga ega ekanligini tasavvur eta olsa, bu jarayon muvaffaqiyatli o'tadi. Aytish mumkinki, psixologiya masalasida, tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash yoxud muassasada xulq-atvorni to'g'ri yo'lga solish bo'yicha qanday ishlar tashkil etilganligi borasidagi suhbatlar va ma'ruzalar o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Mahkumlar orasida murakkab, umumiy va xususiy qobiliyatlari yuqori darajada rivojlangan insonlar ham uchraydi odatda, ular ijodkor, musiqachi, yozuvchi, aktyorlik, konstruktorlik, tashkilotchilik faoliyati, o'qish, texnika kabilarga nisbatan o'ta

qobiliyatli bo'lishadi. Ularning ayrimlari o'z qobiliyatlarini muassasa hayotiga bag'ishlaydilar, jamoa qiziqishlari bilan birga bo'ladilar. Ba'zilari esa, afsuski, o'z qobiliyatlarini jinoiy maqsadga yo'naltirib, o'z yilidan adashadilar.

Masalan, rassomlikka qobiliyati bor mahkum pullarni qalbakilashtirish bilan shug'ullanishi, musiqaga qobiliyati bori o'g'rilar to'g'risidagi qo'shiqlarni yaratishi, ixtirochisi esa qochishning original yo'llarini o'ylab topishi, yaxshi tashkilotchisi esa jinoiy guruhlar tuzishi, ularga boshchilik qilib, jinoiy harakatlarga sabab bo'lishi mumkin. U yoki bu jinoiy faoliyat bilan shug'ullangan huquqbuzar bora-bora «mutaxassislashadi» va qobiliyati bo'yicha yuqori darajaga ega bo'lib, o'z faoliyati mobaynida shaxsiy jinoiy «imzosi»ni shakllantirib professional jinoyatchiga aylanadi. Shu bois, belgilangan shart- sharoitdagi yashash, atrofdagi ijtimoiy muhit, maxsus talablardan iborat jazo o'tash rejimi kabilarga mahkumning moslashishi JIYEMga kelib tushishning ilk davrlarida juda og'ir kechadi. Shuning uchun, moslashish shaxsning muayyan muhitga o'zining xatti-harakatlari bilan singib ketishini namoyon qiladi.

Zero, yangi muhitga moslashuv jarayoni ijtimoiy-psixologik mexanizm tufayli sodir bo'lib, bunda shaxsning yangi muhitdagi shart-sharoit hamda o'zaro munosabatlarga moslashishida uning faoliyatiga qo'yiladigan turli normalar va o'zini tutish qoidolari o'rganiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan holatlarning har biri mahkumning jazoni ijro etish muassasasidagi yangi muhitga ijtimoiy- psixologik tarzda moslashuv darajasini ifodalanib, ushbu adaptatsiyaning yakuniy natijasi ijobiy yoki salbiy bo'lishi ham mumkin. Chunki ijtimoiy-psixologik moslashuv natijasi mahkumning guruh (brigada, turkum) asosida faoliyati o'tadigan jamoaga, jazoni ijro etish muassasasi kun tartibi va rejim talablariga, o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi hamda shaxsiy maqomi (statusi) bilan belgilanib, o'z aksini topadi. Odatda, moslashuv jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishi va biror natija chiqishiga ob'yektiv va sub'yektiv omillar majmui

katta ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois, ob'yektiv omillarga quyidagilar kiradi: mahkumning odatdagi ijtimoiy atrof muhitdan uzoq muddat ajralgan xolda bo'lishi, muhitning nisbatan doiraviy cheklanganligi – hayot tarzining bir xilligi va ijtimoiy axborotning tanqisligi, kuchaytirilgan nazorat, hayot tarzidagi odatiy vaqt-xushliklarning yo'qligi, jinsiy aloqalarning deprivatsiyasi, kichik guruhlarining faoliyat ko'rsatishi shular jumlasidandir. Sub'yektiv omillarga esa jazoni o'tashga kelgan yangi mahkumdagi shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy-psixologik muhit ta'siri natijasida yuzaga keladigan yuqori darajadagi his-hayajon, xavotir, muloqotning yetishmasligi singari omillarda o'z aksini topadi.

Shuning uchun, mahkumlarning jazoni ijro etish muassasasi hayotiga moslashuvdagi xususiyatlariga baho berish maqsadida ekspert baholash uslubi, hujjatlarni tahlil qilish, ijtimoiy kuzatuv, mahkumlardan intervyu va anketa so'rovnomalari olish kabilar o'tkaziladi.

Shuningdek, jazoni ijro etish muassasasining saqlash rejimiga ko'ra mahkumlarning moslashuv davri tahlil qilinganida, qattiq va umumiy rejimli JIYEMdagi mahkumlar maxsus rejimdagilarga qaraganda hayot tarziga tezroq moslashib borishlari oydinlashdi. Umumiy rejimdagi mahkumlarning 50% va qattiq rejimdagilarning 42% uchun moslashuv davri 3 hafta, maxsus tartibli muassasalardagi mahkumlarning 28% uchun esa 3–4 hafta davom etadi.

Zero, ta'kidlab o'tish joizki, ba'zi mahkumlarning moslashuv davri olti oydan bir yilgacha, hatto undan ham ko'proqqa cho'ziladi (bu ko'rsatkich umumiy rejimdagi muassasalarda 10%, qattiq rejimlida 6%, maxsus rejimlida esa 13% ni tashkil etadi). Ushbu toifadagilarga psixologik va axloqsiz mahkumlar kiradi. Ular oddiy sanitar-gigiyenik talablarga rioya qilmay, odam o'ldirganliklari yoki yosh bolalarni zo'rlaganliklari uchun ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlardir. Muassasa xodimlari ularni tarbiyalash jarayonida alohida psixologik-pedagogik xarakterdagi tadbirlar majmuidan foydalansalar, mahkumlarning moslashuv davri tezroq

kechadi. Odatda, jazoni ijro etish muassasasida hayot tarziga tez moslasha olgan, lekin tarbiyaviy ta'sirlarga e'tibor qilmaydigan mahkumlar qiyinchilik tug'diradilar. Ularning muassasa hayot tarziga tezroq moslashuvi o'zaro janjallar tufayli sodir bo'lishini alohida qayd etish mumkin. Ijtimoiy-psixologik moslashuvning muvaffaqiyatli bo'lishi mahkumlar guruhidagi munosabatlarning turg'un bo'lishini ta'minlovchi eng muhim omil hisoblanib, jazoni ijro etish muassasasidagi muhitga, shaxslarni tarbiyalashdagi samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ta'kidlab o'tilgan yuqoridagilar mahkumning JIYEMga kelgan ilk kunidanoq boshlanadi va ozod bo'lganidan so'ng ish bilan ta'minlangach yakunlanadi. Shu masalalarni hal etish bilan shaxslarning emotsional psixologik holati, moslashish shakli va darajasini tezkor aniqlash imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Shu bois, jazoni ijro etish muassasalaridagi salbiy holatlardan biri ayrim mahkumlarning shart-sharoit yoxud jazoni o'tash talablariga moslasha olmasligi bo'lib, bu xol readaptatsiya deb ataladi. Chunki yangi kelgan mahkumlar orasida bunday o'zgarishlarni ma'lum vaqt o'tsada, ruhiyatiga singdira olmaydiganlari ham kuzatiladi. Shuning uchun, mahkumlarning readaptatsiya (moslasha olmaslik) muammosi keyingi vaqtlardagi maxsus adabiyotlarda sinchikovlik bilan yoritib kelinmoqda. Muassasaga yangi kelgan ayrim mahkumlarning undagi sharoit va qonun qoidalarga moslasha olmasligi yoki moslashsada, bu jarayonning qiyinchilik bilan kechishi sir emas.

V.I.Omigov hamda A.I.Kanunniklar o'z ilmiy ishlarida dezadaptatsiya (sharoitga moslasha olmaslik muammosi) ning jinoiy-xuquqiy, kriminologik va mehnat orqali tarbiyalash tamoyillarini chuqur tahlil etib, mahkumlarning toifalariga qarab profilaktik chora tadbirlar o'tkazish to'g'risida takliflar kiritganlar. Ijtimoiy-psixologik izolyatsiya, o'zaro muloqotlardan ayrim shaxslarning qochishi faqat mahkumlargagina tegishli holat emas. Psixologlarning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, ushbu holat katta va kichik guruhlarda ham bo'lishi mumkin. Shu bois, jazoni

ijro etish muassasasi sharoitiga moslashmagan mahkumlarning paydo bo'lishi qonuniyat bo'lib qolgan. Ozodlikda inson muloqot qilish muhitini xohlaganicha o'zgartirishi mumkin, ya'ni o'ziga yoqmagan kishilarning muloqotidan saqlanish imkoniyati mavjud. Ozodlikdan mahrum etish joylarida esa buning aksi, ya'ni mahkum xohlasa xohlamasa shu muhitda qolishi shart. Ayrim mahkumlar bunday muhitga singib ketolmaydilar. Natijada atrofdagilar bilan muomalasi to'g'ri kelmay qoladi. Shu bilan birga, ular muassasaning rejim talablari va maxsus o'rnatilgan tartib qoidalarga bo'ysunishni xohlamaydilar. Bu esa mahkumlarni tarbiyalash mobaynida ijobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishiga to'sqinlik qilib, murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Mahkumlarning JIYEMda moslasha olmaslik sabablaridan yana biri – u yerdagi norasmiy qoidalar va meyorlar. Ayni paytda respublikamizning jazoni ijro etish muassasalarida bunday qoida va meyorlar bartaraf etilgan bo'lsada, butunlay yo'qolib ketmagan. Shu sababdan, jazoni ijro etish muassasalari rahbariyati tomonidan bunday illatlarni yo'qotish bo'yicha muayyan choralar ko'rilmogda. Masalan, profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, unga tarbiyaviy yo'l bilan yondashish, psixologik ta'sir o'tkazish kabilar shular jumlasidandir.

Shu tariqa, har qanday yo'l bilan bo'lsada, norasmiy qoida va me'yorlarni bartaraf etish mahkumlar orasidagi ijtimoiy muhitning ijobiy tomonga o'zgarishiga olib keladi. Bu jarayon esa moslasha olmayotganlar sonini kamaytirib, bunga erishishda JIYEMda rasman o'rnatilgan tartib va qonun- qoidalarning mahkumlar tomonidan to'g'ri qabul qilinishi katta ahamiyatga ega. Ularni mahkumlar ongiga singdirishdan oldin muassasaning psixolog-tarbiyachilari tomonidan bunga ruhan moslashtirilishi zarur. Shundagina bu ishlardan yuqori samara olish mumkin. Xulosa qilib aytganda, jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning moslashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish mumkin. Ammo bu jazoni ijro etish muassasasidagi 100% mahkumlarning mavjud sharoit va tartibqoidalarga moslashib ketishi aniq degani

emas. Chunki, maqsad – ana shunday moslasha olmaganlarga nisbatan yuqoridagi chora tadbirlarni qo‘llash orqali ta’sir etish va ularning sonini keskin kamaytirishdan iborat bo‘ladi.

4. Mahkumning shaxsiy yo‘nalishini o‘zgartiruvchi choralar.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat mahkumlar jazoni ijro etish muassasasining tartib qoidalari hamda jamoa talablariga rioya qilishadi va majburiyatlarini ongli ravishda bajaradilar. Lekin ba’zilar yangi muhitga qiyin moslashadilar. Uchinchi xildagilari esa muassasa tartib-qoidalarini doimo buzib keladilar. Shungacha mahkumni tarbiyalash uchun uni muassasa faoliyati va hayotiga aralashtirib yuborish kerak. Agar tarbiyachilar mahkumlarning jazoni o‘tash muassasasidagi jamoaga singib ketishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yaxshi bilsalar, ushbu maqsadga erisha oladilar. Fiziologik nuqtai nazardan qaraganda, mahkumlarning jamoa bilan tez kelishib ketishi ichki stereotipning qayta ko‘rilishi bilan tavsiflanadi va shunga ko‘ra tashqi stereotip o‘zgargan bo‘ladi.

Tarbiyaviy ishlar mobaynida shuni kuzatish mumkinki, mahkumlar yangi sharoitda o‘zlarini yo‘qotib qo‘yadilar, vazmin va kamtarona bo‘lib qoladilar, tartib qoidalarini buzmaydilar. Bu ularning hayot tarzini to‘satdan o‘zgarishi bilan izohlanadi. Muassasaga yangi kelgan mahkumlarning ichki dunyosida o‘ziga xos yangilanishlar yuzaga keladi. Ular eski odatlari, qarashlari va fikrlarini o‘zgartirishga harakat qiladilar, chunki muhit shuni talab qiladi. Natijada psixikada sinish sodir bo‘ladi. Insonning turmush tarzi uning ongini belgilaydi, chunki jamiyatda yashab uning talab va qoidalarini bajarmaslikning hech ham ilojisi yo‘q. Chunki bu tabiat va jamiyat qonunidir. Mahkumlar orasida muassasa hayotiga tez ko‘nikib ketadiganlari ham topiladi. Ya’ni muassasaning odatlari va an’analarini obdan o‘rganib, ichki dunyoqarashidan kelib chiqib, boshqa mahkumlar bilan oson chiqishib ketadilar. Qolgan mahkumlarda esa ushbu jarayon juda qiyin kechishi mumkin. Bu holni quyidagicha tushuntirish mumkin: ayrim

mahkumlardagi eski stereotipning yangisi, ya'ni tashqi ta'sirlar tufayli paydo bo'lganidan unchalik farq qilmasligi ularning har qanday holatga tezda ko'nikib ketishlariga sabab bo'ladi. Agar muassasadagi sharoit mahkumning ilgarigi turmush tarzidan tubdan farq qiladigan bo'lsa va yangi talablar eskilariga to'g'ri kelmasa, u xolda korreksiyalash – «almashinish» qonuniyati yuzaga keladi. Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi tarbiyaviy bo'limining 2017 yilgi ma'lumotlaridan. *Mahkumning muassasa hayotiga moslashib keta olmasligiga quyidagi ob'yektiv va sub'yektiv omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin:*

- muassasaga yangi kelgan mahkumning boshqa mahkumlar bilan muomalaga tez kirisha olmasligi yoki tashqi ta'sirlarga o'ta yuqori darajada beriluvchanligi;
- ma'muriyatning tarbiyaviy ishlar olib borishga qaratilgan faoliyatiga qarshi mahkumning harakatlari;
- mahkumning muqaddam bir necha marotaba sudlanganligi;
- pedagogik tartib-qoidalariga nisbatan mahkumning ma'naviy jihatdan tubanlik darajasi.

Mahkumning jamoaga qo'shilib ketishdagi to'siqlarni yengib o'tishini undagi o'ziga xos jarayonning yashirin davri deb hisoblash mumkin. *Ularni quyidagi uchta yo'nalish bo'yicha o'rganib chiqish mumkin:*

- yangi sharoit (muassasa) ga moslashish;
- jamoaga va muassasa xodimlariga nisbatan dastlabki munosabatlarning mahkumda shakllanib borishi;
- mahkumning jamoada va kichik guruhda o'z o'rnini topishi.

Mahkumning bu jarayonlarga qanday moslashishi kelgusidagi tarbiyasi va to'g'ri yo'lga kirishiga sezilarli ta'sir qiladi. Agar tarbiyachilar, mahkumlar bilan tarbiyaviy ish olib borishning asl maqsadi, mohiyati, mazmuni va qonun qoidalarini chuqur tushunsalar, qiyin holatlardagi yoxud kutilmagan hodisa va murakkab jarayonlardagi muammolarni to'g'ri hal qila oladilar. Barcha xodimlar, pedagoglar, tarbiyachilar bunga doimo e'tibor qaratishlari lozim.

«Mahkumlarni axloqan tuzatish va tarbiyaviy ishlarni namunali amalga oshirish uchun umumiy va yakka tartibli tarbiyaviy ishlarning aniq tizimini tashkil etish talab qilinadi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarning ushbu muammoga bag'ishlangan tarmoqlari tahlili va jazoni o'tash muassasalaridagi eng yaxshi pedagogik jamoalarning malakasini o'rganib chiqib, joylarda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni ma'lum bir davrlarga ajratish lozim», – deydi psixolog olimlar V.G.Deyev va P.P.Prokopov.

Jumladan, ular quyidagi davrlarga bo'lishgan:

birinchi davr – muassasa hayotiga moslashish davri. Bunda tarbiyachi har bir mahkumning ijobiy va salbiy hislatlarini tahlil etib, salbiylarini bartaraf etish hamda ijobiylarini ko'paytirish yo'llarini izlaydi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik muhitni inobatga olib, butun jazo muddati davomida mahkumlarning amalga oshiradigan aniq vazifalari hamda tarbiyaviy ishlarning bosh yo'nalishlarini xodim belgilab oladi. Bu davr 1,5–2 oy davom etadi;

ikkinchi davr – korreksiyalash (to'g'ri yo'lga solish) davri bo'lib, unda mo'ljallangan tarbiyaviy ishlar dasturini amalga oshirish boshlanadi. Bu jarayonda mahkumlarning salbiy qarashlari, yomon odatlari ijobiy tomonga yo'naltirib boriladi. Bunda mahkumlarning ijobiy hislatlari e'tiborga olinadi;

uchinchi davr – readaptatsiya (mahkumlarni ozod qilishga tayyorlash) davri bo'lib, JIYEM ma'muriyati ozodlikdan mahrum etilgan shaxsning jazo muddati tugashiga uzog'i bilan uch oy qolganida uni ozodlikka chiqarishga tayyorlash ishlarini boshlaydi, ijtimoiy hayotga moslashuviga monelik qilayotgan omillarni aniqlaydi, uning muassasadan ozod bo'lgani dan keyingi huquq va burchlarini tushuntiradilar. Ushbu bosqichda mahkumning to'g'ri yo'lga kirganligi, davlat, jamiyat va mehnatga munosabatining yaxshi tomonga o'zgarganlik darajasi aniqlanadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, yuqoridagi ta'kidlab o'tilgan barcha tarbiyaviy ish bosqichlari mahkumlarni tarbiyalashda o'zaro bog'liq xolda amalga oshadi.

Balog'at yoshiga yetmaganlarning kattalarga nisbatan tarbiyalanish darajasi mahkumlikda quyidagicha bo'lishi mumkin:

voyaga yetmagan mahkumlar bilan tarbiyaviy ish olib borish jarayonining dastlabki darajasida mahkum ozodlikdan mahrum etilgach, ushbu jarayonni kuchli hayajon bilan qabul qiladi va qattiq xafa bo'ladi. Bu eski turmush tarzining boshqa sharoitga aylanishi bilan yuzaga keladi. Yosh mahkum ko'p vaqt ota-ona va yaqinlaridan yiroq bo'lishini o'ylab tushkunlikka tushadi. Hayot tarzining shiddat bilan o'zgarishi yoshlarda salbiy ruhiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Ma'lum fursat o'tishi bilan turli siyosiy-tarbiyaviy ishlar ta'sirida mahkumlar tarbiyaning asosiy maqsadini, o'zlarining salbiy odatlaridan voz kechish zarurligini anglab yetadilar. Mahkumlar bilan tarbiyaviy ish olib borish jarayonining ikkinchi darajasida ular mehnatda, o'qishda, jamoat ishlarida o'rnak ko'rsatishlari hamda muassasa tartib-qoidalarini buzmasliklari kerak bo'ladi. Shu bilan birga, mahkumlar yaxshi xulq-atvorda bo'lish va muassasadagi tartib qoidalariga bo'ysunishi shartligini anglaydilar. Tarbiyalashning uchinchi darajasida mahkumning axloqan tuzalish yo'liga o'tganligi, ongining shakllanganligi, yaxshi xulq-atvorga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ularning tarbiyalanganlik darajasi mahkumning faoliyati va o'zini tutishni qanchalik boshqara olishi bilan belgilanadi.

Tarbiyachilar mahkumning faoliyatidagi o'zgarishlarga qarab, uning to'g'ri yo'lga kirganligining asosiy mezonini aniqlaydilar. *Tarbiyalanayotgan mahkumlarni uch guruhga ajratish mumkin:*

1) o'z harakatlari, qilmishlari va o'zini tutishda mavhumlikka ega bo'lganlar;

2) axloqan tuzalish yo'liga kirish va halol mehnat qilishni xohlamaydiganlar;

3) umuman tarbiyalanishni xohlamaydigan, muassasa tartib qoidalarini qo'pol ravishda buzuvchi va jamoatchilik ishlarida ishtirok etmaydiganlar.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirishdagi ba'zi omillar tufayli tarbiya jarayoni oxiriga yetmay qolishi mumkin.

Aksariyat mahkumlarning o'ta tubanligi kabi sabablar ko'zlangan maqsadga erishishga to'sqinlik qiladi. Jazo muddatini o'tab chiqqan mahkumlarning ko'pchilik qismi hayotda to'g'ri yo'lga kirsalarda, ayrimlari jazoni ijro etish muassasasida yaxshi tarbiyalanmaganliklari uchun qayta jinoyat sodir etadilar.

1. Mahkumlarni tarbiyalash jarayonida tiklash vazifasiularga o'zlarini yaxshi tomondan namoyon qilish, ya'ni ijobiy xususiyatlarini qayta tiklash uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun xodim mahkumning shaxsini sinchiklab o'rganishi va uning ilgari mavjud bo'lgan yoxud keyinchalik yo'qolgan ijobiy hislatlarini yuzaga chiqarishi lozim. Mahkumlarning bunday ijobiy xususiyatlarini chuqur bilish pedagoglarga ularni tiklash va mustahkamlash uchun kerakli sharoitlarni yaratish imkonini beradi. Tarbiyalashning kompensatsiyalovchi vazifasi mahkumlarga o'z kamchiliklarini ijobiy faoliyatining erishgan yutuqlari bilan o'rnini qoplash hamda sharoit yaratishlarni ko'zda tutadi. Shu maqsadda ularning ijobiy sifatleri aniqlanadi, eng yaqqol ko'ringanlarini yuzaga chiqarib, boshqalar oldida namoyon qilishiga imkoniyat yaratiladi. Mahkumlar axloqini tuzatishning stimulyatsiya qiluvchi vazifasi mahkumning ijobiy sifatleri ko'rinadigan faoliyatlarini yanada faollashtirishga yordam beradi, salbiy hatti-harakatlarini qoralaydi. Masalan, o'zining yaxshi jihatlarini ko'rsatgan faol mahkumlarni moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish usullari yordamida amalga oshiriladi. Mahkumni to'g'ri yo'lga solish vazifasi salbiy sifatlarining bartaraf bo'lishiga yordam beradi. Bu jarayonda balog'at yoshiga yetmagan huquq buzarlarning jinoyat sodir qilishga undovchi salbiy xususiyatlari kamayib boradi. A.I.Kochetov mahkumlar axloqini tuzatish imkoniyatini aniqlab, uning bosh yo'nalishini quyidagicha talqin etadi: «Jamoatchilik shaxsning o'zi tomonidan mavjud salbiy xususiyatlarni bartaraf qilish va ijobiy sifatlar fondini jadal rivojlantirishda muhim o'rin tutadi». Demak, ijobiy jihatlarining rivojlanishi shaxsning to'g'ri yo'lga kirishdagi ishonchini mustahkamlaydi. Mahkum bilan tarbiyaviy ish olib

borish jarayonida uning kamol topishi uchun ma'naviy- psixologik o'zgarish imkoniyatlari to'g'risidagi masala ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Jinoyatchilik tarixiga nazar tashlaganda bunga ko'proq e'tibor qaratilganligiga guvoh bo'lish mumkin va uni hal etishning ikki yo'nalishi yuzaga kelgan. Birinchi yo'nalish tarafdorlari jinoyatchining shaxsida ijobiy o'zgarishlar bo'lishini tan olmaydilar va jinoyatga aloqadorlik uning qismatiga yozilgan, deb o'ylaydilar. Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari esa buning aksi, ya'ni inson shaxsini cheksiz o'zgartirish va rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bois mahkumlarni ham to'g'ri yo'lga solish mumkin, deb fikr bildiradilar. Jazoni ijro etish muassasasining otryad (guruh) boshliqlari tomonidan tarbiyalash usullarini qo'llash, mahkumlarni kuzatish, eksperimentlar o'tkazish, suhbat hamda faoliyatni tahlil qilish bilangina cheklanib qolmasligi kerak.

Xulq-atvorldarni umumlashtirish usuli psixologik yo'nalishga egadir. Professor K.K.Platonov aytganidek, shaxsning tuzilishi va individual xususiyatlarini o'rganish vositasida uni psixologik jihatdan o'rganish mumkin. Mahkumlarda barcha jabhalar bo'yicha tarbiyani mujassamlashtirish, faol hayot tarzini shakllantirish, mehnatga hamda o'qishga munosabatlarini ijobiy holatga keltirish uchun pedagogik faoliyat kompleks ravishda tashkil etilsagina maqsadga erishish mumkin bo'ladi. Shuning uchun tarbiya vositalari, shakllari, usul va prinsiplari o'rtasida o'zaro yaqin aloqalarning o'rnatilishi ko'zda tutiladi. Shu tufayli mahkumlarni axloqan tuzatishda quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

- otryadlarda mahkumlarning shaxsini o'rganish borasida yagona dastur mavjud bo'lishi kerak;

- mahkum shaxsining sifatlari, xulq-atvori va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda mahkumlarni yagona tasnifga asoslangan guruhlariga ajratish;

- jazoni ijro etish muassasasidagi barcha xizmat xodimlari mahkumlarni axloqan tuzatishda psixologik-pedagogik usullarning yagona kompleksi ta'sirlaridan unumli foydalanishlari;

JIYEM bo'lim va xizmat xodimlari o'rtasida mahkumlar

psixologiyasidagi o'zgarishlarga doir axborotning operativ almashuvini yo'lga qo'yish asosida mahkumlarni tarbiyalash dasturiga o'zgartish hamda tuzatishlarkiritish;

JIYEMdagi tarbiyachilar o'rtasida bir-birini tushunish, ularning o'zaro hamkorligi va qo'llab-quvvatlashi hamda topshirilgan vazifalarga prinsipial yondashishlarga erishish;

JIYEM xodimlari faoliyatining yakdilligini ta'minlash, mahkumlarga nisbatan yagona pedagogik tartib talablarining faol ta'sirini ta'minlash.

Otryadlarda mahkumlarning tarbiyasiga kompleks yondashuv deganda, ularning ichki dunyosini shakllantirish maqsadida ularga psixologik-pedagogik ta'sir choralari tizimini doimiy qo'llash tushuniladi. Bu esa mahkumlarda mustahkam iroda, qiziqish, halol mehnat qilishga ehtiyoj kabilarni mujassamlashtiradi.

Mahkumlar tarbiyasiga kompleks ravishda yondashish uchun barcha JIYEM xodimlaridan chuqur va ilmiy asoslangan, yuqori darajadagi psixologik- pedagogik tayyorgarlik talab etiladi. Ular metodik hujjatlarni yakka tartibda ishlab chiqishlari lozim. Bunday hujjatlarda tarbiyachilar faoliyatining natijalari, ularning mutaxassislik malakasini oshirish mahorati, mustahkamlik qobiliyatini shakllantirish, mahkumlar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga qiziqishlarining ortib borishi aks ettiriladi. Mahkumlar psixologiyasini yaqindan bilish, shaxsga psixologik ta'sir ko'rsatish uslubi va ilmiy yondashuvning tarbiyalash jarayonini amalga oshirish, muayyan sharoitlarda esa mahkumlar faoliyatini to'g'ri taxlil qilish imkonini beradi. Mahkumlar psixologiyasini yaqindan bilish, shaxsga ta'sir ko'rsatish uslubi va ilmiy yondashuvi tarbiyalash jarayonini amalga oshirish, muayyan sharoitlarda esa mahkumlar faoliyatini to'g'ri taxmin qilish imkonini beradi.

Hozirgi kunga kelib mahkumlarni tarbiyalash jarayonini yaxshi boshqarish vazifasi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Uning to'g'ri hal etilishi maqsadli, qat'iy, reja asosida amalga oshirilishiga va har bir xodimning faolligiga bog'liq. Bu

boradagi natijalarning ijobiy bo'lishi esa butun jazoni ijro etish tizimi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 25 apreldagi sakkizinchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi qabul qilinganligi ayni muddao bo'ldi. Mahkumlar mehnatini tashkil qilishning zamonaviy shakllaridan foydalangan xolda ixtiyoriylik prinsipini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Mehnat ozodlikda mahkumlarning xalol yashash muammosi hal etilishiga ko'maklashishi kerak. Bu esa mahkumlarda mehnatga ongli munosabatni yuzaga keltiradi. Asosiy e'tiborni ularning mehnat bilan shug'ullanish doirasini kengaytirishga qaratish kerak.

Muassasalarning moddiy va iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun mahkumlarni ish bilan ta'minlash jamg'armalarini tashkil etish zarur. Jinoyat- ijroiya qonunchiligida tarbiyaviy ta'sir choralarining quyidagi turlari ko'rsatib o'tilgan:

- mahkumlarga mehnat orqali ta'sir etish;
- umumiy va hunar ta'limi, kasbiy tayyorgarlikni oshirish orqali ta'sir etish;
- jamoat orqali ta'sir etish.

Mahkumlarni mehnatga jalb etishdan asosiy maqsad ularda ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullanish ehtiyojini shakllantirishdan iborat. Mahkumlar jinsi, yoshi, sog'lig'ining holati, mehnat qobiliyati va iloji boricha, ixtisosini inobatga olgan xolda mehnatga jalb etiladi. Mahkumlarning mehnatga oid munosabatlari mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan, JIKda nazarda tutilgan istisno va cheklashlarni hisobga olgan xolda, tartibga solinadi. Shundan mahkumlarni jismoniy mehnat orqali to'g'ri yo'lga solishning psixologik jihatlarini ko'rish mumkin. Mehnat orqali ta'sir etish ularni axloqan tuzatishdagi asosiy vositalardan biridir. Hozirgi kunda mehnat jinoiy jazolarning ko'plab turlarini o'tashda muhim o'rin egallab kelmoqda.

Ozodlikdan mahrum etish joylarida ish bilan band bo'lmagan mahkumlar sonining ko'payishi muassasalardagi holatni

keskinlashtiradi. Shu munosabat bilan, hozirgi kunda jazoni ijro etish muassasalarining ayrimlarida (muassasaning iqtisodiy sharoiti, mehnat uchun xom ashyo yetkazib berilishiga qarab) sakkiz soatdan iborat ikki yoki uch smenali mehnat kuni tashkil etilgan.

Mahkumlarning mehnati O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Uni to'g'ri tashkil qilish mahkumning ongida ijobiy xislatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Jazoni ijro etish muassasasida ijtimoiy foydali mehnat mahkumlarni axloqan tuzatishda muhim omil hisoblanadi. Mahkumlarni mehnatga jalb etish va ularning ishga nisbatan munosabatlari quyidagi ob'yektiv omillar bilan bog'liq:

- jalb etilayotgan mehnat chuqur ijtimoiy mazmunga ega bo'lishi kerak;

- mahkumlarning mehnati umumjamiyat mehnatidan boshqacha bo'lishi mumkin emas;

- mahkumlarning majburiy mehnatga jalb etilmasligi.

Mahkumlarning ijtimoiy foydali mehnatiga ularni axloqan tuzatishning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Biroq avvallari amaliyot va nazariyada uning o'rni ko'pincha oshirib yuborilardi: mehnatga mahkumlarni to'g'ri yo'lga solish jarayonining asosi sifatida qaralar, axloq tuzatish mehnat muassasalari esa (ilgari shunday atalgan) davlat rejasini bajarishi va foyda keltirishi shart bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari hisoblanardi. Hozirgi kunda ham mehnat jazoni ijro etish siyosati va qonunchiligida jinoiy jazolarning ko'plab turlarini o'tashda muhim o'rin egallab kelmoqda. Bu, ayniqsa, ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan mahkumlarga tegishli. Chunki ish bilan band bo'lmagan mahkumlar sonining oshishi jazoni ijro etish joylaridagi jinoiy holatni keskinlashtiradi. Mahkumlarda mehnat qilishga bo'lgan ko'nikmalarni yuzaga keltirish uchun quyidagi prinsiplarga amal qilish kerak:

- jazoni ijro etish tartib-qoidolari (rejim)ga ongli ravishda bo'ysunish;

- jamoatchilik ishlarida faol qatnashish va ma'muriyat tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish;

- mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish.

Jazoni ijro etish muassasalarida ijobiy xulq-atvorga ega mahkumlarni rag'batlantirish – ushbu tizimni rivojlantirish hamda mahkumlarni tarbiyalashning asosiy usullaridan biri. Shuning uchun jazoni ijro etish muassasalarida rag'batlantirishning ijobiy natija beruvchi usullari, turli faoliyat va mahkumlarning munosabatlaridagi o'ziga xoslikni hisobga olgan xolda ommalashtirish ishlarini muntazam olib borish lozim. Jazoni ijro etish muassasalarida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarbiyaviy ish jarayonida ma'naviy rag'batlantirishlarni turli toifadagi mahkumlarning demografik, ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan xolda tizim lashtirib, amalda qo'llash yaxshi samara beradi.

Mahkumlarni rag'batlantirish deganda, mehnat qonunchiligida belgilanganidek, malakali mutaxassislar tomonidan mahkumlarni mehnatda jamoa bo'lib faollik ko'rsatishga va ijobiy xulqli bo'lishga da'vat etish hamda ularning yutuqlarini baholash uchun tanlab yo'naltirilgan vosita va usullardan foydalanish tushunilmog'i kerak. Rag'batlantirish psixologik va pedagogik ta'sir etishning bir maqsadga yo'naltiruvchi usuli bo'lib, o'zaro bog'liq ikki vazifani bajaradi:

- rag'batlantiriluvchi mahkumni ma'lum bir faoliyatni bajarishga undash;

- boshqa mahkumlarga ijobiy ta'sir etuvchi omil sifatida xizmat qilish.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga muvofiq yaxshi xulq-atvori, mehnatga va ta'limga vijdonan munosabati, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda faol ishtiroki uchun mahkumlarga quyidagi rag'batlantirish choralari qo'llanilishi mumkin:

- tashakkur e'lon qilish;

- ilgari qo'llanilgan intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlash;

- yorliq, qimmatli sovg'a yoki pul mukofoti bilan taqdirlash;
- qo'shimcha posilka, yo'qlov yoki banderol olishga ruhsat etish;

- qo'shimcha uchrashuv yoki telefon orqali so'zlashuv huquqi berish;

- oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish uchun pul summasini ko'paytirish;

- yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazish, manzil koloniyalarda saqlanayotgan shaxslar bundan mustasno.

Bu normativ hujjatlar mahkumlarga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari hamda ularni qo'llash tartibini belgilab beradi.

Normativ aktlar mahkumlarni hisobga olish tartibini va rag'batlantirishni tashkil etadi va ular quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish ilg'orlari hurmat taxtasiga suratini osibqo'yish;

- maqto'v yorlig'i berish;

- moddiy ahamiyatga ega bo'lmagan jazolarni, ya'ni ogohlantirish yoki hayfsanni olib tashlash yoxud hayfsan berishni bekor qilish.

Mahkumlarni ma'naviy rag'batlantirish uchun tarbiyachi xodimlar quyidagi asoslarni ma'qul deb topadilar:

- muassasadagi jamoat ishlarida mahkumning faol ishtirok etishi;

- ma'muriyatning ma'lum bir topshiriq yoki vazifani bajarish uchun mahkumga ishonch bildirishi;

- mahkumlarga ijodiy tashabbuskorlik uchun imkoniyat yaratib berish.

Mahkumlarni rag'batlantirish turlari Jinoyat-ijroiya kodeksiga muvofiq bo'lishi kerak. Ammo jazoni ijro etish muassasalarida qonunda nazarda tutilmagan quyidagi rag'batlantirish turlari ham mavjud: «O'z kasbining ustasi», «Ishlab chiqarish ilg'orlari» hamda jamoa shaklidagi rag'batlantirishlar – «Namunali bo'lim», «Eng yaxshi otryad» va hokazo.

Yuqoridagi rag‘batlantirishlarga qo‘shimcha ravishda ijobiy tavsifga ega bo‘lgan mahkumlarga Jinoyat-ijroiya kodeksining 83 - moddasiga muvofiq muassasaning qo‘riqlanadigan hududi doirasidan tashqarida soqchisiz yoki kuzatuvchisiz yurishga ruhsat etilishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mahkumlarni alohida (individual) rag‘batlantirishga qo‘shimcha jamoa xolda taqdirlash usulini ishlab chiqish yaxshi natija beradi. Masalan:

a) mehnat musobaqasida g‘olib chiqqan brigada yoki otryadni ko‘chma vimpel yoki maqto‘v yorlig‘i bilan mukofotlash;

b) mehnatda yuqori natijaga erishgan va namunali xulq-atvoriga ega bo‘lgan jamoa uchun unvon;

v) sport, madaniyat va ma‘rifat ishlaridagi yutuqlar uchun kubok yoxud maqto‘v yorliqlari bilan mukofotlash;

g) mehnat musobaqalarida yuqori o‘rin olgan otryadlarga muassasa boshlig‘ining buyrug‘i bilan tashakkur e‘lon qilish.

Axloq tuzatish yoki mehnat orqali tarbiyalash muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi xodimning hukm etilganlar shaxsiga ta‘sir o‘tkazishi uchun zarur jihatlar quyidagilar:

- shaxs va uning xarakteridagi xislatlarni to‘liq tahlil qila olish;

- xulq-atvor va uning o‘zgarishi meyorlarini anglash;

- tarbiyalash jarayonida jazo va rag‘bat choralarini qo‘llash vaziyatlarini yaxshi bilish;

- mahkumning emotsional-irodaviy sohasi haqida ma‘lumotga ega bo‘lish;

- mahkumning shaxslararo munosabat meyorlarini belgilab olish;

- mahkumga shaxs sifatida e‘tibor berish;

- mahkumlar bilan munosabatda o‘zidagi emotsional holatni bosh qarishga erishish;

- mahkumlarning xulq-atvorini nazorat qilish tizimini yaratish;

- mahkumlarga nisbatan olib boriladigan tarbiyaviy, ma‘naviy va ma‘rifiy ishlarni to‘g‘ri tashkil qilish;

- muassasada faoliyat yurituvchi xodimlar jamoasidagi psixologik muhitni ijobiy saqlashga intilish;
- mahkumlarning psixologiyasi xususidagi adabiyotlar bilan muntazam tanishib borish;
- mahkumlarni pedagogik-psixologik jihatdan o'rganish;
- mahkumlarni erkin hayotga tayyorlashda psixologik treninglar tashkil etish;
- shaxs va uning faoliyatidagi ichki regulyatsiya muammolari bo'yicha psixologdan maslahatlar olib turish;
- koloniyada faoliyat ko'rsatuvchi xodimlarning tarbiya metodlarini o'rganib borish;
- mahkumlarni tarbiyalashda ishontirish usulidan foydalana olish;
- xodimning kasbiy mahoratini oshirib borish;
- mahkumlar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish borasida ishlaydigan jamoaning psixologik muhitini yaxshilash.

Demak, jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning hayot faoliyati va huquqiy cheklanishlari rejim, ya'ni JIYEMda qat'iy belgilangan kun tartibi asosida tartibga solinadi.

Nazorat savollari:

1. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda mahkumning ijtimoiy psixologik holatini hisobga olish qanday tashkil etiladi?
2. Tarbiyachi va maxbus o'rtasidagi «psixologik to'siqni» bartaraf etish yo'llarini ko'rsating.
3. Mahkum shaxsini qayta tarbiyalashda asosiy vosita sifatidagi mehnatni tashkil etishning psixologik xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Mahkumni qayta tarbiyalashda fakultativ omillarning roli, (o'qitish, ijodkorlik, faollik) nimalardan iborat?

Testlar:

1. Jazoni ijro etish muassasalarida qonunda nazarda tutilmagan qanday rag‘batlantirish turlari mavjud?

A) «O‘z kasbining ustasi», «Ishlab chiqarish ilg‘orlari», «Namunali bo‘lim», «Eng yaxshi otryad» jamoa shaklidagi rag‘batlantirishlar

B) «O‘z kasbining ustasi»

C) «Eng yaxshi otryad»

D) «Ishlab chiqarish ilg‘orlari», «Namunali bo‘lim»

2. Mahkumlarni ma‘naviy rag‘batlantirish uchun tarbiyachi xodimlar quyidagi qaysi asoslarni ma‘qul deb topadilar?

A) muassasadagi jamoat ishlarida mahkumning faol ishtirok etishi;

B) ma‘muriyatning ma‘lum bir topshiriq yoki vazifani bajarish uchun mahkumga ishonch bildirishi;

C) mahkumlarga ijodiy tashabbuskorlik uchun imkoniyat yaratib berish

D) hammasi

3. Normativ aktlar mahkumlarni hisobga olish tartibini va rag‘batlantirishni nimalar tashkil etadi?

A) ishlab chiqarish ilg‘orlari hurmat taxtasiga suratini osibqo‘yish;

B) maqtoov yorlig‘i berish;

C) moddiy ahamiyatga ega bo‘lmagan jazolarni, ya‘ni ogohlantirish yoki hayfsanni olib tashlash yoxud hayfsan berishni bekor qilish;

D) hammasi

4. Psixologik va pedagogik ta‘sir etishning bir maqsadga yo‘naltiruvchi usuli –bu

A) rag‘batlantirish

B) ma‘qullash

C) tasiqlash

D) ochiqlash

5. Odil sud va xuquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqib A.K. Dulov (1998) 6 ta faoliyat turlarini ko'rsatgan, to'g'ri javobni toping?

A) bilish, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy, tarbiyaviy va tasdiqlovchi faoliyat

B) oddiy, ilmiy, falsafiy, siyosiy, mehnat va ijtimoiy faoliyat.

C) tarbiyaviy, tashkiliy, ijtimoiy, mehnat, ilmiy va ma'naviy faoliyat.

D) konstruktiv, kommunikativ, ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy va mehnat faoliyati

Mustaqil ishlash uhun tavsiya eyilayotgan mavzular

1. Sudlangan mahkum shaxsini o'rganish.

2. Qayta tarbiyalash va axloq tuzatish faoliyati masalalari.

3. Mahkumni qayta tarbiyalash maqsadida uning shaxsiga ta'sir qiladigan psixologik choralar tizimi.

4. Mahkumning shaxsiy yo'nalishini o'zgartiruvchi choralar.

5. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda mahkumning ijtimoiy psixologik holatini hisobga olish qanday tashkil etiladi?

6. Tarbiyachi va maxbus o'rtasidagi «psixologik to'siqni» bartaraf etish yo'llarini ko'rsating.

7. Mahkum shaxsini qayta tarbiyalashda asosiy vosita sifatidagi mehnatni tashkil etishning psixologik xususiyatlari nimalardan iborat?

8. Mahkumni qayta tarbiyalashda fakultativ omillarning roli, (o'qitish, ijodkorlik, faollik) nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarov B., Xolnazarova M. X. Yuridik psixologiya. Darslik. Guliston. GulDU.2022. -229 b.

GLOSSARIY

Affekt (lot. "affectus" - "ruhiy hayajon", "ehtiros") — kuchli, jo'shqin va nisbatan qisqa muddatli emotsional kechinmalar tariqasida ro'y beradigan psixologik holat. **Affekt holati** — qisqa muddat ichida sodir bo'lib, kuchli portlash bilan davom etib, uyqu bila tugallanadigan holat.

Afferent asab tolalari — tashqi olam va tana a'zolarimizdan markaziy asab tizmiga axborot o'tkazuvchi tolalar.

Affektiv retsidiv jinoyatchi — kuchli darajadagi shiddatli tajovujkor harakatlarga, doimiy ravishda insonlarning hayoti va sog'lig'iga tajovuz qilishga, bezorilik va buzg'unchilikka moyil bo'ladi. Ularga yuqori darajada konfliktlik, xususiy tolerantlikni pastligi (qiyinchiliklarni yengish kuchining pastligi), tormozlanishning pastligi va yuqori darajadagi qo'zg'aluvchanlik xususiyatlari xos bo'ladi.

Agressiya (agression) — tajovuzkorlik, buzg'unchilik, ko'rolmaslik, g'azab, xusumat holatlari bilan kuzatilgan, shaxslarga nisbatan ruhiy va jismoniy shikast yetkazishga qaratilgan harakat.

Anglangan motiv — o'z faoliyatini anglab, belgilab, rejalashtirib, ma'lum bir maqsad sari intilish.

Anketa usuli — bu usul yordamida bir turdagi savol va mulohazalarni guruh va jamoaga takdim etish orqali izlanish yoki o'rganish talab etilayotgan faktlar yuzasidan miqdoriy manbaa va natijalar to'planadi.

Asabiylik (inglizchada "stress") — xavfli aqliy va fi-ziologik zo'riqish bo'lib, tezkor va muhim vazifani bajarish ehtiyoji tug'ilganda yuz beradi. Bunda barcha psixik jara-yonlarning tormozlanishi ro'y beradi.

Aqliy-intellektual xususiyat — xodimning o'z oldiga qo'ygan, faoliyatda duch kelishi mumkin bo'lgan masalalarni anglashi, psixologik xususiyatlarini, kasb faoliyati tug'diradigan vaziyatlarni, masalani hal etish jarayonida shu vaziyat va holatni tasavvur eta olish idroki bilan belgilanadi.

Aqliy faoliyat xususiyatlari — voqea, narsa, hodisa haqidagi ma'lumotlarni olish va qayta shplash jarayoni sifatida qaralishi mumkin. Uning natijasida voqea yoki hodisaning fikriy modeli shakllanadi.

Axloqiy faoliyat xususiyatlari — fuqarolar bilan bo'lgan munosabatlarda, xalq oldida axloq namunasi sifatida xuquqbuzarlarga o'z ta'sirini o'tkaza olish.

Agitatsiya (lotincha "agilatio" so'zidan olingan bo'lib, "harakatga keltirish" degan ma'noni bildiradi) — fikr-mulohaza va g'oyalar orqali auditoriya ongiga ta'sir etish agitatsiyaning asosini tashkil etadi.

Adaptatsiya - (lot. "adabtare" — "moslashtirmoq") sezgi a'zolarining qo'zg'ovchi kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishi. Adaptatsiya hodisasida sezgirlik ortishi hamda kamayishi mumkin: kuchli taassurotdan kucsiz holatga o'tgandagi sezgirlik: asta-sekin ortib boradi, taassurot kuchayganda esa, sezgirlik, aksincha, kamayib boradi. Adaptatsiya qonuniyati barcha sezgilarga xosdir (qo'ruv adaptatsiyasi, eshitish adaptatsiasi, teri adaptatsiyasi).

Akseleratsiya (lot. "aceleratio" - "tezlanish") — bolalar va o'smirlarda oldingi avlodga nisbatan bo'y-basti va jinsiy taraqqiyotining tezlashishi, jadallashishi.

Aksentlash (yunon. "accentys" - "urg'u") — narsalarning ayrim qismlarini boshqa qismlariga nisbatan haddan tashqari kichraytirish yoki kattalashtirish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat xayol faoliyati.

Amneziya (lot. "a" - "inkor etish", "mnesus" - xotira) — miyaning turli qismlari jarohatlanishi natijasida xoti-raning yo'qolish holati.

Analizator (yunon. "analusis" - "bo'laklarga ajratish") — murakkab neyrofiziologik tizim, odamga ta'sir etuvchi qo'zg'alishlarni idrok etish va uni tahlil qilish. Analizator retseptor, asab yo'llari, miya bilan bog'lanadigan qism va miyaning maxsus bo'limlarini o'z ichiga oladi.

Analogiya — yunoncha "analogia" soʻzidan olingan boʻlib, oʻxshashlik maʼnosini bildiradi. Psixik hodisalar va xulq-atvor xususiyatlarining oʻxshashligi.

Apatiya (yunon. "apatheia" - hissiyotsizlik) — kishining tevarak-atrofdagi odamga nisbatan hech qanday qiziqishsiz befarqlik holati. Apatiya ogʻir kechinmalar yoki kasalliklardan toliqish natijasida kelib chiqadi.

Appersepsiya (lot. "ar" - "ga qarashli", "perceptio" - idrok) — shaxs idrokining avvalgi bilim va tajribalariga hamda uning umumiy qiziqish, havaslariga bogʻliqligi.

Argumentatsiya — dalil keltirish, asoslash, isbotlash.

Aspekt — voqea, hodisalarga maʼlum nuqtai nazardan qarash.

Assotsiatsiya (lot. associatio - birlashtirmoq) — psixik hodisalar orasidagi oʻzaro bogʻlanish. U maʼlum qonunlar boʻyicha tarkib topadi (jumladan, fazodagi yondoshlik, xronologik oʻxshashlik, qarama-qarshilik va boshqalar).

Auditoriya — tinglovchilar, axborot qabul qiluvchidar.

Autizm (yunon. auto - oʻzim) — individning oʻzini atrof-dagi odamlardan chegaralab, oʻzining kechinmalariga berilish-dan iborat psixologik begonalashuv.

Bevosita psixologik tayyorgarlik — kasb talab etadigan bilimlarni singdirish, kasbiy mahoratga erishish yoʻl-yoʻriqlarini taqdim etish, oʻrgatish.

Berilish (vlecheniye) — ehtiyoj va ishtiyoqda namoyon boʻladigan anglanmagan istak koʻrinishi.

Bolaning nasl-nasabini belgilash- otasi tomonidan yoki otasi deb taxmin qilinayotgan shaxsdan dunyoga kelgan bolaga nisbatan otalikning belgilanishi.

Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish xuquqi — bolaning asosiy va birlamchi farzandlik xuquqi.

Bolaning qonuniy vakillari — Bola xuquqlari kafolatlari toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga asosan, ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar

bolaning qonuniy vakillari hisoblanadi.

Vorislik – arabcha merosxo‘r, meros qilib oluvchi, voqea va hodisalarning tadrijiy bog‘lanishini ifodalaydigan atama.

Gipnoz (yunon. hypnos - uyku) — bosh miyaning ba’zi markazlarini to‘xtatish natijasida kishilarda va hayvonlarda maxsus ravishda hosil qilinadigan uyqu. **Gipnoz yoki muayyan psixologik holatga tushirish** — ta’sir ko‘rsatishning kishilar ommasini muayyan tarzda, ayniqsa, ommaviy tartibsizliklar, diniy jazavalar, ommaviy psixozlar bilan bog‘liq ravishda birlashtiruvchi maxsus usuli.

Davlat siyosatiga ishonch — o‘rnatilgan prinsiplarga sodiqlikda, aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilinishda va amalda qo‘llanish jarayonida talabchanlikda ko‘rinadi.

Dastlabki psixologik tayyorgarlik — xodimda psixologik bilimlarni shakllantirish, kasbiy faoliyatta tayyorlash.

Delikventlik—tartib,tarbiyaningizdanchiqishi,tarbiyasizlik, tartibsizlik, madaniyatsizlik kabi psixik kamchiliklarning yuzaga kelishi.

Delikvent xulq — jamiyatga zid xatgi-harakatlar natijasida xulqning birlamchi ogishi.

Differensial psixologiya — shaxslarning guruxida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan psixologik tafovutlarni, ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni o‘rganadigan fan.

Dunyoqarash—atrof muhitdagi borliqqa inson tafakkurining muayyan tizim asosida qarashi.

Depressiya (lot. depressio - ruhan tushish) — tushkunlik kayfiyati, odamda intilishlarning susayishi, harakatlarning tormozlanishi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladigan ruhiy holat.

Dinamik stereotip - (yunon. "dynamicos" - "kuchli", "sterios" -"qattiq", "tipos" - "iz") — bosh miya katta yarim sharlarining faoliyatini yaxlitlab turish bo‘lib, u shartli reflekslarning ketma-ketligini ta’minlab turadi. Dinamik stereotip inson odatlari, mehnat malakalarining fiziologik asoslaridir.

Diskussiya — munozara, mubohasa, bahs, tortishuv.

Zo‘ravnlik — qonun bilan taqiqlangan ma’naviy, ruhiy va jismoniy zarar yetkazuvchi harakatlarni shaxs xohish-irodasiga qarshi ravishda amalga oshirish.

Javobgarlik hissi — o‘z shaxsiy harakatlariga javobgarlik bilan chegaralanmay, balki jamiyat fikri bilan umumiy ishlarga birgalikda javob berish bilan belgilanadi. **Javobgarlikdan qutulish takti** — muloqot jarayonida xodim qanchalik xaqiqatni ochishga harakat qilsa, jinoyatchilar, aksincha, sodir etgan jinoyatini yashirishga, yolg‘on ma’lumot berishga harakat qilishi.

Jamiyatga zid xatti-harakatlar — jamoalarning xatti-harakatlari o‘rnatilgan qonun va axloq normalariga to‘g‘ri kelmasligi, shaxs xatti-harakatining ma’lum ma’noda qolipdan chiqishi va jamiyatda mavjud qonunchilikka to‘g‘ri kelmasligi.

Jinoiy motiv — jinoiy harakatning sub’yektiv taraflarini tavsiflaydigan belgi bo‘lib, "qasd", "qasos", "o‘ch", "rashk", "yomon niyat", "razillik", "ko‘ra olmaslik" kabi jinoiy harakat tushunchalarida belgilanadi.

Identifikatsiya — ongli yoki ongsiz ravishda o‘xshatish orqali anglash.

Ijtimoiy omil — shaxsni qurshab turgan tevarak atrofdan oladigan o‘ziga xos xususiyatlarga asoslanadi. Bunda insonning ijtimoiylashuvi murakkab serqirra hodisa bo‘lib, tashqi muhit ta’sirida, shuningdek, maxsus tashkil qilingan va ongli tarzda yo‘naltirilgan tarbiyaviy ishlar asosida amalga oshiriladi. Ijtimoiy omilning asosini xarakter xususiyatlari tashkil etadi.

Ijtimoiy psixologiya — shaxslarning faoliyatdagi xulq qonuniyatlarni guruhda va guruhdan alohida o‘rganuvchi soha. Introvert shaxs — o‘z ichki dunyosiga yo‘naltirilgan. Do‘stlari ko‘p emas, muloqotga kirishish xususiyatlari past, shovqin-suronli, odam ko‘p jamoalarni yoqtirmaydi. Sabrli, qatiyatli, harakatlarini oldindan rejalashtirish xususiyatiga ega. Hissiyotlarni kuchli nazorat qila oladi.

Intuitsiya — bilishning maxsus metodi, izlanayotgan xulosa illyuziyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ongda bir mantiqiy

tuzilmadan aniqlik kiritilib, ikkinchisiga o'tish intuitsiya orqali amalga oshiriladi, ya'ni intuitsiya qalban, g'oyibona bilishdir.

Impulsiv retsidiv jinoyatchi shaxsi — o'z xatti-harakatlarining kelajagi va oxirini ko'ra olmaydigan, arzimagan narsalarga kuchli ta'sirlanuvchi xuquqduzar shaxs tipi hisoblanadi.

Iroda — aqliy, maqsadli yo'naltirilgan psixik faollik hisoblanib, to'siqlarni yengib o'tish bilan uzviy jarayondir. Iroda maqsadga intilishda sodir bo'ladi va instinktlar manbaida shakllanadi.

Iroda kuchi — qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida uchraydigan barcha qiyinchiliklarni bartaraf eta olish, ayni choglarda qat'iylik, mardlik, jasurlik, chidamlilik kabi irodaviy fazilatlarini namoyon qilishda yuzaga keladi.

Iroda ko'rinishlari — qat'iyatlilik, o'zini tuta olish, barqarorlik, mustaqillik, ildamlilik, yuqori axloqiy normalar asosida tarbiyalanganlikka ham bog'liq. Axloqan nojo'ya tarbiya natijasida xudbin, o'z maqsadi yo'lida hech narsadan qaytmaydigan shaxs shakllanadi.

Irodaning mustaqilligi — boshqa kishilarning fikrlarini, ularning maslahatlarini hisobga olmaslik, ushbu fikrlar va maslahatlarga ma'lum darajada tanqidiy qarashlarni nazarda tutadi.

Iroda sustligi — qiyinchiliklar oldida ojizlik, qat'iylik, sabot-matonat yo'qligi, xulq-atvor va faoliyatning ancha yuksaq, ma'naviy jihatdan oqlangan motivlarini shakllanmagani, bir daqiqalik maylni yenga olmaslik.

Iroda faoliyati — qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan ongli tuzilma va o'zini o'zi boshqarish sifatida, eng avvalo, o'ziga, o'z hissiyotlariga, xatti-harakatlariga hukmronlik qilishdir.

Iroda xususiyatlari — qaltis vaziyat va holatlarda irodaviy kuchini jamlay olish juda katta kuch va matonat talab etiladigan sharoitlarda sabrli, qat'iyatli bo'lish, qiyin-chiliklardan qo'rqmasdan ularni bartaraf etish usullarini topish, har qanday vaziyat, sharoitda xizmat vazifasini bajarishga, kasbiy mahoratni egallashga butun imkoniyati va diqqatini to'play olishda namoyon bo'ladi.

Ichki ishlar idoralari faoliyati psixologiyasi — o‘z xususiyatiga ko‘ra yuridik faoliyatning psixologik qonuniyatlarini, xuquqshunos shaxs psixologiyasini, ushbu faoliyatni amalga oshirishda alohida va o‘ziga xos usul va mahoratni egallash, kasbga xos o‘quv va tajribani shakllantirish, ichki ishlar idoralari tizimiga, yuridik faoliyat yuritish uchun kasbga tanlash va joy-joyiga qo‘yish bilan shug‘ullanadi.

Ishontirish — biror narsa haqida isbotsiz tasdiqlanadigan yoki inkor etiladigan xabarlarni tanqidiy qarashsiz qabul qilishda namoyon bo‘ladigan kommunikativ ta’sir ko‘rsatish usuli.

Nikoh tuzish tartibi – tuzilayotgan nikohning olib borilishidagi qonun-qoidalar tartibi.

Oila huquqi – er-xotinlar, ota-onalar va bolalar, oilaning boshqa a’zolari o‘rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi huquq tarmog‘i.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik

– har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.

3. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017. - 48

4. Абдуллаев Ю. ва бошқалар. Хукукий психология муқаддимаси. Фарғона.1998. Ўқув қўлланма. -130 б. —Ибратл нашр.

5. Акрамова Ф. ва бошқалар. Оила энциклопедияси. — Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. 2019.

6. Axverdova O.A., Voloskova N.N., Bolotova O.V. Jinoiy psixologiya. Qo‘llanma. Stavropol, 2009 yil.

7. Arifxodjaeva I. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyati psixologiyasi.

O‘quv qo‘llanma.Toshkent 2008 yil. 432 bet.

8. Бекмирзаев И. Қозилик маънавияти. Т.Маънавият. 2019.-39 б

9. Васильев В.И. Юридическая психология. Учебник для ВУЗов. «ПИТЕР» Санкт - Петербург. 2014. 656 стр.

10. Ёдгоров Х. Ворислик ҳукуқи қонун ҳимоясида. 50 саволга 50 жавоб. Т.2020. - 50 б

11. Исмоилов К. Ҳукукий психология ҳамда судьяларнинг касбий-малакавий ҳукукий психологияси тушунчалари. Т. —

Ношир|| нашр. 2011. -26 б.

12. Jo'rayev B. Yuridik psixologiya. O'quv qo'llanma. —O'zbekiston|| nashr. 2022.

13. Мухаммаджанов О. Мухитдинова Ф. Ўзбекистонда ёшлар ҳуқуқи: қонун ва имтиёзлар. Т.||Маънавият||. 2019.-39-б.

14. Maxsudova M.A. Yuridik psixologiya. Ma'ruzalar matni. N.2007.- 62 b. Norboyev A.N., Usmonova A.A. Yuridik psixologiya. O'quv qo'llanma. T.2006.-67

15. Рухиева Х.А., Суд-психологик экспертиза. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2009. 384 бет

16. Sirliyev V.N., Sottiyev I.A. Dastlabki tergov faoliyati psixologiyasi. Darslik T.2015. -329 b

17. Саъдуллаев Т.Турсунов Й. Халқаро иқтисодий ҳуқуқ. Т.2020. ТДИУ. -68 б.

18. Султонов К. Амир Темурнинг сиёсий, ҳуқуқий ва маънавий-маърифий қарашларининг миллий ўзликни англашдаги аҳамияти. Т. —Маънавият|| нашр. 2019.-39 б.

19. Чутбоев М.Р. ва бошқалар. Бола савдоси жинояти билан боғлиқ муаммоларни бартараф этиш масалалари юзасидан методик тавсиялар. Т. —Юрист-медия маркази, 2019.-60 б.

20. Umarov B., Xolnazarova M. X. Yuridik psixologiya. Darslik. Guliston. GulDU.2022. -229 b.

21. Ўзбекистон Республикасида суд-ҳуқуқ ислохотларини такомиллаштириш муаммолари. Республика илмий-назарий конференция материаллари. —Фарғона|| нашр. 2008.-226 б

22. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. Т. —Университет||. 2002 йил.

23. Ҳамидова М.А. Оилада ҳуқуқий саводхонликни ошириш бўйича тавсиялар. Т. —Фан ва технология||нашр. 2015.-30 б

24. 1001 саволга психологнинг 1001 жавоби. Т. «Меҳнат» нашр. 2000.

25. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. —Turon-iqbol nashr. T. 2006 -118 b

26. Maxsudova M. O‘.Asqarova. Umumiy pedagogika va psixologiya. Darslik. ‖Usmon Nosir media‖. Namangan.2022.-407

Axborot manbalari

www.koob.ru.

www.Psycxology.ru.

www.flogiston.ru.

www.testotika.ru.

**Buriyeva Kibrio Ergashevna,
Meyliyeva Mutabar Sayfullayevna,
Mirkosimova Xulkar Mirobidovna,
Ernazarova Munisxon Juraqulovna**

YURIDIK PSIXOLOGIYA

DARSLIK

(60110100 - Pedagogika va psixologiya)

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 13.02.2025 y.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi. “Times New Roman”
garniturası. Hisob-nashr tabog‘i. 14,875.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 40.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.
+998 (94) 673-66-56, +998 (97) 017-01-01